

Z. N. TOJIYEVA

AHOLI GEOGRAFIYASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

TOJIYEVA ZULXUMOR NAZAROVNA

AHOLI GEOGRAFIYASI
Darslik

**Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2020**

UDK: 91(C52)

BBK: 26.8

T 69

Tojiyeva Zulkumor Nazarovna

**Aholi geografiyasi/darsliklari. – Toshkent.: «Innovatsiya-Ziyo», 2020,
298 bet.**

Mazkur "Aholi geografiyasi" darsligi mavzular bo'yicha nazariy bilimlar va seminar mashg'ulotlaridan ma'ruzalar kursini o'zida qamrab olgan. Darslikda aholi geografiyasining asosiy termin va tushunchalari, Yer shari aholisi joylashishining geografik qonuniyatları, aholi tabiiy, mexanik harakatining hududiy va davriy o'zgarishlari tavsisi qarab chiqilgan. Aholi geografiyasi darsligi aholi tabiiy harakati, tarkibi va joylashishining hududiy xilma-xilligini tasvirlovchi, ifodalovchi juda katta hajmdagi ma'lumotlar, faktik materiallar (jadval, grafik, diagrammalar, kartosxemalar) bilan boyitilgan. Har bir asosiy bo'limdagi mavzulardan keyin o'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollar berilgan.

Aholi geografiyasi darsligi O'zbekiston Respublikasidagi universitetlarning geografiya fakultetlari 5140600 – Geografiya yo'nalişidagi talabalari, 5A140602-Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha), 5A140601 Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mutaxassisligidagi magistrлari, ilmiy izlanuvchilar va aholishunos mutaxassislarga mo'ljallangan. Shuningdek, geografiya o'qituvchilar, geografiya bo'yicha imtihon topshiradigan abituraiyentlar uchun ham foydalı hisoblanadi.

Taqrizchilar:

Abdalova Z.T.

O'zbekiston Milliy universiteti, iqtisodiy va ijtimoiy geografiy kafedrasi dotsenti, g.f.n.

Safarova N.I.

Toshkent Davlat pedagogika universiteti, geografiya o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, g.f.n.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6790-9-2

**© Tojiyeva Z., 2020.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.**



SO'ZBOSHI

"Aholi geografiyasi" darsligida O'zbekiston Milliy universiteti Geografiya va tabiiy resurslar fakultetida ko'p yillardan beri Geograf mutaxassislar tayyorlashda o'qitilgan ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlarida to'plangan tajribalar muhim o'rinni egallaydi. Mazkur o'quv kursining nazariy talqini, metodik qo'llanmalari va axborot ma'lumotlari talabalar uchun keyingi kurslarda o'qitiladigan "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi", "Jahon mamlakatlari geografiyasi", "Jahon xo'jaligi geografiyasi" fanlarini o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Aholi geografiyasi dunyo va uning alohida hududlarida aholi soni va tarkibi, takror barpo bo'lishi qonuniyatları, migratsiyasi, joylashuvi, aholi maskanlari va ularning shakllanishi, turlari hamda urbanizatsiya jarayonlari haqida bilim beradi. Ma'lumki, har qanday davlat, yoki hududning aholi soni va tarkibi doimo o'zgarishda bo'ladi. Aholi takror barpo bo'lishi tartibida doimo yangidan-yangi an'analar shakllanadi. Shu boisdan. "Aholi geografiyasi" tadqiqotlarida asosiy e'tibor aholining takror barpo bo'lish jarayoni, mehnat resurslari va ulardan foydalanish, aholi zichligi va joylashuvi, aholi migratsiyasining intensivligi, yo'nalishi, tarkibi, aholining turmush tarzi, madaniyati mehnat malakalaridagi hududiy farqlarini va xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Shuningdek, ushbu o'quv kursida aholining jins-yosh va oilaviy, etnik, irqiy, diniy tarkibi, mehnat resurslari va aholi bandligi, shaharlar va shahar aholisi, qishloqlar va qishloq aholisi geografiyasining zamonaviy holati, hududiy jihatlarini batafsil yoritishga harakat qilingan. Yer shari aholisi tabiiy harakatining omillari, rivojlanish evolyutsiyasi, irqiy, diniy va etnik tarkibi, migratsiya oqimlari tizimi tahlil nuqtai nazaridan baholangan.

Havola etilayotgan "Aholi geografiyasi" darsligi universitetlarning geografiya fakulteti, iqtisodiyot fakulteti va ijtimoiy fanlar fakultetlarida ta'lim olayotgan talabalarga, magistrularga, aholi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, mustaqil tadqiqotchilar va shu sohaga qiziquvchi ko'p sonli kitobxonlarga mo'ljallangan.

I-MAVZU. AHOLO GEOGRAFIYASIGA KIRISH

Reja:

- 1.1. Aholi geografiyasining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
- 1.2. Aholi geografiyasining shakllanish bosqichlari.
- 1.3. Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
- 1.4. Aholi geografiyasining asosiy bo'limlari va tadqiqot metodlari.

1.1 Aholi geografiyasining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Geografik ta'lif tizimida aholi haqidagi bilimlar muhim o'rinni egallaydi. Yer kurrasi, uning alohida hududlarini, davlatlarni, geografik tahlil etish uch qismdan iborat bo'lib, ular o'rganilayotgan hududning tabiatini, aholisi va xo'jaligini tashkil etadi. Aholi deganda ma'lum hududda yashovchi kishilar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurrasida insoniyat paydo bo'lganidan, to hozirga qadar bir qancha davrlar o'tdi. Ana shu davrlarda inson, jamiyat o'z mavjudligini saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabiiy resurslardan foydalaniib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo'jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand yer kurrasida aholi va aholi maskanlarining soni ham ko'payib bordi. Demak, jamiyatning rivojlanishida uch asosiy omil – aholi, tabiiy resurslar va xo'jalik o'zaro bog'liq holda alohida ahamiyat kasb etadi va geografiya fanining asosiy obyekti hisoblanadi. Geografiya fani esa o'z o'rganish predmeti, maqsadi va mohiyatiga qarab bir nechta qismrlarga bo'linadi.

Ularga shartli ravishda tabiiy (tabiiy geografiya, umumiylar bilimi, landshaftshunoslik, paleogeografiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik), sotsial (umumiylar sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi va mehnat resurslari geografiyasi, siyosiy geografiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, xizmat ko'rsatish, madaniyat va boshqalar geografiyasi), tabiiy-sotsial (ijtimoiy-ekologiya, geoekologiya, tarixiy, tibbiy, rekratsion

geografiya, okeanlar geografiyasi, resurshunoslik va tabiatdan foydalanish) va geografiyaga bilvosita daxldor fanlar (kartografiya, geografiya tarixi, toponimika, metageografiya)¹ qismalarini kiritish mumkin.

Aholi geografiyasi geografiya fanlari tasnidagi sotsial qismga kiruvchi, o'zining obyekti va predmetiga ega bo'lgan alohida fandir. Shu nuqtai nazaridan aholi geografiyasi fanining obyekti to'g'risida quyidagilarni keltirish mumkin. Masalan, E. L. Shuvalov aholi geografiyasining o'rganish obyekti sifatida aholi va aholi soni, dinamikasi, tarkibi va takror barpo bo'lishidagi geografik farqiar; aholining hududiy taqsimlanishi va joylashuvi; madaniyati, turmush tarzidagi hududiy jihatlari; aholi migratsiyasining tarkibi va yo'nalishlari; mehnat resurslari va ulardan foydalanishning geografik farqlari; aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimini o'rganish tashkil etadi², deb hisoblaydi.

V. A. Kopilov fikricha, aholi geografiyasining obyekti aholi va aholi manzilgohlari tizimidir, predmeti esa aholi va aholi manzilgohlari tizimining dinamikasi, tarkibi, joylanishining makon va zamondagi hududiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat deb belgilaydi³. Demak aholi geografiyasi tadqiqotlari uning o'rganish obyektiga monand ikki qismga bo'linadi. 乌arning birinchisi dunyo va uning kontinentlari – davlatlar va ularning ma'muriy hududiy birlıklari bo'yicha aholini o'rganish; ikkinchisi esa aholi manzilgohlari va ularning joylashuv tizimining hududiy farqlarini tahlil etish.

A. A. Anoxin, D. V. Jetin "Aholi geografiyasi aholi va aholi manzilgohlari tizimining hududiy guruhlari, ularning turli ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy sharoitda shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini"⁴ o'rganadigan fan deb ta'riflaydi. Aholi geografiyasi bir vaqtning o'zida geografiya fanlari tizimida ijtimoiy geografiyaning bir qismiga va bir butun aholi haqida bilimlar tizimiga kiradi. Aholi geografiyasi aholi va aholi manzilgohlarni o'rganar ekan quyidagi yo'nalishlar asosida tadqiqotlar olib boradi:

¹ Жекулин В.С. Введение в Географию. - Санкт-Петербург, 1989, с. 19-33.

² Шуваев Е.Л. География населения. - Ленинград 1927, с. 8 - 9;

³ Коновалов В.А. География населения. - М., 1999, с. 7;

⁴ Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами ландшафтной. Учебное пособие. - СПб, Изд-во СПбГУ, 2013, - С.5-6.

1. Aholi soni dinamikasi, ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy va hududiy tarkibi, takror barpo bo'lishidagi farqlar va ularning sabablarini o'rganish;

2. Aholi hududiy tarkibidagi mehnat resurslari va bu resurslardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish. Aholiga bu yo'nalishda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraladi va geografiyaning xo'jalik bilan va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasiga tayanadi;

3. Aholining hududiy taqsimlanishi va migratsiyasini o'rganish. Aholi zichligi va undagi farqlarni tahlil qilish, aholining ko'chib kelib joylashishi, mamlakatlar miqyosida aholi joylashishidagi o'zgarishlar, migratsiya tufayli alohida hududlardagi aholi tarkibi va sonidagi o'zgarishlarni o'rganish shular sirasiga kiradi;

4. Aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimini o'rganish. Bu yo'nalish shahar va qishloq aholi manzilgohlari, ularning rivojlanish va joylanish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Aholi manzilgohlari joylashishini geografik o'rganishda aholi geografiyasini va xo'jalik geografiyasini o'rtaсидаги aloqa juda mustahkam bo'lishi kerak;

5. Aholining madaniyati va turmush sharoitidagi geografik farqlar va bu farqlar sabablarini o'rganish. Mazkur bo'limda aholi geografiyasini birinchidan, sotsiologiya va etnografiya, ikkinchidan, aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasini, ayniqsa, tibbiyat bilan yaqin hamkorlik qiladi. Xalqlar geografiyasini ularning madaniyati va turmush sharoitining milliy xususiyatlari bilan birlgilikda berilsa maqsadga muvofiqdir;

6. Aholi geografiyasining tarixini o'rganish. Ushbu bo'lim tarixiy geografiyaning bir qismi hisoblangan o'tgan tarixiy davrlarni olib o'rganadi.

V. V. Pokshishevskiy aholi geografiyasini fanining o'rganish predmetini quyidagicha shaklda talqin etadi: "Aholi geografiyasini iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog'i bo'lib, aholi va aholi manzilgohlari joylashishi hamda tarkibini o'rganadi". Umuman olganda bugungi kunda aholi geografiyasini fanining o'rganish predmeti aholi va aholi manzilgohlari joylashishi, tarkibi va dinamik o'zgarishlarining makon va zamondagi hududiy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Bundan kelib chiqqan holda, aholi geografiyasini

ikkita asosiy bir-biri bilan chambarchas bog'liq yo'naliishlarga ajraladi:

1. Aholini tadqiq etish;

2. Aholi manzilgohlari, uning to'ri va tizimlarini tadqiq etish (shahar, qishloq). Har ikkalasida ham aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning tarkibiy qismi sifatida tadqiqot olib boradi. Ma'lumki, iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashishi va rivojlanishi qonuniyatlarni o'rganishdir.

Aholi esa har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste'moli bilan birga aholining o'ziga ham takror barpo etiladi, ya'ni kishilar avlodlari tarbiyalanadi, voyaga yetkaziladi. Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o'r ganayotganda uchta narsaga e'tibor berilishi lozim:

1. Aholi moddiy boylik ishlab chiqaruvchi kuch, barcha moddiy ne'matlarning yaratuvchisi;

2. Aholi ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotlarning ma'lum qisminining iste'molchisi;

3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo bo'lishi zarur.

Har qanday iqtisodiy geografik muammolarni har qilishda aholiga xos bo'lган ushbu xususiyatlarni o'rganish zarur. Iqtisodiy geografiyaning bir tarmog'i hisoblangan aholi geografiyasi uning boshqa sanoat geografiyasi, transport geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi tarmoqlari orasida alohida o'r in egallaydi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya o'z ichiga aholi geografiyasini kiritar ekan, endi u xo'jalik geografiyasidan "jamiyat geografiyasiga" yoki "sotsial-iqtisodiy geografiyaga" aylandi. Aholi geografiyasingning muhim tushunchalaridan biri bu aholining hududiy tarkibi, aholi va uning funksional guruhlarga bo'linishidir. Aholi hammamizga ma'lum bo'lган quyidagi uchta funksional guruhga ajratiladi:

- moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlovchilar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport);

- xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lганlar (savdo, maorif, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, shahar transporti va hokazo);

- ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar (bolalar, uy bekalari, qariyalar...). Bulardan tashqari aholining migratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha qonuniyatlar;

- yuqorida keltirilgan aholi geografiyasining tadqiqot yo'naliishlari aholi geografiyasini predmetini aniq shakllantirishga asos bo'ldi.

Aholi geografiyasining predmeti qator geograf olimlar tomonidan belgilangan. Aholi geografiyası – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidan regional tafovutlarni vujudga keltirgan omillarni, aholi va aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, aholi geografiyası aholining dunyo bo'yab va uning alohida mintaqalari, ayrim davlatlari hamda rayonlar bo'yicha almashuvini ham o'rganadi.

Hozirgi davrga kelib, qator geograflar aholi geografiyasini iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning shoxchasi, tarmog'i, deb hisoblamoqdalar. Uning predmeti sifatida aholi tarkibi va takror barpo bo'lishidagi geografik farqlar, aholining hududiy tarqalishi va joylashuvi; aholi madaniyatining turli tizimdagи geografik farqlari, mehnat resurslarining hududiy guruhlari va ulardan foydalanishdagi geografik farqlar; aholi maskanlari va ularning hududiy tizimi² kabilalar ko'rsatilgan.

Hududiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi, aholi manzilgohlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, sotsial blok tarkibiga kiritilgan holda, iqtisodiy blok elementlari bilan birlgilikda umumiy tizimni tashkil etadi. Demak, aholi geografiyasini ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog'i sifatida qarash o'tinlidir. Har qanday hududiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi muhim rol o'ynaydi. Sababi biron bir hududdagi ishlab chiqarish insonsiz rivojlanmaydi yoki yaratilgan mahsulot uning iste'molisiz o'z yakunini topmaydi.

Aholi geografiyası alohida fan sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qator vazifalarini bajaradi:

– nazariy vazifalari: aholi geografiyasining nazariy masalalarini takomillashtirib borish (aholi takror barpo bo'lishi jarayonlari va qonuniyatlarini o'rganish, tabiat bilan uzviy bog'liqligini tadqiq etish, aholi joylashuvi va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganish);

² Е. Л. Шупалов. География населения. — Ленинград, 1977, с. 8 — 9.

- amaliy vazifalari: dunyo va uning hududlari, chet davlatlar, mamlakatimiz aholisi soni, tarkibi, takror barpo bo'lishi, hududiy joylashuvi, migratsiyasi, shahar va qishloqlarning rivojlanishi, ular bilan bog'liq muammolar bilan mutaxassislar, davlat tashkilotlari va kitobxonlarni tanishtirish;

- aholini hisobga olish, mehnat balanslarini tuzish; aholi prognozini tuzish, migratsiya jarayonlarini tadqiq etish;

- aholiga xizmat ko'rsatish, bolalar muassasalari joylashuvi va qurilishi bo'yicha ilmiy asosda tavsiyalar tayyorlash va h.k.

Aholi geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri uni o'rghanishda, mutaxassislar tayyorlashda jahon miqyosidagi dasturlarga amal qilish, ilmiy, tarixiy, mantiqiy yondashishdir. Shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan qishloq va shaharlarda xalq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri, ilmiy joylashtirish;

aholiga moddiy va maishiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish; respublika demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda mehnat resurslaridan mumkin qadar to'g'ri va oqilona foydalanish;

yangi avlod uchun kerakli ishlab chiqarish muassasalarini to'g'ri joylashtirish (bunda respublikaning har bir hududi geografik va demografik xususiyatlarini nazarda tutmoq lozim) ham aholi geografiyasining muhim vazifalariga kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki. XXI asr boshida respublikaning mustaqil iqtisodiy taraqqiyoti davrida aholi migratsiyasida, mehnat resurslari tarkibi, shakllanishi va joylashuvida, oila tarkibida, keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu jarayonlarni ularning sabablari, muammolari, kutilayotgan oqibatlarini hududlar bo'yicha mukammal o'rghanish, aholi ro'yxatini o'tkazish ham aholi geografiyasining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda aholi geografiyasi quyidagi aniq vazifalarni bajarishi lozim:

1. XX asming oxirgi choragi va XXI asr boshlariga kelib yer kurrasining qator hududlarida ekologik nomutanosiblik muammosi kuchayib bordi. Bu muammoning kelib chiqishi bir tomonidan ilmiy-teknik rivojlanishning avj olishi, tabiiy resurslardan ayovsiz foydalilanishi natijasida suv, havo va tuproq tarkibining buzilishi bo'lsa. ikkinchi tomonidan, 1960-1970-yillarda kuzatilgan "demografik inqilob" tufayli dunyo aholisi sonining keskin ko'payib borishi bilan bog'liqidir. Bugungi kunga kelib, ekologik

nomutanosiblik jarayoni geografiyasi kengayib, jahondagi juda ko'p davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi salomatligi, tabiiy resurslardan foydalanish borasida muammolar tug'dirmoqda. Ushbu muammolarni ijobiyligi hal etish, Respublikaning har bir viloyati, tumanlarida, ayniqsa, ekologik vaziyatining hozirgi holati, kelajakda sodir bo'lishi kutilayotgan oqibatlarni o'rganish, chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha mukammal ilmiy tadqiqotlar o'tkazib borishini taqozo etadi. Bunday tadqiqotlarni o'tkazish barcha aholi o'rganuvchi sanlar qatori aholi geografiyasining ham dolzarb vazifasidir.

2. Sobiq SSSRning parchalanishi va bozor iqtisodiyotining shakllanishi Respublikada moddiy boyliklar ishlab chiqarish strukturasining ma'lum darajada o'zgarishiga, bu esa o'z navbatida, mehnat resurslari bandligiga ta'sir etdi. Ularning bandlik darajasi, sohalarida e'tiborli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bular aholi geografiyasi oldida mehnat resurslarining moddiy ishlab chiqarishda bandligini o'rganish bilan bir qatorda ularning aholiga xizmat sohasida bandligini, shuningdek, o'lkada rekreatsiya, savdo, yarmarka, bozor, din, ma'lumotlilik, mutaxassislar tayyorlash geografiyasini o'rganishdek muhim vazifalar qo'yadi.

3. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda aholi migratsiyasi jadallashdi. Qishloqdan shaharga tomon migratsion oqim kuchaydi. Ayniqsa, mehnat yoshidagi aholi, yoshlar Rossiya, Koreya, Turkiya, AQSH, Angliya kabi davlatlarga ishlab kelish, o'qish uchun ketmoqdalar. Shuningdek, aholini Respublikaning shahar joylariga, asosan, Toshkent shahriga kelib ishlash (savdo-sotiq, qurilish, maishiy xizmat sohalarida) holatlari keng tus olmoqda. Shunisi e'tiborlikni, bugungi kunda ham tashqi, ham ichki migratsiyada ayollar ishtiroki kuchaymoqda.

Toshkent shahriga yaqin bo'lgan Toshkent viloyatiga qarashli (Qibray, G'azalkent, O'rta Saroy tumanlarida) tumanlarga Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridan guruh, qavmlarning oilasi bilan ko'chib kelib, alohida qishloq bo'lib yashayotgan hollar ham uchramoqda. Yuqorida qayd etilgan jarayonlar aholi ko'chib ketgan va ko'chib kelgan hududlarda aholi va mehnat resurslari, oila-qishloq tarkibiga, aholi takror barpo bo'lish jarayonlariga, aholi manzilohlari shakllanishiga, transport hamda aholiga xizmat ko'rsatish, umuman, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tizimiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, muammolar tug'diradi. Aholi migratsiyasini juda kichik

tuman doirasida ilmiy, amaliy tahlil etish, o'rganish omillari, muammolarini aniqlash ham aholi geografiyasining hozirgi davrdagi muhim vazifalaridandir. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda aholi geografiysi iqtisodiy, tabiiy geografiya, demografiya, iqtisod, etnogeografiya, tibbiyat, sotsiologiya kabi aholishunoslik fanlari natijalaridan, uslublaridan foydalangan holda, ular bilan uzviy bog'liqlikda tadqiqot olib borishi lozim.

1.2. Aholi geografiyasining shakllanish bosqichlari

Aholini o'rganish, u haqida bilimlar to'plash juda qadimiylar tarixga egadir. Antik davrga oid qo'lyozmalarda dunyodagi turli davlatlar tabiatini, aholisi, xo'jaligi, shaharlari, aholining turmush tarzi, urf-odatlari haqida sayohatchilar, savdogarlar, elchilar hikoyalari asosida to'plangan ma'lumotlar uchraydi. Bunday qimmatli tarixiy asarlarga I asrda Strabon tomonidan (17 kitob) yaratilgan "Geografiya", II asrdagi Ptolomeyning "Geografiya"si misol bo'la oladi. Yer kurrasida aholining soni va ularning yashash maskanlari ko'payib borishi bilan aholi haqidagi bilimlar, ularni o'rganuvchi fanlar geografiysi ham kengayib bordi. Fanlarning dastlabki tasnifi eramizdan oldingi 384-322-yillarda Aristotel tomonidan yaratilgan bo'lib, unda mantiq, fizika, biologiya, falsafa, etika, sotsiologiya, siyosat, tarix kabi fanlar o'rinni olgan edi. Undan keyingi davrlarda fanlar differensiyasi kuchayib, uning tasnifi yana ham mukammallashdi, bir qancha fan majmuasi shakllandi. Akademik B. M. Kedrov tasnifiga ko'ra, fanlar falsafa fanlari, matematika fanlari, tibbiy va texnik fanlar hamda ijtimoiy fanlar majmuasiga ajratildi¹. Mazkur fanlar tasnifida aholini o'rganish, asosan, ijtimoiy fanlar majmuasidan o'rinni olgan.

Aholi geografiysi ijtimoiy fanlar majmuasiga kiruvchi iqtisodiy geografiya bag'rida shakllandi. XVII asrlarda geograflar aholini o'lkashunoslik doirasida o'rgangandilar. Keyinchalik aholi geografiysi tadqiqotlari takomillashib, rivojlanib borgach u (sotsial) ijtimoiy geografiya predmetiga aylandi. Aholi geografiyasining alohida fan sifatida shakllanishi XIX asming oxirlaridan boshlanadi. Ushbu davrda geografiya tarkibidan "Antropogeografiya" maktabi

¹ Жекулин В.С. Введение в географию. - Ленинград. 1989, с. 32.

ajralib chiqdi. Uning asoschisi nemis geografi F. Ratsel edi. U o'zining "Antropogeografiya" asarida antropogeograflarning asosiy vazifasi "shaxs va xalqning ruhi hamda jismiga tabiat ta'sirini o'rganishdir", deb belgilaydi. Ular nafaqat insoniyat, hatto davlatlarning rivojlanishi ham tabiat qonunlari asosida sodir bo'ladi degan g'oyani ilgari suradilar.

Aholi geografiyasining shakllanishida fransuz geografi Vidal De La Blash tomonidan yaratilgan "inson geografiyasi" maktabi ham ahamiyatlidir². Mazkur maktab vakillari antropogeograflardan farqli o'laroq aholi va tabiatning o'zaro munosabatlarini, hodisalarini o'rganishda tabiiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy, tarixiy va psixologik omillarni ham o'rganish lozimligini ta'kidlaydilar. Ana shu maktab asosida aholi geografiyasining shaharlar geografiyasi, qishloqlar geografiyasi, migratsiya geografiyasi kabi tarmoqlari shakllandi.

Aholi geografiyasi bugungi kunda o'z o'rganish predmetiga, vazifalariga ega alohida fan sifatida rivojlandi. Qator rivojlangan davlatlar oliv o'quv yurtlarida aholi geografiyasi turli yo'nalishlarda (demografiyaning geografik aspekti, shaharlar geografiyasi, migratsiya geografiyasi, aholi geografiyasi matematik modellar va hokazo) o'qitiladi.

Jahon geograflari, aholishunos mutaxassislari tomonidan ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llannmalar yaratilgan. Anglo-amerika mutaxassislari D. Forrester rahbarligida "География городов", "Динамика городского развития", B. D. Garker, D. Xarved, S. Gamilton, P. Xagget va boshqalar "Модель в географии", fransuz geograflari tomonidan "Очерки географии городов" shular jumlasidandir.

Aholini o'rganish uchun rus olimlari tomonidan ham XIX asrning oxirgi choragi va XX asrning boshlarida aholi geografiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazilgan. 1883-1885-yillarda P. P. Semyonov-Tyan-Shanskiy rahbarligida besh tomlik "Географико-статистический словарь" chop etilgan bo'lib, unda Rossiyada o'sha paytda mavjud bo'lgan barcha shaharlar va qishloq maskanlari ta'riflangan. XIX asrning oxirgi choragida L. I. Mechnikov tomonidan yozilgan "Цивилизация и великие исторические реки (1889 г.)"

² Шупалов Б.Я. География населения. -М., 1977, с. 3-5

kitobi ham aholi geografiyasi bo'yicha bajarilgan ahamiyatli ishlardan hisoblanadi. Unda muallif jamiyat rivojlanishini va madaniyatning taqsimlanishida suv yo'llarining muhim o'rin tutishini ifodalaydi. Kitobda insoniyat jamiyatining shakllanishida Nil, Tigr, Efrat, Hind va Ganga, Xuanxe va Yansze daryolari tabiatning kompleks ta'sirini tahlil etgan.

Iqlimshunos A. I. Voyeykov 1897-yilda Rossiyada o'tkazilgan aholi ro'yxati asosida Rossiyaning Yevropa qismi va G'arbiy Sibirda qishloqlar shakllanishini hududiy tahlil etan. XX asrning 40-yillaridan boshlab aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning mustaqil tarmog'i sifatida rivojlna boshladi. Bu borada R. M. Kabo va N. N. Baranskiylar tadqiqotlari alohida o'rinni egallaydi. N. N. Baranskiy geografik tadqiqotlarda ishlab chiqarishning assosini tashkil etgan ham ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste'molchi sifatida namoyon bo'lgan aholini o'rganish lozimligini qayd etgan.

Shaharlar va qishloqlar aholi maskanlarini o'rganish bo'yicha Y. G. Saushkin, O. A. Konstantinov, V. V. Pokishishevskiy, V. G. Davidovich, I. M. Mayergoyz, B. S. Xorev, S. A. Kovalev, N. I. Lyalinovlar qator tadqiqotlar olib bordilar. Aholi manzilgohlari, shaharlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar rus geograflari tomonidan ham yaratilgan. Ammo, aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyadan mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi 1940-yillarga to'g'ri keladi. Bunda R. M. Kabo va N. N. Baranskiylarning xizmatini alohida ko'rsatish joizdir.

Aholi geografiyasi rivojlanishining dastlabki yillarda shahar va shahar aholisi manzilgohlariga e'tibor kuchaytirildi.

O. A. Konstantinov, V. V. Pokishevskiy, Y. G. Saushkin, keyinroq V. G. Davidovich va boshqalar shaharlarni o'rganishga muhim hissa qo'shganlar. Har tomonlama qishloq aholisi joylashishiga ta'rifni N. I. Lyalikov tomonidan 40-yillar oxirida birinchi marta berildi. Keyinchalik, bu yo'naliishga S. A. Kovalev o'zining juda katta mehnatlari bilan kirib keldi. Uning qishloq aholi manzilgohlarini tipologiyalashtirish, qishloq aholisi joylashuvida o'ziga xos metodikalari, qishloq aholi manzilgohlari tizimidagi qator yo'naliishlari shular jumlasidandir. Aholi migratsiyasini o'rganish V. V. Pokshi-shiyevskiy tomonidan boshlangan bo'lib, hozirgacha aholi geografiyasida muhim bir yo'naliish, bo'lim sifatida alohida mavqeni egallab kelmoqda.

O'zbekiston hududida ham aholi va aholi manzilgohlari haqida ma'lumotlar qadimiy qo'lyozma manbalarda mavjuddir. Aholi geografiyasining yo'naliishiga oid tadqiqotlar O'zbekistonda XX asming ikkinchi yarmidan boshlab takomillashib bordi.

N. Ginzburg, G. Kovalev, O. Ata-Mirzayev, A. Soliyev, X. Salimov, A. Qayumov, Z. Rayimjonov, I. Safarov, M. Bo'riyeva, Z. Tojiyeva kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Qayd etilgan tadqiqotlarda Respublikada shaharlar geografiyasini va shakllanishi omillari, urbanizatsiya jarayoni, qishloq joylarida aholi manzilgohlarini shakllanish xususiyatlari, joylashuvi, mehnat resurslari geografiyasini bilan bog'liq muammolar o'r ganilgan.

Aholi geografiyasining muhim predmeti bo'lган aholining takror barpo bo'lishi, uning demografik omillari va hududiy jihatlarini o'r ganish, aholi migratsiyasi bo'yicha R. Ubaydullayeva, M. Qoraxonov, I. Mullajonov, M. Bo'riyeva, L. Maksakova, Z. Tojiyeva va boshqa aholishunos olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari ham qimmatlidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholi geografiyasini tadqiqot yo'naliishlari bo'yicha tumanlar, viloyatlar doirasida mukammal tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida geografiya va boshqa aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi yo'naliishlarda mutaxassislar tayyorlashda aholi geografiyasini va demografiyanı bo'limlariga oid kurslar o'tkazilmoqda. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga egadir. Mazkur fanning tarixi aholi haqidagi ma'lumotlar, ya'ni demografik bilimlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdirdir.

O'zbekistonda aholishunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar rivojlanishi o'z tarixiga egadir. Respublikada fan, madaniyat va davlatchilik rivojlanishi juda qadimiy tarixga ega. Yuqorida demografik bilimlar to'plash, asosan, davlatchilik bilan bog'liq ekanligi haqida fikr yuritildi. Demak, O'zbekistonda ham demografik bilimlar juda qadimdan mayjud bo'lgan. Bular haqida qadimiy qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar, qator ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin o'lkada maqsadli demografik tadqiqotlar o'tkazish, asosan, 1960-yillardan boshlanadi. Ana shu davrdan to bozirgi kunga qadar Respublikada juda katta ahamiyatga ega bo'lgan demografik tadqiqotlar olib borilgan hamda shu sohada yirik mutaxassislar tayyorlangan.

Demografiya sohasida erishilgan yutuqlar ustoz olim M. K. Qora-xonov nomi bilan bog'liqdir. Olim nafaqat O'zbekistonda, balki Markazaiy Osiyoda yirik demografik tadqiqotlar olib bordi, ushbu hududning XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tikladi. Aholi o'sishi, tug'ilishi, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlar xususiyatlarini o'rgandi. Ular bilan bog'liq omillar, muammolarini aniqlab berdi. O'rta Osiyo tarkibiga kiruvchi respublikalarda aholi o'sishi prognozini yaratishda ilmiy rahbarlik qildi. M. Q. Qoraxonov o'lkamiz aholisining miqdoriy rivojlanishi bilan bir qatorda uning sifatiy rivojlanishi sohasida ham yirik tadqiqot ishlarini olib bordi.

Ustoz rahbarligida O'zbekistonda aholining ma'lumotlilik bosqichlari bo'yicha prognozi ham ishlab chiqilgan. Olimning olib borgan tadqiqotlari asosida monografiya, risolalar va 200 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan. Ustoz o'z ilmiy faoliyatini 1960-yillardan boshlab, hayotining oxirgi damlarigacha O'zbekiston Milliy universitetining geografiya fakultetida olib bordi. Dastlab, respublikada o'lka demografiyasini o'rganuvchi ilmiy guruh tuzdi.

1972-yilda ana shu guruh O'rta Osiyo Respublikalari demografik holati va muammolarini o'rganuvchi yirik "Aholishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriysi"ga aylandi. Ushbu laboratoriyyada O'rta Osiyo demografiyasini o'rganishga doir chuqur tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borildi. Shuning bilan birga, M. Q. Qoraxonov rahnamalogida aholi muammolarini o'rganuvchi yirik ilmiy maktab yaratildi. Ustoz matabida shakllangan muttaxassislar bugungi kunda uning ishini davom etirib, jamiyat taraqqiyotiga molik tadqiqotlar olib bormoqdalar.

O'lkamiz demografik tarixini va aholi muammolarini o'rganishda R. I. Mullajonov., R. A. Ubaydullayeva., E. Ahmedov., O. B. Ota-mrzayev., L. P. Maksakova., A. S. Soliyev., N. S. Aliqoriyev., X. Salimov., M. R. Bo'riyeva., A. A. Qayumov., O. E. Ergashov., I. Sa-farov., O. Saydaxmedov., Z. X. Rayimjonov., R. J. Ortiqboyev, Z. N. Tojiyeva kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar ham ustoz M. Q. Qoraxonov boshlagan ilmiy izlanishlarning davomchisi sifatida e'tirof etish mumkin.

M. Q. Qoraxonov Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) qoshida O'rta Osiyoda yagona bo'lgan "Aholishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriysi"ni tashkil

etganlar va uni 1962-1978-yillarga qadar boshqarganlar. Respublikada 1978-yilgacha bo'lgan vaqt oraliq'ida ilk sotsiologik-demografik tadqiqotlar aynan shu laboratoriyada boshlangan. M. Q. Qoraxonov shogirdlaridan M. R. Bo'riyeva tomonidan yozilgan "Demografiya asoslari", "Ijtimoiy demografik guruqlar", "Oila va demografiya asoslari", "Oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul", M. R. Bo'riyeva va Z. N. Tojiyeva hammuallifligida "Aholi geografiyasi", M. R. Bo'riyeva, D. N. Egamovalar tomonidan "Dunyo aholisi: rivojlanish jarayonlari", Z. N. Tojiyevaning "Iqtisodiy va demografik statistika" kitobi, M. R. Bo'riyeva, Z. N. Tojiyeva. S. S. Zokirovlar hammuallifligida "Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan" o'quv qo'llanmalari, M. R. Bo'riyeva tomonidan yozilgan "O'zbekistonda oila demografiyasi" monografiyasi, A. S. Soliyev, M. R. Bo'riyeva, Z. N. Tojiyeva va boshqalar hammuallifligida tayyorlangan "Qishloq joylar demografiyasi", Z. N. Tojiyevaning "O'zbekiston aholisi" ilmiy monografiyasi O'zbekistonda aholi geografiyasi fanining rivojlanishida muhim hissa bo'lib qo'shildi.

1.3. Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Aholi geografiyasining muhim o'r ganish predmetlaridan biri aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibidir. Ma'lumki, aholining yosh tarkibi aholi takror barpo bo'lish xususiyatlariga bog'liqidir. Aholining takror barpo bo'lishi esa tug'ilish, o'lim, nikoh-ajrim kabi demografik jarayonlar asosida sodir bo'ladi. Shuningdek, aholining oilaviy tarkibi ham oilaning jamiyatda tutgan o'mi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, demografik rivojlanish xususiyatlariga, urf-odat va qadriyatlarga bog'liqidir. Aholi geografiyasi hududining demografik va oilaviy tarkibini aholi takror barpo bo'lishi va migratsiyasiga bo'lgan talab va ehtiyojlarni o'r ganishda falsaфа, psixologiva, etnodemografiya, mehnat va oilaviy hуquq, demografiya, sotsiologiva kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Aholi geografiyasi o'z tadqiqot obeykti va predmetlari doirasida ish olib borar ekan, asosan, statistik ma'lumotlar, sotsiologik-demografik tadqiqot natijalari demografik koeffitsientlari va ilmiy manbalariga asoslanadi. Bu borada statistika va matematika fanlari bilimlariga tayanadi.


Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o’zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatları, shuningdek, irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o’rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati, turmush sharoiti va madaniyati hududiy xususiyatlarini o’rganadi.

Aholi geografiyasi mehnat resurslari, ularning joylashish xususiyatlarini o’rganishda esa iqtisod fani bilan bog’lanadi. Aholi zichligining oshib borishi, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining kengayishi, topografiya fanlari bilan aloqada bo’lishini talab etadi. Ayniqsa, aholi manzilgohlarini rekonstruksiyalash, qurilish masalalarida, rayon planirovkasi, shaharsozlik ishlariда topografiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Chunki turli obyektlar, relief ko’rinishlari maxsus belgilar va gorizontlar yordamida topografik kartaga tushiriladi. Har bir geografik hududdagi predmetlar topografik kartalarda aniq ko’rsatib berilgan va bu kartalardan yuqorida aytilgandek xalq xo’jaligining turli sohalarida foydalilanildi. Aholi va aholi manzilgohlari joylashishi hamda rivojlanishida topografiya fanining roli davr o’tgan sari oshib boradi.

Iqlimshunoslik (klimatologiya) fani bilan aholi geografiyasining aloqasi to’g’ridan to’g’ri emas balki, bilvosita desak xato bo’lmaydi. Masalan, aholi geografiyasi fani tibbiyot geografiyasi bilan bevosita aloqada bo’ladi. Sababi tibbiyot geografiyasi iqlimshunoslik bilan hamkorlikda rivojlanadi. Chunonchi, insonga tabiat, iqlimning ta’siri bu fan obyekti uchun o’ta muhim. Qolaversa, aholi geografiyasida tabiiy geografiyaning o’rni alohida hisoblanadi. Iqlimshunoslik fani tabiiy geografiya bilan birgalikda aholi rivojlanishi va joylashishi, iqlimi omillar: shamol yo’nalishi, havo harorati, quyosh radiatsiyasi va hokazolarni hisobga oladi.

Gerontologiva – tirik organizmlar, jumladan, odamning qarish jarayonini o’rganadigan fan bo’lib¹, demografik tadqiqotlar orqali aholi geografiyasiga bog’lanadi. Ma’lumki, aholi soni, zichligi, shaharlar konsentratsiyasining oshib borishi, sanoat, ayniqsa, tog’-kon sanoatlarining, suv transportining rivojlanishi kabi jarayonlar atrof-muhitga ta’sir etib, ekologik muvozanatning buzilishiga va qator ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo’lmoqda. Mazkur

¹ Узбекистон киёллий энциклопедияси. 2- жилд. Ўшакент – 2001, 665 с.



muammolarning hududiy jihatlarini ilmiy tadqiq etishda aholi geografiyası – ekologiya fani natijalariga murojaat etadi.

Aholi maskanlari shakllanishini muntazam kuzatib borish, tahlil etish juda murakkab jarayon. Lekin tadqiqot natijalari o'rganilayotgan hududdagi aholi maskanlari turlarini (tipologiya), ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda juda zarurdir. Aholi geografiyasida aholi maskanlari majmuasi mazkur hududning o'zaro mustahkam bog'liqlikda shakllangan maskanlar tizimi sisatida tadqiq etiladi. Bunday tizimning yaqqol ko'rinishiga shaharlar aglomeratsiyasi misol bo'la oladi. Aholi geografiyası tadqiqotlarida aholi maskanlarining shakl i, faoliyati va tizimi o'zaro bog'liq holda tahlil etiladi. Aholi joylashuvi esa ma'lum bir hudud uchun umumiy hamda alohida uning shahar va qishloq hududlari uchun o'rganiladi. Bunday tadqiqotlar ilmiy manbalarda "geourbanistika" va "georuralistika" deb nomланади.

Aholi geografiyası tadqiqotlarida uning kartografiya bilan aloqasi alohida o'rın tutadi. Kartografiya fani doirasida aholishunoslik masalalarini tadqiq etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli rejalarini tuzishda, hozirgi mavjud vogelikni ifodaluvchi demografik jarayonlarni tasvirli, xilma-xil ko'rinishda hududiy rivojlanishini ko'rsatib berishda ahamiyati yuqoridir. Qolaversa, kartografiya fani usullarini qo'llash aholi geografiyası fanining mazmun-mohiyatini yanada boyitadi. Demografik jarayonlar rivoji turli mamlakat va rayonlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Chunonchi, aholining tarqalishi va uning natijasi bo'lmish aholi manzilgohlari joylashishi ham bir tekisda emas. Bunday geodemografik xususiyatlardagi o'ziga xosliklarni hududiy yo'nalishda baholashda kartografiyaning roli juda yuqoridir.

Kartografiya aholi rivojlanishi va tarkibi, joylashishidagi farqlarini hududiy nuqtayi nazardan yaqqol, ko'rinarli taizda ko'rsatib beradi. Ayniqsa, kartografik usul aholini bir vaqtda ham hududiy ham davriy jihatdan tadqiq qilishga imkon beradi. Oqibatda, turli hududiy tahlil usullaridan foydalanish orqali, u yoki bu rayon, mintaqaning rivojlanish xususiyatlarini geografik taqqoslash uchun sharoit yaratiladi.

Aholi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar mavzuli kartalar orqali beriladi. Aholi joylashishi, mehnat resurslari va ularning boshqa makon bo'yicha tavsifi mavzuli kartalarda tavsirlanishi orqali xalq xo'jaligining kelajak va joriy rejalarini ishlab chiqish hamda qayta

ishlashda ilniy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda demografik tadqiqotlarda kartografik usulidan foydalanish natijasida umumilmiy, mayda masshtabli kartalar tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa demografik kartalar yaratish usullarini tobora takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining shart-sharoitini yaratishda, davlat xo'jalik tashkilotlari rejalarini tuzishda aholini hududiy o'rghanish, ya'ni aholi geografiyasini o'rghanish zarurligini ko'rsatib berdi. Shuningdek, xo'jalikning kelajakdag'i rejalarini ilmiy asosda tuzishda tabiat, ishlab chiqarish kuchlari hududiy xususiyatlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar talab etiladi. Bunday ma'lumotlar majmuali kartalar va mavzuli kartalarda aniq ifodalilanadi.

Aholi kartalarida o'r ganilayotgan muhim masalalardan biri, aholi zichligi va joylashishidir. Agarda, ilgarilari aholining joylanishi kartada faqat ma'lum bir vaqt holatini ifodalagan bo'lsa, endilikda esa aholi joylashishi va zichligining davriy o'zgarishini makonda ko'rsatib bermoqda. Aholi mavzuli kartalari ichida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, aholi va mehnat resurslari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni mujassamlashtirgan, asosiy demografik xususiyatlarni, aholi harakati va tarkibini qamrab olgan ba'zi atlaslarni keltirib o'tish o'rindi.

Aholi geografiyasida hududning o'zlashtirilganlik darajasi aholi zichligi kartasidan foydalanish orqali o'r ganiladi. Bunda kartogramma usulidan foydalanish orqali o'rtacha zichlik ko'rsatkichi har bir hududda yaqqol ko'rsatib beriladi. Aholi tarqalishi zichlik ko'rsatkichini kartada tasvirlash hamma aholi qatlami uchun qilinadi. Bunda qishloq-shahar aholi manzilgohlari alohida ajratib beriladi. Aholining tarqalishi kartada yirik regionlar doirasida bo'lib ko'rsatilgan. Agar har bir mintaqa aholi kartasi tuzilib, tahlil etiladigan bo'lsa, yanada yaqqolroq va to'la ma'lumotlar aks eta boshlaydi. Chunki, davlatlarning aholi kartasida o'sha hudud geografik xususiyatlari ya'ni aholi bilan tabiiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit o'rtasidagi bog'liqlik hisobga olinadi.

Aholi geografiyasi fani yuzasidan qilinayotgan karta turlarini aholishunoslik fanlari tizimi belgilaydi. Aholi geografiyasi tuzilishidan kelib chiqib aholi kartasi bir bo'lim bo'lsa, demografik

xususiyatlari, sotsial-iqtisodiy kartalar (oila, bandlik) va etnografik xususiyatlari alohida-alohida bo'limlarni tashkil etadi. Shu nuqayi nazardan, yuqorida aholining joylashish kartasi birinchilaridan bo'lib tahlil etildi.

Aholi soni va tarkibi, aholi manzilgohlarning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida roli kattaligi bois, ular kartografiyada eng muhim ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, aholi manzilgohlari funksiyasi aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida bandligi bilan belgilanadi va kartada o'z aksini topadi.

1.4. Aholi geografiyasining asosiy bo'limlari va tadqiqot metodlari

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sayyoramiz aholisi milodning boshlarida 252 million kishini tashkil etgan, xolos. 1000 yilda dunyo aholisining soni 305 millionga, 1500 yilda – 440 millionga yetgan. XIX asrning oxirlarida dunyo aholisining soni 1 milliarddan oshib ketdi. Keyingi bir asr davomida, ya'ni XX asr va XXI asrning boshlarida dunyo aholisi juda tez sur'at bilan ko'payib bordi. 1900-1950-yillarda kurrai zamin aholisi har yili o'rtacha 0,90 foizdan ko'paygan bo'lsa, 1950-2000-yillarda bu ko'rsatkich 1,75 foizni tashkil etdi. Hozirgi davrda (2017-y.) dunyo aholisi 7,5 milliardni tashkil etmoqda. Aholi soni dinamikasidagi bunday o'zgarishlar qator iqtisodiy, ijtimoiy va demografik omillar bilan bog'liq, albatta. Ulardan asosiyлari aholi turmush tarzidagi, ijtimoiy ishlab chiqarishdagи ijobiy o'zgarishlar, o'lim hollarining kamayishi va aholining o'rtacha umr ko'rish muddatining oshib borishidir.

Qayd etilganidek, dunyoning alohida hududlarida aholining ko'payib borishi va uning omillari, muammolari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularning yechimi ko'pchilik aholishunos olimlar e'tiborini tortdi. Aholining sotsial-iqtisodiy va demografik muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Natijada, aholi muammolari bilan shug'ullanuvchi fanlar tez sur'atda ko'paydi. Ularga falsafa, tarix, sotsiologiya, huquqshunoslik, psixologiya, etnografiya, tibbiyat, biologiya, demografiya, ekologiya, iqtisodiy geografiya va aholi geografiyasи kabi fanlar kiradi. Mazkur fanlar tadqiqot natijalari asosida aholi haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi. Darhaqiqat, aholi qator fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Sababi, aholi – bu hayotning ishlab chiqarish va takror barpo bo'lish

jarayonlarida tabiiy tarixiy ravishda shakllanuvchi va uzlusiz yangilanib turuvchi insonlar birligi, kishilik jamiyatining material komponentidir¹.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida aholi insonlarning alohida tarixiy birligi sifatida namoyon bo'ladi (qadimgi dunyo aholisi, quldorlik, feodalizm tuzumi aholisi va h.k.). Bu hol aholining ijtimoiy jihatlarini yaqqol ifodalaydi. Aholining yana bir umumiy jihatni makon tomoni bilan xarakterlanadi. Insonlar o'z hayotlarida ma'lum bir hududiy, ijtimoiy birlik bilan bog'langandir. Masalan, hududiy birligi – materiklarning aholisi (Shimoliy Amerika aholisi, Osiyo aholisi, Yevropa aholisi....), davlatlar aholisi (AQSH aholisi, Rossiya aholisi, O'zbekiston aholisi va h.k.)da ifodalanadi. Ma'lum bir davlat aholisini o'rganganda esa hududiy birlik yana ham mukammallahadi. Masalan, O'zbekiston aholisi, uning viloyatlari va tumanlari aholisi, shahar va qishloq aholisi birligida ifodalanadi.

Aholining ijtimoiy birligi esa ijtimoiy guruhlarda (qabila-urug', etnik, diniy, siyosiy va h.k.) o'z aksini topadi. Shuningdek, ijtimoiy birlik haqida so'z borganda, tarixiy davrlar – vaqt birligi ham muhimdir. Masalan, IX-X asrlarda Amir Temur davri aholisi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi aholisi va h.k. Demak ijtimoiy vaqt va makon hududiy tadqiqotlarda aholini har qanday vaqt va hudud bo'yicha ajratish imkonini beradi. Ma'lumki, aholi geografiyasining asosiy obyekti – aholi va aholi manzilgohlari, ya'ni maskanlaridir. Ana shu nuqtayi nazardan aholi geografiyasini aholishunoslik fanlari tizimida o'rniga egadir.

Aholini o'rganishda tadqiqot obyekti aholi bo'lgan barcha fanlar bilan o'zaro bog'liq holda, bir-birining tadqiqot natijalariga asoslanib faoliyat ko'rsatadilar. Faqat geograf yoki demograf, iqtisodchi yoki sotsiolog "Nima uchun sayyoramizda yoki uning alohida hududlarida aholi ko'payib yoki kamayib bormoqda?", "Kelajakda yer yuzida aholi ko'payishi jarayonida qanday o'zgarishlar kutilmoqda?", "Aholining qishloqdan shaharga bo'lgan migratsion oqimini qanday izohlash mumkin?" degan savollarga o'zi javob bera oladimi? Agar u o'z ilmiy yondoshuv natijalari asosida javob bersa ham, javob bir yoqlama bo'lib qoladi. Bunday muammolarni mukammal hal etishda aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi barcha fanlar tadqiqotlari

¹ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985, с. 268.

natijalari va ular asosida shakllangan aholishunoslik bilimlar tizimi zarurdir.

Keltirilgan chizmaga ko'ra aholi geografiyasi bevosita aholining umumiy nazariyasi, demografiya va u orqali barcha demografiyaga tutash fanlar bilan aloqadorligini kuzatish mumkin. Ma'lum bir hudud yoki davlat aholisi soni, tarkibi va takror barpo bo'lishini, aholi maskanlarining (shahar va qishloqlar) shakllanishining hududiy xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rghanar ekan. aholi geografiyasi aholishunoslik bilimlar tizimidagi barcha fanlar tadqiqot natijalaridan foydalanadi. O'z navbatida, tizimdagi qayd etilgan fanlar aholi geografiyasi tadqiqot natijalariga ham asoslanadi.

Aholi geografiyasi aholi soni dinamikasi tarkibi (demografik, sotsial, etnik va diniy) takror barpo bo'lishi jarayonlarini o'rganganda aholishunoslik fanlari tizimida aks etadi. Qayd etilgan jarayonlarga geografik omillar ta'sirining hududiy jihatlarini tadqiq etganda, aholi maskanlari: shaharlar va qishloqlar shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganganda geografik fanlar tizimida ko'proq namoyon bo'ladi. Aholi geografiyasi hududlar aholisining joylashuvi, aholi maskanlarining shakllanish xususiyatlarini o'rghanar ekan tabiiy va iqtisodiy geografiya tadqiqotlaridan foydalanadi.

Demografiya va etnografiya – aholi geografiyasi bilan chambarchas va har tomonlama bog'liq bo'lgan fanlar hisoblanadi. Chunki bu fanlar ham bevosita aholi geografiyasi singari aholini o'rghanadi, lekin bular aholini o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etadilar. Masalan, demografiya aholi soni, takror barpo bo'lish qonuniyatlarini va omillarini o'rgansa, etnografiya – xalqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy tarixiy aloqalarini o'rghanadi. Shunday qilib, aholi geografiyasi va demografiya hamkorlikda hal etishi mumkin bo'lgan muammolarni birgalikda o'rghanadi. Xalqlarning tarqalishini esa etnogeografiya o'rghanadi. Aholi geografiyasining demografiya bilan aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hududlar aholisini o'rganishda aholi geografiyasi demografik jarayonlarga murojaat etadi. Bunday tadqiqotlar geodemografik tadqiqotlar deb ataladi¹.

Demografik siyosat mazmuni va tadbirlarini ishlab chiqish juda ma'siliyatli va murakkab jarayondir. Ushbu yumushni bajarishda

¹ Солис А., Каримбосева Й. Иктисодий географиянинг изорларини амалий маслихатларига. – Ташкент – 1999. 49 – бет.

demografiya o'rganilayotgan davlat yoki alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini, demografik holatini mukammal o'rganishi lozim. Demak aholi geografiyasi va demografiya o'rganish obyektlari va predmetlari nuqtayi nazaridan juda yaqin tutash fanlardir. Ular o'z tadqiqotlarida bir xil manbalarga asoslanadilar va o'z yo'nalishlari, maqsadlari bo'yicha tadqiqot olib boradilar hamda xulosa chiqaradilar. Masalan, demografiya ma'lum hudud aholisi soni va tadqiqotidagi ma'lum vaqtida sodir bo'lgan o'zgarishlarni demografik jarayonlarga asosan izohlaydi, aholi geografiyasi esa uning geografik omillari hamda hududiy xususiyatlariiga e'tibor qaratadi.

Aholi migratsiyasini ham har ikkala fan mukammal o'rganadi. Demografik tadqiqotlarda aholi migratsiyasi demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omil sifatida tahlil etilsa, aholi geografiyasi migratsiya oqimining yo'nalishlari, hududiy xususiyatlari, mehnat resurslari shakllanishida ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'mni va ahamiyati kabi jihatlarini tadqiq etadi.

Aholi geografiyasi va demografiya fanlarining eng muhim predmetlaridan biri aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish kabi demografik jarayonlar asosida avlodlar almashuvini; oila tashkil topishi va uzlucksiz davom etishini ta'minlovchi jarayon sifatida tahlil etadi. Shuningdek, aholi soni dinamikasi va tarkibining shakllanishida ham aholi takror barpo bo'lishini asosiy omil sifatida o'rganadi. Aholi geografiyasi esa aholi takror barpo bo'lishidagi hududiy farqlarni o'rganadi. Aholi geografiyasi har bir hudud aholisi soni dinamikasi, yosh-jinsiy oilaviy tarkibi, takror barpo bo'lishi, mehnat resurslarining hududiy shakllanishini o'rganganda bevosita demografik ko'rsatkichlarga, demografik tadqiqot natijalariga asoslanadi. Ana shu bois geograf mutaxassislar asosiy demografik tushunchalar, ko'rsatkichlar, uslublar haqida bat afsil bilimga ega bo'lishlari zarur.

Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi – migratsiyasini ham o'rganadi. Lekin bu jarayonni o'rganishda aholi geografiyasidan farqli ravishda asosiy e'tiborni migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlarga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro'y beradigan hududning demografik holatidagi o'zgarishlariga qaratadi.

Aholi geografiyasining muhim tarmoqlaridan biri aholi salomatligi va tibbiyot geografiyasidir. Mazkur tarmoq tadqiqotlarida aholi geografiysi, ekologiya, sotsial gigiyena, sotsial psixologiya fanlari tadqiqotlariga murojaat etadi. Ma'lumki, davlat, shahar va qishloq hududlari, abolisi, aholi maskanlarining o'z shakllanishi xususiyatlari va tarixi bor. Bu borada aholi geografiyasi tarix fani tadqiqotlaridan foydalanadi.

Aholi geografiyasi o'z tadqiqotlarida metodik jihatdan geografik, iqtisodiy, sotsial yondashuv va metodlardan foydalanadi. Jumladan, bunday yondashuvlardan tizim-tarkib, geografik, iqtisodiy, sotsiologik va tarkibiy yondashuvlardan statistik, demografik, matematik, kartografik metodlardan keng foydalanadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi qaysi fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi?
2. Aholi geografiyasi fan sifatida qachon shakllangan?
3. Aholi geografiyasi fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
4. Aholi geografiyasi fanining predmetini aytib bering.
5. Aholi geografiyasi fanini o'rganishda qanday usullardan foydalilanadi.
6. Aholi geografiyasi fanining asoschisi kim?
7. Aholi geografiyasi fani tarkibiy jihatdan qanday tarmoqlarga ajraladi?
8. Aholi geografiyasi qaysi fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi?
9. Aholi geografiyasi fanining rivojlanish tarixini aytib bering.
10. O'zbekistonda aholi geografiyasi fanining rivojlanishiga qaysi olimlar katta hissa qo'shgan?

2-MAVZU: AHOLI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR MANBALARI. AHOLI RO'YXATI

Reja:

- 2.1. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari.
- 2.2. Aholining joriy statistik hisobi.
- 2.3. Aholi ro'yxati: talablar, vazifalar, tamoyillar.

2.1. Aholi to‘g‘risida ma’lumotlar manbalari

Aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni o‘rganishda maxsus ma’lumotlardan foydalilanildi. Bu ma’lumotlar demografik ma’lumotlar deb yuritiladi. Demografik ma’lumotlar quyidagicha: *hududlar bo‘yicha* (dunyo, qit’a, alohida davlat, shahar, qishloq, tuman) *turli tarixiy davrlar* uchun (tarixiy, retrospektiv, joriy va proqnoz), *miqyosi va milliyligi* bo‘yicha (milliy, xalqaro), *olinish manbasining xususiyatiga* ko‘ra (rasmiy statistik, rasmiy nashrlar, to‘plamlar, ilmiy tadqiqotlar, kitoblar), aholining turli *ijtimoiy guruhlari* (millatlar, ishchilar, xizmatchilar, tadbirkorlar va h.k.) bo‘yicha ajratiladi.

Demografik ma’lumotlar birlamchi va ikkilamchi xarakterga egadir. Bularga aholi va demografik jarayonlarga oid nasht etilgan raqamli ma’lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalari kiradi.

Birlamchi ma’lumotlar – demografik jarayonlar haqida to‘plangan dastlabki statistik jadvallar va maxsus ko‘rsatkichlar.

Ikkilamchi ma’lumotlar – birlamchi ma’lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblar.

Demografik jarayonlarni o‘rganishda juda ko‘p ma’lumotlardan foydalilanildi. Bu ma’lumotlarning asosiy manbalari quyidagilar:

1. har 10 yilda, ba‘zi davlatlarda har 5 yilda muntazam o‘tkazilib turiladigan aholi ro‘yxatlari;

2. demografik jarayonlarning joriy statistik hisobi (tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, aholi migratsiyasi);

3. joriy registrlar va kartotekalar;

4. maxsus va tanlama tadqiqotlar.

Ko‘pgina davlatlarda demografik ma’lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to‘planib boriladi. To‘plangan demografik ma’lumotlar o‘rganilayotgan hududning demografik holatini o‘rganish, demografik jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, demografik proqnozlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Demografik ma’lumotlarni aholini ro‘yxatga o‘tkazish yoki maxsus sotsiologik tadqiqotlar orqali to‘plash uchun har bir davlat, ilmiy tashkilotlar oldindan ilmiy asoslangan dastur tuzadi va ana shu dastur asosida ish olib boradi.

Aholini hisobga olishda to'plangan ma'lumotlarning aniqligi, to'la qamrovi va muntazamliligi juda muhimdir. Masalan, O'zbekiston aholisi soni, tarkibi haqida ma'lumotlar to'planganida, tug'ilgan chaqaloqlardan boshlab barcha yoshdag'i aholi soni, eng kichik mahalla, qishloq, tuman, viloyat va shaharlar aholisi, ularning ijtimoiy-demografik tarkibi haqida ma'lumotlar aniq va har bir yil, davr uchun muntazam hisoblab borilishi lozim.

Jahondagi barcha davlatlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlari hisobga olinib, ma'lumotlar muntazam to'planib boriladi. Hozirgi davrda aholini hisobga olishning asosiy to'rt turi mavjuddir:

- aholi ro'yxatini o'tkazish;
- demografik jarayonlarni doimiy ro'yxatga olish;
- tanlama va sotsiologik-demografik tadqiqotlar;
- aholining turli ro'yxatlari va registrlari.

Aholi soni ma'lum bir hudud (yer shari, qit'alar, davlat, viloyat, tuman, hudud, aholi maskani) aholisi miqdorini ifodalaydi. Masalan, 2017-yilda yer shari aholisi soni 7,5 milliard, Afrika qit'asi aholisi 1,2 milliard, O'zbekiston davlati aholisi esa 32,4 million kishini tashkil etgan. Aholi sonini hisoblaganda o'troq aholi uchun ma'muriy chegara, ko'chmanchi aholi uchun esa areallar asos qilib olinadi. Demografiyada aholi soni eng umumiylasosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir sanaga (1-yanvar, 1-iyul yoki 31-dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991-yil 1-yanvarda 20708,2ni, 2000-yil 1-yanvarda esa – 24487,7ni, 2018-yilda 32653,9ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1-yanvardan 31-dekabrga qadar aholi soni tug'ilish, o'lim va migratsiya hisobiga muntazam o'zgarib turadi.

O'r ganilayotgan hudud yoki davlat aholisi sonining ma'lum davrdagi (2 yil, 5, 10, 15 va undan ko'p yillar) o'zgarishi aholi soni dinamikasida o'z aksini topadi. Aholi soni dinamikasi, uning jami, umumiylasut (mutlaq) soni, o'sish kooeffitsienti, aholi sonining o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, yuqorida qayd etilgandek, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.



Birlamchi ma'lumotlar — demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallar va maxsus ko'rsatkichlar.

Ikkilamchi ma'lumotlar — bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib horügan jumly tahsil va hisobh-kitoblardir.

2.1-rasmi. Demografik ma'lumotlar turlari

Demografik tadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni, hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniadi. Nazariy aholi soni o'zgarmas — stabil aholi sonidir. Stabil aholi soni lotincha "stabilis" so'zidan olingan bo'lib, doimiy, o'zgarmas, degan ma'noni bildiradi. Aholining asosiy katgoriyasi mavjud aholidir. Demografik koeffitsientlarni hisoblaganda mavjud aholi sonidan foydalaniadi. Shuningdek, mavjud aholi soni aholi ro'yxatlari orasidagi davr uchun aholi mutlaq sonini o'rghanishda ham qo'llaniladi.

2.2. Aholining joriy statistik hisobi

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy joriy ro'yxatga olib borish aholini hisobga olishning muhim turlaridan bo'lib, bu jarayon, asosan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan bajariladi. Bu tashkilotlar tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrimlar holatlarini doimiy ravishda qayd etib, ro'yxatga olib boradilar. O'zbekistonda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tuman, viloyat, shaharlar doirasida tashkil etilgan va ularda tug'ilganlar, o'lganlar, qayd etilgan nikohlar, ajrimlar, ularning aniq sanalari va shaxslari haqida to'la ma'lumotlar doimiy qayd etilib boriladi. Umuman demografik jarayonlarni ro'yxatga olish dasturidagi savollarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga jarayonlar manzili, sodir bo'lган va qayd etilgan vaqtini. ikkinchi guruhga esa

jarayon o'tgan shaxslar haqidagi savollar kiritiladi. Masalan, tug'ilishni ro'yxatga olishda chaqaloqning otasi, onasining millati, yoshi, ish joyi kabi ma'lumotlar ham qayd etiladi.

Nikoh jarayonini ro'yxatga olishda ham nikohga kiruvchilarining millati, yoshi va ijtimoiy holati haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida juda ko'p ko'rsatkichli jadvallar tayyorlanadi. Ana shunday jadvallarga tug'ilganlarni onasining millati, yoshi, otasining millati, yoshi bo'yicha taqsimlanishi, vafot etganlarning hududlar, millatlar, yosh guruhlari bo'yicha, nikoh, ajrimlarni ham ana shu holatlar bo'yicha taqsimlanishini misol qilish mumkin.

Aholi migratsiyasi davlatlarning maxsus organlarida muntazam hisobga olib boriladi. Ularda migratsiyada ishtirok etgan shaxsni demografik va ijtimoiy holatini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga, kelish va ketish sabablari, manzillari haqida ham ma'lumotlar qayd etiladi. Aholini doimiy ro'yxatga olishda ishonchli va to'la ma'lumotlar bo'lishi muhimdir. Chunki ushbu ma'lumotlar asosida har bir hududning demografik holati, rivojlanishi o'rganiladi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi ishlab chiqiladi. Shuning uchun, har bir demografik jarayonni o'z vaqtida qayd etilishi maxsus konunlar orqali nazorat etiladi.

Tanlama sotsiologik-demografik tadqiqotlar ham aholini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlarda demografik jarayonlar va ularga ta'sir etuvchi omillar, xususiyatlari haqida aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish orqali olib bo'lmaydigan ma'lumotlar to'planadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda demografik prognozlar uchun juda muhim bo'lgan demografik mayl (aholining demografik jarayonlarga bo'lgan munosabatlari) uning avlodlar bo'yicha xususiyatlarini ham o'rganish mumkin. Maxsus demografik tadqiqotlar sotsiologik uslubda so'rovnomalar, suhbatlar yordamida olib boriladi.

Tug'ilish, o'lish, nikohga kirish, ajralish (nikohning bekor qilinishi), aholi migratsiyasi kabi demografik jarayonlarni sotsiologik uslub yordamida o'rganish sotsiologik-demografik tadqiqot deyiladi. Bunday tadqiqotlarda demografik jarayonlarning turli avlodlarda, ijtimoiy guruhlarda, millatlarda va hududlarda xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillari mukammal o'rganiladi. Buning uchun o'rganilayotgan demografik jarayonlar va ularning omillarini

aniqlashga oid savollardan maxsus so'roq varaqasi (anketa) tuziladi. Ular aholi o'rtasida suhbat o'tkazish, bevosita savol-javob yoki aholining o'ziga tarqalish yo'li bilan to'ldiriladi. Sotsiologik uslub bilan o'tkazilgan bunday tadqiqotlar demografik jarayonlarni o'rghanishda, ularning xususiyatlarini to'g'ri aks ettirishda juda qulay hisoblanadi.

Demografik jarayonlarni bevosita savol-javob, suhbat usuli yordamida o'rganganda statistik ma'lumotlar ifodalay olmagan jihatlar ham yoritiladi. Sotsiologik uslub, ayniqsa, O'zbekiston kabi qadimda demografik jarayonlari muntazam statistik ro'yxatga olib borilmagan hududlar uchun yana ham qimmatlidir. Chunki keksa avlodlar o'rtasida maxsus sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazib, qadimda demografik jarayonlar qanday bo'lganligi va ularga ta'sir etgan omillar haqida ma'lumotlar to'plab, birmuncha aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni sotsiologik-demografik tadqiqotlar yordamida o'rghanish 1928-1930-yillardan boshlangan. 1960-1970-yillardan bosholab esa mukamallashib, rivojlanib bordi¹. Ushbu tadqiqotlar yordamida respublika shahar va qishloq tumanlarida tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi jarayonlar va ularga aholining bo'lgan munosabatlarni avlodlar bo'yicha alohida o'rganilgan, omillari, xususiyatlari aniqlangan.

Aholini hisobga olishda yana bir muhim manba aholining alohida guruhlari haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular turli tashkilotlar tomonidan to'planadi. Masalan, saylovchilar ro'yxati (O'zbekistonda 18 va undan yuqori yoshdagilar saylash huquqiga ega bo'lib, ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati haqidagi ma'lumotlar har bir shahar, qishloq saylov okruglar tomonidan to'planadi) harbiy xizmatga loyiq aholi (erkaklarning ma'lum yoshdagilari harbiy ro'yxatga olinadi) reproduktiv yosh (15-49)dagi ayollar (maxsus tibbiy muassasalar ro'yxatida turadi) ro'yxatlari. Shuningdek, mahalla, qishloq fuqarolik kengashlarida oilalar va oila a'zolarining soni, xo'jaliklar haqida ham ma'lumotlar yig'ib boriladi.

Aholini hisobga olish, uning kategoriyalari, ya'nii belgilari orqali amalga oshiriladi (kategoriya – grekcha so'z bo'lib, aytib berish, belgi, degan ma'noni bildiradi). Aholi belgilari ularning mazkur

¹ Бурнова М.Р. Узбекистонда оила демографияси. - Ташкент, 1997 й., 133-139 бетлар.

hududda yoki bir ma'muriy birlikda doimiy yoki vaqtincha yashashlarida ifodalananadi. Ushbu belgilar asosida aholi uch kategoriyaiga ajratiladi: doimiy yashovchi aholi, mavjud aholi va yuridik aholi¹. Aholini o'rganishda qayd etilgan uch kategoriya barcha hududlar va davlatlar uchun umumiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Doimiy aholi – ma'lum aholi maskani yoki hududda ushbu vaqtda doimiy yashovchi asosiy aholini ifodalovchi insonlar yig'indisidir. Doimiy aholini ifodalovchi mezon vaqtlar davomida o'zgargan va davlatlar bo'yicha farq qiladi. Masalan, O'zbekistonda 1979-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida aholi ro'yxati o'tkazilgan 16-yanvar kech soat 12 dan 17-yanvar kech soat 12 ga qadar ushbu hududda doimiy yashovchi aholi hamda 6 oy muddatga ushbu hududdan vaqtincha ketganlar hamda 6 oy muddatga mazkur hududga kelganlar doimiy aholi tarkibiga kiritilgan.

Mavjud aholi – aholi ro'yxati, ya'ni aholini hisobga olish davrida ushbu aholi maskani yoki hududida bo'lgan barcha insonlar yig'indisidir. Mavjud aholida uning faqat jismoniy mavjudligi emas, balki shu hududda (ishda, mehmonda, o'qishda) bo'lgan aholi ham kiritiladi.

Yuridik aholi – ushbu aholi maskanida maxsus ro'yxatdan o'tgan kishilar yig'indisidir. Yuridik aholini ifodalovchi asosiy mezon uning shu hududda yashashini ifodaloschi, ma'muriy qayd etilgan hujjatdir. Aholini ro'yxatga olish jarayonida doimiy va mavjud aholi kategoriyalari hisobga olinadi. Shuningdek, aholi ro'yxati davomida har bir aholi yashash joylaridagi doimiy aholi, vaqtincha ketganlar va vaqtincha kelganlar hisobga olinadi. Doimiy yashovchi va vaqtincha ketganlar yig'indisi doimiy aholini, doimiy yashovchi aholi va vaqtincha kelganlar yig'indisi mavjud aholini ifodalaydi. Umuman doimiy va mavjud aholi sonida katta farq bo'lmaydi. Ushbu farq aholi maskanlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatları bilan bog'liq. Aksariyat hollarda yirik shaharlarda, aholining dam olish hududlarida mavjud aholi soni doimiy aholi sonidan ko'proq bo'ladi. Ba'zi qishloq hududlarida esa aksincha, doimiy aholi soni mavjud aholi sonidan yuqoridir. Masalan, O'zbekiston shaharlarida istiqomat etayotgan doimiy aholi soni 2003-yili 9340,7 kishini, mavjud aholi soni esa 9410,7 kishini tashkil etgan.

¹ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985, стр.182.

2.3. Aholi ro'yxati: talablar, vazifalar, tamoyillar

*Aholi ro'yxat – ma'lum davrda, ma'lum davlat yoki hududning har bir aholisi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ma'lumotlar toplashdir*¹. Aholi ro'yxatini o'tkazish jarayonida dunyo va uning alohida hududlari aholisi soni va tarkibi bo'yicha ilmiy asoslangan holda aniq ma'lumotlar olinadi. Aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish, har birini to'ldirib, aholi haqida to'la ma'lumot olishga imkon beradi, lekin ularni farq etuvchi tomonlari ham mavjuddir. Aholi ro'yxati ma'lum muddatlarda (5, 10, 15 yillarda, aksariyat holatlar 10 yilda) maxsus tashkilotlar, mutaxassislar tomonidan va bir vaqtida o'tkaziladi. Aholini doimiy hisobga olishda esa qonun bo'yicha belgilangan muddatda aholining o'zi tegishli tashkilotlarga kelib, demografik jarayonlarni qayd ettiradilar.

Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni muntazam aniqlab borishda aholi ro'yxati ma'lumotlari asosdir. Ma'lum yilda aholi ro'yxati o'tkazilib aholi soni va tarkibi haqida aniq ma'lumot olinadi. Undan keyingi yildagi aholi soni va tarkibini aniqlash uchun shu yilda tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini ro'yxatda aniqlangan aholi soniga qo'shib, vafot etganlar va ko'chib ketganlar sonini esa ayirib tashlanadi. Ana shunday uslub bilan navbatdagi aholi ro'yxati o'tkazilgunga qadar har yil uchun aholi soni va tarkibi haqida ma'lumotlar aniqlanadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholini ro'yxatga olish juda qadimdan boshlangan. Chunonchi, miloddan avvalgi yillarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda aholi ro'yxatlari o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar bor². Shuningdek, miloddan avvalgi IV asrda Yunoniston va Rimda ham aholi ro'yxatlari o'tkazilganligi ma'lum. Qadimgi Rimda dastlabki aholi ro'yxati imperator Servi Tull davrida o'tkazilgan. Eramizdan oldingi 435-yildan boshlab esa Rimda aholi muntazam ro'yxatga olib borilgan va bu ro'yxatlar "senzi" deb nomlangan. O'tkazilgan ro'yxatlarda bar bir Rim fuqarosi senzor (ro'yxatga oluvchiga) o'zi va oila a'zolarining yoshi hamda mol-mulki haqida ma'lumotlar bergen. Miloddan avvalgi 510-yildan boshlab Rimda har besh yilda aholi ro'yxatga olingan. Binobarin, Yaponiya, Bobilda ham juda qadimdan aholi ro'yxatlari o'tkazilgan bo'lib,

¹ Демографический и энциклопедический словарь. – М.: 1985. С. 314.

² Yuqorida qayd tilgan manba.

undan maqsad, aholidan soliq yig'ish, boj olish hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini, asosan, erkaklar sonini bilish bo'lgan. Shuning uchun ham aholi ro'yxatida faqat erkaklar ishtirok etganlar, chunki, o'sha paytlarda jamiyatda ham, oilada ham erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bo'lgan. Soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishirok etganlar.

O'rta asrlarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida esa asosiy e'tibor xo'jaliklarga qaratiladi. Xo'jaliklar haqida maxsus kadastr kitoblarida ma'lumotlar to'plab boriladi. Bu davrda aholi muntazam ro'yxatga olinmagan. Faqat alohida sharoitlarda, ba'zan yoppasiga tarqalgan epidemiyalardan yoki urushlardan keyin qancha aholi qolganligini bilish uchun aholi ro'yxatlari o'tkazilgan.

XVII asrning o'rtalaridan boshlab Yevropada milliy davlatlarning paydo bo'lishi va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan aholi haqida mukammalroq ma'lumotlarga talab ortib boradi va qator aholi ro'yxatlari o'tkaziladi. O'sha kezlardagi aholi ro'yxati o'tkazish tarixini, uning ma'zmun va mohiyatiga bog'liq holda uch davrga ajratish mumkin. Birinchi davr XVII asrning oxiri, XIX asrning boshilarini o'z ichiga oladi va ushbu davrda aholi ro'yxati o'tkazishni tashkil etish hamda dasturini tuzishga asos solinadi.

Aholini ro'yxatga olish jarayonida to'rtta toifasi ajratiladi

mavjud aholi —
ro'yxatga olish vaqtida
ma'lum hududda
bo'lgan jumi aholi, shu
jomidan, vaqtinchalik
yashab turgan

doimiy aholi — ma'lum
hududda ro'yxatga olish
vaqtida doimiy yashovchi
aholi.

vaqtinchalik yashovchilar —
bu mazkur hududda doimiy
yashab qolishni istamagan,
lekin bu yerda ro'yxatga olish
dayrida bo'lgan aholi.

yuridik (q a y d etilgan) aholi.
Unga muayyan hududda shu
mamlakat qonunlariga ko'm qayd
etilgan aholi kiradi.

2.2- rasm. Aholi ro'yxati o'tkazishda aholining toifalari

Dasturda aholi ro'yxati qonun-qoidalari ishlab chiqilgan unga ko'ra aholi ro'yxati yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab eng keksa guruhgacha qamrab olinishi lozim bo'lган. Mazkur dastur asosida aholi ro'yxati 1790-yildi AQSHda, 1801-yili Fransiya, Daniya, Norvegiya hamda Angliyada o'tkaziladi. Aholi ro'yxatlari ham oddiy dasturga asoslangan bo'lib, ularni o'tkazish juda uzoq cho'ziladi. Masalan, birinchi Amerika aholi ro'yxati 18 oyga cho'zilgan. Bu davrda aholi soni va tarkibida qator o'zgarishlar bo'lishi tabiiy albatta. Ikkinci davr XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu davrda statistika fan sifatida taraqqiy etadi, qator davlatlarda statistika tashkilotlari tuziladi. Aholini ro'yxatga olish dasturlari ilmiy asosda ishlab chiqiladi. Mukammal aholi ro'yxati maxsus dastur asosida bir kunda o'tkazilib va barcha (erkak va ayol) aholini qamrab olishi kerak. Ana shunday aholi ro'yxatlari ikkinchi davrda Yevropa va Amerikaning barcha davlatlarida, Osiyo va Afrikaning ba'zi davlatlarida o'tkaziladi. 1870-1879-yillarda dunyoda 48ta, 1890-yillarda esa 57ta davlatda shu tartibda aholi ro'yxati o'tkazildi. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro'yxatga olingan bo'sha, XX asr boshlarida bu ko'rsatkich 54 foizni tashkil etdi¹.

Uchinchi davr XX asrning o'rtalaridan boshlanib, hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Unda aholini ro'yxatga olish dasturi yana mukammalashadi. geografiyasi kengaydi. Osiyo va Afrikada mustaqillikka erishgan qator davlatlarda aholi ro'yxatlari o'tkazildi. 1970-yillarda Arabiston yarim orolidagi davlatlarda va Afg'onistonda dastlabki aholi ro'yxatlari o'tkazildi. 1965-1974-yillarda esa dunyodagi 179 davlatda aholi re'yxatga olindi. XX asrda aholi ro'yxatini ilmiy manba sifatida tahlil etish takomillashdi².

Hozirgi paytda dunyoda deyarli barcha davlatlarda aholini ilmiy asoslangan dasturlar asosida, juda keng mavzularni qamrab olgan holda, har 5-10 yilda ro'yxatga olish yo'lga qo'yilgan. Aholi ro'yxatida aholi haqida, asosan, demografik (jinsi, tug'ilgan yili yoki yoshi, oilaviy holati, nikohga kirgan yoshi, farzandlari soni), iqtisodiy (bandligi, iqtisodiy faoliyati, xo'jaligi, daromadi), ma'lumotlilik, diniy

¹ Ўбринев М.Р. Демография ассоларти. - Ташкент., 2001. 18 бет.

² Гагулов А.И. Переписи населения СССР и капиталистических стран. - М., 1936.; Боярский А.Я. Переписи населения в капиталистических странах. - М., 1938.; Урламис Б.И. История американских переписей 1970 г. - М., 1976; Всесоюзная перепись населения 1979 г., - М., за бошкандар.

mansubligi) va boshqa ma'lumotlar to'planadi. Olingan ma'lumotlar texnik vositalar yordamida, har bir yo'nalishlar bo'yicha alohida o'r ganilib, statistik yilnomalarda chop etiladi. Ana shunday aholi ro'yxatlari O'zbekiston hududida ham 1897-, 1926-, 1939-, 1959-, 1979- va 1989-yillarda o'tkazilgan. Bu aholi ro'yxatlari yordamida o'lkanning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatiga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Aholi ro'yxatlari aholining faqat miqdoriy ko'rsatkichlarini emas, balki uning sifatiy ko'rsatkichlarini, yuqorida qayd etilganidek, ma'lumoti, oilaviy va ijtimoiy holati, iqtisodiy imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Ana shu nuqtayi nazardan aholi ro'yxati va ana shu ro'yxat o'tkazilgan davrning aholi soni va tarkibini, joylashuvi, migratsiyasini, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati, turmush tarzini aniq ifodalovchi tarixiy manbadir.

Aholini ro'yxatga olish usullari: Aholidan ma'lumotlarni olishda ikkita usul qo'llaniladi — so'rovnoma va o'zini-o'zi hisobga olish. Ular o'rta sidagi farq quyidagidan iborat: so'rovnomalarda ro'yxatga olish varaqalarini hisobchi, o'zini o'zi hisobga olishda esa ro'yxatdan o'tuvchilarining o'zlarini to'ldiradi. So'rovnomada u yoki bu shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobchi ulaming o'zlaridan bevosita og'zaki so'rash orqali oladi, o'z-o'zini hisobga olishda esa odatda — uchinchi shaxslar oladi (ko'pincha, oila boshlig'i yoki oilaning yoshi katta a'zosi). So'rovnomada ro'yxatga olish varaqalari doimo hisobchining o'zida bo'ladi, o'z-o'zini hisobga olishda esa ular avvaliga tarqatilib chiqiladi va ma'lum bir muddatdan so'ng esa yig'ib olinadi. Bunda hisobchi ularni to'g'ri to'ldirilganligini tekshirib chiqadi.

Aholini ro'yxatga olish dasturlari: Ro'yxatga olish aholining jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, millati, mehnat tavsisi va h.k.lami aniqlashni ko'zlaydi. Shaxslar yoki oilalardagi ro'yxatga olinuvchilarining muayyan bir alomatlar bo'yicha ro'yxatini tuzish "aholini ro'yxatga olish dasturi" deb yuritiladi. Dastur ro'yxatga olishda yig'iladigan ma'lumotlar doirasi va mazmunini belgilab beradi. Uning mazmuni davlatning aholi to'g'risidagi ma'lumotlarini so'rovnoma o'tkazish va boshqa manbalardan olish mumkinligi xususidagi u yoki bu ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi.

AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING ASOSIY VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT

istiqboldagi
hisob
kifob
uzmon xavfim
javoyishish

manzilchil
aholining
tashzali
dalolatnomalarini
borishish

2.3- rasm. Aholini ro'yxatga olish vazifalari

Demografik jarayonlarni doimiy ro'yxatga olib borish aholini hisobga olishning muhim turlaridan bo'lib, bu jarayon, asosan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan bajariladi. Bu tashkilotlar tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrimlar holatlarini doimiy ravishda qayd etib, ro'yxatga olib boradilar. O'zbekistonda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tuman, viloyat, shaharlar doirasida tashkil etilgan va ularda tug'ilganlar, o'lganlar, qayd etilgan nikohlar, ajrimlar, ularning aniq sanalari va shaxslari haqida to'la ma'lumotlar doimiy qayd etilib boriladi. Umuman demografik jarayonlarni ro'yxatga olish dasturidagi savollarni ikki guruhgaga ajratish mumkin. Birinchi guruhgaga jarayonlar manzili, sodir bo'lgan va qayd etilgan vaqt, ikkinchi guruhgaga esa jarayon o'tgan shaxslar haqidagi savollar kiritiladi. Masalan, tug'ilishni ro'yxatga olishda – chaqaloqni otasi, onasining millati, yoshi, ish joyi kabi ma'lumotlar ham qayd etiladi.

Nikoh jarayonini ro'yxatga olishda ham nikohga kiruvchilarning millati, yoshi va ijtimoiy holati haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida juda ko'p ko'rsatkichli jadvallar tayyorlanadi. Ana sunday jadvallarga tug'ilganlarni onasining millati, yoshi, otasining millati, yoshi bo'yicha taqsimlanishi, vafot etganlarning hududlar, millatlar, yosh guruhlari bo'yicha, nikoh,

ajrimlarni ham ana shu holatlar bo'yicha taqsimlanishini misol qilish mumkin.

Aholi migratsiyasi davlatlarning maxsus militsiya organlarida muntazam hisobga olib boriladi. Ularda migratsiyada ishtirok etgan shaxsni demografik va ijtimoiy holatini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga, kelish va ketish sababları, manzillari haqida ham ma'lumotlar qayd etiladi. Aholini doimiy ro'yxatga olishda ishonchli va to'la ma'lumotlar bo'lishi muhimdir. Chunki ushbu ma'lumotlar asosida har bir hududning demografik holati, rivojlanishi o'rganiladi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi ishlab chiqiladi. Shuning uchun har bir demografik jarayonning o'z vaqtida qayd etilishi maxsus qonunlar orqali nazorat etiladi.

Aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish, har birini to'ldirib, aholi haqida to'la ma'lumot olishga imkonini beradi, lekin ularni farq etuvchi tomonlari ham mavjuddir. Aholi ro'yxati ma'lum muddatlarda (aksariyat holatlar – 10 yilda) maxsus tashkilotlar, mujaxassislar tomonidan va bir vaqida o'tkaziladi. Aholini doimiy hisobga olishda esa qonun bo'yicha belgilangan muddatda aholining o'ziga tegishli tashkilotlarga kelib, demografik jarayonlarni qayd ettiradilar. Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni muntazam aniqlab borishda aholi ro'yxati ma'lumotlari asosdir. Ma'lum yilda aholi ro'yxati o'tkazilib, aholi soni va tarkibi haqida aniq ma'lumot olinadi. Undan keyingi yildagi aholi soni va tarkibini aniqlash uchun shu yilda tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini ro'yxatda aniqlangan aholi soniga qo'shib, vafot etganlar va ko'chib ketganlar sonini esa ayirib tashlanadi. Ana shunday uslub bilan navbatdagi aholi ro'yxati o'tkazilgunga qadar har yil uchun aholi soni va tarkibi haqida ma'lumotlar aniqlanadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demografik ma'lumotlar va ularning ilmiy, amaliy ahamiyati qanday?
2. Aholi haqidagi ma'lumotlar manbalari qanday turlarga bo'linadi?
3. Aholi ro'yxati maqsadi va mohiyati nimalardan iborat?
4. Aholi ro'yxati dasturi, o'tkazish uslublari va tamoyillari.

5. Muntazam ravishda aholi ro'yxati o'tkazish qachondan boshlangan?
6. Qadimgi va hozirgi aholi ro'yxatlari va ularning farqlari.
7. O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari.
8. Tanlama tadqiqotlar nima?
9. O'zbekistonda o'tkazilgan tanlama tadqiqotlarning maqsadi nimalardan iborat?
10. Mavjud va doimiy aholi tushunchalariga ta'rif bering.

3-MAVZU. DUNYO AHOLISI SONI VA UNING DINAMIKASI

Reja:

- 3.1. Aholi soni dinamikasining ijtimoiy-geografik xususiyatlari.
- 3.2. Aholi soni dinamikasining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari.
- 3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar.

3.1. Aholi soni dinamikasining ijtimoiy-geografik xususiyatlari

Aholi deganda – ma'lum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. Aholining mutlaq soni – biron-bir hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning ma'lum vaqtidagi miqdoriy ifodasiidir. Aholi soni va tarkibida sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanishiga, umuman, jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Har bir hududning, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sonining ortib yoki kamayib borishi, aholining umumiy tarkibida mehnat yoshidagi aholi guruhining salmog'i, ularning demografik va sisatiy shakllanib borishi, shuningdek, bolalar va mehnat yoshidan yuqori bo'lgan qariyalar salmog'i ham juda muhimdir.

Har bir davlat aholisining soni va yosh-jinsiy tarkibidagi mutanosiblik, uning rivojlanish istiqboli dasturlarini ishlab chiqishda asosiy omil, zamin hisoblanadi. Ana shu nuqtai - nazardan dunyo va uning alohida hududlari, davlatlari, xalqlari bo'yicha aholi soni va tarkibini yuqorida qayd etilganidek juda qadimdan boshlab hisobga olib kelinadi. Aholi soni va tarkibini hisobga olish uslublari, dasturlari, texnikalari jamiyat rivojlanishiga monand doimio rivojlanib, takomillashib keldi. Aholini hisobga olishda, uning umumiy soni, yosh-jinsiy tarkibi bilan bir qatorda oilaviy tarkibi, tug'ilish, o'lim,

nikoh va ajrim kabi demografik jarayonlar, aholi migratsiyasi haqida ham ma'lumotlar to'planib boriladi.

Hozirgi dunyoda insonlarning kelib chiqishi to'g'risida turli qarashlar, fikrlar bo'lsada, ammo Yer shari kartasida insonning paydo bo'lish vaqtiga va bu qayerda ro'y berganligi to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Aholi sonining past sur'atda o'sishiga sabab odamlar o'rtaida o'limning ko'pligi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi darajasining sostligi, insonlarning tabiiy muhitga bog'liqligi bo'lган. O'sha davrlarda o'limning yuqoriligi va umr ko'rish davrining qisqaligi Yer shari aholisi soni ko'payishini ta'minlamadi. Dastlabki inson ajdodlarining paydo bo'lishi haqida turlicha nazariyalar yaratilgan. Biologlar A. I. Oparin nazariyasiga asoslangan holda hayotning paydo bo'lishini suvga, okeanlarga bog'laydilar. Geologlardan esa akademik V. I. Vernadskiy qarashlariga asoslanib, yer yuzida hayot hamisha bo'lган yoki ular yer elementlari bilan birga sodir bo'lганligini e'tirof etadilar. Shuningdek, yer kurrasida hayot va insonning paydo bo'lishini ilohiy va kosmik kuchlarga bog'lovchi qarashlar ham keyingi davr manbalarida uchramoqda.

Ko'pchilik antropolog olimlar fikricha sayyoramizda bundan 5-7 million yil avval insonning dastlabki ajdodlari (avstralopetiklar) Afrika va Osiyoning tropik va ekvatorial zonalarida yashaganlar. Keyinchalik 2-3 million yil ilgari avstralopetiklardan eng qadimgi insonlar – arxantroplar shakllangan va ular Sharqiy Afrikada istiqomat etiganlar. Bundan 600-700 ming yil muqaddam insonning eng qadimgi ajdodi bo'lган arxantroplar paleontoplarga, pitekantoplarga va neandertallarga aylanganlar va Janubi-Sharqiy hamda Janubi-G'arbiy Osiyoga tarqalganlar. Nihoyat, bundan taxminan 40-50 ming yil ilgari insonning ongli (Homo Sapines) ajdodi shakllangan. Ongli insonning paydo bo'lishi mezolit davriga to'g'ri keladi.

Eramizning boshlarida Yer shari aholisining soni 200-250 mln., kishi atrofida edi. Yuqorida qayd etilganidek, aholining asosiy qismi Rim impyeriysi, Xitoy va Hindistonda joylashgan. Aholi soni haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan oldingi davrda Yer sharida bor yo'g'i bir necha yuz ming kishi, bir muncha aniqroq ma'lumotlar bo'yicha esa eramizdan 7 ming yil oldin Yer sharida 10 millionga yaqin aholi yashagan ekan va ular har 1000 yilda taxminan 10-20 % dan ko'payib borgan, xolos. Aholini bunday sekin ko'payishi aholi o'rtaida o'lim hollarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda

aholi o'rtasida o'limning umumiy koefitsienti 50 % va undan yuqori bo'lgan, boshqacha qilib aytganda, har 1000 aholidan 50tasi hayotdan ko'z yumgan. Ayniqsa, bolalar o'limi yuqori bo'lgan. Aholi ochlikdan, kasalliklardan va qabilalararo bo'lib turgan to'qnashuvlardan ko'proq halok bo'lgan. Aholining o'rtacha umr ko'tishi 20 yildan oshmagan.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyatda ishlab chiqarishning mukammalashib borishi, sodir bo'lgan mehnat taqsimotlari, ya'ni chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi alohida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin Yaqin Sharq hududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilik va dehqonchilikka o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zaxiralari yaratildi. Natijada, aholining o'lim hollari nisbatan kamaydi, lekin turli epidemiyalar, xo'jaliklar orasida mavjud urushlar tufayli o'lim hamon yuqori edi.

Xo'jalik yuritishning yangi formasi sababli, qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga muntazam ko'chib yurishi bir muncha barham topdi. Qabilalar dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi natijasida o'troq hayotga o'ta boshladilar. Bu hol esa ayollar ahvolining bir oz yaxshilanib, tug'ilishning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tug'ilishning ko'tarilishi esa dunyo aholisi sonining ko'payib borishiga olib keldi. Ushbu davrda erta nikohlar va ko'p bojalilik deyarli barcha aholiga xos bo'lgan. Lekin sififiy jamiyatning paydo bo'lishi bilan tug'ilishga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar ham shakllana boshladi. Masalan, quldarlik davrida qullar, askarlar aholining takror barpo bo'lish jarayonida ishtirok etmasdilar. Shuningdek, ba'zi diniy qarashlar, masalan, buddizm, inson ruhini gunohlardan qutqarish maqsadida nikohsizlik va farzandsizlik holatlarini qo'llab-quvvatlardi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat astasekin ibridoiy tuzumidan quldarlik davriga (sififiy jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojlana boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholining ibridoiy tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi – tug'ilishning yuqoriligidir. Tug'ilishning yuqoriligi esa o'z navbatida, ayollarning erta nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi hamda ko'p

bolalilikni xalq, davlat va din tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq edi. Ammo shunga qaramasdan, quldarlik tuzumi davrida aholi o'rtaida o'lim hollari ancha yuqori bo'lgan. Sababi, ko'pgina qishloq va shaharlarda aholining juda zinch joylashuvni va gigiyena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Aholi o'rtaida madaniyatning rivojlanishi, qadimiy sivilizatsiya markazlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu madaniyat markazlari yer kurrasining sug'oriladigan hududlarida (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va boshqa hududlar) shakllandilar. Qadimgi Misrda fir'avnlar davrida 7 million aholi yashagan deb taxmin etiladi. Dunyo hududlarida umumiy aholi soni eramizdan avvalgi 5-ming yillikda 30 million atrofida bo'lgan. Ana shu davrda yer yuzida aholi joylashuvining hozirgi areallari paydo bo'lgan.

Insonlarning yashash uchun kurashi borib-borib jamiyat taraqqiyotida ijobiy (progressiv) o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojiana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular mehnat qilib, moddiy mahsulotlar yaratadilar. Hunarmandchilik, savdo rivojlandi va shahrlar paydo bo'la boshladи. Inson hayotidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning hayot sharoitini yaxshiladi.

Sinfiy jamiyatning shakllanishi, dunyo hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar, aholi takror barpo bo'lish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi hududlarda yoppasiga tarqalgan epidemiyalar va urushlar oqibatida aholi o'rtaida o'lim nihoyatda yuqori bo'lgan, qishloqlar aholisiz qolgan. Ushbu davr uchun aholi takror barpo bo'lishida ibtidoiy jamiyatdagidek umumiy bir xususiyat – tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolgan edi. Quldarlik tuzumidagidek ko'p bolalilik nafaqat urs-odatlar. balki davlat siyosati, din, ayniqsa, islom va induizm tomonidan ham qo'llab quvvatlanar edi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixidagi dastlabki "Madaniy-texnik revolyutsiya" ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Bu hol esa o'z navbatida, dunyo aholisi sonining ko'payishiga olib keldi.

3.2. Aholi soni dinamikasining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari

Aholining umumiy mutlaq (absolyut) soni – ma'lum hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning ma'lum vaqtgagi miqdoriy ifodasidir. Aholi ro'yxatlari yordamida aholi mutlaq sonining o'zgarishini aniq ifodalash mumkin. Aholi mutlaq sonidagi o'zgarishlarda aholi soni muntazam ko'payib borsa ijobjiy, agar aholi soni kamaysa salbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Aholining mutlaq soni uning tabiiy va mexanik harakatlari asosida doimo o'zgarib turadi. Tabiiy ko'payishda demografik jarayonlardan tug'ilish va o'lim jarayonlari muhim o'rinn tutadi. Masalan, O'zbekistonda aholi soni dinamikasi 1926-2018-yillar davomida muntazam ko'payib kelgan. Demak, aholi soni dinamikasi ijobjiy xususiyatga ega bo'lgan, lekin ikkinchi Jahan urushi (1941-1945-yillarda) davrida aholi soni bir muncha kamaygan va aholi soni dinamikasida salbiy holat kuzatilgan.

Aholi geografiyasida aholining mutlaq soni asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir sanadagi aholi soni haqida ma'lumot beradi. Statistik manbalarda aholining mutlaq soni ma'lum bir sanaga (1-yanvar, 1-iyul, yoki 31-dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991-yil 1-yanvarda 20,7 million, 2018-yil 1-yanvarda esa 32,7 million kishini tashkil etgan.

Aholi mutlaq sonidagi o'zgarishlar mutlaq ko'payish orqali aniqlanadi. Aholining mutlaq ko'payishini aniqlashda esa quyidagi formuladan foydalilanadi:

$$\Delta S = S_t - S_0^T$$

Δt – mutlaq ko'payish.

S_0 – o'rganilayotgan davr boshidagi aholi.

S_t – o'rganilayotgan davr oxiridagi aholi. (Medkov V.M. Demografiya. - M., 2004, s. 98). Masalan, O'zbekiston aholisini 1991-2009-yillardagi mutlaq o'sishini yuqorida qayd etilgan formula yordamida aniqlaymiz.

R-1991-20,7 million;

R-2018 – 32,7 million;

$\Delta 1991-2009 = 32,7 - 20,7 = 12,0$ million. Demak, 1991-2018-yillarda O'zbekiston aholisining o'sishi 12,0 million kishiga teng bo'lgan yoki qayd etilgan davrda respublika aholisi mutlaq 12,0

¹ Медков В.М. Демография. - М. 2004. С. 98.

million kishiga ko'paygan. Ma'lumki, davlat yoki hudud aholisi tug'ilganlar va immigrantlarning kelishi hisobiga ko'payadi. o'lim va emigrantlarning ketishi hisobiga esa kamayadi.

Aholi umumiy mutlaq sonini topishda 4 ta asosiy ko'rsatkichi ishtirok etadi, bular:

- 1) tug'ilganlar soni;
- 2) o'lganlar soni;
- 3) immigrantlar soni;

4) emigrantlar soni. Aholi sonidagi o'zgarishlarni o'rganishda "balans" tushunchasidan ham foydalaniadi. Tug'ilganlar va o'lganlar balansi – aholining tabiiy o'sishidir (ma'lum davrdagi tug'ilganlar va o'lganlar soni farqi). Immigrantlar va emigrantlar balansi – aholining mexanik o'sishidir.

Agar aholi soni tashqi migratsiya hisobiga ko'paymaydigan bo'lsa – bu mamlakat aholisi "yopiq aholi", deyiladi, aksincha, tashqi migratsiyaning mavjudligi tufayli aholi soni ko'payib borsa, bunday mamlakat aholisi "ochiq aholi", deyiladi. Aholining tabiiy o'sishi va migratsiya qoldig'i ma'lum davrdagi aholi soni o'zgarishi komponentlaridir. Aholi mutlaq soni haqidagi eng aniq ma'lumotlar aholi ro'yxatini o'tkazish orqali olinadi.

Aholi ro'yxati oralig'idagi aholi sonini aniqlashda esa demografik balans usulidan foydalaniadi. Mazkur usul demografik balans tenglamasida o'z ifodasini topgan:

$$S_1 = S_0 + (N-M) + (P-V)$$

S_0 – aholi soni (o'rganilayotgan davr boshi).

N – o'rganilayotgan davrdagi tug'ilganlar soni

M – o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni

P – kelganlar (immigrantlar) soni

V – ketganlar (emigrantlar) soni.

O'zbekiston aholisining 2001-yil 1-yanvardagi mutlaq sonini yuqorida keltirilgan tenglama yordamida aniqlaymiz. 2000-yil 1-yanvarda (S_0) Respublikada mavjud aholi soni 24582,8 kishini tashkil etgan. 2000-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davrda 527580 ta chaqaloq (N) tug'ilgan, 135598 nafar kishi hayotdan ko'z yumgan (M). Ana shu davrda Respublikaga kelganlar (P) soni 145880 kishini, respublikadan ketganlar (V) soni esa 212472 kishini tashkil etgan. Demak,

$$S_{0(2001)} = 24582,8 + (527580 - 135598) + (145880 - 212472) = 24908,2;$$

Aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlarni mutloq ko'rsatkichlarda aniqlashning o'ziga xos kamchiliklari mavjud. O'r ganilayotgan davr qancha uzoq bo'lsa, aholi sonidagi o'zgarishlarning aniqlik darajasi kamayadi. Shuningdek, o'rtadagi davrlarning xususiyatlari to'la ochilmay qoladi. Bu borada aholi sonidagi o'zgarishlarni nisbiy ko'rsatkichlar orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunda o'r ganilayotgan davr bir nechta kichik-kichik davrlarga bo'lib, ulardagi aholi o'sishi nisbiy aniqlanadi. Aholi soni dinamikasini ilmiy tatbiq etishda aholining davriy va o'rtacha yillik o'sish koefitsientlari ham xizmat qiladi.

Aholining davriy o'sishi koefitsientlari: Aholining ma'lum bir davrda o'sishini aniqlashda eng oddiy usul o'r ganilayotgan davming boshidagi aholi soniga nisbatan o'r ganilayotgan davrning oxiridagi aholi sonini necha foiz oshganini aniqlashdir.

$$K_{o'sish} = \frac{S_t}{S_0} \times 100\%, \text{ bu yerda,}$$

$K_{o'sish}$ — aholining o'sish sur'ati;

S_t — aholining yil oxiridagi soni;

S_0 — aholining yil boshidagi soni. Masalan: O'zbekiston aholisi 01.01.1989-yilda 19,905 ming kishini tashkil etgan. 01.01.2000-yilda esa — 24583 ming kishiga yetdi. Ushbu holda 1989-2000-yillardagi aholining o'sish koefitsienti 123,5 % ga tengdir.

$$\left(K_{o'sish} = \frac{24583}{19905} \times 100\% = 123,5\% \right)$$

Ikkinci usuli o'r ganilayotgan davrdagi aholi sonining mutaq o'sish sonini o'r ganilayotgan davr boshidagi aholi soniga nisbatli bilan aniqlanadi.

Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koefitsientlari: Turli davrlardagi aholi o'sish sur'atini taqqoslash uchun aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koefitsientlaridan foydalananiladi. Buning uchun o'r ganilayotgan davrdagi aholining umumiy o'sishi aniqlanib, logarifmlar yordamida tuzilgan maxsus o'sish va kamayish jadvali (Ayrapetov) asosida o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koefitsientlari aniqlanadi. Bundan tashqari, aholining o'rtacha yillik

¹ Демографический ежегодник Узбекистана 2002. - Ташкент - 2003, 27, 94 va 276 belalar malumotlari asosida hisoblandi.

ko'payish sur'atini maxsus formulalar yordamida ham topish mumkin. Jumladan,

$$K_{\text{so'z}} = \frac{S_t - S_0}{S_0} \times 100\% = \dots = ,5\%$$

$K_{\text{so'z}}$ — aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati;

R_I — aholining yil oxiridagi soni;

R_0 — aholining yil boshidagi soni.

$$K_{\text{so'z}} = \frac{S_t - S_0}{S_0} \times 100\% = \frac{24583 - 19905}{19905} = 23.5\%$$

Masalan, 1989-2000-yillarda ya'ni 11 yilda aholining davriy o'sish koeffitsienti 123,5 foizni tashkil etgan. Aholining o'rtacha yillik o'sish va kamayishi jadvalidan 11 yil uchun 123,5 foiz o'sganligini ko'ramiz. 11 yilda O'zbekiston aholisining ko'payish sur'ati 23,5 foizni, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 11,7 foizni tashkil etadi. Bular aholi dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlaridini ifodalaydi. Aholi dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari uning rivojlanish intensivligini belgilaydi.

3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar

Tadqiqotlar tahlili ko'rsatishicha, dunyo aholisining soni asrimizning 1-mingylligida 245dan 345 mln kishigachani tashkil etgan bo'lsa, XIII asrda Yevropada va Osiyoning qator davlatlarida tarqalgan turli xil yuqumli kasalliklar aholi soni ko'payishiga olib kelmadи, XIV asrda hatto dunyo aholisi soni kamaydi. Mutaxassislarning fikricha, aholi o'sish sur'ati kam bo'lishiga qaramay, 1500-yillarda Yer shari aholisi soni 425-450 mln kishiga yetdi.

XIX asming ikkinchi yarmida Yer shari aholisi soni ko'payish sur'ati 0,8 foizga teng bo'ldi. Turli manbalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1900-yilda dunyo aholisining soni 1,5 martaga ortgan, yoki 1,550-1,760 mln kishiga yetgan. XX asrning birinchi yarmi aholi soni ko'payishi uchun juda qiyin va qarama-qarshiliklar davri bo'lgan. Chunki bu davrda bir tomonidan Osiyo va Amerikada aholi soni tezlik bilan o'sib boradi, ikkinchi tomonidan ikkita jahon urishi (1914-1918-yillar, 1939-1945-yillar) aholi miqdori ortishiga faqat salbiy ta'sir etadi. Ammo shunga qaramasdan, Yer shari aholisi

ko'payishda davom etadi, masalan, 1927-yilda dunyo aholisining soni 2 mlrd kishini tashkil etgan bo'lsa, 1950-yilda 2,558 mln kishiga etgan. Dunyo aholisining dinamikasidagi o'zgarishlarda XX asrning ikkinchi yarmini alohida iz qoldirgan davr bo'ldi.

O'rta asrlarda ham dunyo aholisining soni ko'payib bordi, lekin aholining ko'payish sur'ati nisbatan sekin bo'lgan. 1-mingyillikning oxirida dunyo aholisining soni 250-300 millionni tashkil etgan bo'lsa, 2-mingyillikning o'rtalarida bu ko'rsatkich 400-500 millionga etgan. Jumladan, Osiyoda – 250 million, Yevropada – 65-80 million, Amerikada – 30-50 million, sobiq SSSR hududida esa 15-20 million aholi istiqomat etgan. Ushbu davrda ba'zi davlatlarda bosqinchilik, urushlar, xo'jaliklar izdan chiqishi natijasida, aholi sonining kamayib ketganligi ham kuzatiladi.

3.1-jadval

Dunyo aholisining ko'payishi (mln.kishi hisobida)¹

Sana, yillar Milodning boshi	Dunyo aholisi 252	Sana 1920	Dunyo aholisi 1811
400	205	1930	2070
800	224	1940	2295
1000	305	1950	2527
1200	400	1960	3060
1500	440	1970	3727
1600	578	1980	4430
1700	680	1993	5510
1750	728	2000	6000
1800	954	2005	6464
1850	1248	2015	7336
1900	1630	2025**	8563
1910	1755	2050	9846

XII-XV asrlarda dunyo aholisining ma'lum qismi yuz bergan katta urushlar tufayli qirilib ketdi. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlari aholisi katta talafot ko'rdi.

¹ *Алиев И.В., Хорев Б.С. Экологическая и социальная география мира. – М., 2000. – С.92; Демографический энциклопедический словарь. – М., 1985. – С.72; Народонаселение мира 1998. Фонд ООН в области народонаселения. Population Reference Bureau. 2005, 2015, 2017. World Population Data Sheet.

** BMF proqnozi.

Urushlar nasaqat aholining bevosita qirilib ketishiga, balki - xo'jaliklarni, ishlab chiqarishni izdan chiqarish hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumushlariga olib kelgan. Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500-yillar) Yer yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750-yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asming ikkinchi yarmidan boshlab aholining o'sishi yanada tezlashdi. Dunyo aholisining 1000-yildan 2005-yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. 1900-1950-yillarda Yer shari aholisi har yili o'rtacha 0,90 % dan ko'paygan bo'lsa, 1950-2000-yillarda bu ko'rsatkich 1,75 % ga yetdi. XXI asming dastlabki yillarda esa dunyo aholisi sonining ko'payish sur'ati birmuncha sustlashdi. 2000-2009-yillarda dunyo aholisining o'rtacha yillik ko'rsatkichi 1,42 % tashkil etmoqda. Hozirgi davrda (2018-yil) Yer sharida 7,5 milliarddan ortiq kishi istiqomat qilishmoqda.

Aholi sonining ko'payib borishida dunyo hududlari bo'yicha keskin tafovular mavjuddir. Natijada, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib sayyoramizda hududiy xususiyatlarga ega bo'lgan demografik muammolar vujudga keldi. Ba'zi davlatlarda moddiy boyliklar ishlab chiqarishga nisbatan aholi soni juda tez ko'payib borib, "aholi ko'payishi" muammosini yuzaga keltirgan bo'lsa, ba'zi hududlarda esa aholi tug'ilishining keskin qisqarishi, ya'ni demografik mezondan kamayib ketishi oqibatida, "demografik qarish" muammosi kuzatilmoqda. "*Aholi ko'payishi*" muammolari, asosan, rivojlanayotgan davlatlarda kuzatiladi, dunyo aholisining ko'payishi ham deyarli ushbu davlatlar bilan bog'liqidir.

1967-yilda esa Yer shari aholisi 65 millionga oshdi. Undan 56 millioni rivojlanayotgan davlatlar aholisining ko'payishi hisobiga ro'y berdi. Dunyo aholisining bunday tez ko'payishini olimlar "*demografik portlash*" deb izohladilar. Rivojlanayotgan davlatlarda XX asming ikkinchi yarmida aholi sonining ana shunday tez sur'at bilan o'sishi, asosan, uchta demografik omilga bog'liq bo'lgan. Ulardan birinchisi – tug'ilishning yuqori darajada saqlanib qolayotganligi. Ikkinchisi o'limning pasayganligi va aholi umr ko'rish davomiyligining uzayganligidir.

Rivojlanayotgan davlatlarda bir tomonidan, feodal va ibridoiy jamiyat munosabatlарining saqlanib qolishi, ikkinchi tomonidan,

mustamlaka tuzumining uzoq hukm surishi ularning dunyodagi iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan agrar regionlar sifatida saqlanib qolishiga sabab bo'ldi, natijada sanoat rivojlanmadidi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda istiqomat etib kelgan. Qishloq turmush tarzi esa tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib keluvechi asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashqari ayollarning ijtimoiy tengsizligi, aholining savodlilik darajasining nihoyatda pastligi, qator musulmon davlatlarida ko'p bolalilikni qo'llab-quvvatlovchi an'analarining mavjudligi, homiladorlikning oldini oluvchi vositalarning va ular haqidagi tushunchalarning keng tarqalmaganligi kabi omillar ham rivojlanayotgan davlatlarda aholi tug'ilishining yuqori bo'lishiga olib kelgan.

3.2-jadval

Yer sharida aholi sonining o'sish sur'ati, %¹

Mintaqalar	Yillar		Prognoz
	1955-1984	1985-1999	
Dunyo bo'yicha	1,9	1,6	1,2
Yevropa	0,7	0,3	0,1
Osiyo	2,1	1,6	1,0
Afrika	2,6	3,1	2,5
Shimoliy Amerika	1,3	0,8	0,6
Lotin Amerikasi	2,0	2,0	1,4
Rossiya	1,3	0,8	0,6

Yer kurrasi aholisi 2012-yilda 7 milliarddan oshdi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi 2015-yilgacha har yili 80-85 million kishidan ko'payib borgan. Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, Yer shari aholisi asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar 3,5 marta ko'paygan. Aholining tez sur'at bilan ko'payishi XX asrga to'g'ri keldi va bu, asosan, rivojlanayotgan davlatlar hisobiga bo'lmoqda. Agar 1950-1990-yillarda aholi butun Yer sharida yiliga o'rtacha 1,8 % ko'paygan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 0,9 % ni va rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,1 % ni tashkil qiladi. 2000-yil avval Yer sharida 200 million kishi yashagan va uning aksariyati Osiyoda joylashgan. Hozirga kelib yer yuzida aholi quydagiicha tarqalgan:

¹ Manbu: Population Reference Bureau, 2011 World Population Data Sheet,

- Yevropa (Rossiya Fedaratsiyasining Yevropa qismi bilan birgalikda)..... 740 mln
- Osiyo (Rossiya Fedaratsiyasining Osiyo qismi bilan birgalikda) 4216 mln

- Afrika..... 1051 mln
- Amerika..... 942 mln
- Avstraliya va Okeaniya..... 37 mln

BMT prognoziga ko'ra dunyo aholisi 2000-yilda ~ 6 030 mln, 2005-yilda – 6 550, 2017-yilda – 7536 mln, 2125 g. – 8082 mln kishiga yetadi.

Dunyoda aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda Xitoy davlati bo'lib, 2017-yilda uning aholisi 1,3 milliarddan oshdi. Ikkinci o'rinda esa Hindiston davlati turadi. 2017-yilda Hindiston aholisi 1,4 milliardga yetdi. Xitoy va Hindiston aholisi Yer shari aholisining 36,7 foizini tashkil etadi¹.

Aholi soni bo'yicha keyingi o'rirlarda AQSH (325,8 million), Indoneziya (243,3 million), Braziliya (207,9 million), Pokiston (180,2 million), Bangladesh (164,2 million), Negeriya (190,9 million), Rossiya (146,8 million), Yaponiya (126,7 million) va Meksika (129,2 million)² davlatlari turadi.

Yer sharida aholi soni million kishiga yetmaydigan kichik davlatlar ham mavjud. Ularga 2017-yilda Amerikada 15ta, Osiyoda 4ta, Afrikada 9ta, Yevropada 9ta, Avstraliya va Okeaniyada 13ta davlatni kiritish munkin. Aholi soni bo'yicha dunyoda eng mitti davlatlar Afrikadagi Tuvalu (0.01 mill.), Nauru (0.01 mil.), Palau (0.02 mil.), Yevropadagi Monako (0.04 mil.), Lixtenshteyn (0.04 mil.), San-Marino (0.03 mil.) davlatlaridir².

XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning hamma mintaqasida aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati pasaydi, Xorijiy Yevropada, bu ayniqsa, sezilarli bo'ldi, faqatgina Afrikada bunday hodisa ro'y bermadi. Mazkur qora mintaqada hamon "*demografik portlash*" kuzatilmoqda. 2000-2025-yillarda ham Afrikada bu holat saqlanib qoladi (3.2-jadval). Oxirgi 30-40 yil ichida aholisi tez ko'payib borishi xos bo'lgan, rivojlanayotgan davlatlardagi demografik vaziyat qator mutaxassislarni "dunyoda aholi ortiqchaligi paydo bo'ladi" degan tashvishga ham olib keldi.

¹ Population Reference Bureau. 2018. World Population Data Sheet.

² Population Reference Bureau. 2018. World Population Data Sheet.

Rivojlanayotgan davlatlarda aholi ko'payishining asosiy sababi o'limning keskin kamayishi, tug'ilish darajasining yuqoriligi hamda o'rtacha umr ko'rish muddatining oshganligidir. Hozirgi paytda dunyo aholisining deyarli 60 % i Xorijiy Osiyoda, 15 % ga yaqini - Afrikada, 13 %i - Amerikada, 11 % i Xorijiy Yevropada, 0,5 % - Avstraliya va Okeaniyada hamda 6 % - MDH tarkibiga kirgan davlatlarda istiqomat qilishadi.

Aholi sonining tez oshib borishi Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilib, ularda aholi yiliga 2,5-3 % dan ko'payib bormoqda.

Yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirida rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni XX asr oxirlarida tez oshib ketdi. Aholining tez sur'at bilan ko'payib borishi rivojlanayotgan davlatlarda bugungi kunda ham davom etmoqda. "Aholi ko'payishi" muammosi, ayniqsa, Hindiston va Xitoy kabi davlatlar uchun juda tashvishli kechmoqda. Hindistonda XX asrning 90-yillarda aholining ko'payib borishida rekord tezlik qayd qilingan. Ushbu davrda Hindiston aholisi 1 yilda 15,6 millionga ko'paygan. XXI asrga kelib bu davlatda aholi soni 1 milliarddan oshdi. Bxarat (hindlar o'z mamlakatlarini shunday ataydilar) garchi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda birinchi o'nlikka kirgan bo'lsa ham, biroq ularning barchasi uzlusiz o'sib borayotgan aholi tomonidan "yeb tashlanmoqda". "Biz uchun eng xavfliси Xitoy yoki Pokiston atom bombasi emas, balki tug'ilish bombasidir!", - degan edi o'z zamonida Gandhi.

Hindiston rahbariyati "tug'ilishni nazorat etish" dasturlarini tuzishga majbur bo'ldilar. Bolalarning ko'payishini oilada baraka timsoli deb hisoblaydigan odamlar yashovchi mamlakatda tug'ilishning kamaytirilishi oson kechmadi. Qadimda bu yerda xudolarga qilinayotgan iltijolarda odamlar yomg'ir va farzandlar, ayniqsa, o'g'il bolalarmi ularga yuborilishini so'rар edilar. Shu bois, 1951-yilda mustaqil Hindistonning birinchi premer ministri Javoxarla'l Neru "Oilani rejalshtirish dasturi"ni boshlaganda, bu hol hind va musulmon ruhoniylarining keskin qarshiligiga va aholining ko'p qismi tomonidan tushunmovchiliklarga olib keldi. Shunday bo'lsada, Neruning qizi Indra Gandhi, 1966-yilda premer ministrik lavozimini egallab, mazkur dasturni faollashtirishga kirishdi. Biroq Indira Gandining besh yillik (1969-1974) rejalarida ko'zda

tutilganidek tug'ilishni 35 % dan 32 % ga kamaytirishning iloji bo'lmadi. Lekin keyingi besh yillikda bolalar tug'ilishini 30 % gacha tushirish rejalashtirildi. Davlatda tug'ilishni cheklash, nazorat etish bo'yicha turli harakatlar amalga oshirildi, lekin bu harakatlar qator qarshiliklarga ham uchradi.

3.3-jadval

Aholisi eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar (2017-yil)¹

Aholisi eng ko'p davlatlar	Aholisi, ming kishi	Aholisi eng kam davlatlar	Aholisi, ming kishi
Xitoy	1387,5	Nauru	0,01
Hindiston	1353,3	Palau	0,02
AQSH	325,7	San-Marino	0,03
Indoneziya	264,2	Monako	0,04
Braziliya	207,9	Grenada	0,1
Pokiston	199,3	Seyshel orollari	0,1
Nigeriya	190,9	Antigua-Barbados	0,1
Bangladesh	150,7	Mayot	0,2
Rossiya	146,8	San-Tome-Prinsipi	0,2
Yaponiya	126,7	Beliz	0,3

70-yillar o'rtalarida bo'lib o'tgan siyosiy noroziliklardan so'ng davlatning demografik dasturi "Oilaning farovonlik dasturi" deb ataladigan bo'ldi, uning asosiy maqsadi qilib esa "targ'ibot ishlari" qo'yildi. Ularni amalga oshirish uchun xorijiy mutaxassislar, shuningdek, jamoatchilik tashkilotlari ham taklif etildi. 1980-yili Hind davlati rahbariyati 2000-yilga mo'ljallangan yangi dasturni qabul qildi. Unga ko'ra: har bir oilada o'rtacha bolalar sonini 4,4dan 2,3ga kamaytirish, tug'ilishning umumiy koeffitsientini esa 33 % dan 21 % gacha qisqartirish, hech bo'lmaganda 60% er-xotinlar doimiy ravishda homiladorlikning oldini oluvchi vositalardan foydalanishi, shuningdek, bolalar o'limini kamaytirish ko'zda tutilgan edi. Bugungi kunda Hind sog'liqni saqlash va oila farovonligi departamenti ma'lumotlariga ko'ra hind oilalarining yarmidan ko'pi homiladorlikni

¹ Manba: Population Reference Bureau, 2017 World Population Data Sheet.

oldini oluvchi vositalardan foydalanishadi. Tug'ilish esa har bir oilaga 2,7 bolagacha kamaydi.

Xitoyda ham aholi ko'payishi muammosi mavjud. Bu holni chuqur anglash uchun demografik omilni va siyosatni hisobga olish lozim. Rasmiy xabarlarg'a ko'ra 2017-yil mamlakat aholisi 1,3 milliarddan oshdi (bu sayyora aholisining 19,5 foizini tashkil etadi). 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 1,5 milliardga yetadi. Biroq, ko'p g'arb analistik markazlari Xitoy aholisini hozirning o'zidayoq 2,2 milliard deb hisoblaydilar. Lekin, ko'p hollarda 1,6 milliard raqami qo'llanilmoqda. G'arb mutaxassislari bu borada, Xitoy rahbariyati dunyoni xitoyliklarning haqiqiy soni bilan qo'rqtib yubormasligi va aholining tabiiy o'sishini kamaytirish borasidagi o'z muvaffaqqiyatsizliklarini yashirish uchun shunday ma'lumotlar beradi deb hisoblaydilar. Biroq rasmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda ham Xitoyda xitoyliklarning soni butun jahonda negroid irqiga oid aholidan: Yevropa, Rossiya va AQSHdagi Yevropaliklardan ko'proqdir. Bu ko'p sonli aholi atrof-muhitga juda ulkan ta'sir qiladi: axir har bir inson yeyishi, kiyishi, ta'lim olishi va mehnat qilishi zarur. Iqtisodiyot ko'lamlari bo'yicha Xitoy AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turishiga qaramay, yangi milliy daromad borasida (bir kishiga o'rtacha daromad hisobida) hali ham rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida qolyapti.

Xitoy aholisining soni shunchalik ko'PKI, dunyo unga boshqa davlatlarga qaraganday munosabatda bo'la olmaydi. Xitoyni ozuqa bilan ta'minlash muammosi kundan kunga keskinlashmoqda. Bugungi Xitoy aholisining ko'payishi – bu Pekinning ichki iqtisodiy inqirozini susaytirish maqsadida investitsiyalar olish uchun boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga qilayotgan bosimidir. Bu hol, shuningdek, Pekinni G'arbning ehtimolidan holi bo'limgan shuhbali harakatlariga qarshiligidir: xitoyliklar qancha ko'p bo'lsa, Xitoyni shuncha "portlatmoqchi" bo'lganlar kamayadi.

1970-yillarning birinchi yarmida Mao Szedunning muallifligidagi "Odamlar to'lqinlari" konsepsiysi natijasida aholi soni keskin ko'payishi tufayli XXRning demografik rivojlanishini qayta ko'rib chiqish haqida jiddiy qarashlar boshlandi. 10 yilning ichida (1964-1974) Xitoyda aholi soni 700 mln.dan 900 mln.gacha ko'paydi. Biroq rasmiy siyosat doirasida tug'ilishni nazorat qilish faqatgina 70-yillarning oxirida boshlandi. Ana shu davrda agar

Xitoya aholi soni o'sishini tartibga solmasa mamlakatning taqdiri xavf ostida qolishi mumkin bo'ldi (Xitoya butun sayyoramiz aholisining 1/5 qismi yashaydi, xaydaladigan yerlarning esa atigi 7 foizi to'g'ri keladi). Biroq, bunday vaziyatda faqat buyruqbozlik va ta'qiqlashlar orqali ta'sir ko'rsatishning o'zi yetmasdi. Shu bois ham Xitoya tushuntirish va zo'rslash usullaridan baravar qo'llanilgan – mamlakatda kech nikohga kirish va kech farzand ko'rish, rag'batlantiriladi.

Xitoya 2016-yilning oxiriga qadar "*bir oila – bir farzand*" tamoyili tavsiya etilgan edi, 2016-yilning oktabr oyidan har bir oilada 2-tadan farzand ko'rishga ruxsat berildi. Demografik siyosatning mazkur asosiy qoidalariga rioya etish xitoy fuqarolariga qonun bilan belgilab qo'yilgan – XXR konstitutsiyasining 49-moddasida har bir oila farzandlar tug'ilishini nazorat etishi zarur deb ta'kidlangan. Xitoya tug'ilishni cheklash siyosatining natijalari yaqqol namoyon bo'ldi. Xitoy aholishunoslik jamiyatining vitse-prezidenti so'zlariga ko'ra, tug'ilishni rivojlantirish siyosati olib borilayotgan 20 yil davomida, Xitoy rahbariyati uch ko'rsatkichni: tug'ilish, o'lim, aholining o'sish darajasini pasaytirishga muvaffaq bo'ldi. Agar 1969-yilda tug'ilishining koeffitsienti har 1000 kishiga 34,1 promilleni tashkil qilgan bolsa, o'ttiz yil o'tgach – 16,0 promillega tushdi. O'sha davr (20 yil) mobaynida aholining tabiiy o'sishi deyarli 6 martaga kamaydi. (1000 kishiga 26,1dan 4,5 kishiga). Shunday qilib Xitoy qo'shimcha 300 mln. "og'iz" kulfatidan xalos bo'la olgan.

Xitoya aholi o'sishini cheklash muammosining hal etilishi bilan boshqa muammo vujudga kelmoqda. Hayotning o'rtacha davomiyligini uzaytirish ko'lamida bola tug'ilishini kamaytirish Xitoya aholining qarib borishi muammosini yuzaga keltirmoqda. Mutaxassislamning fikriga ko'ra 2040-yilda qari yoshdag'i xitoyliklar aholining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil qiladi. Qariyalar salmog'i 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarga nisbatan 2-3 marta ko'p bo'ladi. Har bir oila bir farzandidan tashqari yana 4 nafar qariyani ta'minlashi kerak bo'ladi; bu esa o'z navbatida, davlat byudjeti uchun qo'shimcha xarajatga (nafaqaga, ijtimoiy muhofazaga, tabiiy xizmatga) olib keladi.

Xitoy oldida turgan yana bir demografik muammo – bu butun mamlakat bo'ylab shaharlarda ish izlab yurgan dehqonlardagi tug'ilish masalasi. Bunday aniq ro'yxatga olishni iloji bo'lmagan migrantlar soni 80 mlndan oshiq. Har birini kuzatishning iloji yo'q, shuning

uchun ham ular muhitida aholini takror barpo etishni rejalashtirish mushkuldır. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilishning rekordli ko'rsatkichlari mamlakatning chet viloyatlarda kuzatilmogda; u yerlarda erta nikoh qurish hollari juda ko'p uchraydi, ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra bu holning sababi, chet hududlarda aholi savodlilik darajasining pastligidir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, XXRda 15 yoshdan oshgan savodsizlarning soni 180 mln.ni tashkil etadi, bu esa butun aholining 15,8 foizidir. Shuning uchun Xitoyda ta'lim muammosini ham tug'ilishni cheklash bilan bir qatorda hal etish lozim.

3.4-jadval

Yer shari aholisining o'sishi

Yilnomalar	Davr	Davrinin g'davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi
Eramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	-
(yangi era)	Antik davr	7000	50	0,03
	Yangi eraning boshlansishi o'rta asrlarning dastlabki yillari	2000	230	0,1
1000-yil	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1500-yil	O'rta asrlarning yakuniy davri	500	440	0,1
1650-yil	Yangi zamonning boshlansishi	150	550	0,3
1800-yil	Yangi zamon	150	952	0,5
1900-yil	Yangi zamonning yakuniy davri	100	1656	0,8
1950-yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
1980-yil	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
2000-yil	Hozirgi davr	20	6024	1,5

Xitoy mutaxassislari prognoziga ko'ra, 2050-yilda aholining o'sishi nolga tushar ekan. Aynan mazkur 100 yillikning o'rtalarida

Xitoy dunyoning o'ttacha rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishni rejalashtirgan.¹ G'arbiy, Sharqiy, Markaziy Afrikadagi qator davlatlar; Shimoliy Afrikadagi G'arbiy Saxara, Sudan; Janubiy Afrikadagi Namibiya, Svazilend davlatlari; shuningdek, G'arbiy, Markaziy va Janubiy Osiyodagi ba'zi davlatlar (Saudiya Arabiston, Quvayi, Eron, Omon, Falastin, Yaman, Afg'oniston, Butan, Laos)da hozirgi davrda ham aholining tabiiy o'sishi ancha yuqori darajada saqlanib kelmoqda va ularda ham aholini tez ko'payish muammosi qayd etilmoqda. Aholining bunday tez sur'atlar bilan o'sishi esa aholini oziq-ovqat, ish va yashash joylari bilan ta'minlashdek muhim, jiddiy iqtisodiy muammolarini² keltirib chiqaradi.

Ilmiy manbalarda XX asr oxirlarida planetamizda 1 milliard aholi kambag'allikda yashayotganligini, 500 million aholi to'yib ovqat yemayotganligini, har kuni 35 ming kishi ochlikdan halok bo'layotgani, dunyodagi 36ga yaqin davlatlar mavjud aholisini o'z resurslari yordamida boqa olmasligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. XXI asr boshlariga kelib sayyoramizda shiddat bilan ko'payib borayotgan aholini boqish muammosi bilan bir qatorda ekologik muammolar ham keskinlashib bormoqda. Ularga yer hosildorligining kamayib borishi, yer, suv va o'simlik dunyosining ifloslanib, o'rmonlarning kamayishi, natijada, azon tuynugining kattalashib, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etayotganligini qayd etish mumkin.

Yer shari aholisi soni uning ba'zi hududlarida juda tez ko'payib borayotgan bo'lsa, ba'zi hududlarida esa aholi soni ko'payishi demografik mezon darajasidan kamayib ketgan. Bunday holatni Yevropadagi barcha davlatlarda, shimoliy Amerika davlatlari, shuningdek, janubiy Amerika va Osiyodagi ba'zi davlatlarda kuzatish mumkin. Dunyo aholisi soni dinamikasi va hududiy tarqalishi xususiyatlarini o'rganish aholi geografiyasining muhim vazifalaridandir. BMT ma'lumotlariga ko'ra 2017-yilda dunyo aholisining soni 7,5 milliarddan oshib ketdi. Mutaxassislar prognoz etishlaricha dunyo aholisining soni 2025-yilda 8 milliardga, 2050-yillarda esa 9,4 milliardga yetar ekan.

Yer kurrasida insonning paydo bo'lishi va ko'payib borishi haqida ilmiy manbalarda qator ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularda aholining ko'payib borish tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

¹ Экономическое обозрение. - Ташкент. 2001 г. № 1. ср. 57 - 59.

² Бўриев М.Р. Демографик муаммолар. -Тошкент. 2005. 9-бет.

omillar bilan bog'liq bo'lganligi qayd etilgan. BMT tomonidan jahon davlatlari bo'yicha ishlab chiqqan demografik ko'rsatkichlari guvohlik berishicha, 2017-yili Yevropa davlatlari bo'yicha tug'ilish va o'lish koefsitsientlari 11 % ga tenglashib, aholining tabiiy o'sishi "0" ga tushib qolgan. Latviya, Litva, Germaniya, Belorussiya, Bolgariya, Vengriya, Moldaviya, Ruminiya, Rossiya, Ukraina, Xorvatiya, Serbiya kabi davlatlarda esa aholi tabiiy o'sishi ko'rsatkichi "0"dan ham kamayib -0,1, -0,5 foizni tashkil etmoqda¹. Boshqacha qilib aytganda, mazkur davlatlarda "demografik inqiroz" jarayoni boshlangan. 2015-yilda dunyoning 83ta davlatida tug'ilish darajasi oddiy aholi takror barpo bo'lishi darajasining eng past ko'rsatkichidan ham kichik bo'ldi (bitta ayolga 2,1tadan bola), keyingi avlod vakillari o'zidan oldingi avlod vakillariga nisbatan kam sonli bo'lmoqda. Bundan tashqari, Yevropaning 15ta davlatida qisqargan aholi takror barpo bo'lishi qayd etildi, yoki demografik inqirozga yuz tutdi². Dunyo aholisining soni dinamikasi ko'rsatishicha sayyoramizda aholi muntazam ko'payib kelgan. Aholining eng tzr ko'paygan davri XX asrga to'g'ri keladi. 1900-1950-yillarda Yer shari aholisi har yili o'rtacha 0,90% dan ko'paygan bolsa, 1950-2000-yillarda bu ko'rsatkich 1,75 % ga yetdi, 2000-2009-yillarda esa aholining o'sish sur'ati 1,42 foizni tashkil etgan. Sayyoramiz aholisining ko'payib borishida uning alohibida hududlari farq qiladi³.

Afrika. Hozirgi davrda (2017-yilda) Afrika aholisi 1250 mln. kishiga yetgan. Ushbu ko'rsatkich dunyo aholisining 14,7 foizini tashkil etadi. Qit'a aholisi har yili 3 foizdan, ba'zi davlatlarida esa 4,6 foizdan (Mozambik) ko'payib kelgan. 2000-2010-yillarda aholining ko'payish sur'ati kamayib, yiliga o'rtacha 2,65 % ni tashkil etmoqda. Amerika qit'asi aholisi 2017-yilda 1005 million kishini tashkil etgan. Aholining 37,1 foizi Shimoliy Amerikada, 16,5 foizi Markaziy, 41,9 foizi Janubiy Amerikada va qolgan 4,5 foizi esa Karib dengizidagi davlatlarda istiqomat etadilar. Amerika aholisining shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixi bilan bog'liqdir. 2000-2010-yillarda qit'a aholisi yillik o'sish sur'ati 0,87% ni tashkil etgan⁴.

¹Population Reference Bureau. 2008. World Population Data Sheet.

²Тоҷиева З.Н. Ўзбекистон Республикаси демографик жараёнишлари ва унга оғизланиш худуматлари. Докторантус диссертацияси.-Ташкент., 2017. Б. 46.

³Буриева М.Р., Стамова Д.П. Дунё эҳолини. -Ташкент 2008. 7 – 12 бетадар.

⁴Чирорафа қayd etilgan manba, б. 13 – 28.

Bugungi kunda dunyo aholisining 13,5 foizi Amerika hissasiga to‘g‘ri keladi.

Osiyo. 2017-yil ma‘lumotiga ko‘ra qit‘a aholisi soni 4494 million kishiga yetgan. Bu qit‘ada sayyoramiz aholisining eng ko‘p qismi – 60,5 foizi istiqomat etadi. Osiyo aholisining 32,3 foizini Xitoy va 28,4 foizini Hindiston aholisi tashkil etadi. Hozirgi davrda qit‘a aholisi faqat tabiiy o‘sish hisobiga (1,2 %) ko‘payib bormoqda. Aholining tabiiy o‘sishi Iraq, Jordaniya, Falastin, Pokiston, Nepal, Tojikiston, Fillipin va Sharqiy Timor davlatlarida yuqori bo‘lib 2,1 – 3,1 foizni tashkil etadi.

Yevropa. Yevropada aholi soni 2017-yili 745 millonga teng. Bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 10,8 foiziga tengdir. Yevropa dunyo qit‘alari ichida aholisi nisbatan sekin ko‘payib kelgan hududdir. Mutaxassislar XX asr oxirida Yevropa aholisining ko‘payish sur’ati deyarli to‘xtashi (0,3%) haqida proqnoz etgandilar. Darhaqiqat, XXI asr boshida Yevropada aholining tabiiy o‘sishi 0,0 % ga tushib qolgan. Yuqorida qayd etilganidek, Yevropaning qator davlatlari demografik inqirozga yuz tutgan. Bugungi kunda Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniya 66,2 mln, Germaniya 83,1 mln, Italiya 60,5 mln kishi bilan aholi soni bo‘yicha yetakchilik qilishmoqda. Bularidan Italiya va Germaniyada tabiiy ko‘payish mansiy 2 tani tashkil etayotganligi aholi soni kamayishini yanada tezlashishiga olib keladi.

Australiya va Okeaniya. Avstraliya va Okeaniya – aholisi hozirgi kunda 42 millionga (2017-yilda) yetdi. Bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 0,5 foiziga teng demakdir. Mazkur hudud aholisi tabiiy o‘sish hisobiga 1,1 %, migratsion o‘sish hisobiga esa 7 foizdan ko‘payib kelmoqda. Avstraliya va Okeaniya hozirgi kunda dunyo bo‘yicha migratsion o‘sish eng yuqori hudud hisoblanmoqda. Ushbu jarayon ayniqsa, Avstraliya davlatining o‘zida yuqori bo‘lib, 12 %ni tashkil etmoqda. Qit‘a aholisining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 2000-2009-yillarda 2,31% ga teng bo‘lib, asosiy qismi migrantlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi soni nimani anglatadi?
2. Aholi sonining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?

3. XIX asr o'rtalarida Yer shari aholisining o'sish sur'atlari?
4. Aholining o'sish suratlariga ta'sir etuvchi omillarni baholang?
5. Aholining o'sish dinamikasi nima?
6. Qaysi davlatlar aholisini o'sish sur'atlari juda ham past?
7. O'sish sur'atlari o'ta yuqori bo'lgan davlatlarga misollar keltiring?
8. Aholi soni shiddat bilan o'sib borayotgan davlatlarni sanab bering.
8. Aholining absolyut o'sish ko'rsatkichlarini tushuntiring.
10. Aholi dinamikasi deganda nimani tushunasiz?

4-MAVZU: AHOLI TABIIY HARAKATI VA UNING DUNYO MIQYOSIDA GEOGRAFIK TAFOVUTLARI

Reja:

- 4.1. Dunyo aholisi tabiiy harakati va uning geografik xususiyatlari.
- 4.2. Tug'ilish jarayonining mintaqaviy jihatlari.
- 4.3. Aholi o'limi, sabablar, omillar va geografik qonuniyatlar.
- 4.4. Aholi o'limi va hayot davomiyligi.

4.1. Dunyo aholisi tabiiy harakati va uning geografik xususiyatlari

Demografik vaziyat ma'lum davrdagi ma'lum hududning demografik holati bo'lib, u aholining soni, tarkibi va demografik jarayonlari asosida yuzaga keladi. Aholi geografiyasи va demografik tadqiqotlarda aholi soni eng asosiy ko'rsatkichdir. Yuqorida qayd etilganidek aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlarni tahlil etganda uning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalilanadi. Aholi sonining juda yuqori sur'at bilan ko'payib yoki kamayib ketishi demografik vaziyatning keskin o'zgarishiga olib keladi. Demografik vaziyatning shakllanishida aholining sotsial, yosh, jinsiy va oilaviy tarkibi, muhim omil hisoblanadi. Jinsiy mutanosiblik, aholi tarkibida reproduktiv yoshdagи aholi, yoshlar salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish jarayonlariga ijobiy ta'sir etib, aholi sonining muntazam ko'payib borishini ta'minlaydi. Aksincha, aholi tarkibida qariyalar salmog'ining yuqoriligi demografik vaziyatga o'ziga hos ta'sir etadi.

Bunday vaziyatda aholi tabiiy o'sishi kamayib, mehnat resurslari shakllanishi sustlashadi va h.k.

Demografik vaziyatning yuzaga kelishida demografik jarayonlar alohida ahamiyatga egadir. Demografik jarayonlar – insonlarning hayotida ularning avlodlarining almashuvi bilan bog'liq bo'lgan voqealarning kechishidir. Asosiy demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish (nikohning bekor etilishi yoki tugatilishi) kiradi.

Demografik jarayonlar o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil xususiyatga egadirlar. Birinchisi, tug'ilish va nikoh bo'lib, bu jarayonlar avlodlar almashinuvida, inson naslini davom etishida, aholi sonining ko'payib borishini ta'minlovchi ijobiy xususiyatga ega bo'lgan to'ldiruvchi omillardir. O'lim va ajralish esa aksincha, aholi sonini qisqarishiga olib keluvchi, avlodlar almashinuviga salbiy ta'sir etuvchi – kamaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Demografik jarayonlar ta'sirida aholida har kuni, har soatda turli demografik hodisalar sodir bo'ladi: ko'plab chaqaloqlar tug'iladi, aholining ma'lum qismi hayotdan ko'z yumadi, qator nikohlar qayd etilib, yangi oilalar tashkil topadi, ba'zi nikohlar esa buziladi, ajralishlar, aholining bir qismi ko'chib ketsa, yana bir qismi esa ko'chib keladi. Shunday qilib, demografik tarkib yildan yilga o'zgarib turadi. Bunday jarayonlar bir qaraganda oddiy, bo'lishi muqarrar jarayondek ko'rindi, lekin mazkur jarayonlarning sodir bo'lishi juda ko'p sotsial-iqtisodiy omillar bilan bog'liqdir.

Ana shu omillarning demografik jarayonlarga ta'siri, ta'sir mexanizmi vaqtlar davomida jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zgarib turadi. Natijada, demografik jarayonlar ham miqdor, ham sisat jihatidan har bir davrda, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada turlicha kechadi. Shu bois demografik jarayonlarni o'rganishda avvalo: 1) alohida demografik jarayonlar, umuman aholi takror barpo bo'lishi xususiyatlarini o'zgarishida qanday qonuniyatlar mavjud; 2) alohida davrlar formatsiyalar demografik jarayonlarning shakllanishida, aholi takror barpo bo'lishining sisatiy xususiyatlarida qanday omillar asos bo'lgan? kabi savollarga javob berish lozimdir. Mazkur savollarning javobi esa demografik tahlil yordamida aniqlanadi.

Demografik tahlilning asosiy vazifasi, eng avvalo, demografik jarayonlar aholi takror barpo bo'lishi rivojlanishining barcha sisatiy

qonuniyatlarini, sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlarini, ma'lum davrda yoki ijtimoiy-iqtisodiy bosqichda demografik jarayonlarga ta'sir etgan omillar tizimini aniqlashdan iboratdir. Demografik tahlilda demografik jarayonlarning mutlaq (miqdoriy ifodasi) va nisbiy (demografik koefitsientlar) ko'rsatkichlaridan, demografik statistika, kartografik va demografik uslublardan foydalaniadi.

BMT tomonidan 1992-yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada demografik muammoni hal etish har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturining asosiy qismi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Har bir davlat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, o'sib borayotgan aholisini boqishi, hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishda o'zining demografik siyosatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishi zarur.

Bugungi kunda Yevropa davlatlarida oiladagi farzandlar soni demografik mezondan (2,5ta bola) ancha past bo'lib, ular "demografik inqiroz" holatidadurlar. Yevropa bo'yicha 2017-yilda tug'ilishning umumiy koefitsienti (1000 aholiga nisbatan tug'ilganlar soni) ham 11 promilleni, o'linning umumiy koefitsienti (1000 aholigi nisbatan o'lganlar soni) ham 11 promilleni tashkil etib, aholining tabiiy o'sishi 0,0ga teng bo'lgan. Qator davlatlarda esa, o'lganlar soni tug'ilganlardan yuqori bo'lib, aholi sonining kamayishi, ya'ni aholining qisqargan takror barpo bo'lishi kuzatilmoxda. Bunday davlatlarga Shimoliy Yevropadagi Latviya, Litva; G'arbiy Yevropadagi Germaniya; Sharqiy Yevropadagi Belarusiya, Bolgariya, Vengriya, Moldaviya, Ruminiya, Rossiya, Ukraina; Janubiy Yevropadagi Xorvatiya, Serbiya kabi davlatlar kiradi. Bugungi kunda demografik inqirozning eng yuqori holati Rossiya davlatida kuzatilmoxda. 2017-yil Rossiya tug'ilish 13; o'lim 13; aholining tabiy o'sishi -0,0 promilleni tashkil etgan (4.1-jadvalga qarang).

Aholi tabiiy o'sishining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari mavjuddir. Aholi tabiiy o'sishining mutlaq ko'rsatkichi tug'ilganlar va o'lganlar sonidagi farqda ifodalananadi:

1. $\Delta P_{tab} = N - M$

N – ma'lum davrdagi tug'ilganlar soni;

M – ma'lum davrdagi o'lganlar soni. Masalan, O'zbekiston Respublikasida aholi tabiiy o'sishini 2017-yil uchun yuqorida keltrilgan formula yordamida aniqlaymiz:

N2007 - 608,9 ming,
M2007 - 137,4 ming.

$\Delta P_{2007} = 608,9 - 137,4 = 471,5$ ming. Demak, O'zbekiston aholisi 2017-yilda tabiiy harakat asosida 471,5 mingga ko'paygan. Aholining mutlaq tabiiy o'sishi 471,5 ming kishini tashkil etgan.

4.1-jadval

Dunyo aholisi tabiiy harakatining ko'rsatkichlari (har 1000 aholiga nisbatan, 2017-yil)¹

Mintaqalar	Tug'ilish	o'lim	Tabiiy ko'payish	Mexanik ko'payish
Butun dunyo	20	8	12	0
Afrika	35	9	26	-1
Amerika	15	7	8	1
Osiyo	18	7	11	0
Avstraliya va Okеaniya	18	7	11	4
Yevropa	11	11	0,0	2
Rossiya	13	13	0,0	2
O'zbekiston	23	5	18	-1

Aholi tabiiy o'sishini dunyo hududlari, davlatlari, alohida viloyat, tumanlari bo'yicha taqqoslashda uning nisbiy ko'rsatkichidan foydalananadi. Mutlaq ko'rsatkich asosida hududlarni taqqoslab bo'lmaydi, chunki har bir hudud aholisining soni turlicha bo'tlib, ulardag'i tug'ilganlar, o'lganlar soni ham aholi umumiy soniga bog'liq bo'ladi. Aholi tabiiy o'sishining nisbiy ko'rsatkichi aholi tabiiy o'sish koeffitsienti (K) orqali aniqlanadi.

$$K_{A \text{ tab}} = \frac{T_k}{P} * 1000$$

ΔP_{tab} – aholi tabiiy o'sishining mutlaq miqdoridagi ifodasi;

P – ma'lum davrdagi aholinig o'rtacha soni;

T – davr, sana ifodasi. Mazkur formula yordamida O'zbekistonda 2017-yilda aholi tabiiy o'sishi koeffitsientini aniqlaymiz. 2017-yil O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi (ΔP_{tab})

¹ Manbu: Population Reference Bureau, 2017, World Population Data Sheet.

Ornacha shohi sonini aniqlash o'rganiylayotgan yil va keyning yil shohisi qo'shilib, ikkiga bera huanadi. $P_{2007} + P_{2008}$. Demografik jarayonlami 1000 aholiga nisbatan oxaglaganda ulmigan surʼija yoniga quyidagi belgi – “qo'yiladi yoki “promille” soʻzi yoziladi. “Promille” – mingdan biʼ degan maʼnoni anglatadi.

471,5 ming kishini, aholining o'rtacha soni esa (R_{2007}) 26867 ming kishini tashkil etgan.

$$K_{2007} = \frac{471,5}{26867} * 1000 = 17,5 \text{ K}_{2007} = 17,5 \%$$

Demak, 2007-yil O'zbekistonda har 1000 kishi hisobiga tabiiy o'sish koefitsienti 17,5 kishiga teng bo'lgan.

Biologik hodisa hisoblanmish tug'ilish va o'lim asosiy aholi takror barpo bo'lishidagi ko'rsatkich ekanligini yuqorida aytib o'tgandik. Bu ko'rsatkichlar miqdoriy jihatdan 1000 kishiga hisoblanadi va promilleda ifodalanadi.

4.2. Tug'ilish jarayonining mintaqaviy jihatlari

Tug'ilish – ma'lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko'rish jarayonidir. Tug'ilish – biologik jarayon, lekin u ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidagi o'zgarishlar tug'ilish darajasini belgilaydi.

Tug'ilishning biologik asosi insonning pushtliliqi, (plodovitos) nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir. Erkak bilan ayol, nikoh juftligining farzand ko'rishga bo'lgan biologik qobiliyati pushtlilik deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanilib, har bir ayolning farzand ko'rish davridagi (o'rtacha 15-49 yosh) jami homiladorligi bilan belgilanadi. Pushtlilik erkak va ayolning biologik xususiyatlariga, salomatligiga bog'liqidir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha sog'lom ayollar farzand ko'rish davrida eng ko'pi 35tagacha homilador bo'lishi (egizaklar ham bitta homiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan. Lekin har bir ayol o'rtacha 10-12ta tirik farzand ko'rishi, 10-15 marta homilador bo'lishi (o'lik tug'ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin. Tug'ilish – tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning reproduktiv mayli, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqidir. Reproduktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada, inson o'z pushtliligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalananmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga

olgan holda farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzand ~~da~~
tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Aholining tabiiy ko'payish jarayonida tug'ilish alohida o'ringa ega bo'lib, unga tabiiy-biologik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ta'lif darajasi kabi omillari ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholining balog'at yoshiga tez yetishi va reproduktivligiga (tug'ilish imkoniyatining uzoqligi) mamlakatlarning iqlim xususiyatlari, tabiiy-biologik omil sifatida qaralsa, demografik omillarga esa aholining jins, yosh bo'yicha tarkibi qaraladi. Aholining farovonligi, madaniy va ta'lif darajasi ham mamlakat aholisining tug'ilish ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirda yer shari aholisi tug'ilish umumiy koeffitsienti har ming kishiga 20 promillega, aholi o'limi 8 promillega, tabiiy ko'payish 12 promillega (2018-yil) teng bo'lmoqda. 1950-1966-yillarda dunyodagi iqtisodiy rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlari va Yaponiyada har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 16-22ni tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 35-45, hatto Afrikadagi ba'zi davlatlarda esa 50-60ni tashkil etdi¹. Tug'ilishning ko'p yoki kam bo'lshi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan bog'liqdir.

Ma'lum bir ayollar (va erkakalar)da tug'ilishni demografik tadqiq etish mikrofertilnost nomi bilan ma'lum, chunki u har bir insonga tegishli. Alohida insonlar darajasida tug'ilishni o'rganishning bir qancha turli usullari mavjud:

1) ma'lum bir vaqt oralig'ida tug'ilishlar miqdorini o'rganish, masalan aholi ro'yxatlari vaqtini yoki so'rovlar vaqtida;

2) ayollar (va erkakalar)da tug'ilishlar sonini o'rganish tug'ilgan bolalarning ma'lum bir ING yoshi bilan belgilanadi;

3) hayot siklining turli bosqichlarida tug'ilish intervallariga va muddatlariga urg'u berish (aytaylik, 25 yoshdan 29 yoshgacha, yoki 45 va 49 yosh oralig'i);

Tug'ilishni o'rganishning boshqa bir turi – bu makro darajadagi yondashuvlardan foydalanish bo'lib, u ma'lum bir vaqt davomida aholi yoki uning tarkibiy qismida tug'ilish jarayonining kechish tezligini aniqlashda foydalilanadi. Aniq bir shaxslarning pushtiliginini o'rganish o'miga, makrofertilnost butun aholida tug'ilishni o'rganadi

¹ Гусекатий Я.Н. Программа контроля над рождаемостью в развивающихся странах. - М.: «Миссия», 1969 г. с.

(Poston va Frisbi, 2005). Demograflarning tug'ilishni makro darajada o'rganishining sababi, keyinchalik uni o'lim bilan solishtirish va reproduktiv o'zgarishlar tezligini hisoblashdan iborat. Shu bilan birga, ular vaqt davomida kechadigan turli tug'ilish darajasini solishtiradilar. Bu bobda biz birinchi konseptualizatsiyasi va tug'ilishning darajasini hisoblashni ko'rib chiqamiz. Ikkinchidan, biz bevosita tug'ilish determinatlarini muhokama qilamiz. Bu, asosan, biologik faktorlar bo'lib, bevosita tug'ilishga olib keladi va o'z-o'zidan unga ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Uchinchidan, nega ba'zi ayollar yoki erakaklar jamiyatdagi boshqa ayollar yoki erkaklarga nisbatan ko'proq farzand qo'rishi haqida demograflarning nazariyalarini ko'rib chiqamiz. So'ngra biz dunyoda tug'ilish jarayonida kechayotgan an'analarni va ularning vaqt davomida qanchalik o'zgarganligi, so'ngra AQSHda tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar va ulardag'i farqlarni ko'rib chiqamiz. Biz yoshlar orasida tug'ilish, erkaklarda pushtilik darajasi bilan xulosa qilamiz.

Tug'ilish – demografik jarayonlardan biri bo'lib, u ham qator ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit tug'ilish darajasini belgilaydi. Biologik jarayon bo'l mish tug'ilish jarayoni ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Bularga ayollarning jamiyatdagi mavqeい, bandligi, bolalar o'limi, moddiy shart-sharoiti, davlatning demografik siyosati, aholining tarkibi va hokazolar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida aholining yashash sharoiti, aholi tug'ilish darajasida geografik farqlarni yaqqol ifodalaydi.

B. S. Urlanis: "qayerda kambag'allik va qashshoqlik bo'lsa, o'sha yerda turmush sharoit, madaniyat past darajada bo'ladi. Aholi o'rtasida esa tug'ilish darjasasi yuqori bo'ladi", – deb o'z fikrini bildiradi. Haqiqatdan aholining turmush sharoiti, madaniyati yuksalgan sayin uning o'rtacha umr ko'rish davri uzayadi. Aholi tarkibida qariyalar miqdori oshadi, topgan daromadlarini bolalarining ehtiyojlarini qondirish va o'zlarining yaxshi yashashiga sarflashadi. Demak, aholi madaniy darajasining ko'tarilishi tug'ilish ko'rsatkichining pasayishiga xizmat qiladi desak xato qilmaymiz.

XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan. XX asrga kelib aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallahsuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi,

fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida tug'ilish bir munkha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim esa past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatda bo'lgan bo'lsa, XX asrda xuddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtida tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillardan yana biri, bu ayollarning jamiyatdagi o'rni. Ayniqsa, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tug'ilishga, oiladagi farzandlar soniga ta'sir etadi. Oilada faqat farzand tarbiyasi va uy ishlari bilan band bo'lgan ayolga nisbatan ma'lumotli, biron bir sohada ishlaydigan ayolda farzandlar kam bo'ladi. Chunki, bu ayollar kechroq turmush quradi, ularning bilim, madaniyat darajasi, qiziqishlari ko'p bolalilikni inkor etadi. Yuqorida misol keltirilgan rivojlangan Yevropa davlatlari aholisi jinsiy tarkibida ayollarning 45-50 foizi xalq xo'jaligida band. Osiyo, Afrika davlatlarida esa bu raqam juda kichik. Afrikada ayollarning atigi 5 foizi ishlab chiqarishda qatnashadi. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ishtirok etishi, nafaqat davlatlar balki, ularning hududiy tarkibida ham bir-biridan keskin farq qiladi. Shu boisdan shahar aholisi va qishloq aholisi o'rtasida tug'ilish darajasi bir xil bo'lmaydi.

Turli makon va zamonalarda hamisha qishloq aholisi o'rtasida shahar aholisiga nisbatan tug'ilish darajasi yuqori bo'lib kelgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 foizdan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizatsiya jaryoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi. 1970-yili Respublikamiz shahar aholisining tug'ilish ko'rsatkichi har 1000 kishiga 26,7 % ni, qishloq aholisida esa 37,5 % ni tashkil etgan. 1990-yilga kelib shahar aholisi miqdori 2 martaga oshdi, tug'ilish koefitsienti 0,7 % ga kamayganligi kuzatiladi. 2004-yilda tug'ilish darajasi, nafaqat shahar aholisida, umuman mamlakat doirasida ham pasaydi. Shahar aholisi miqdori tobora o'sishda davom etmoqda. Shahar aholisi tug'ilish jarayonida bu yerdagi aholining tarkibi, migratsiyasi ham muhim rol o'yaydi.

Respublikamiz aholisi tug'ilish jarayonining pasayishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchi hisoblanmoqda. Ijtimoiy hayotdagi

moddiy shart-sharoit u yoki bu darajada ma'naviy hayotda, oilada, nikoh qurishda, demografik jarayonlarda o'z aksini topmadı. Ma'lumki, bizning davlatimiz ko'p yillardan beri ko'p bolalik an'anasi qo'llab-quvvatlab kelgan mamlakatdir. Bu albatta tug'ilish jarayoniga ijobiy ta'sir etgan. Ammo mustaqillik yillarida ushu an'anada sal o'zgarishlar ro'y bera boshladiki, oqibatda, tug'ilish darajasi borgan sari pasaya bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi. Ba'zi iqtisodi nochor, qoloq davatlarda tug'ilish ko'rsatkichi haddan tashqari baland. Odatda, nochor, qashshoq oilalarda farzandlar ko'p tug'iladi va o'z navbatida, o'lim darajasi ham yuqori bo'ladi. Masalan, Afrikada tug'ilish darajasi 40 % va undan ham yuqorini tashkil etadi.

Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish tug'ilish darajasini oshirsa, aksincha, kech nikohga kirish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlaridagi demografik vaziyatni qulay deb baholash mumkin. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlari erta nikohga kiradi, G'arbiy Yevropada esa aksincha. Nikoh qurish jamiyatda avlodlar almashinuvni uchun zamin bo'lib xizmat qilsa, ajralish tug'ilish darajasini sezilarli pasayishiga sabab bo'ladi. Qayerda ajralishlar ko'p bo'lsa, o'sha hududda tug'ilishning pastligini kuzatamiz. Ajralishning oldini olish, tug'ilish darajasini bir me'yorda boshqarish davlat ahamiyatiga ega masala hisoblanadi. Shu boisdan, demografik jaryonlarni nazorat qilish, ba'zi hollarda choralar ko'rish, tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etish maqsadlarida har bir davlat tomonidan "demografik siyosat" yuritiladi.

Aholining tabiiy o'sishi past bo'lgan geografik hududlarda tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat olib boriladi. Bunda aholi ham moddiy, ham ma'naviy rag'batlantiriladi, yosh oilalar uchun sharoitlar yaratiladi, yuqorida keltirilgan ajralishlar davlat tomonidan nazoratga olinadi va hokazo. Hozirda bunday tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat g'arb davlatlarida yurg'izilmoqda. Aksincha, tug'ilishni cheklash degan siyosatni ilgari surayotgan davlatlar ham mavjudki, bular tabiiy ravishda aholisi tezlik bilan ko'payotganligi sabab shunday siyosat olib borishga majbur.

Tug'ilishni cheklash siyosati rivojlanayotgan **Osiy**-mamlakatlariiga xos va mos. Jumladan, aholisining o'sish sur'a baland bo'lgan Xitoy, Hindiston, Indoneziya kabi davlatlarda dunyo aholisining 41,0 foizi yashaydi. 2016-yil oxiriga qadar Xitoyda **ert**-oila qurish, ikkitadan oshiq farzand ko'rish butunlay man etilgan **edi** 2016-yil oktyabr oyidan boshlab Xitoy oilalarida endi ikkitada farzand ko'rishga rasmiy ruxsat berildi.

Tug'ilishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri turli geografihududlarda bir xil emas. Bu esa uning ko'rsatkichlarining turli joyda xilma-xil bo'lishiga olib keladi. Demak aholi takror barpo bo'lishida, o'sish sur'atining pasayishida yoki ko'tarilishida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi deyish maqsadga muvofiq.

Aholi takror barpo bo'lishida ya'ni yangi avlodlarning dunyoga kelib, insoniyat naslini davom ettirishida tug'ilish muhim demografik jarayon hisoblanadi. Demografik jarayonlarni mukammal o'rganishda, ulami turli aholi guruhlari, davlatlari, dunyo hududlari bo'ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffitsientlardan foydalaniladi. Ushbu koeffitsientlar yordamida o'rganilayotgan demografik jarayonlarning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o'rganiladi.

Ma'lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma'lumotlar orqali bevosita aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir demografik jarayonlarni maxsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffitsientlar yordamida o'rganiladi. Buning uchun qayd etilgan demografik jarayonlarning 1000 kishiga nisbatan bo'lgan miqdori aniqlanadi. Demak, 1000 kishi demografik jarayonlarni o'rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich yuqorida qayd etilganidek "promille" deb yuritiladi va quyidagicha — "%" belgilanadi.

Demografik koeffitsientlar alohida demografik jarayonlarni ifodalaydi. Demografik koeffitsientlar umumiyligi maxsus va xususiy jihatlariga ega bo'lgan *uchta asosiy tushunchalari mavjud*. Aholi takror barpo bo'lishi tug'ilishning haqiqiy miqdoridir, ammo u tug'ilgan qiz bolalarga tegishlidir (faqatgina o'g'il bolalar tug'ilishini ifodalaydigan demografik termin mavjud emas). Syerpushtlik tirik tug'ilganlarning potensialiga va biologik xususiyatlariiga bog'lidir.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$n = \frac{N}{TP} \cdot 1000$$

T – o'rganilayotgan davr (yil).

P – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

N – o'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni.

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti yuqorida qayd etilganidek promilleda hisoblanadi. Bu koeffitsientdan tug'ilish darajasini ifodalashda ko'proq foydalilanadi. Uning yordamida ma'lum hudud yoki avlodlardagi tug'ilishda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy tarzda o'rganilishi mumkin, lekin tug'ilishning umumiy koeffitsienti tug'ilish darajasini ifodalashda biroz dag'alliklarga yo'l qo'yadi. Chunki bu ko'rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir etadi. Agar o'rganilayotgan hudud aholisi tarkibida farzand ko'rish yoshiga yetmagan bolalar (0-14) va farzand ko'rish yoshidan o'tgan keksalar (60 yosh va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog'i yuqori bo'lsa, tug'ilish umumiy koeffitsientining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Demograf olimlar B. S. Urlanis, V. A. Borisovlar tomonidan tug'ilish darajasini tug'ilish umumiy koeffitsienti yordamida baholash mezonini aniqlangan. Umumiy mezon bo'yicha o'rganilayotgan hudud yoki aholi guruhidagi tug'ilishning umumiy koeffitsienti 16-promilledan kam bo'lsa, tug'ilish darajasi past. 16-24 promille bo'lsa-o'rtta, 25-29 promille bo'lsa o'rtadan yuqori, 30-39 promille bo'lsa yuqori va 40 promilledan baland bo'lsa tug'ilish darajasi juda yuqori hisoblanadi¹.

Amerikalik olimlarning manbalarida keltirilishicha, tug'ilishning umumiy koeffitsienti (CBR) tug'ilishning birinchi ko'rsatkichidir. Bu har 1000 kishiga nisbatan bir yilda tug'ilgan chaqaloqlarning shu yildagi aholining o'rtacha soniga nisbatiga tengdir. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{CBR} = \frac{\text{number of births}}{\text{midyear population}} * 1,000$$

2007-yilda dunyo bo'yicha CBR 21/1000 bo'lgan. Bu shuni anglatadiki. 2007-yilda jami aholida har 1000 kishiga nisbatan 21ta

¹Демографический энциклопедический словарь. - М. 1985. с. 209.

tug'ilish qayd qilingan. Kontinentlar orasida CBR 2007-yilda Afrikada eng yuqori 38dan balahd, eng past Yevropada 10 orasida bo'ldi. 2007-yilda Afrikada har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar Yevropaga nisbatan deyarli to'rt barobar ko'pdil. Shimoliy Amerikada CBR 14 promille (CBR AQSHda ham 14 promille); Lotin Amerikasida 21 promille; Osiyoda 19 promille; Okeaniyada 18 promille (Population Reference Bureau, 2007a). 2007-yilda dunyoning aksariyat mamlakatlarida CBR minimum 8 promilledan Makao, Janubiy Koreya, Germaniya va Tayvanda ham maksimum 50 promillegacha Liberiya va Kongo Demokratik Respublikasida 49 promille Angolada tashkil etdi. Qoidaga ko'tra CBR 30 promilledan baland bo'lsa yuqori. 15 promilledan past bo'lsa past hisoblanadi.

CBR unchalik aniq bo'limgan ko'satkichdir, sababi o'rtacha aholi soni olingen tug'ilish jarayonida ishtirok etmaydigan aholi qismi, yosh ayollar (15 yoshgacha bo'lgan) va tug'ish yoshidan o'tgan ayollar (50 yoshdan yuqori) ham kiritiladi. Bu koefitsientning kamchiligi shundan iboratki, mazkur ko'satkichga erkaklar hain qo'shiladi. umuman olganda erkaklar tug'ishda ishtirok etmaydilar. Shunga qaramay, ba'zi demograflar bu jarayonni ham o'rganishadi, biz buni keyinroq ko'rib chiqamiz.

Tug'ilishning umumiy koefitsienti (CBR)dan farqli ravishda tug'ilishning yosh bo'yicha koefitsienti yoki xususiy koefitsienti (GFR)ni aniqlashda biz tug'ruq yoshidagi ayollarni olamiz. Amaliyotda juda oz miqdordagi ayollar 15 yoshgacha va 49 yoshdan so'ng farzand ko'rildilar, shuning uchun demograflar odatda farzand ko'rish yoshi chegaralari sifatida 15-49 yosh orasidagi diapazonni, ya'ni oraliqni olishadi. Ammo bu diapazon universal hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda 44 yoshdan so'ng farzand ko'rish ko'p ham kuzatilmaydi. Shuning uchun GFR ba'zida 15-44 yosh uchun ham hisoblanadi. Albatta ushbu yosh diapazonlarida ham istisnolar mavjud. Misol uchun 2000-yil AQSHning Texas shtatidagi ayollarga berilgan tug'ilish to'g'risidagi guvohnomada ularning yoshi eng past 11 yoshda, eng yuqori 53 yoshgacha bo'lgan.

2000-yilda Texasda farzand ko'rgan onalarning o'rtacha yoshi 26,1 yoshni tashkil etgan. Faqatgina farzand ko'rgan ayollarning 0,3 foizi 15 yoshgacha bo'lgan va 40 yosh va undan yuqori yoshdag'i onalarning ulushi esa 1,6 foizni tashkil etgan. Texasda farzand ko'rgan ayollarning deyarli yarmidan ortig'ini (55,0 foizi) 20-29 yosh

oralig'idagi onalar va deyarli to'rtdan uch qismi (74,4 foizi) 20-34 yosh oralig'idagi onalar bo'lgan.

2005-yilda AQSHda farzand ko'rgan yosh onalarning salmog'i Texasga nisbatan ancha past. 2005-yilda AQSHda farzandli bo'lgan 10-14 yosh oralig'idagilar 0,2 foizdan kamroqni tashkil etadi. AQSHda 2005-yilda farzand ko'rgan ayollarning 2,4 foizdan ko'prog'i 40 yoshdan yuqoridir. Ba'zi hollarda 15 yoshgacha yoki 40 yoshdan yuqori yoshdagi ayollar farzand ko'rishadi yoki farzand ko'rishmoqchi. Shu sababli GFRni hisoblash 15 yoshdan boshlanadi, ba'zida esa 15 yoshgacha bo'lgan ayollar ham qo'shiladi.

2008-yil iyul oyida BBS qari bir ayolning farzand ko'rganligi haqida xabar tarqatdi. 2008-yil Shimoliy Hindistonda Omkari Panwar 70 yoshida egizak farzandli bo'ldi. U va uning eri Charam Singx yoshi 70 dan oshgan fermer ikki farzandi bor, ikkalasi ham qiz bola. Ular o'g'il farzandli bo'lishni juda ham xohlaganliklari uchun bepushtlilikni davolash uchun bankdan kredit olishdi, natijada og'irligi taxminan ikki funt keladigan o'g'il va qiz farzandi bo'lishdi (British Broadcasting Korporatsiya News, 2008).

Yuqorida qayd etilganidek, tug'ilishning umumiy, maxsus va xususiy koeffitsientlari ham mayjud bo'lib, ular asosida tug'ilish darajasi aniqlanadi. Bulardan tug'ilishning maxsus koeffitsienti (GFR) tug'ilishni hisoblaydigan yana bir ko'rsatkichdir. U CBRdan aniqroq, chunki bunda tug'ish yoshdagi ayollarga hisobga olinadi. GFR quydagicha hisoblanadi:

$$GFR = \frac{\text{births}}{\text{midyear population}_{f. 15-49}} * 1.000$$

Bu yerda kasr suratida bir yilda tug'ilgan chaqaloqlar bo'lsa, maxrajida 15-49 yoshdagi, ya'ni tug'ish yoshdagi ayollarning o'rtacha yillik soni.

Tug'ilishning maxsus koeffitsientlari tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi, tug'ilishni atroflicha o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu koeffitsient alohida erkaklar va ayollar guruhiga nisbatan hisoblanishi mumkin. Demografik tadqiqotlarda, asosan, reproduktiv yoshdagi (15-49 yosh) ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Tug'ilishning maxsus koeffitsientida har 1000ta 15-49 yoshdagi

ayollarga nisbatan tug'ilgan bolalar soni aniqlanadi va uni yana quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$$F_{15-49} = \frac{N_{15-49}}{TW} * 1000$$

F_{15-49} – tug'ilishning maxsus koeffitsienti.

N – 15-49-o'rganilayotgan davrda 15-49 yoshda ayollarda tug'ilgan bolalar soni.

T – o'rganilayotgan davr (yil).

W – reproduktiv yoshdagi ayollarining o'ttacha soni (15-49 yosh, tug'ilish darajasi past davlatlarda 15-44 yoshdagi ayollar olinadi).

Tug'ilishning maxsus koeffitsienti erkaklarga nisbatan ham hisoblanadi. U holda har 1000ta 15-49 (14-54 yosblar uchun ham hisoblanadi) yoshdagi erkaklarga nisbatan tug'ilgan bolalar soni aniqlanadi. Misol uchun 1950-yil va 2005-yillarda AQSHda CBR ko'rsatkichi mos ravishda 24,1 va 14,0 promille bo'lgan. Agar biz GFRga tegishli hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasak, bu ikki yildagi CBR qiymatini 4,5ga ko'paytirib mos ravishda GFRning 1950-yil uchun 108,5 va 2005-yil uchun 63,0 promilleni aniqlar edik.

Agar sizda faqatgina CBRga oid ma'lumotlar bo'lsa-yu, siz GFRni hisoblamoqchi bo'lsangiz, GFR ko'rsatkichi (15-44 yoshli ayollar uchun) quyidagi formulada aks etadi:

$$GFR = CBR * 4,5$$

Ushbu hisoblangan GFR ko'rsatkichi 1950-yildagi 106,2 va 2005-yildagi 66,7 promillelaridan katta farq qilmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, GFR ko'rsatkichi CBR bilan bog'liq muammoni farzand ko'rish yoshidagi ayollar hisobiga hal qilgan edi, amma endi bu GFR ko'rsatkichi bilan muammoni oxirigacha yechilgan emas. Bu ko'rsatkich farzand ko'rish yoshi, ya'ni 15-49 yosh oralig'ida ayollarda bir xil sur'atda farzandi bo'lmasligini e'tiborga olmaydi. Tug'ilish, odatda 15-19 yoshdagi ayollarda past, 20-29 yoshdagi ayollarda esa juda yuqori bo'lib, 30 yoshdan pasaya boradi, 40 yoshda yanada pasayadi. Mazkur ma'lumotni, ya'ni tug'ilish yoshga bog'liqligini e'tiborga olish uchun demograflar ma'lum bir yosh guruhlari uchun ishlab chiqishadi.

Tug'ilishning yosh koefitsienti har 5 yillik guruuhlar uchun 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yosh uchun hisoblanadi. Tug'ilishning xususiy koefitsientlari – tug'ilishni o'rganishdagi eng aniq koefitsientlar bo'lib, ma'lum yosh guruuhlarida tug'ilish darajasini ifodalaydi. Bu koefitsient odatda har 1000 ta 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yosh guruhidagi ayollarda tug'ilayotgan bolalar sonini aniqlashda qo'llaniladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{x/y} = \frac{N_{x/y} + y}{TW_{x/y} + y} \cdot 1000$$

$F_{x/y}$ – tug'ilishning maxsus yosh guruhi bo'yicha koefitsienti.

$N_{x/x-y}$ – ma'lum yosh guruhidagi onalardan tug'ilgan bolalar soni.

T – o'rganilayotgan davr (yil).

W – o'rganilayotgan yosh guruhidagi ayollarning o'rtacha soni.

Tug'ilishning yig'indi koefitsienti (ASFR)da asosiy e'tibor ayollarning yosh guruuhlariga qaratiladi. Tug'ilishning yig'indi koefitsienti (ASFR) esa quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{ASFR}_{x \text{ to } x+n} = \frac{\text{births } x \text{ to } x+n}{\text{females } x \text{ to } x+n} * 1,000$$

Tug'ilishning yig'indisi (summarniy) koefitsienti, tug'ilish darajasini eng aniq ifadolovchi ko'satkich bo'lib, unda dunyo hududlari, davlatlar va ma'lum aholi guruuhlaridagi tug'ilish darajasini ifodalashda qo'llaniladi. Hududlar bo'yicha tug'ilish darajasini taqqoslaganda ham, asosan, tug'ilishning yig'indi koefitsienti ishlataladi. Tug'ilishning yig'indi koefitsienti ma'lum avlodga tegishli har bir ayolning hayoti davomida (o'lim va yosh tarkibidagi o'zgarishlardan qat'i nazar, har bir yosh guruhidagi tug'ilish darjasini saqlangan holda) tuqqan bolalarining o'rtacha soni. Tug'ilishning yig'indi koefitsienti tug'ilishning yosh guruhlari koefitsientlari yig'indisiga teng.

$$F_{\text{үзузинади}} = \sum_{15}^{49} y \bullet F_{x/x} + y$$

Y – yosh guruhlari orasidagi davr (interval). Tug'ilishning yig'indi koefitsienti 4,0dan yuqori bo'lsa – tug'ilish darjasini yuqori, 2,15dan kam bo'lsa, tug'ilish darjasini past, 2,15-4,0 oralig'ida bo'lsa

o'rtacha hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida tug'ilish tarixiy davrlar va hududlar bo'yicha muntazam o'zgarib kelgan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyodagi deyarli barcha davlatlarda tug'ilish yuqori bo'lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa tug'ilish Yer kurrasi bo'ylab kamaya boshladi.




Figure 3.2. Trends in age-specific fertility, regions in the world: 1970 and 2005—2010. Source: United Nations, 2010a.

4.1- rasm. 1970, 2000-2005-yillardagi dunyoning ba'zi mintaqalaridagi tug'ilishning yosh va maxsus ko'satkichlaridagi o'zgarishlar.

Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 2008-yil

Odatda ko'pchilik demografik tahlillarda tug'ilishning yig'indi koeffitsientini hisoblashda besh yillik guruuhlar hisoblansada, ba'zi hollarda 35ta bir yillik guruuhlar ham olinadi, 15 yoshdagilar guruhi, 16 yoshdagilar guruhi, 17 yoshdagilar guruhi, 49 yoshdan kattalar guruhi.

Tug'ilish darajasining samardorligini aniqlashda hayotiylik koeffitsientidan foydalilanildi.

Hayotiylik koeffitsenti.

$$K_x = \frac{x}{N}$$

– bu yerda: K_x – hayotiylik koeffitsenti.

- T - tug'ilganlar;

- O' - o'lganlar.

Tug'ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo'lavermagan. Kapitalistik formatsiyagacha mavud bo'lgan davrlarda tug'ilish biologik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni cheklanmagan. Ko'p bolalilik jamiyat va davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Bu holni hozirgi jamiyat taraqqiyot bosqichida turib tasavvur qilish mushkulroq albatta. Masalaning tub mohiyatiga nazar tashlashga to'g'ri keladi. qaysiki, o'sha o'tmish zamionlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqidir.

Qulدورлик feodalizm davrida ham ko'p bolalilikdan har bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday? Eng avval oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Ko'pgina mamlakatlarda oila yumushlarida, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va chovchilikda bolalar mehnatidan foydalaniłgan. Deimak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Hatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishslash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojiana boshladidi. yangidan yangi shaharlar paydo bo'ldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharga ko'chib kela boshladidi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida bir tomonidan, shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fan-teknika taraqqiy erib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi.

Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Aholisining asosiy qismi shaharlarda yashovechi Xorijiy Yevropa mamlakatlarida tug'ilish, ayniqsa, kamayib ketdi. Masalan, Angliyada 1850-yillarda aholining 50 % shaharlarda yashagan va har ming kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni o'rtacha 32,6 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi aholining 80 % ga yaqini shaharlarda yashaydi va har ming kishiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 10 tani tashkil qiladi yoki Fransiyani olib qaraylik. Bu mamlakatda 1850-yildan to hozirgacha shahar

aholisi 25,5 % dan 74 % gacha ko'paydi. Har ming kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni esa 26.2dan, 13,7gacha kamaydi. Germaniya Respublikasida esa aholining 94 % shaharlarda istiqomat qilishadi. Tug'ilish ko'rsatkichi esa 9 %oni tashkil etadi va dunyoda tug'ilish eng kam davlatlardan hisoblanadi.

Yer yuzida tug'ilishning kamayishi, asosan, XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa davlatlarida boshlanib, keyinchalik, bu qit'aning boshqa mamlakatlariga, undan so'ng esa AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiyaga tarqaldi. Ayniqsa, iqlisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda tug'ilish tez kamaya boshladi. Ushbu davlatlarda 1750-1800-yillarda har ming kishi hisobiga 38 ta bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-1990-yillarda bu ko'rsatkich 16 ni, 2007-yili 12 ni tashkil qildi. Boshqacha qilib aytganda, tug'ilish 3 martadan ko'proq qisqargan.

Endi xuddi ana shu davrlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi tug'ilishni qiyoslaydigan bo'lsak, boshqacha ahvolning guvohi bo'lamiz. Ularda 1750-1790-yillarda har ming kishi hisobiga 41 tadan bola tug'ilgan va 1970-1990-yillarda esa har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bola 34tani, 2009-yili esa 22-tani tashkil qilgan. Demak, rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishning kamayishi, nisbatan olib qaralganda, anche sekin borgan. Hozirgi davrda tug'ilish Yer shari bo'yicha bir xil emas. Dunyo kontinentlari bo'ylab eng yuqori tug'ilish darajasi Afrikada, eng pasti esa Yevropa davlatlarida kuzatilayotganligi hammaga ma'lum.

Sayyoramizda tug'ilishning hududlar bo'ylab bunday farq qilishi, avvalo, u davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasiga, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga hamda shu davlat xalqining asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlariga, qolaversa, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari, tug'ilishga ahollarning jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikohdan o'tish va ajralish kabi qator demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyot rivojlanishi hamda har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, keyingi 20-30 yil ichida dunyoning deyarli hamma hududlarida tug'ilishning kamayib borish jarayoni kuzatilmogda.

1970-2009-yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1.7 marta kamaygan). Uning asosiy sabablaridan biri shahar aholisining o'sishi

bo'lgan. Masalan, AQSH va Kanadada shahar aholisining 1950-2009-yillarda 64 % dan 75-80 % gacha o'sgan. Bundan tashqari, tug'ilishning kamayishiga ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollarma ishlarda qatnashishi ham sabab bo'lgan. Masalan, Kanadada 1931-yil modliy ishlab chiqarishda qatnashuvchi aholining 17 % ayollar bo'lgan bo'lsa, 1980-2009-yillarda esa bu ko'rsatkich 40 % dan oshib ketdi. Shimoliy Amerikada tug'ilishning kamayishiga olib kelgan muhiim sabablardan yana biri ajralishning nikohdan ko'pligidir. Hozirgi davrda AQSHda har yili qayd etilgan nikohlarning 50 % ga yaqini buzilganligi, ya'ni ajrashib ketganligi ma'lum.

4.2.-jadval

Dunyo hududlari bo'yicha tug'ilishning umumiylari va yig'indi koeffitsientlari (2017-yil)¹

Dunyo hududlari	Tug'ilishning umumiylari koeffitsienti	Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti
Dunyo bo'yicha	20	2,6
Rivojlangan davlatlar	12	1,7
Rivojlanayotgan davlatlar	22	2,7
Afrika	36	4,8
Amerika	17	2,2
Osiyo	24	2,3
Yevropa	8	1,5
Australiya va Okeaniya	18	2,5

Tabiiy holki, nikohning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, Shimoliy Amerikada ishsizlar sonining tobora ortib borishi, ertangi kunga ishonchszlik bilan qarash kabi xususiyatlari ham tug'ilishni kamaytiradi. Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970-yillardan boshlab aholi o'rtaida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi, natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi.

¹ Manba: Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga, Oilani rejalashtirish asossatsiyasi, Hindiston tibbiyot asossatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodxonlik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971-yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli edi. Hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir. Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning uchun Xitoy va Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi. 1970-2010-yillarda tug'ilish Xorijiy Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi. Ana shu davrda tug'ilishning yig'indi koefitsienti Yevropada 2,1 dan 1,5 ga, Okeaniyada 3,1 dan 2,5 ga, Afrikada 6,5 dan 4,8 ga kamaygan.

Binobarin, biologik jarayon bo'lgan tug'ilish qator ijtimoiy (aholining savodlilik darajasi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei, oilaning davlatla, jamiyatda tutgan o'rni, urf-odatlar, qadriyatlar, din, etnik tarkibi, urbanizatsiya jarayoni va h.k.) iqtisodiy (aholi bandligi, ayollar bandligi, oila daromadi, ijtimoiy muhofazalar va h.k.) tibbiy (homiladorlikdan saqlanuvichi vositalar va ular haqidagi bilimlar bilan ayollarning ta'minlanganligi, onalar, bolalar salomatligi) va demografik (aholining yosh jinsiy tarkibi, reproduktiv yoshdagi ayollar salmog'i, nikoh, ajralish, o'lim jarayonlari) omillar ta'sirida sodir bo'lar ekan.

Agar dunyodagi davlatlarni tug'ilishning bugungi holatiga qarab sharhlamoqchi bo'lsak, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratmog'imiz lozim. Ma'lumki, tug'ilishning yig'indi koefitsienti 2,1dan past bo'lsa tug'ilish darajasi ham past bo'ladi: 2,1-4,0 bo'lsa tug'ilish darajasi – o'rtacha va 4,1 va undan yuqori bo'lsa tug'ilish darajasi yuqori bo'ladi. Ana shu demografik mezonga asosan dunyo davlatlarini guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruh – tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar: Afrika davlatlari (MSR, Tunis, Moris va Seyshel orollaridan tashqari), Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlar hamda Avstraliya va Okeaniyadagi ba'zi manzilatlar. Ulardagi oilalarda farzandlar soni o'rtacha 4,1dan to 7,0gacha, ba'zi hollarda esa undan ham yuqori bo'lgan.

Tug'ilish eng yuqori sanalgan davlatlardan Asg'oniston. Gvineya-Bisau va Niger bo'lib, ularda tug'ilishning yig'indi koefitsienti 7,1-7,7 ni va Yamanda - 6,7 ni, Mali va Kongoda - 6,2 ni tashkil etadi. Ushbu davlatlarda oilalarda tug'ilish darajasining bunday yuqori bo'lishiga olib keluvchi qator omillar mavjuddir. Ulardan asosiyları quyidagilar: yuqorida zikr etilgan davlatlar, asosan, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar bo'lib, ayniqsa, ayollarning ma'lumotliligi nisbatan past; ko'p bolalikni qo'llab-quvvatlovchi an'analar ko'proq saqlanib qolgan; ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirot etadi; shahar turmush tarzining shakllanishi sust; tug'ilishni cheklash haqida tushunchalar va unga kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmagan. Ta'kidlab o'tish loziimki, tug'ilish darajasining yuqoriligi ba'zi demografik oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, aholining soni tez ko'paya borib, ko'plab yangi oilalar vujudga keladi, aholi tarkibida bolalar soni yuqori bo'ladi. Bu demografik oqibatlar esa o'z o'mida qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga sabab bo'ladi.

Tug'ilishi yuqori bo'lgan davlatlarda keyingi 15-20 yil ichida aholi soni yiliga 2,5-3,2 foizdan ko'payib bormoqda. Bugungi kunda 40dan oshiq davlatda tug'ilishning yig'indi koefitsienti 4,1-7,5 tashkil etmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi 10 yil ichida dunyodagi tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar soni kamaydi. 1989-yili bunday davlatlar soni 79ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yili ularning soni 37 taga kamaydi va 42 tani tashkil etdi. Agar 1989-yili ushbu davlatlarda istiqomat etuvechi aholi salmog'i dunyo aholisining 23 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 14 foizni tashkil etdi.

Ikkinci guruh - oilada tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar, ushbu davlatlarda tug'ilishning yig'indi koefitsienti 2,1-4,0 ni tashkil etadi. 1989-2005-yillarda dunyoda tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar soni 44 tadan 57 taga yetdi, ya'ni 13 taga ko'paydi. 1989-yili O'zbekiston davlati ham tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirgan bo'lsa, 2005-yilga kelib, u tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar guruhidan joy oldi.

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan guruhda istiqomat etuvechi aholi 2005-yilda dunyo aholisining 37,0 foizini tashkil etdi. Mazkur davlatlarda tug'ilishning bunday darajada bo'lishi ularning tarixan tarkib topib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog'liqdir.

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan joylarda aholining o'sish sur'ati bir tekis saqlanib turadi. Ularda aholining keskin ko'payib ketish yoki kamayib ketish hollari kutilmaydi. Aholi taraqqiyotini boshqarish, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi muammolarni hal etish bir muncha yengil kechadi.

Uchinchi guruh – tug'ilish darajasi past bo'lgan davlatlar. Bu davlatlarda aholi yiliga 0,7-0,9 foizga ko'payib boradi. Oilalarning aksariyat qismida 1 yoki 2tadan bola bor, xolos. Shuni ta'kidlash lozimki, 1989-2005-yillarda tug'ilish darajasi kam bo'lgan davlatlar soni 32tadan 71taga ko'paydi yoki 2 barobardan ziyod o'sdi. Hozirgi davrda ushbu davlatlarda dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat etmoqda. Demak XXI asr boshlariga kelib, dunyo aholisining deyarli yarmi kam bolali oilalarda istiqomat etmoqdalar. So'nggi guruh davlatlarida istiqomat etuvchi oilalarda tug'ilishning bunday kamayib ketishi, birinchi navbatda, kapitalistik munosabatlar keng tarqalishi bilan bog'liqidir. Ta'kidlab o'tganimizdek, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida sanoat rivojlanib. shaharlar sonining o'sishi va shahar turmush tarzining keng tarqalishi uchinehi guruhga mansub davlatlarda tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Ayniqsa, aholining asosiy qismi shaharlarda yashovchi Yevropa mamlakatlarda tug'ilish juda kamayib ketgan.

Ushbu guruh davlatlarida hozirgi davrda tug'ilish darajasining kamayib ketishiga olib kelgan navbatdagi omil ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollarma ishlarda ko'proq qatnashishidir. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda tug'ilishning kamayishiga olib kelgan omillardan yana biri, oilaning buzilishi, ya'ni nikohdan chiqish hollarining nihoyatda ko'pligidir. Yuqorida qayd etilganidek, nikohning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, barcha iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar qatori Shimoliy Amerikada ham fan-tehnika rivojlanib. ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi natijasida, aholining tarkibida ishsizlik tobora ko'payib bormoqda. Ishsiz, boshpanasiz aholining oila qurish va farzand tarbiya qilishiga iqtisodiy imkoniyati bo'lmaydi. Shunday holatlar ham tug'ilishning kamayib ketishiga olib keladi. Umuman olganda, kapitalistik munosabatlarning keng tarqalishi va rivojlanishi oilaning farzandlarga bo'lgan ham iqtisodiy, ham ma'naviy chitiyojini pasaytirib yuboradi.

Fikrimizning dalili sisatida rivojlangan kapitalistik davlatlardan biri AQSH oilalaridagi tug'ilish ko'rsatkichlariga murojaat qilamiz. Agar 1950-yili har bir Amerika oilalarida o'rtacha 3-4 tadan bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-yili bu ko'rsatkich 2-3 taga kamaydi. Keyingi vaqtarda AQSHda farzandsiz oilalar ko'payib bormoqda. Bu davlatda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'pchilik oilalarda faqat bittadan farzand bo'lib, ularning 44 % i kutilmaganda, 15 % i esa xohlasmagan holda tug'ilgan ekan. Mutaxassislar bu ahvolni "Amerika oilasida inqiroz", deb atashmoqda. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlari uchun muammomi, yo'qmi? Uni shu davlat aholisining taraqqiyot tarixidan kelib chiqib aniqlamoq lozim. Shunday qilib, biz yuqorida jahon mamlakatlarning oilalarida tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar bilan tanishib chiqdik. Ma'lum bo'ldiki, hozirgi paytda yer yuzidagi xalqlarning tug'ilish jarayoni bir xil emas ekan. Bir toifa mamlakatlarda oilalarning tug'ilishi juda kamayib ketgan bo'lsa, ikkinchi bir xilida – juda yuqori. Bu hol, yuqorida aytilganidek, turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 promilledan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizsiya jarayoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi. Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlarida: Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erta nikohga kiradi, G'arbiy Yevropada esa aksincha.

XVIII asr oxirlariga qadar yet yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, XX asrga kelib, aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida, tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim pasti bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatda bo'lgan bo'lsa, XX asrda xuddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtida tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

BMT ma'lumotlariiga qaraganda, 1970-1974-yil har bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986-1990-yillarda 2,1 va 1,4tadan farzand ko'rishgan. Xitoy davlati konstitutsiyasida er-xotin farzand ko'rishi rejalashtirishi zarurligi qayd etilgan. Farzandlar tug'ilishini rejalashtirish bo'yicha maxsus komitet tashkil etilgan, oilada farzandlar tug'ilishi uchun hukumatdan rasmiy ruxsat olinishi zarur. Kech nikohga kirish belgilangan, institutda o'qish davomida turnush qurishga ruxsat berilmaydi.

Oilani rejalashtirish shiori "Bir oila – bir bola" siyosati 2016-yilgacha o'z natijasini berdi. Ammo, bir vaqtlardagi demografik portlash hisobiga tug'ilganlarning bugungi kunda o'rta va nafaqa yoshiga yetib kelayotganligi, Xitoy demografik siyosatida yana bir katta muammoni keltirib chiqardi. Oqibatda, aholi o'rtasida qariyalar va nafaqo'rlar soni keskin ortishi, tug'ilayotgan oiladagi bitta bola oltita odamni boqishi kutildi. Shu boisdan, Xitoy davlati oilani rejalashtirish shiori "Bir oila – bir bola" siyosatini o'zgartirishga majbur bo'ldi va endilikda Xitoy oilalarida ikkinchi farzand ko'rishga rasmiy ruxsat berildi.

Yevropa davlatlari aholisi jinsiy tarkibida ayollarning 45-50 foizi xalq xo'jaligida band. Osiyo, Afrika davlatlarida esa bu raqam juda kichik. Afrikada ayollarning atigi 5 foizi ishlab chiqarishda qatnashadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 promilledan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizsiya jarayoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tug'ilishga ijobjiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish, ajralishning kamayishi tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlarida, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erta nikohga kiradi, G'arbiy Yevropada esa aksincha. Bu kabi omillar tufayli mintaqalar aholisi o'rtasida tug'ilish darajasi keskin farq qilishi tabiiy v.h.

4.3. Aholi o'limi, sabablar, omillar va geografik qonuniyatlar

Aholining takror barpo bo'lishi nafaqat, tug'ilishga, balki o'lim jarayoniga ham bog'liq. O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblanadi. Oxirgi yillarda dunyo sivilizatsiyasida, aholi

o'rtasidagi o'lim ko'rsatkichlarining pasayishi tendensiyasi kuzatilmogda. Shuni ham qayd qilish lozimki, yosh bolalar va go'daklar o'limi ko'rsatkichlarining tahlili, mamlakatlar rivojlanish darajasini va aholi farovonligini aniqlab beradi.

Aholi o'limi turli sabablar natijasida ro'y beradi va aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo'lib ishtiroy etadi. Aholining o'limi biologik jarayon bo'lib, tabiiy-iqlim, genetik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqa omillar ta'sirida o'zgaradi. Mazkur omillar ikkita guruhga bo'linadi: ichki (endogen); tashqi (ekzogen) omillarga, ichki (endogen) omillarda insonni biologik qarish natijasida o'lim hodisasi kuzatilsa, tashqi (ekzogen) omillarda esa atrof-muhit, tashqi ta'sirlar orqali ro'y beradigan aholining o'limi nazarda tutiladi. O'limning ro'y berishida, asosan, endogen va ekzogen omillar sabab qilib ko'rsatildi.

Endogen omillar – organizmning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati, qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda, endogen omillar tufayli keksa yoshdag'i aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatda me'yoriy hodisa deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamida ham endogen sabablar tufayli o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irlari kasalliklar, nojo'ya voqe'a-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar – odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib, bu omillar ta'siri oqibatida aholining turli yoshdag'i kishilar turli vaqtda, turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat va mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamон sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini kimyo lashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifoslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'limoqda.

O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarida, avlodlarda, davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo'ladi. O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koefitsientlardan foydalilaniladi. O'limning umumiy koefitsienti:

$$m = \frac{M}{TP} \cdot 1000$$

m – o'lim umumiy koefitsienti (promilleda ifodalanadi).

M – o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni.

T – davr

P – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

O'limning umumiy koefitsientiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ko'pligi o'limning umumiy koefitsientining ko'tarilishiga olib keladi.

O'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq o'rganishda uning maxsus koefitsientlari orqali (yosh guruhlari va jinslar bo'yicha alohida ifodalanadi) aniqlanadi. O'limning yosh guruhlari bo'yicha koefitsienti – alohida yoshlari (1,2,3,4,5,...) yoki yosh guruhlari (1-4, 5-9, 10-14...) bo'yicha hisoblanib, har 1000ta o'rganilayotgan yoshdagi aholiga nisbatan shu yoshdagi o'lganlarning o'rtacha sonini aniqlaydi va promilleda (%) ifodalanadi.

$$m_{x_{1x+2}} = \frac{M_{x_{1x+2}}}{TP_{x_{1x+2}}} * 1000, \text{ bunda}$$

$M_{x_{1x+2}}$ – o'limning yosh guruhlari bo'yicha koefitsienti ifodasi.

T – o'rganilayotgan davr, yil.

$M_{x_{1x+2}}$ – o'rganilayotgan yosh guruhidagi jami o'lganlar soni.

$P_{x_{1x+2}}$ – o'rganilayotgan yosh guruhidagi aholining o'rtacha soni.

O'limning yosh guruhlari bo'yicha koefitsienti yordamida har bir yosh guruhida sodir bo'layotgan o'lim hollari va omillari o'rganiladi va o'lim jadvali tuzishda foydalilanildi.

.3-jadval

O'lim koefitsientining shkalasi

O'limning umumiy koefitsienti, / %	O'lim darajasini baholash
10 gacha	Past
10.0-14.9	O'rta
15.0-24.9	Baland
25.0-34.9	Balandroq
35.0 va undan yuqori	O'ta baland

Aholi guruhidagi o'lim jarayonini o'rganishda go'daklar o'limi, ya'ni bir yoshgacha (0-12 oy) bo'lgan bolalar o'limi ham juda ahamiyatlidir.

Chunki ko'p hollarda go'daklar o'limi birmuncha ko'proq bo'lib, aholi o'limining umumiy koeffitsientining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklar o'limi alohida hisoblanadi. Go'daklar o'limi har 1000ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan shu yoshda o'lган go'daklarning sonini bildiradi va promilleda ifodalanadi.

$$m'_o = \frac{M'_o}{N'} \times 1000, \text{ yoki quyidagicha ifodalanadi}$$

Бир ёнагача улгашни болалар сони

• 1000

ўрганишни ани фасрдаги бир ёнагача ўлгашни тирик түхижан болалар сони

O'lim hodisasinining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lган bolalar o'limi bilan bevosita bog'liq. Har 1000ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 32 tani tashkil etadi. Shundan Afrikada bu raqam 51 ta, Yevropada 4 ta, Okeaniyada 20ta, Osiyoda 28ta va Amerikada eng kam 14 taga teng (2017-yil).

Ma'lumki, bir yoshgacha bo'lган bolalar o'limi bu birinchi yil bolalar hayotida ro'y beradigan o'lim hodisasidir.

Go'daklar o'limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalilanadi.

4.4-jadval

Go'daklar o'limi koeffitsientining shkalasi

Go'daklar o'limi koeffitsienti. % da	Go'daklar o'limi darajasi
20gacha	juda past
20-34	Past
35-49	o'rta
50-64	Baland
65 va undan yuqori	o'ta baland

BMT ma'lumotlarining tahliliga ko'ra, go'daklar o'limi ba'zi Osiyo davlatlarida 1-1,5 hatto 2 martaga oshganligi kuzatiladi. Go'daklar o'limi koeffitsientining pasayishi aholi umumiy o'lim darajasining qisqarishida muhim rol o'ynaydi.

Aholi o'lim darajasini o'rganishda onalar o'limini mukammal o'rganib borish zarurdir. Onalar o'limi tug'ilish darajasi yuqori,

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan sust davlatlarda baland bo'lib, u umumiy aholi o'limi ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi.

Onalar o'limiga homiladorlikning oxirgi (28 haftadan keyin) hamda farzand tug'ilgandan keyingi (6 hafta) davrida sodir bo'lgan ayollar o'limi kiritiladi.

Onalar o'limi har 1000ta tuqqan ayollarga yoki har 1000ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan hisoblanadi. O'zimizni bu sayyorada aktyorlar sifatida tasavvur qiladigan bo'lsak, bizning yerdagi oxirgi manzilimiz bu o'limdir.

Agar bu demografik hodisa sodir bo'lsa, bizning nomimiz kamida ikkinchi marta biron bir mahalliy gazetada e'lon qilinishi mumkin. Birinchisi esa balki biz tug'ilganimizda ota va onamizning nomlari bilan qayd etilar. Biz tug'ilganimizda ko'p narsa xabar qilinmaydi. Ammo biz vafot etsak, bizning hayot yo'limizni shonli ta'ziyanomada aks ettirishlari mumkin. Biz haqimizdag'i bu hikoyada bizning qachon va qayerda tug'ilganimiz, tirik oila a'zolarimiz yoki tirikligimizdag'i kasbiimiz va o'qish jarayonimiz kabi ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

4.5. -jadval

Dunyo hududlarida aholi o'limi (1000 aholiga nisbatan o'lganlar soni)¹⁾

Hududlar	1958-1962 yil	2001-yil	2010-yil	2017-yil
Dunyo bo'yicha	17	9	8	8
Yevropa	10	11	11	11
Osiyo	20	8	7	7
Afrika	23	14	12	9
Shimoliy Amerika	13	8	8	8
Lotin Amerikasi	-	-	6	6
Avstraliya va Okeaniya	8	7	7	7

"Ta'ziyanoma" so'zi "o'lim haqida e'lon qilish, ko'pincha marhumining qisqa biografiyasi (biron gazetada)" ma'nosini anglatadi. Boshqa qaysi payt siz haqingizdag'i qisqa biografiya boshqalarga

¹⁾ Население мира. М., 1965, С. 12; Население и общество. Информбюллетен РАН. М., 2001 № 56. Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

o'qish uchun nashr etiladi? Menimcha, hech qachon. Bizning o'limimiz haqiqatdan ham hayotimizdagi eng muhim voqealardan biridir. Hammamiz tug'ilganmiz va har birimiz o'lamiz, bu haqiqat. Hech kim o'limdan qochib qutula olmaydi. Barcha mavjudotlar ham tug'iladi va o'ladi. Ammo biz insonlar o'lim haqida o'ylab, fikr yuritadigan yagona mavjudotlarniz.

Yevropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda, bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha, juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar ko'plig ekanligini inobatga olsak, tabiiy ravishda, bu umumiy o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari, Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tusayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi. Tug'ilish darajasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi, aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqaradi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shu holat – oddiy aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda, ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda. Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'lioni saqlash sohasining yetarli rivojlanmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasida o'limning yuqoriligi, umumiy o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda.

Tarix davomida o'limning asosiy sabablarida katta o'zgarishlar bo'lgan. Odamlar, asosan, yuqumli va parazitik kasalliklardan o'lgan paytlar ham bo'lgan, ammo bugungi kundagi rivojlangan mamlakatlardagi o'limlarning asosiy sababi bu yurak kasalliklari, xuruji va saratondir. Bugungi kunda, shuningdek, o'lim sabablari rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasida ham bir xil emas. Bu mavzu ham keyinroq muhokama etiladi.

Bizning sanoat inqilobidan oldingi o'lim darajalari va sharoitlari to'g'risidagi bilimlarimiz juda oz, u paytlarda o'lim darajasi baland bo'lganligini bilamiz. Ammo o'lim to'g'risidagi ma'lumotning aniqligi va mavjudligi ko'plab ochiq savollarga javob topgan bo'lar edi. Urushning o'lim bilan bog'liq bo'lgan natijalarini hisoblash ancha qiyin masala. Birinchi qiyin ishlardan biri bu ta'riflash masalasidir. Urush nima? Ba'zi harbiy tarixchilar va arxeologlar kamida ikki qatnashuvchi orasida bo'ladigan har qanday konfliktlarni urush deb

ta 'riflashadi. Ammo bu haqiqatdan yiroq yondashuv. Hozirda olimlar urushni o'limlar soniga ko'ra ta 'riflashmoqda.

Devid Uilkinson 1820-yildan beri sodir bo'lgan, qurbonlar soni 300dan ortiq bo'lgan 315ta to'qnashuvni aniqlab chiqqan. Harbiy harakatlar paytida to'g'ridan to'g'ri dushman kuchlari tomonidan sodir etilgan o'limlarga qo'shimcha ravishda bu yerda urush natijasida sodir bo'lувчи aholi yo'qotishlar, shu jumladan, soldatlar tomonidan tarqatilgan kasalliklar, talon-taroj paytidagi o'limlar, dehqonchilik dalalarining vayron etilishi natijasidagi ocharchiliklar tufayli o'limlar, va nihoyat iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik sababli yuzaga keladigan qiyinchilik paytlaridagi o'limlar ham hisobga olinishi kerak.

Aholining o'lim ko'rsatkichlari ham bevosita tabiiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi. Avlodlarning almashinuvi, ularning uzoq yashashi esa o'lim jarayoniga bog'liqidir. Inson hamisha uzoq umr ko'rishga intiladi. Har bir jamiyatda insonning uzoq umr ko'rishi, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Natijada, insonlarning uzoq umr ko'rishiga, o'lim hollarini esa sotsial choratadbirlar bilan boshqarishga erishiladi. Avlodlarning uzoq umr ko'rishi, tashqi muhit bilan uzoq muloqotda bo'lishi uning demografik mayliga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi tez sur'at bilan kamayib borishiga ham olib keladi.

O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bilan bevosita bog'liq. Har 1000ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56tani tashkil etadi. Shundan, Afrikada bu raqam 89ta, Yevropada 9ta, Okeaniyada 26ta, Osiyoda 53taga teng.

Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham yetadi (Nigerda – 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqaga Yevropa hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. O'limning umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'ttasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlamaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishiga qaramasdan, aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib

turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq.

Yevropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichida bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda, erkaklarda, aksincha, juda baland. Bundan tashqari Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladijan o'lim hodisasi ko'p uchraydi. Tug'ilish darajasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shunday holat tufayli qisqargan aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda, ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Aholining juda ko'p qismi, ayniqsa, Osiyo, Afrika hududlarida yuqumli infekzion kasallikklardan bolalik davrida ko'z yumishgan. Qadimda Yer sharida go'daklar va ayollar o'limi yuqori bo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrlarida turli kasallikklardan, ayniqsa, qon yo'qotish tufayli halok bo'lganlar. Markaziy Osiyo davlatlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida har 1000ta tug'ilgan chaqaloqlardan bir yoshgacha bo'lgan davrda 300-400 tasi, ba'zi davrlarda esa 500-600 tasi nobud bo'lgan. O'sha davrlarda aholi o'limining yuqoriligi, qayd etilganidek, aholining turmush darajasiga, tibbiy xizmatlarning yetishmasligiga, aholi ma'lumotlik darajasining pastligiga, farzandlar tug'ilishining yuqoriligi va farzandlar tug'ilishi orasidagi davrning nisbatan qisqaligi kabi omillar bilan bog'liq edi.

O'lim hammaga bir paytda kelmaydi. ba'zilarimiz ba'zilarimizga qaraganda ertaroq yoki kechroq o'lamiz. O'rtacha hisobda, ayollarga qaraganda erkaklar va aholining ko'pchilik qismini tashkil etuvechi etnik guruh a'zolariga qaruganda ozchilikni tashkil etuvechi etnik guruh vakillari tezroq vafot etishadi. O'lish darajasining qisqarishi bir qancha ijtimoiy va iqtisodiy foydali jihatlarga ega. Sog'lomroq kishilar yaxshiroq va uzoqroq ishlay olishadi, shuning uchun ishchilarning samaradorligi va ishlab chiqarish salohiyati ancha oshdi. Ko'plab tirik qolayotgan bolalar endi ancha salohiyatlari va ishchan ishchilarga aylanishmoqda. Bolalar tirik qolishidagi ancha yutuqlar va bolalar o'limining qisqarishi jamiyatni bola tarbiya qilishdagi ko'plab tashvishilardan xalos etdi. Shu paytning o'zida o'lim darajasining tushishi aholi o'sish darajasining oshishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. albatta tug'ilish darajasi ham tushmasa. Shunday qilib, o'limning qisqarishi aholi tarkibi va tuzilishiga ham

ta'sir qiladi. Bu ijtimoiy, iqtisodiy va demografik natijalar tufayli kelajakda kutiladigan o'lim darajalari haqida ko'plab muhokamalar mavjud.

4.4. Aholi o'limi va hayot davomiyligi

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha aholi o'lim ko'rsatkichlari Osiyo, Afrika, Amerika, Okeaniya hududlarida kamayib, Yevropa hududida esa ortib borayotganligi kuzatiladi. Umuman, sayyoramiz aholisi orasida o'lim jarayoni XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida 2-2,5 marta kamaygan. Hozirgi davrda o'limiga ekzogen omillar (organizmning qarishi va uning kasallanishi tufayli sodir bo'lgan ichki muhit omillari) sabab bo'lmoqda. Bu hol, albatta jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turmush tarzining yaxshilanishi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning oshib borishi bilan bog'liq. Holbuki, Yevropa davlatlarida aholi o'lim ko'rsatkichlarining birmuncha ko'tarilishiga demografik omil, ya'ni aholi tarkibida qariyalar (60-65 yosh va undan yuqori) salmog'ining ortib borishi ta'sir etgan. Ma'lumki, aholi o'limining umumiyligini koefitsienti aholining yosh tarkibiga bevosita bog'liq. Agar aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) va yoshlari (16-29 yosh) salmog'i yuqori bo'lsa, o'lim koefitsienti kamayadi.

Dunyoning juda ko'p davlatlarida XX asr boshlarida aholi o'rtacha 35-40 yil umr ko'rigan bo'lsa, hozirgi vaqtida o'rtacha 63-68 yosh umr ko'rishi kuzatiladi. Yevropada esa bu ko'rsatkich 70-79 yoshga yetdi. Mazkur hududda tug'ilishning keskin kamayishi aholi tarkibida bolalar va yoshlari salmog'ining keskin kamayishiga olib kelgan bo'lsa, aholi umr ko'rish muddatining uzayganligi qariyalar salmog'ining oshib borishiga sabab bo'ldi, natijada, Yevropada o'lim ko'rsatkichlari ko'tarildi.

Hammamizga ma'lumki, yuqori darajada aholi o'limi kuzatilayotgan davatlarda o'rtacha umr ko'rish past ko'rsatkichni tashkil qiladi. 2010-yil eng uzoq umr ko'rsatkichi Yaponiya (83 yosh), Xitoy-Gonkong (82 yosh), Xitoy-Makao (82 yosh), Singapur (81 yosh), Islandiya (81 yosh), Finlandiya (80 yosh). G'arbiy Yevropa davlatlarida (79-82 yosh), Kosta-Rika, Gvadelupa davlatlarida (79 yosh) kuzatilmoqda. Eng qisqa umr ko'rish esa Markaziy Afrika Respublikalari (45 yosh), Angola (46 yosh), Nigeriya (47 yosh).

S'erra-Leona (48 yosh) va Burundi (49 yosh) davlatlarida qayd etilgan.

4.6 -jadval

Dunyo hududlarida aholining tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish yoshi

Hududlar	erkaklar		ayollar		jamí	
	2010	2017	2010	2017	2010	2017
Dunyo bo'yicha	67	70	71	74	69	71
Afrika	53	61	56	64	55	63
Amerika	72	74	78	80	75	77
Osiyo	68	71	71	74	69	72
Yevropa	72	75	80	81	76	78
Avstraliya va Okeaniya	74	75	78	79	76	77

Statistik ma'lumotlar tahlilidan 2017-yilda aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunyoda erkaklarda 70 yosh, ayollarda 74 yoshga teng bo'ldi. Rivojlangan davlatlar bu borada yetakchi, ya'ni eng baland darajadagi aholining o'rtacha umr ko'rishi, aynan shu davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar – 76, ayollar – 82 yosh). Mazkur yilda o'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani, aksariyat ayollarda kuzatilmogda. Erkaklarda deyarli bunday ko'rsatkich qayd etilmaydi. Ayollar o'rtasida 80 yosh va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davatlarga Yaponiya – 87, Gonkong – 86, Koreya Respublikasi – 85 yosh, Kanada – 84 yosh, AQSH – 81 yosh, Isroil – 84 yosh va barcha G'arbiy hamda Shimoliy Yevropa (81.7) davlatlari aholisining yoshi 80 yoshdan baland.

Keyingi 10 – 15 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi, o'rtacha umr ko'rish yoshining ortishiga sabab bo'ldi. Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagisi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya (aholisini

Manba*. Population Reference Bureau. 2010, 2017 World Population Data Sheet.

o'rtacha umr ko'rish yoshi 83 yil, ayollarda 86 yil); Shvetsiya df Shveysariyada (o'rtacha ko'rsatkich 80-82 yosh); Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Avstraliya (82 yosh); SHA, Kanada, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Finlyandiya (80-82 yosh); O'rtacha umr ko'rish yoshi o'rtacha bo'lgan davlatlar (60-79 yosh) — Xitoy, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Hindiston, Meksika, Braziliya, ko'pgina MDH davlatlari. O'rtacha umr ko'rish yoshi past bo'lgan davlatlar (55 yoshdan past) Afriki, janubiy, janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari kiradi. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga, sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagagi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi.

Aholining o'rtacha umr ko'rish muddatini aniqlashda, ayniqsa, go'daklar o'limi alohida ahamiyatga egadir. BMT ma'lumotlarining tahliliga ko'ra go'daklar o'limi ba'zi Osiyo davlatlarida 1-1,5 hatto 2 martaga oshganligi kuzatiladi. Go'daklar o'limining yuqori bo'lishi aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining ko'rsatkichlarini qisqarishiga olib keladi. Masalan, Rossiyada 1993-yili o'g'il bolalar uchun go'daklar o'limi 20,0 % edi. Demak, tug'ilgan 1000ta o'g'il boladan 20tasi 1 yoshgacha yashamaydi. Ikki yoshli o'g'il bolalarda esa shu yili o'lim ehtimoli 6 kishini tashkil etgan. Ko'rinish turibdiki, 1000ta tug'ilgan boladan 1 yoshga 980tasi, 2 yoshgacha esa 974tasi o'tadi. Ana shunday usul bilan avlodning oxirigacha umr ko'rish ehtimoli hisoblab chiqiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, oldingi asrda aholi o'rtacha 30-35 yil umr ko'rgan. Hozir esa bu ko'rsatkich ikki barobarga oshigan. 2010-yilda aholi umr ko'rishi bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Markaziy va Janubiy Afrika davlatlarida kuzatilmoqda (erkaklar 42-44, ayollar 45-46 yosh). Agar biz AQSHda yashasak va oq irqli ayol jinsiga mansub bo'lsak, biz o'rtacha hisobda eng uzoq yashaymiz; bordi-yu afrikans-amerikan irqli erkak jinsiga mansub bo'lsak eng qisqa umrga ega bo'lamiz. Bu yangi XXI asr boshlari hisobida AQSHdagi oq ayol o'rtacha 80,2 yil, qora erkaklar esa 68,6 yil yashashlari aniqlangan.

Qachon o'lishimizni hal etishda bizning o'zimiz muhim rol o'ynaymiz. Biz qayerda va qachon tug'ilish ustidan umuman, hech qanday nazorat yurita olmaymiz. Bizning tug'ilishimiz otanolarimizning qarorlaridir. Ammo bizda farzandlar dunyoga keltirish

yoki keltirmaslik bo'yicha, agar keltirmoqchi bo'lsak, qayerda va qachon dunyoga keltirish bo'yicha ancha nazoratga egamiz. Bizning o'lishimiz bu bir demografik rolga o'xshaydi. Biz umrimizni qisqartirish yoki uzaytirish bo'yicha ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lishimiz ham, ega bo'lmasligimiz ham mimkin.

O'lim haq bo'lganiga qaramasdan, umrimiz miqdori ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi; ba'zilari ustidan nazorat qila olmaymiz (masalan: jinsimiz va irqimiz), ammo boshqalari ustidan ancha nazoratga egamiz. Undan tashqari, biz shunchaki o'limimizning vaqt va xususiyatlaridan tashqari boshqalarning o'limiga ham ta'sir o'tkaza olamiz. O'lim ta'siri ijtimoiy va demografik xususiyatlarga qarab ancha farqlanadi. Yuqori tabaqa vakillari quyi tabaqa vakillariga qaraganda ko'proq yashashadi. Turmush qurgan insonlar yakka yoki ajrashganlarga qaraganda ko'proq yashashadi. Biz bular haqida keyinroq to'xtalamiz.

O'lish va uning ta'sirlari jamiyatda chuqur muhokamada bo'ladi. Demograflar ko'pincha barcha shaxslarni yakka jamiyat a'zolari sifatida ko'rishadi va ularning yoshlari farqlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ustida tadqiqot olib borishadi. Misol uchun, 2006-yilda Yaponiyada tug'ilgan chaqaloq 82 yil va Shvetsiyada tug'ilgan chaqaloq 81 yil yashashi kutilgan. AQSHda 2006-yilda tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha umr uzoqligi 78 yil atrofida bo'lgan. Bunday havas qilarli natijalarni 2006-yilda Botswana yoki Lesotoda tug'ilgan chaqaloqlar bilan solishtiring: bu mamlakatlarda ko'rsatkich mos ravishda 34 va 36 yilni tashkil etadi.

Nega Botswana yoki Lesotoda tug'ilgan bolalar Yaponiya yoki Shvetsiyada tug'ilgan bolalarga qaraganda juda kam umr ko'rishadi? Bunga rivojlanish darajasi, tibbiy sharoitlar va boshqa omillar aralashadi va biz bularga keyinroq to'xtalamiz. Biz Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mamlakatlari past umr ko'rish ko'rsatkichiga ega bo'lgan yagona mamlakatlardir degan taassurot qoldirmoqchi emasmiz. Afg'onistonda bu ko'rsatkich 43 yosh va Gaiti hamda Iroqda esa 58 yosh, ya'ni yuqoridagilardan ozgina yuqoriroq va bu mamlakatlar Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mintaqasida joylashmagan.

Qadimgi Gretsiyadan topilgan hayot lavhachasi tug'ilishdan boshlab umr miqdorini 30 yosh deb belgilagan. Rim Misri Senzusida keltirilgan ma'lumotlarda Misrda o'sha paytlarda o'rtacha umr miqdori 22-25 yosh bo'lib, bu ma'lumot Rim Shimoliy Afrikasidagi

qabrtoshlaridagi yozuvlar orqali tasdiqlangan. Jon Graunt tomonidan ishlab chiqilgan hayot jadvali shuni ko'rsatadi. XVII asrda Londonda tug'ilgan bolalarning 35 % i 6 yoshgacha yetib borishmagan. 2005-yil uchun AQSH hayot jadvalida AQSHda tug'ilgan qizchalarning 1% dan kamroq'i 6 yoshgacha vasot etgan.

XVIII asrda AQSH va Yevropaning ko'pgina qismida hayot ko'rish darajasi bor yo'g'i 30-40 yil bo'lgan. 1901-yilda esa AQSH erkaklari 47.9 yil, ayollari esa 50,7 yil umr ko'rishgan. Shuningdek, u paytlardagi o'lim darajasi yildan yilga o'zgarib turgan. Onda-sonda bo'ladigan epidemiyalar, kasalliklar, urushlar tufayli tushib keltruvchi hayot darajalari bunday o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bular Maltus tili bilan aytganda o'lim darajasini yuqori ushlab turuvchi "ijobiy o'lechovlar"dir. Shaharlardagi yomon yashash sharoitlari ham yuqori o'lim darajalariga sabab bo'lgan. Ocharchilik dastlab o'linga olib keladi deb hisoblangan. Preindustrial davrlarda aholi o'z oziq-ovqatlari ustidan biz hozirda ega bo'lгandek nazoratga ega bo'lishmagan.

Qishloq xo'jaligi hosillari ko'p jihatdan qo'l mehnati samarasizligi, kemiruvchilar va hasharotlar bosqini va o'simlik kasalliklari tufayli cheklangan edi. Mo'l-ko'l oziq-ovqat zaxiralari noqobil saqlash sharoitlari tufayli isrof etilar edi. Transport texnologiyasi va yo'llar rivojlantirilmagan edi. shu sababli oziq-ovqat tanqisligiga uchragan hududlar boshqa joylardan zaxira sifatida foydalana olmas edilar. Shunday qilib, ocharchilik katta muammo edi. Ocharchiliklarning demografik oqibatlari ko'pincha halokatli bo'lar edi. Ocharchilik ko'pincha aholining qishloqlarda yashovchi va kambag'al qismida ro'y bergani uchun, uning aniq zararini aniqlash qiyin. 1315-1317-yillardagi ocharchilik davomida Yevropaning ko'plab hududlarida aholi soni qisqargan.

1690-yillarda Shvetsiyadagi hosilsizliklar tusayli Shvetsiyaning bir necha viloyatlarida aholi soni 1/6 gacha qisqargan. 1846-1851-yillarda Irlandiyada ro'y bergan, buyuk ocharchilik deb nom qoldirgan Irland kartoshka ocharchiligi 1 million, ba'zi manbalarga ko'ra 1,5 million odam umriga zomin bo'lgan. Agar 1840-yillar boshida Irlandiya aholisi 8,2 million bo'lganini hisobga oladigan bo'lsak, bu juda katta raqam. O'sha kunlarni ko'rgan bir Irland rohibi aytganidek: "O'lim va xonavayronlik farishtasi Irlandiya ustidan g'olibona hukim yurgizmoqda". Biz shuni ham unutmasligimiz kerakki, bu

Britaniyadagi ko‘zdan panada qolgan boshqa o‘limlarni hisobga olmagandagi natija.

Yevropadagi so‘nggi katta ocharchilik bu 1868-yilgi Fin ocharchiligi edi. Shuningdek, Hindistonda 19 millionga yaqin odam 1891-1910-yillarda ro‘y bergen ocharchilik tufayli qirilib ketishan. Dunyodagi eng halokatli ocharchiliklardan biri 1958-1961-yillar oralig‘ida Xitoyda yuz bergen. Sanoat va don mahsulotlari ishlab chiqarilish past darajaga tushib ketishi bilan umumiy yashash sharoiti og‘irlashdi va tug‘ilish darajalari deyarli to‘xtab qolay dedi. Dastlab oziq-ovqat tanqisligi, keyin ocharchilik yuz berdi va buning ustiga chebdan eksport qilinuvchi oziq-ovqatlar ham qisqarib ketdi.

Hisob-kitoblar bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri ocharchilik natijasida Xitoyda 30 million aholi qirilib ketgan va o‘n yoshgacha bo‘lganlar o‘limi soni 12 millionga chiqqan. Bu ocharchilikning asosiy sababi Mao Szedun tomonidan 1958-yilda ilgari surilgan, “kollektiv iqtisod afzalliklarini maksimallashtirish orqali qishloq xo‘jaligining buyuk potensialini tushunish uchun tabiatga qarshi inqilobiy to‘qnashuvni o‘z ichiga oluvchi”, tushunarsiz, amalga oshirib bo‘lmaydigan “Katta oldinga sakrash” dasturi edi. Bu iqtisodiy inqiroz va ocharchilik toshqinlar, o‘simlik kasalliklari, qurg‘oqchilik kabi tabiiy ofatlar va shuningdek, byurokratik samarasizlik va noto‘g‘ri menejment tufayli ro‘y bergen edi. Insoniyat tarixi davomida, ko‘pincha ocharchiliklar kichik-ichik aholi guruhlarida sodir bo‘lsada, katta zarar ko‘rsatganlari ham uchrab turadi. Xitoydagagi ocharchilik shunchalik dahshatli ediki, u mainlakat aholisining 2-3 % ini qirib yubordi. Irlandiyada ham kamdan kam uchraydigan yirik natija – ocharchilik natijasida aholining 12-18 % i qirilib ketishi kuzatilgan edi. Endi biz epidemik kasalliklar muhokamasiga o‘tamiz.

Epidemik kasalliklar. Kasalliklar endemik yoki epidemik bo‘ladi. Epidemik kasalliklar yoki epidemiyalar biron bir hududda infeksiyali kasalliklarning tezda tarqalishi, ko‘plab o‘limlarga sabab bo‘lishi, keyin yo‘qolib ketishidir. Ko‘plab yuqumli kasalliklar epidemiyalarga aylanishi mumkin. Bularga qizilcha, cho‘chqa gripi, qizamiq, gripp, shamollah, isitma va boshqalar kiradi. Agar kasallik yetarli darajada barqaror saqlansa, bu kasallik endemik deyiladi. Epidemiyali kasalliklar “paydo bo‘ladi, cho‘qqiga chiqadi va yo‘qolib ketadi; endemik kasalliklar esa ma’lum bir vaqt davomida barqaror miqdorda kasallik va o‘limlarga sabab bo‘lib turadi”. Epidemiyalar,

asosan, mahalliy darajada boshlanadi va keyin yaqin hududlarga tarqaladi. Agar epidemiyasi bir necha davlat yoki qit' alargacha tarqalsa, bu "Pandemiya" deyiladi. Pandemiyalar iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jihatdan epidemiyalarga qaraganda ancha vayronkorroq.

Jon Kaldvel epidemiyalar zamonaviy demografiya uchun muhim edi, chunki o'limlarning izidan tushush zarur va bu muhim tadqiqotga aylandi deb yozgan edi. Masalan, Ispan gripp epidemiyasi millatlar ligasi tomonidan O'sish Nazorati tizimining tashkil etilishiga sabab bo'lган edi. Yevropadagi eng dahshatl epidemiyalardan biri bu Qora O'lat nomi bilan tanilgan virusli kasallik tarqalishi bo'lib, u qayerdandir Markaziy Osiyoda paydo bo'lган. Ipak Yo'li orqali O'rta Yer dengizida tarqalgan va kemalardagi kalamushlar vositasida 1347-1352-yillarda Yevropaga tarqalgan. Shimoliy Yevropagacha tarqalgan bu epidemiyasi qit'aning 1/3ga yaqin aholisini qirib yuborgan. Tez-tez yuz beruvchi epidemiyalar shunchalik ko'p ediki, aholi yarmigacha qisqarib ketdi va bu aholining tiklanishiga keyingi ikki asr davomidagina erishildi. 1660-yillardagi Londonda yuz bergen Buyuk O'lat keyingi bir necha yillar davomida takrorlanib turdi, ammo uning miqyosi yuqoridagi Qora O'latchalik emas edi. Dastlab buni bubonik o'lat deb o'yashgan, ammo hozirda buni ko'pchilik virusli isitmaga o'xshash kasallik deb hisoblashmoqda. Jon Graynning "O'lim Billi" ham shu paytlarda ishlab chiqilgan.

XIX asrda Britaniya to'rti marotaba vaboga uchragan va ayni shu paytlarda oddiy vrach Jon Snou vaboning tarqalish sirini yechdi va uning kashfiyoti Britaniya va G'arb dunyosini vabodan ozod qilinishiga sabab bo'ldi. Jon Snou shuni ko'rsatib berdiki, muayyan quduqlar o'zida zararli suvni saqlaydi va vabodan o'layotganlar ham aynan shu suvlardan ichganlardir. U bugungi kunda san tarixidagi eng mashhur hujjatlardan biri deb hisoblaydigan, quduqlar va Londonning vabo tarqalgan joylarining xaritasini chizdi. Bu Geografik Axborot Tizimlari (GAT) muayyan quduqlarning yopilishiga olib kelgan siyosatni belgilagan eng dastlabkilaridan biri edi. Steven Jonsonning "Arvoh Xarita" (2006) kitobi Jon Snou harakallarining ajoyib, qiziqarli va ta'sirlanarli jihatlari ta'riflangan tengsiz asardir.

Yaqin vaqtarda sodir bo'lган epidemiyalardan biri bu Ispan grippi epidemiyasi bo'lib, Ispaniya bundan zararlangan dastlabki Yevropa davlati bo'lganligi uchun shunday atalgan. U 1918-yilda Yevropa bo'ylab, keyin esa butun dunyoga tarqaldi. Epidemiologlar

Nayal Jonson va Yurgen Myullerlar ta'kidlashicha, epidemiya 50 millionga yaqin inson umriga zomin bo'lgan: ba'zilar esa undan ham yuqori natijani ko'rsatishadi. Ispan grippi o'sha paytda Yer sharining yarmiga teng bo'lgan 1 milliard insonni zararlagani aniq. Ba'zilar ko'plab grippdan o'lganlar kam rivojlangan mamlakatlarda hisobga olinmay ketilgan deb taxmin qilishadi.

Epidemiya Shimoliy Amerikaga tarqalgan paytda AQSHda 700000 ga yaqin kishi o'lgan va Kanadada esa 50000 kishi. Kvebek va Labradorning ba'zi kichik qishloqlari butunlay qirilib ketgan. Bu epidemiyaning asosiy qurbanlari 20 va 40 yosh o'rtaсидаги yosh insonlar bo'lishgan. Agar AQSHdagi 1911-1917 va 1918-yil uchun maxsus oylik o'lim darajalarini tekshiradigan bo'lsangiz, grippning ta'siri 1918-yilning so'nggi choragida, aniqrog'i, oktyabr oyida bo'lganiga guvoh bo'lasiz. 1918-yilda San-Fransiskoda fuqarolardan ko'chaga chiqqanlarida va jamoat joylarida bo'lganlarida niqob taqishlarini talab qiluvchi qonun qabul qilingan.

4.2-rasm. 1918-yilda San-Fransiskoda kuzatilgan Gripp epidemiyasining qurboni Enni Karaning o'lim to'g'risidagi guvohnomasi

Shahar Sog'liqni Saqlash Depatramenti tomonidan "Niqob taqing va hayotingizni saqlab qoling! Bir Niqob Grippga qarshi 100% himoya!" nomli shiori tarqatilgan. Shunga qaramasdan, San-Fransisko va yaqin atroflarda 3500 kishi, shu jumladan, bu kitob muallifi Dadli

Postonning bir xolasi va uch bobo va buvilari ushbu grippdan vafot etishgan. Postonning 1918-yili 20-dekabrda 42 yoshida "gripp"dan vafot etgan va keyingi kuni San Fransisko janubidagi Kolma shaharchasida Muqaddas Xoch Qabristonida dafn etilgan ona tomonidan buvisi Ani Karaning haqiqiy o'lim haqidagi guvohnomasi 4.2 rasmda keltirilgan. Postonning onasi Ketrin Kara ham 1918-yilda gripp bilan kasallangan va xayriyatki, omon qolgan va 1936-yilda Dadli Postonga turimushiga chiqqan va 1940-yilda Dadli Poston Kichik (muallif) va Katlin (singlisi)ni dunyoga keltirgan.

1979-yilda vafot etgan Ketrin Kara Poston o'z farzandlari va nabiralarining hayotida ulkan o'ringa ega edi. Bu o'rinning shunchalik kattaligidan Dadli Poston Kichikning qizi Nensi o'z qizchasini katta buvisi sharafiga Kara deb nomladi. Agar Ketrin Kara ham o'z oila a'zolari va singlisi bilan bu epidemiyada vafot etganida yuqorida sanalgan odamlarning ko'pchiligi dunyoga kelmas edi va siz o'qib turgan kitob ham yozilmas edi. Bugun bir epidemiya dunyonи larzaga solmoqda. Bu kitob yozilishigacha, dunyo 25 yildan beri OITS/OIV epidemiyasi bilan zararlanib kelmoqda.

Ottirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi (OITS) AQSHda daslab 1981-yilda bir jinsli nikoh tarafdarlari bo'lgan erkak (gey)lar orasida kuzatilgan. OITSning gemofil xususiyatlari 1982-yilda ma'lum bo'lgan. Ottirilgan Immunotanqislik virusi (OIV) ilk bor 1983-yilda Parijdagi Paster Institutida kuzatilgan va uning OITSni keltirib chiqarilishi aniqlangan. 1980-yillar oxiri va 1990-yillarda OITS dunyoning hamma mintaqasida aniqlangan. OIV insondan insonga tana suyuqligi aloqasi orqali yuqadi. Basia Zaba yozishicha: "bu jinsiy aloqa paytida, ona va bola aloqasida, homiladorlik paytida, dunyoga keltirish paytida, yoki emizish paytida yuqishi mumkin. Shuningdek, bu sterillanmagan teri osti ignalari va jarrohlik uskumalari orqali ham tarqaladi".

2006-yilda UNAIDS, BMT OITS/OIV bo'yicha Qo'shma Dasturi hisobiga ko'ra virus aniqlangan 1981-yildan beri dunyo bo'yicha 65 million kishi zararlangan va 25 million kishi vafot etgan. 2006-yildagi OIV bilan yashayotgan barcha insonlarning uchdan ikki qismi Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mintaqasidadir va u yerda qarama-qarshi jinsiy aloqa orqali bu virus tarqalgan. OIVning aynan bu hududda yuqori darajada tarqalganligi sabablaridan biri bu erkak va ayolning bir paytning o'zida bir partnerdan ortiq miqdordagi kishilar

bilan aloqa qilishidadir. Masalan, bir erkak bir paytning o'zida xotinga va bir yoki bir nechta o'ynashlarga ega bo'lishi mumkin. Bu xususiyat virus tarqalishini bir necha barobar ko'paytiradi.


Markaziy Afrika bu virusdan eng ko'p zararlangan hudud bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropada ham bu ancha tarqalgan. Bu hududlarda 2005-yilning o'zida 220000 kishi zararlangan. Xitoyda ommaviyy OITS/OIV epidemiyasi tarqalishi xavfi bo'lib. 30 milliondan ortiq bolakaylar uylanish huquqidан mahrum bo'lishgan. Shunisi aniqli, OITS/OIV epidemiyasi insoniyatga ta'sir qilgan, qilmoqda va ta'sir qilib keladi ham. Yuqorida aytiganidek, 25 million kishi allaqachon OIT'Sdan vafot etgan va yana 40 million kishi bu kasallik bilan yashab kelishmoqda.

BMT o'zining 2006-yildagi Dunyo aholisi istiqbollari nomli ma'lumotnomasida shuni keltiradiki, OIV virusi mayjudligi darajasi bu virus tarqalgan 58 mamlakat aholisi orasida 1 % gachani tashkil etadi. OIV mavjudligi darajasi 1 % dan kam bo'lgan 4 yirik mamlakat: Braziliya, Xitoy, Hindiston va AQSH ham hisobga olinishi kerak, chunki ulardagagi aholi soni bu virus tashuvchilarning ancha ko'pligini ko'rsatadi. Bu mamlakatlar bilan bizning ro'yxatimiz 62 mamlakatni tashkil etadi. Bu mamlakatlardan 40tasi Markaziy Afrikada, 11tasi Lotin Amerikasida va 5 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlar bir guruh sifatida butun dunyo bo'yicha bu virus bilan zararlangan 40 million aholidan 35 millionini yoki 90 % ini o'z ichiga oladi. 4.3-diagramma mintaqalar bo'yicha 1986-2004-yillar bo'yicha OIV bilan yashayotgan odamlarning yillik o'sish su'rattarini ko'rsatadi. Afrika qit'asi bu mintaqalar orasida eng birinchi o'rinda turadi.

Afrikadagi 8 mamlakalda OIV virusi aniqlanganlik darajasi hayron qoldirarlik darajada yuqori. Svazilendda 15-49 yoshdagagi aholining 33,8 foizi OIV virusi bilan zararlangan. Botsvanada bu ko'rsaikich 24,4 %. Lesotoda 23,1 %, Zimbabveda 20,0 %, Namibiyada 19,7 %, Janubiy Afrikada 18,9 %, Mozambikda 16, % va Zambiyada 16,9 %. Afrikadan tashqari, hech qaysi davlatda Gaitidagi 3,8 % ko'rsaikichga teng natija yo'q.

BMT ma'lumotiga qaraganda, epidemiya tarqalishda davom etadi va ba'zi mamlakatlar kelajakda ko'p yillar davomida o'z aholisi tarkibida OIV infeksiyasi bilan zararlanganlar soni ortishiga guvoh bo'lishadi. OITS haqiqatda ham aholining kasallanishi, o'lim darajasi va soni qisqarishiga juda ham katta sabab bo'limoqda. Bu virusdan

jiddiy zarar ko'rgan mamlakatlarda o'rtacha umr ko'rish uzoqligi shiddatli qisqarishlarga uchramoqda. 2005-yilda virusga egalar foizi 24% deb hisoblangan Botsvanada o'rtacha umr ko'rish muddati 1985-1990-yillardagi 64 yildan, 2000-2005-yillarda 47 yoshga tushib qoldi. 2005-2010-yillargacha umr ko'rish yoshi OIV bilan kasallanishning qisqarishi va anti-retrovirus terapiyasi imkoniyatlari kengayishi natijasida yana 51 yoshga ko'tarilishi kuzatilmogda.



4.3-rasm. Dunyoning OIV infeksiyasidan zarar ko'rgan mintaqalarida 1986-2004-yillarda zararlanganlar sonining o'sishi

Janubiy Afrikada esa bu epidemiyadan eng katta zarar ko'rgan mamlakatlар joylashgan bo'lib, bu yerda aholi o'rtacha yoshi 20 yil davomida 61 dan 49 yoshga tushib qolgan. Janubiy Afrikadagi ta'sir kutilmagan bo'lishiga qaramasdan, bu hududdagi katta zarar ko'rgan mamlakatlarning ko'pchiligi yaqin yillarda umr davomiyligida ancha qisqarishlarni boshlaridan o'tkazishdi. Kelinglar, o'limning kelajakda kutilayotgan holatlarini hayot davomiyligi jihatidan ko'rib chiqamiz. Biz bu asrda yuqori hayot darajalariga dunyodagi ko'pgina rivojlangan davlatlar tomonidan erishilganiga to'xtaldik.

2006-yilda rivojlangan mamlakatlар aholisi o'rtacha olganda 77 yil umr ko'rди (erkaklar 73 yosh, ayollar 80 yosh). Dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Yaponiyada o'rtacha umr ko'rish 82 yoshni tashkil etgan (79 yosh erkaklar, 86 yosh ayollar), keyingi

o'tinlarda Avstraliya, Ispaniya, Shvetsiya va Shvesariya davlatlari 81 yosh o'rtacha umr uzoqliligi bilan joylashgan. O'lish darajasini bu mamlakatlardagi holatga qarab tushib borishini taxmin qilish mumkinmi? Bu haqida ikki pozitsiya bor: biri buni cheklashga, ikkinchisi esa aksiga harakat qiladi.

Inson hayot darajasi yuqori limitini yoqlovchi asosiy shaxs bu Jeyms Frays bo'lib, u 1980-yilda insonlar maksimal hisobda o'rtacha 85 yilgacha yashashlari muunkin deb prognoz qilgan edi. U 2000-yilda e'lon qilingan bir ishida insonlar o'rtacha umr yoshi 1980-yildan beri oshganini va bu oshish kelajakda 85 yoshdan ozgina, ammo ko'p oshmasligini ta'kidladi. Jey Olshenski va Bryus Kyerns (2001) Fraysning fikrlarini ma'qullab, barcha tirik organizmlar "biologik kasolat"ga ega degan fikrni bildirganlar.

O'rtacha 100 yil umrga qarshi o'z fikrlarini bildirib, ular ta'kidlashdiki, "agar ko'pchilik insonlar 100 yil yashash qobiliyatiga ega bo'lishsa, 80 yoshdan keyin keladigan funksional va patologik pasayishlarning qandaydir bit sababi bo'lishi kerak". Ularning fikricha, ammo bunday sabab yo'q. Haqiqatdan ham "80 yoshdan keyin insonlar tanasidagi barcha biologik tizimlarida qisqarishlar sodir bo'la boshlaydi". Ularning so'zlariga qaraganda, AQSHda XXI asrning hech qanday paytida ham odamlar o'rtacha 90 yil yashashlari qiyin.

Boshqa taraf'dan, o'limlarning qisqarishi va o'rtacha umr uzayishini taxmin qilayotganlarning asosiy vakili bu mashhur demograf Jeyms Vopeldir. Uning tekshirishicha, qachon maksimum o'rtacha umr miqdori yuqori natijaga ko'tarilganida, bu natija ham ortda qoldirilgan. U va uning shogirdlari fikricha, insonlar va boshqa mavjudotlarning o'lim darajalari oshib bormaydi va aksincha yosh o'tib borgan sari o'lim xavfi sekinlashib, kamayib boradi. Vopel va uning hamkasbi Jim Oppen o'zlarining gapi bo'yicha "eng zo'r umr ko'rish mashg'uloti" ma'lumotini tekshirib ko'rishdi. Ular umr ko'rish ko'rsatkichi eng uzun bo'lgan 6 mamlakat: Avstraliya, Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiyadagi 1840-yildan 2000-yilgacha bo'lgan har yillik ma'lumotni yig'ib grafiklashtirishdi.

Biz ularning diagrammasini 4.4-suratda keltirganimiz. Oppen va Vopelning fikricha biron mamlakatdagi o'rtacha daraja va rekord daraja orasidagi farq bu o'sha mamlakatning o'sha paytdagi bilimlardan amalda foydalana olganligini ko'rsatadi. 4.4-suratdagi

ma'lumotdan ayon bo'lishicha, ayollar o'rtacha yashash uzoqligi to'g'ri chiziq bo'ylab yiliga 3 oydan oshib borgan. Oppel va Vopel bundan shuni keltirib chiqarishmoqdaki, agar o'sish shu chiziq bo'ylab o'sishda davom etsa, ayollar 2060-yilgacha bemalol 100 yoshgacha yashay ola boshlashadi.


Biz Fraysdan ko'ra ko'proq Vopel tarafida turishni ma'qul ko'ramiz. Dalillarni ko'rib chiqishimiz natijalari bizni o'zgarmas biologik yosh tushunchasiga qarshi turishga undaydi. Biz o'rtacha yosh o'sishi shu asrning o'zidayoq bir necha yoshga yuqorilaydi deb hisoblaymiz.

Ayollar o'rtacha yoshi 2060-yilgacha 100 yoshgacha yetadimi, yo'qmi buning ahamiyati yo'q, shunisi ahamiyatliki, bu ko'rsatkich 85 yoshda qotib qolmaydi. Yuqori daromadli 16 mamlakatda o'tkazilgan empirik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, "yaqin yillardagi aholi o'rtacha umr yoshining mintazam o'sishi optimistlarning yaqin yillarda umr chegarasiga hali yaqinlashmasligimizni ko'rsatmoqda". Amмо bu fikrni aytg'an Bongaarts shuni ogohlantirish sifatida aytdiki. Bu o'sish Oppen va Vopel ta'kidlaganidek yuqori bo'lmaydi. Rivojlanayotgan dunyoda o'rtacha umrda albatta o'sish bo'ladi. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, umumiy o'lim darajasi va onalar o'limi hali ham yuqori. Ularning ko'plarida yuqumli kasalliklar ko'plab o'limlarga sabab bo'lmoqda. Zamona viy tibbiy va ijtimoiy salomatlik texnikalari ularning ko'plariga joriy qilinsa, umr ko'rish uzoqligi anchagacha oshishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar juda yosh aholi tarkiblariga ega bo'lib, bu yoshlari qariyalarga qaraganda joriy etiladigan tibbiy imtiyozlardan ko'proq foyda oladilar. Natijada, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim darajasining qisqarishiga erishish mumkin. Biz bu bashorat bilan birga shuni tushunishimiz kerakki, ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim qisqarishi jarayoni to'xtab qolgan va hattoki orqaga ketish jarayoni ham bo'lgan. Bu o'limning qaytarilishi jarayoni demografiyada yangi hodisadir. Biz, bu kitobning mualliflari 1970-yillarda, talabalarga demografiyadan saboq berayotganimizda, bu hodisa hali noma'lum edi.

Demografik qaytarilish nazariyasi ilgari surilgan edi va bir kun kelib muayyan mamlakatda o'lim darajalari tusha boshlashi va hech qachon yo'nalishini o'zgartirib, o'sishi kuzatilmasligiga o'sha

paytlarda ko'pchilik ishongan edi. 4.5-diagrammada OIV/OIT'sdan kaita zarar ko'rgan bir davlatning 2015-yilga kelib aholining OIV bilan zararlangan va zararlanmagan qismining nisbati va aholining jins nisbati keltiriladi. Bu davlat Janubiy Afrika bo'lib, aholisining deyarli 19 %-i OIV bilan zararlangan.



4.4-rasm. Avstraliya, Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiyadagi ayollarning o'rtacha umr ko'rish yoshi


BMT ma'lumotiga ko'ra: 2015-yilda mavjud bo'lishi kuzatiladigan 15 yoshdan yuqori bo'lgan voyaga yetgan aholi miqdori OIV infeksiyasi bo'lmaganidagi natijaga qaraganda kamroqni tashkil etmoqda (taxminan 16 million). Bu yosh qatlarning qisqari ketishi sabablari dunyoga keltirish yoshidagi ayollarning OIV virusi sababl bevaqt nobud bo'lislari va zararlanib tug'ilgan chaqaloqlarning yashab ketishga noqobilliklaridir. 2015-yilda Janubiy Afrika aholisi 50,3 millionni tashkil qilishi kutiladi. Bu esa agar OIV virusi mavjud bo'lmaganida natija 14 soiz yuqoriroq bo'lar edi deganidir. Endi biz Maltus aytib o'tgan so'nggi ijobiy cheklovlardan biri *urushlar* muhokamasiga to'xtalamiz.

Urushlar natijasida kelib chiqqan o'limlami qayd etish va ro'yxatga olish ishlari XX asrda har qachongidan ham ko'ra ancha batafsil olib borilgan. O'limlarning eng katta miqdori, hech shubhasiz, XX asrning birinchi yarmida ro'y berdi. Birinchi Jahon Urushidagi harbiy va suqaro qurbanlari soni 8,5 million bo'lgan bo'lsa, bu natija Ikkinchi Jahon Urushida 40 millionga yetdi. Ko'pincha oddiy aholi

orasidagi qurbanolar soni harbiylar orasidagi qurbanlardan ortiqroq bo'ladi. Ma'lumot uchun, Rossiya'dagi ikkinchi Jahan Urushi qurbanlarining 60 % i fuqaro vakillari ekanligini keltirish joiz.

AQSHda Fuqarolar Urushida berilgan qurbanlar soniga teng qurbanlarni Amerika bundan oldin ham, keyin ham bermagan edi. Urushning 1861-yildan 1865-yilgacha bo'lган, 4 yil davom etган muddatida 620000 qurban, yarmi shimoldan, yarmi janubdan berilgan. Bu degani AQSHning Mustaqillik urushidan to Koreya urushigacha bergen qurbanlari soniga teng degani. Qurban berilgan 620000 kishini o'sha paytdagi AQSHning 31 million aholisiga solishtiradigan bo'lsak; aholining o'sha paytdagi 2 % i halok bo'lган. Bu degani hozirgi 6 million AQSH aholisiga tengdir. Ammo, 1980-yillardan beri biz Sharqiy Yevropa va Afrika mintaqalarida o'limning qaytarilishi jarayoniga ko'pdan ko'p hollarda duch kela boshladik. Rossiya va ko'plab Sobiq SSSR mamlakatlarida 1980-1990-yillarda o'limning qaytarilishi jarayonlari yuz bera boshladi.

2000-yilda Rossiyada o'rtacha umr miqdori 59 yosh bo'lib. 1950-yillardagi 60 yosh natijasidan ham past edi. Shu orada, boshqa G'arb mamlakatlari o'zlarining natijalarini o'tgan asming so'nggi o'n yilliklarida oshirib borishdi. AQSHda o'rtacha umr miqdori 1960-yillardagi 70 yoshdan, 2000-yilda 77 yoshgacha ko'tarildi. Sharqiy Yevropadagi o'lim qaytarilishi jarayonlariga nima sabab bo'imodqa?



4.5-diagramma. OIV/OITS dan katta zarar ko'rgan bir davlatning 2015-yilga kelib abolining OIV bilan zararlangan va zararlannigan qismining nisbati


Taxminiy omillar quyidagilar bo‘lishi mumkin: kasallikning oldini olish dasturlari va muqobil tibbiy xismatlarning tanqisligi; chekish va ichkilikbozlik; shaxsiy sog‘liqqa umumiy e’tiborsizlik. Bular “sobiq Kommunist rejimi nazorati ostida hayotiy tanlovlardan mahrumlik, shuningdek, ishsizlik, nisbiy qashshoqlik, va kommunistik rejimdan keyingi iqtisodiy og‘ir vaziyatlardagi moliyaviy qiyinchiliklar bilan chiqisha olmaslik”. 1980-yillarning o‘rtalarida ko‘plab Sahroi Kabirdan janubda joylashgan Afrika mamlakatlarida o‘lim darajasining shiddatli oshib ketishi va uning natijasida o‘rtacha umr uzoqligining ham tushib ketishi sodir bo‘ldi.

4.6-diagrammada 1980-yillarning boshlaridagi Lesoto, Namibiya, Janubiy Afrika, Svazilend va Zimbabve mamlakatlaridagi 5 yoshgacha bo‘lgan har 1000 bolada kuzatilayotgan o‘limlar soni va OITS/OIV bo‘limgandagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan natija keltirilgan, farqlar juda katta. Bolalar o‘limi agar OIV bo‘limganida ancha past bo‘lar edi. Svazilendda hozirgi daraja 143, ammo OIV bo‘limganida bu daraja 73 bo‘lar edi. Lesotoda bu natija 1000 bolaga 123 o‘limni tashkil etadi, ammo OIV bo‘limganida edi bu 71 bo‘lar edi. Sahroi Kabirdan Janubdagagi Afrikada “OIV infeksiyasi bilan tug‘ilgan bolalar (tug‘ilish paytida onasi orqali yuqtirib olganlar)ning 1/3 qismi o‘zining birinchi tug‘ilgan kuniga qadar vafot etishadi, va 60 % i 5 yoshga yetmasdan dunyodan ko‘z yumadi”.

OITS epidemiyasi ko‘plab Sahroi Kabirdan janubdagagi Afrika mamlakatlaridagi umrni uzaytirish borasida erishilgan natijalarni barbod qildi. “Masalan, 2005-yilda aholisining $\frac{1}{4}$ qismi OIV/OITS bilan yashayotgan Lesotoda 1990-1995-yillarda o‘rtacha umr uzoqligi 60 yoshda edi, ammo bu ko‘rsatkich 2005-2010-yillarga kelib 34ga tushib qolishi kutilmoqda, buning asosiy sababi OITSdan o‘lishdir”. Agar Lesotoda OITS bo‘limganida bu davlatda o‘rtacha umr miqdori yaqin o‘n yil ichida 69 yoshga yetar edi. Uning o‘miga Lesotoning o‘rtacha umr miqdori 50 % ga kam natijani tashkil etishi kutilmoqda. Epidemiya bu mamlakatlarga judayam qaqshatqich talafotlar olib keldi.

Hozirdagi dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi asosiy o‘limlar sabablaridan biri bu degenerativ kasalliklardir. Bu kasalliklarni davolashning yangi usullari kelayotgan o‘n yilliklarida ishlab chiqilishi kuzatilmoqda. Ammo faqatgina fiziologik

bosqichdagi inqilobiy kashfiyotgina hozirda rivojlangan mamlakatlar aholisining umrini ozgina uzaytirishi mumkin. Hattoki, biron bir degenerativ kasallik, masalan, yurak kasalligi yoki saratonning butunlay davosi topilsa ham, bu umumiy hayot miqdorida unchalik katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi qiyin. Biron degenerativ kasallikning davolash usullari topilishi unchalik katta o'zgarishlarga olib kelmaydi, chunki bu kasalliklar, asosan, katta yoshdagagi insonlarda uchraydi. Biron degenerative kasallikning yo'ldan olib tashlanishi shunchaki o'lim sababini boshqa degenerative kasallikka o'tishiga sabab bo'ladi va umumiy hayot uzunligini bir yoki ikki yilga uzaytirishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, rivojlangan mamlakatlardagi o'limning asosiy sabablaridan biri bu yurak-ishemik kasalliklari va saratondir. Agar AQSHda yurak kasalliklari o'limga olib keluvchi kasalliklar safidan chiqarilishiga erishilsa, umumiy umr davomiyligini hor-yo'g'i 5 yilga uzaytirilishiga erishish mumkin.



4.6-diagramma. OITSning bolalar o'limiga ta'siri, tanlangan mamlakatlar, 2002-2005 yillar

Agar saraton olib tashlansa, umr uzoqligi 3 yilga uzayadi. Shunga qaramasdan, bu odamlar uzoqroq yashamaydi degani emas. Ular yangi tibbiy kashfiyotlar joriy etilib, amalda qo'llanilgani sari uzoqroq yashashda davom etadilar. Ammo saratonga qarshi davo ham umr uzoqligini 3 yilda ortiq cho'za olmaydi. Buning sababi demografiyada Tyober Paradoksi deb nom olgan paradox bilan bog'liq. Bu paradox ko'p yillar oldin "agar bir degenerativ kasallik davosi topilsa, bu shunchaki o'lim uchun boshqa bir degenerativ kasallik orqali o'zini namoyon etishiga imkon yaratadi" deb izoh

qoldirgan demograf Konrad Tyober nomiga qo'yilgan. Yoki demograf Neyten Keyfits so'zi bilan aytganda: "Hamma ertami-kechmi baribir o'ladi, shuning uchun, saraton sabablari ochib tashlanib, uning davosi topilgani bilan, xuddi shu miqdordagi o'limlar sodir bo'laveradi, bundan yagona naf saratonning o'miga yurak va boshqalarning kasalliklari kelishi bo'ladi. Saratonning davosi odamga faqatgina yurak kasalligidan o'lish imkoniyatini beradi, xolos. Shunday qilib, muayyan tibbiy innovatsiyalarning bor yo'g'i qo'lidan kelgani tanlash imkoniyatlarini vujudga keltirishidir: siz saraton o'miga yurak kasalligidan o'lishni tanlashingiz mumkin". Ba'zi demograflar kelajakda hayot davomiyligini uzaytirishning boshqa imkoniyatlari bo'lmaydi deb hisoblashadi. Bundan tashqari bizda Sharqiy Yevropa va Sahroi Kabir janubidagi Afrika kabi muvaffaqiyatsizliklar bor. Umid qilamizki ular uzoq davom etmaydi. "Bizningcha, savol o'lim darajasini pasaytirib bo'ladimi yoki yo'qmi degan masalada emas, balki, u qanchaga pasayadi va qaysi yosh, jins, irqiy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik guruuhlar bundan eng katta foyda olishidadir.

Xulosa o'mida aytish joizki, sog'lom aholi hamrohligida sog'lom turmushdagi, tibbiy texnikalardagi va umumiy hayot sifatidagi davomiyligi o'zgarishlar porloq kelajak va'da qilmoqda. BMT tomonidan 1992-yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada demografik muammoni hal etish har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturining asosiy qismi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Har bir davlat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, o'sib borayotgan aholisini boqishi, hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishda o'zining demografik siyosatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishi zarur. Aholi ko'payishida nafaqat uning tabiiy harakati, balki mexanik harakati, ya'ni migratsiyasi ham muhim rol o'ynaydi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi tabiiy harakati va tabiiy ko'payishi orasidagi farqni baholang?
2. Tug'ilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
3. Epidemiologik o'tish deganda nimani tushunasiz?
4. Demografik jarayonlardan tug'ilish va o'limning umumiy koeffitsientlari qanday aniqlanadi?

5. Tug'ilish va o'lim jarayonlarining yosh bo'yicha, maxsus va xususiy koefitsientlari deganda nimani tushunasiz?
6. O'lim sabablarining dastlabki ro'yxati kim tomonidan tuzilgan?
7. Go'daklar o'limi qanday hisoblanadi?
8. Perinatal, neonatal davr nima?
9. O'rtacha umr davomiyligi deganda nimani tushunasiz?
10. O'lim jadvali qanday tuziladi?

5-MAVZU. DUNYO AHOLISI TAKROR BARPO BO'LISHI. AHOLI TAKROR BARPO BO'LISHINING TURLARI. DEMOGRAFIK O'TISH

Reja:

- 5.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati, ma'zmuni va unga ta'sir etuvchi omillar.
- 5.2. Aholi takror barpo bo'lisingning turlari va o'tish bosqichlari.
- 5.3. Dunyo aholisi takror barpo bo'lisingning geografik xususiyatlari.

5.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati, ma'zmuni va unga ta'sir etuvchi omillar

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, tug'ilish va o'lim jarayonlari natijasida, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir yoki bir avlod vakillarining o'tniga ikkinchi bir avlod vakillarining kelishi, avlod almashinishidir. Avlodlar almashinishi davomida (aholining takror barpo bo'lishi) uning soni, yosh va jinsiy tarkibi o'zgaradi. Avlodlar almashinushi, aholi tabiiy o'sishi hajmini aniqlash, har bir avlod o'rtacha umr ko'rishi, tug'ilish va o'lim jarayonlari yig'indisi aholining tabiiy harakati yoki takror barpo bo'lishi deyiladi. Aholining takror barpo etilishi bevosita va bilvosita aholining tug'ilishiga, o'limiga va tabiiy o'sishiga bog'liq. Jamiyatda avlodlar almashinadi, aholi takror barpo bo'ladi, natijada, aholi soni o'sadi. Aholi takror barpo bo'lisinga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Tabiiy-biologik;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy;

3. Ijtimoiy-madaniy;


4. Psixologik;

5. Demografik.

Tabiiy-biologik omil aholi takror barpo bo'lishida muhim omillardan biri. Yer yuzi aholisi turli tabiiy sharoitda yashaydi, tug'iladi va o'ladi. Insonning tug'ilishi va o'lishi bilogik hodisa ekan, u tabiiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikdadir.

Jamiyat davomiyligini ta'minlovchi inson ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Aholi tabiiy o'sishi uning jinsiy, yosh tarkibi, nikoh va ajralish jarayonlari ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi demografik omillar sirasiga kiradi. Ma'lumki, tug'ilish qanchalik ko'p bo'lsa, aholi soni o'sib boradi, aholi tarkibida bolalar va yoshlар miqdori oshadi yoki aksincha, tug'ilish kamaysa, jinsiy tarkibdagi buzilishlar ro'y bersa aholi yosh tarkibida qariyalar midori oshadi va hokazo. Yuqoridagi omillar aholi takror barpo bo'lishiga bir xil ta'sir etmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omil aholi tabiiy harakatida muhim rol o'ynaydi. Aholining yashash sharoiti, sog'liqni saqlashning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o'rni, aholining madaniy va ma'lumotlilik darajasi va boshqalar aholi tabiiy harakati darajasini belgilab beradi. Ushbu omillarning tug'ilish va o'limga ta'siri qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yaxshilanishi, tibbiy xizmat kabi sohalarning rivojlanishi, o'lim ko'rsatkichini pasaytiradi, aholi o'rtacha umr ko'rish darajasini uzaytiradi. Natijada, aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payadi va o'z-o'zidan o'lim ko'rsatkicha osha boshlaydi.



5.1. rasm. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar

Aholining takror barpo bo'lishi, ya'ni avlodlar almashinish jarayoni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, millatlarda o'ziga xos xususiyatga egadir. Aholining takror barpo bo'lishi har bir hudud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'sirida ro'y beradi va taraqqiy etadi. Shu boisdan, aholi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari turli mamlakatlarda turli vaqtarda bir-biridan farqlandi. Bu farqlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlar, ya'ni koeffitsientlardan foydalilaniladi. Bulardan:

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsienti. Har bir ayolning reproduktiv, ya'ni farzand ko'rishi davrida (15-49 yosh) o'rganilayotgan davrdagi tug'ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz farzand ko'rishi mumkinligini aniqlab beradi. Ushbu koeffitsient quyidagi formula orqali ifodalananadi¹.

$$R = \delta \sum_{i=1}^{15} fx$$

R – aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsienti ifodasi.

δ – tug'ilganlarning umumiy sonida qiz bolalar salmog'i (0.488).

$\sum_{i=1}^{15} fx$ – ayollar yosh guruhlar bo'yicha tug'ilish koeffitsienti yig'indisi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsientida o'lim hisobga olinmaydi.

Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti. Bu koeffitsient aholi takror barpo bo'lishining sof koeffitsienti bo'lib, u avlodlar almashinuv darajasini aniq ifodalaydi, chunki, bu ko'rsatkichda tug'ilgan qiz bolalarni onasining yoshiga yetgunga qadar yashab borganlari hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsientida o'lim chtimoli hisobga olinadi va netto koeffitsienti formulasi quyidagicha ifodalananadi.

$$R_n = RL_x$$

R_n – netto koeffitsienti ifodasi

R – brutto koeffitsienti

L_x – ona yoshigacha yashagan qizlar

Agar $R_n > 1$ aholi soni muntazam ko'payib boradi, $R_n < 1$ bo'lsa esa aksincha kamayadi.

¹ Nenos statistik demografi R.Kuchinskiy tomonidan qo'llanilgan.

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog'at yoshiga yetib, farzand ko'radi, nasi qoldiradi. Bu uzviy jarayon tusayli jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo'laveradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonining o'sib borishini ta'minlovchi jarayondir, lekin u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

Insonlar o'z hayotlari davomida boshqa insonlarni dunyoga kelishiga omil bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni ijtimoiy muhit uchun ham muhim omil sanaladi. Ayni vaqtida, insonlar o'z hayotlari uchun zarur narsalarni (oziq-ovqat, turar-joy va kiyim-kechak va h.k.) yaratib, ishlab chiqarishni rivojlantiradilar. Bu jarayonda insonning bilim, ilm darajasi, malakasi, hayotga, uzoq umr ko'rishga bo'lgan intilishi, harakati kuchayib boradi. Demak, dunyoga kelgan inson jamiyatda yashashi bilan uning sisatiy xususiyatlari ham rivojlanadi. Mutaxassislar aholi takror barpo bo'lishini aholining uch asosiy: tabiiy, hududiy (migratsiya) va sotsial harakatlari yig'indisi sisatida tahlil etadilar.

Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilishning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonimi ko'payib borishiga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlaming ko'rsatishicha, aholi takror barpo bo'lishining asosi bo'lgan tug'ilish, shahar turmush tarzi ta'sirida kamayib borgan. Aksineha, qishloq turnush tarzi ta'siri tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlab qolishga olib kelgan. Aholining shahardan qishloqqa yoki qishloqdan shaharga kelib yashashi bevosita uning reproduktiv mayliga ta'sir etib, tug'ilishning kamayishi yoki ko'tarilishiga olib keladi. Xuddi shunday aholining sotsial harakati uning ma'lumotlilik darajasining oshib borishi, ilm, malaka talab etgan xizmat doirasida faoliyat ko'rsatishi, tibbiy bilimlardan ko'proq xabardor bo'lishi, uning uzoq umr ko'rishiga, nasi qoldirish – farzandlar ko'rishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning paydo bo'lishi va jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo'lishini boshqarish tizimida katta o'zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish va o'lim jarayonlarini boshqarish orqali ma'lum maqsadga yo'naltiriladi.

Aholining tabiiy harakati, aholi tabiiy o'sishi ko'rsatkichlari orqali ifodalananadi.

5.2. Aholi takror barpo bo'lishining turlari va o'tish bosqichlari

Insoniyat jamiyatni tarixida aholi takror barpo etilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lgan va bo'lmoqda, oqibatda, hozirgi davrda dunyo aholisining takror barpo etilishining quyidagi tiplari paydo bo'ldi:

- 1) arxetip, 2) an'anaviy tip, 3) zamonaviy tip.

Arxetipga xos aholining tabiiy o'sishi insoniyatni demografik rivojlanishida uzoq davom etgan davri bo'lib, aholining yuqori darajadagi tug'ilishi yuqori darajadagi o'limi ko'rsatkichlari bilan kuzatiladi. Bunday tabiiy o'sish hozirgi davrda Afrikaning ko'pgina qoloq mamlakatlari xos. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda aholining takror barpo bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, rivojlanayotgan yoki iqtisodiy nochor davlatlardagi aholi o'rtasida erta oila qurish, ko'p farzandlilik, ayollar ahvolini yaxshi himoyalanganmaganligi, ma'lumotlilik darajasining pastligi, sog'liqni saqlash tizimining yetarli yo'lga qo'yilmaganligi tug'ilishning juda yuqori bo'lishiga, o'lim darajasining, ayniqsa, bolalar va ayollar o'limining ko'pligiga sabab bo'ladi. Aholining turmush darajasi baland, madaniy saviyasi yuqori bo'lgan aksariyat, rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish darajasining pastligini, o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi eng balandni tashkil etishini ko'ramiz.

Angliyalik iqtisodchi Semuel Leng "agar hamma yetarli, qulay, yaxshi sharoitda yashaganda edi, hozir dunyo odamsiz qolgan bo'kur edi", – deydi. Bunday aholining moddiy ahvoli, ma'nnaviy turmush darajasi yuksalib borar ekan, o'z navbatida, inson psixologik nuqtayi nazardan ko'p farzand ko'rishni istarmaydi, degan fikr tug'iladi.

B. S. Urlanis "Moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan oilalarning farzandlari kam sonlidir" deb iqtisodiy omilning demografik omilga ko'rsatayotgan ta'sirini ifodalab beradi. Shuningdek, u moddiy omil bilan ma'nnaviy omilning avlodlar almashinuviga hamisha bir xil yo'nalishda ta'sir etmasligini ham aytib o'tadi. Aholi takror barpo bo'lishi, ushbu omillar ta'sirida bir-biridan farq qiluvchi tiplari vujudga keladi.

Birinchi tip – bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o'rtasida tug'ilish va o'linning yuqori darajasi va bunga mos ravishda, aholining kam miqdorda ko'payishi xos bo'lib, hozirda ushbu tipga kiradigan davlatlar Yer sharida juda kam miqdorda uchraydi.

Ikkinci tip – davlatlariga tug'ilish miqdori yuqori, o'lim ko'rsatkichi tibbiyotdagi erishilgan yutuqlar evaziga keskin kamayib boradi. Aholi yosh tarkibi progressiv, keksa va qariyalar salmog'i kam sonli, bolalar, yoshlari ko'pchilikni tashkil etgan holda, aholi takror barpo bo'lishi ijobiy baholanadi, "demografik portlash" kuzatiladi. Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan ushbu tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari. Avstraliya va Okeaniya, O'rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi tip – bu tipdagagi davlatlarda aholi o'limining kam miqdori ushlanib turgan holda, tug'ilish darajasi qisqarib boradi. Aholi soni haddan tashqari ko'payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma'lum bir miqdorda o'sishi kuzatiladi. Ushbu tipdagagi davlatlar aholi takror barpo bo'lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar deb ataladi.

To'rtinchi tip – davlatlari aholisi o'z-o'zini qayta tiklamaydi. O'lib ketayotganlar mutlaq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq bo'ladi. Mazkur guruh davlatlarida "depopulyatsiya" ro'y beradi, qisqargan aholi takror barpo bo'lishiga olib keladi. Bularga Yevropa, Boltiqbo'y davlatlari, Shimoliy Amerikadagi ma'lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyani kiritish munkin.

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholi takror baro bo'lish turlari muntazam o'zgarib kelgan. Hozirgi davrga (XXI asr boshi) kelib, mutaxassislar tomonidan aholi takror barpo bo'lishini, asosan, 2 turi mavjudligi ta'kidlanmoqda.

1 tur – aholi takror barpo bo'lishining qisqargan turi. Bu turdagagi avlodlar almashinushi jarayonida aholi soni ko'paymaydi, chunki tug'ilganlarga nisbatan o'lganlar soni yuqori bo'ladi.

2 tur – aholi takror barpo bo'lishining kengaygan turi, bunda aksincha tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'ladi va natijada, keyingi avlod vakillarining soni oldingi avlod vakillari sonidan ko'p bo'ladi. Bunday holda aholi muntazam ko'payib boraveradi.

5.3. Dunyo aholisi takror barpo bo'lishining geografik xususiyatlari

Tug'ilish, o'lim va aholi tabiiy o'sishi past bo'lgan huddlarda aholi takror barpo bo'lishining 1-turi kuzatiladi. Hozirgi davrga kelib, aholi takror barpo bo'lishining 1 turi Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlarida kuzatilmogda. Aholi takror barpo bo'lishining 1-turida har bir oiladagi farzandlarning o'rtacha soni 2,5 tadan kamdir. Ilmiy manbalarda har bir oila o'rtacha 2 tadan farzand ko'rsa, o'z otanonlari o'tnini to'ldiradilar. Agar oilada 3 tadan farzand bo'lsa, uchinchi bola turli sabablar (baxtsiz hodisalar, kasaliliklar) bilan hayotdan ko'z yumgan bolalar va farzandsiz oilalarni "qoplaydi", ya'ni o'rnnini bosadi. Shuning uchun ham aholi sonini bir me'yorda saqlanishi uchun oiladagi farzandlar soni o'rtacha 2,5 bolani (demak oilalarning yarmi 2 bolali, yarmi esa 3 bolali) tashkil etishi lozimdir. Agar oilada farzandlar soni 2,5 tadan kamayib borsa, aholi soni kamayadi va demografik inqiroz sodir bo'ladi. Oiladagi farzandlar soni tug'ilishning yig'indi koeffitsienti (har bir 15-49 yoshdagiga ayliga to'g'ri kelgan bolalar soni) yordamida aniqroq ifodalanadi. 2009-yilda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti dunyo bo'yicha 2,6 ni, Afrika qita'sida 4,6, Amerikada 2,2, Osiyoda 2,3, Yevropada 1,5 va Avstraliya va Okeaniyada 2,5ni tashkil etgan. Demografik inqirozga yuz tutgan, aholi takror barpo bo'lishining 1-turi kuzatilayotgan davlatlarda demografik siyosat "depopulyatsiya", ya'ni aholi sonining kamayib ketish jarayonini to'xtatishga qaratilmog'i lozimdir. Bunday siyosatning asosiy maqsadi oilada ikkinchi, uchinchi farzandlarni ko'rish, davlat, jamiyat tashkilotlari tomonidan ham iqtisodiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Aholi takror barpo bo'lishining 2-turi aholining tug'ilishi, tabiiy o'sishi juda yuqori, o'limning esa nisbatan kam bo'lgan holatlarda kuzatiladi. Bunday holat Afrika qit'asidagi deyarli barcha davlatlarda, Avstraliya va Okeaniyada, Osiyodagi ba'zi davlatlarda kuzatilmogda. Aholi takror barpo bo'lishining 2-turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar G'arbiy Afrikadagi Niger davlatida (tug'ilishning yig'indi koeffitsienti – 7,4, tug'ilish umumiy koeffitsienti – 53, o'lim – 14 va tabiiy o'sish 39 promille), Sharqiy Afrikadagi deyarli barcha davlatlarda (tug'ilish 30 – 47 promille, o'lim 3-18 promille, tabiiy o'sish 10-34 promille)

kuzatiladi. Aholi takror barpo bo'lishining 2-turi kuzatilayotgan qator davlatlarda aholining haddan oshiq ko'payib borishi, ya'ni "demografik portlash" jarayonining oldini olish muammosi mavjuddir. Ushbu muammoni bartaraf etishda tug'ilishni nazorat etish uslubidan soydalaniladi. Davlat siyosati oilani demografik nuqtayı nazardan rejalarashtirishga qaratiladi. Bunday siyosat Xitoy, Hindiston va qator rivojlanayotgan davlatlarda olib borilmoxda. Hozirda Yer shari aholisi tug'ilish umumiy koeffitsienti har ming kishiga 20 promillega, aholi o'limi 8 promillega, tabiiy ko'payish 12 promillega (2017-yil) teng bo'lmoqda. XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, XX asrga kelib, aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallahushi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatda bo'lgan bo'lsa. XX asrda xuddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtida tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda. Tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni eng aniq ifodalovchi demografik ko'rsatkichlardan biri tug'ilishning yig'indi koeffitsienti bo'lib, u ma'lum avlodga tegishli har bir ayloning farzand ko'rish davrida (o'rtacha 15-49 yosh) tug'ilgan bolalarining o'rtacha sonini bildiradi. Agar mazkur koeffitsient qaysi bir hududda 4,15dan yuqori bo'lsa, shu hududda aholi soni tez sur'at bilan ko'payib boradi, aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog'i yuqori bo'lib, qariyalar (65 yosh va undan kaitalar) salmog'i past bo'ladi. Agar tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,15 dan kichik bo'lsa, aholi juda sekin o'sib boradi, aholi tarkibida bolalarga nisbatan qariyalar salmog'i yuqori bo'lib, aholining demografik "qarish" jarayoni ro'y beradi. Bu ko'rsatkich 2,15dan 4,15gacha bo'lsa, tug'ilish darajasi me'yorda hisoblanib, aholi o'rtacha darajada ko'payib boradi. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti dunyo bo'yicha, 2,5ga teng (2017-yil). Demak, aholi takror barpo bo'lishda davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu raqam 1,7 ga, rivojlanayotgan davlatlarda 3,0 ta, o'rtacha darajadagi rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,6 ga teng (2017-yil). Afrikada tug'ilishning ushbu koeffitsienti eng yuqori

ko'rsatkichga ega, ya'ni 4,7, Amerikada 2,2, AQSHda 2,0, Osiyoda 2,2 va Yevropada 1,6 ni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha Angola, Kamerun, Brunda, Malavi davlatlari (5,7-6,5) aholisi o'ta yuqori tug'ilish darajasiga ega. Yevropa aholisi demografik inqirozga yuz tutgan, bironqa davlat aholisida tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,0dan oshmaydi. Bunda albatta mamlakatlar aholisining yosh, jinsiy, milliy tarkibi, hududiy joylashuvi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda o'ta yuqori darajada bandligi kabi xususiyatlari alohida o'rinn tutadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Dunyo aholisining ko'payib borishi va "demografik revolyutsiya" – uni keltirib chiqaruvchi omillar.
2. "Demografik o'tish" haqida qarashlar, nazariyalar.
3. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
4. Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti qanday hisoblanadi?
5. Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsienti qanday hisoblanadi?
6. Demografik o'tish konsepsiysi kim tomonidan yaratilgan?
7. Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan va toraygan turlarini tushuntiring.
8. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
9. Tug'ulishning umumiy koeffitsienti qanday hisoblanadi?
10. Tug'lishning maxsus koeffitsienti qanday hisoblanadi?

6-MAVZU. DUNYO AHOLISINING YOSH-JINSIY TARKIBI. DEMOGRAFIK QARISH

Reja:

- 6.1. Aholining yosh tarkibi va yosh kontingentlari.
- 6.2. Aholining jinsiy tarkibi va uning shakllanishidagi omillar.
- 6.3. Aholining qarishi va uning demografik mezonlari.

6.1. Aholining yosh tarkibi va yosh kontingentlari

Aholi tarkibi deganda aholining ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy va demografik belgilari asosida taqsimlanishi tushuniladi.

Aholi tarkibi quyidagi belgilar asosida taqsimlanadi:

1. Biologik xususiyatga ega bo'lgan belgilar: (askriptiv) jinsi, yoshi, irqi, etnik guruhi;

2. Sotsial xususiyatga ega bo'lgan belgilar: nikoh statusi (nikohda turishi), savodliligi va ma'lumotililik darajasi), kelib chiqishi, tili, fuqaroligi, professional tayyorgarligi;

3. Iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan belgilar: kasbi, bandligi, bandlik sohasi, daromad manbai;

4. Migratsion xususiyatga ega bo'lgan belgilar: tug'ilgan joyi, mazkur aholi maskanida necha yildan beri yashab kelishi va h.k;

5. Demografik (vitalniy) belgilar: tug'ilish va o'lim, nikoh va ajralish, nikohga kirish yoshi, homiladorliklar soni, farzandlar soni, o'lim soni va h.k;

6. Oilaviy tarkibi bo'yicha belgilar: oila yoki uy xo'jaligi, oila turlari va h.k.

Aholining yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar (demografik tarkibi) birinchi navbatda, jamiyatning demografik holati bilan chambarchas bog'liq. Demografik holat esa aholining yoshi va jinsiy tarkibi, nikohga kirishi va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalananadi.

Aholining yosh tarkibi juda qadimdan shakllanib kelgan demografik holatning natijasi bo'lib, u ayni paytda demografik istiqbolning zamini hamdir. Aholining yosh tarkibi esa asosan, uning tabiiy ko'payishiga bog'liq. Tug'ilish yuqori bo'lgan holatlarda aholi tarkibida bolalar salmog'i yuqori bo'ladi yoki aksincha, tug'ilish past, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati nisbatan uzoq bo'lgan hollarda aholi tarkibida qariyalar salmog'inining yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Yosh – inson tug'ilganidan hayotining ma'lum nuqtasigacha bo'lgan davr. Biologik va kalendar yoshlari mavjud. Hozirgi davrda aholining yosh strukturasi bo'yicha quyidagi klassifikatsiyasi berilgan. Aholining yosh tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo'linishidir. Aholi

yosh guruhlari va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi.

6.1-jadval

Yosh klassifikatsiyasi¹

Kalendar yosh	Inson hayoti davrlari
1-7 kunlik	Yangi tug'ilgan chaqaloq
7 kun-bir yosh	Chaqaloq
1-3 yosh	Ertal bolalik
4-7 yosh	Birinchi bolalik
8-12 yosh (o'g'il bolalar)	
8-11 yosh (qiz bolalar)	Ikkinci bolalik
13-16 yosh (o'g'il bolalar)	O'smirlar
12-15 yosh (qiz bolalar)	
17-21 yosh	Yigitlar
16-20 yosh	Qizlar
22-35 yosh (erkaklar)	I - Yetuklik davri
21-35 (ayollar)	
36-60 (erkaklar)	II ~ Yetuklik davri
35-55 (ayollar)	
61-74 (erkaklar)	Keksa odamlar
56-74 (ayollar)	
75-90 yosh	Qari odamlar
90dan yuqori yoshdagilar	Uzoq yashovchilar

Aholi tarkibida yoshlari (0-9, 10-19, 20-29 yoshida) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Ayni paytda, tug'ilish yuqori bo'lgan hollarda hududlarda bolalar, yoshlari salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. Demografik nuqtayi nazardan yondashganda, aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi yosh tarkibini o'rganganda, aholi alohida har bir yoshlarga (0,1,2,3,4,5...100 va undan yuqori), besh yillik yosh guruhlariga (10-

¹ Народонаселение: Энциклопедический словарь. - М., 1994. с. 461.

14, 15-19...) va uchta yirik-yirik guruhlariga (0-14, 15-60, 60 va undan yuqori) ajratiladi. Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish obyekti sifatida o'z kelib chiqishi va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

a) alohida yosh guruhlari va ularning nisbatlarining statistik tahlili;

b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlarini va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'mi;

v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asming o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasining nisbatan pastligi va aholi umuniy tarkibida bolalar salmog'inining kamligi bilan xarakterlanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'inining yuqoriligi xarakterli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.


Yosh akkumulyatsiyasi – ba'zi yosh guruhlaridagi aholi sonining o'zidan oldindi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi. Bu hol ko'p hollarda aholi o'zining yoshini yaxlitlab aytishi sababli sodir bo'ladi. Ko'proq 60 yoshdan keyin keksalar yoshlarini ko'paytirib aytadilar. Natijada ba'zi yoshdagi aholi soni o'zidan oldindi yoshdan oshib ketadi. Masalan, 1897-yil aholi ro'yxatlarining tahlilidan 70 yosh erkaklar, 75 yosh ayollar soni 69 yosh va 74 yoshdagi aholi sonidan oshib ketgan.

Aholining yosh tarkibi aholining tabiiy harakati ko'rsatkichi bilan chambarchas bog'langan. Insonning iqtisodiy, biologik va kalendor yoshlari mavjud bo'lib, ular o'z ilmiy ta'riflari va xususiyatlariga egadir. Demografik nuqtayi nazardan inson umri turli davrlarga bo'linadi (go'daklik, bolalik, yoshlik, yetuklik, mehnatga qobiliyatllik davri va qariyalik). Umuman, dunyo miqyosida aholi yosh tarkibi bo'yicha uchta demografik guruhlarga ajratiladi. Bularga 0-14 yosh (bolalar), 15-64 yosh (mehnat yoshidagi aholi), 65 yosh va undan yuqorilar (qariyalar) kiritiladi.

Shved demograf olimi G. Sundberg aholining yosh tarkibiga qarab uch turga bo'ldi:

1. Progressiv:
2. Statsionar;
3. Regressiv.

Progressiv – yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (0-14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo'lgan hududlarda kuzatilib, ularning aholisi muntazam ko'payib boradi. Bu yosh tarkibiga Afrika va Osiyo davlatlarini kirtsa bo'ladi. Dunyo bo'yicha 15 yoshdan kichiklar jami aholining 26 foizini tashkil qilsa, Afrikada 41 foizni. Osiyoda 25 foiz. Yevropada 16 foizga teng (2017-yil). Bizning respublikamiz aholisi yosh tarkibida aynan shu yoshdagilar dunyo ko'rsatkichidan baland 29 foiz.



6.1-rasm. Aholi takror barpo bo'lish tartibiga mos keluvchi yosh tuzilishi tiplari (Borisov V.A., 2001)

Statsionar – yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog'i yoshlar bilan tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki tez ko'payishi kuzatilmaydi.

Regressiv – yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga qaraganda yuqori bo'ladi. Bunday holda aholi soni

asta-sekin kamayib boradi va “depopulyatsiya” holati yuz beradi. Aholi “qarib” borishi kuzatiladi. Dunyo aholisining atigi 7 foizi (2018-yil) 64 yoshdan kattalarga to‘g‘ri keladi. AQSH, Kanada, Yevropa, Okeaniya davlatlarining aksariyatida 64 yoshdan katta yoshidagilar salmog‘i dunyo aholisining aynan shu yosh tarkibi bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichidan ustunligi kuzatiladi.

Aholi yosh tarkibini ikkita asosiy tipga ajratish mumkin.

Birinchi tipda (tug‘ilish va o‘lim yuqori bo‘lib, o‘rtacha umr ko‘rish davri qisqa bo‘lgan rivojlanayotgan davlatlar) bolalar, o‘smirlar miqdori ustun, qariyalar hissasi uncha katta emas. Ikkinci tip Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga xos (tug‘ilish kam, o‘lim past ko‘rsatkichga ega, uzoq umr ko‘ruvehilar ko‘p sonli) bolalar va o‘smirlarning soni qisqarib, qariyalar ulushi oshib boradi.

Dunyo aholisining yosh tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa aholi salmog‘i ko‘payayotgan mintaqalarga Amerika, Yevropa va Avstraliya hamda Okceaniya davlatlari kiradi. Binobarin, 1970-2012-yillarda 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6dan 26,0 foizga tushdi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog‘i esa 57,9dan 66,0 foizga ko‘tarildi, 65 yosh va undan kattalar salmog‘i barcha mintaqalarda sezilarli darajada ortib bormoqda, dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkich hozirda 8 foizga teng (6.2-jadval).

Insonning iqtisodiy, biologik va kalendar yoshlari mavjud bo‘lib, ular o‘z ilmiy ta‘riflari va xususiyatlariiga egadir. Demografik nuqtayi nazardan inson umri turli davrlarga bo‘linadi (go‘daklik, bolalik, yoshlik, yetuklik, mehnatga qobiliyatlilik davri va qariyalik). Umuman dunyo miqyosida ilmiy va statistik manbalarda aholini iqtisodiy-demografik nuqtayi nazardan aholi yosh tarkibi bo‘yicha uchta demografik guruhga ajratiladi. Bularga 0-14 yosh (bolalar), 15-64 yosh (mehnat yoshidagi aholi), 65 yosh va undan yuqorilar (qariyalar) kiritiladi.

Aholining yosh tarkibida mehnat yoshidagi¹ (15-64) aholi guruhi salmog‘i alohida ahamiyatga egadir. Chunki ushbu guruh asosiy ishlab chiqarish kuchini tashkil etadi va iqtisodiy rivojlanishning omili bo‘lib xizmat qiladi. Mehnat yoshidagi aholi guruhining shakllanishi,

¹ Mehnat yoshi har bir davlatning ishlab chiqarish xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy hotatiga bog‘liq holda farq qilishi mumkin, qator Evropa davlatlarida mehnat yoshi 19 yoshdan boshlanadi. O‘zbekistonda mehnat yoshi ayollar uchun 16-54, erkaklar uchun esa 16-59 etib bethilang‘an.

asosan, aholining takror barpo bo'lishi xususiyatlariga bog'liqdir. Alovida hollarda esa hududlarda immigratsiya va emigratsiya jarayonlari ham mehnat yoshidagi aholi salmog'i iga ta'sir etadi. Dunyodagi qator davatlarda jami aholi tarkibida mehnat yoshidagi aholi salmog'i 50-65 foizni tashkil etadi. Hozirgi davrda (2017-yil) dunyo aholisining 65 foizi 15-64 yoshli aholi hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston aholisining 62,0 % 15-64 yoshdagi kontingentlardir.

Aholining jinsiy va yosh tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, mehnat resurslarini, maktabgacha maktab yoshidagi kontingentlarni, nafaqa yoshidagi aholini hisoblash, ularga kerakli moddiy va ma'naviy imkoniyatlarni yaratish aholining jinsiy, yosh tarkibiga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi respublika aholisini yosh guruhlarga ajratishda uning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yosh kontingentlariga ajratadi. Bunda aholi yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa belgilari ko'ra guruhlashtiriladi. ya'ni 0-2 yoshgacha go'daklik va bolalik, 3-5 yoshgacha bog'cha davri, 6-7 yoshgacha maktabgacha va 8-15 yoshgacha maktab davri, 16 yoshdan katta yoshdagilar, 60 yoshgacha bo'lganlar mehnatga layoqatli yosh va h.k. E. Nabihev va A. Qayumovlar aholi yoshini beshta guruhgaga bo'lib o'rghanishni tavsiya etishadi. Bunda, aholi yosh tarkibi 0-14 yosh bolalar, 15-24 yosh o'smir yoshlar, 25-60 yosh mehnatga qobiliyatli aholi, 60-70 yosh nafaqa yoshidagilar, 70 yosh va undan kattalar tarzida ajratiladi¹.

Demak, mamlakat aholisining yosh-jinsiy tarkibini, dastavval, uning biologik tipi bo'yicha tadqiq etish alovida ahamiyatga ega, chunki har qanday demografik jarayonlar aholining u yoki bu yoshida albatta ro'y beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, mustaqil davatlarning hamdo'stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlar orasida bolalar salmog'i ko'pligi bo'yicha O'zbekiston Tojikiston respublikasidan keyin ikkinchi o'rinda joylashgan. Jumladan, Tojikistonda 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 38 foizini. 65 yoshdan kattalar esa atigi 4 foizni tashkil etadi. 6.2-jadvalda keltirilgan barcha davatlarda 0-14 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar miqdori kamayib, aksincha, 65 yoshdan oshganlar ulushi

¹ Набиев Э., Каюмов А. Узбекистоннинг демографияли салоҳигари. -Т.: Академия, 2000. Б.42.

ko'payib borayotganligi kuzatiladi. Masalan, 1999-2017-yillarda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarida 0-14 yoshgacha bo'lganlarning jami aholidagi salmog'i 1.3-1.2 barobarga qisqardi. O'tish davrida demografik jarayonlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar aholining yosh tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi ba'zi yosh guruhlari miqdori kamayishi yoki ko'payishida yaqqol ko'rinoqda.

6.2-jadval

Dunyo aholisining yosh tarkibi. 1970-2017-yillarda, foiz hisobida¹

Mintaqalar	1970-yil			1985-yil			2017-yil		
	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori
Dunyo bo'yicha	36.6	57.9	5.5	33.7	60.6	5.7	26	65	9
Yevropa	24.9	63.7	11.4	20.9	66.7	12.4	16	66	18
Osiyo	38.9	57.0	4.1	35.0	60.6	4.4	24	68	8
Afrika	44.1	53.0	2.9	45.4	51.5	3.1	41	56	3
Amerika	36.4	57.2	6.4	31.6	61.2	7.2	23	67	10
Okeaniya	32.2	60.5	7.3	28.6	63.3	8.1	23	65	12
O'zbekistan	45.0	49.2	5.8	40.8	52.8	6.4	28	68	4

Aholining yosh tarkibi aholining tabiiy harakat ko'rsatkichi bilan bevosita bog'langan. Sababi, qaysi davlatlarda aholining tabiiy harakatini ifodalovchi ko'rsatkich yuqori bo'lsa, o'sha davlatdagi aholining yosh tarkibida bolalar va o'smirlar salmog'i mehnatga layoqatli yoshdagagi kishilar hissasi yuqori bo'ladi. Bunday holat dunyo miqyosida rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol kuzatiladi. Aksincha, rivojlangan, iqtisodiy jihatdan yetuk davlatlar aholisining yosh tarkibida katta yoshlilar va qariyalar ulushi ko'p bo'lishi bilan birga, bolalar kam sonlini tashkil qilmoqda. Bularga misol qilib, Xorijiy Yevropa davlatlarini, Rossiyani keltirish mumkin. Mazkur davlatlarning mehnat yoshidagi yetishmayotgan aholisining o'rnini yuqoridagi rivojlanayotgan davlatlardan kelib ishlovchilar, ya'ni migrantlar to'ldiradi. Demak, aholining yosh tarkibida migratsiya jarayoni qaysidir tarzda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Manba: Population Reference Bureau. 2017. World Population Data Sheet.

Aholining yosh tarkibi juda qadimdan mavjud bo'lib kelayotgan demografik holat, ya'ni demografik evolyutsiyaning natijasi bo'lib, u ayni paytga kelajakdag'i demografik vaziyatning zamini bo'lib xizmat qiladi. Dunyo aholisi yosh tarkibi bo'yicha hududiy xususiyatlarga ham egadir. Jumladan, Yer shari aholisi yosh tarkibida 1970-yillardagi ahvolni ko'rib chiqilganda 15 yoshgacha bo'lганlar miqdori va undan yuqori yoshdagilar ko'p sonni tashkil etganligini jadval ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Yevropa o'sha yillarda ham, undan keyingi vaqtida ham 65 va undan katta yoshdagilar soni yuqoriligi bilan ajralib kelmoqda. Ikkinch'i o'rinni (qariyalar salmog'i bo'yicha) Okeaniya va Amerika davlatlari egallaydi. Ushbu tahlildan aholi yosh tarkibini ikkita asosiy tipga ajratish mumkin.

Birinchi tipda (tug'ilish va o'lim yuqori bo'lib, o'rtacha umr ko'rish davri qisqa bo'lган rivojlanayotgan davlatlar) bolalar, o'smirlar miqdori ustun, qariyalar hissasi uncha katta emas.

Ikkinch'i tipda Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga xos (tug'ilish kam, o'lim past ko'rsatkichga ega, uzoq umr ko'ruchilar ko'p sonli) bolalar va o'smirlar soni qisqarib, qariyalar ulushi oshib boradi.

Geografik mintaqalar doirasida taqqoslaganda, O'zbekiston birinchi tipga xos davlat sanaladi. Respublikamizda bolalar salmog'i yuqori, bunga o'zbek oilalarida tug'ilish sur'atining balandligidir. 1970-yili 0-14 yoshdag'i bolalar jami aholining 45 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda ushbu ko'rsatkich 38 foizni tashkil qilgan. Ikkinch'i o'rinni 15-64 yoshdagilar egallaydi. Ushbu yoshdag'i aholi jami aholining teng yarmiga teng (58 foiz), qariyalar soni kamchilik bo'lib atigi 10 foizga teng.

6.2. Aholining jinsiy tarkibi va uning shakllanishidagi omillar

Aholining jinsiy tarkibi deganda, ularning, ya'ni aholining erkak va ayollarga taqsimlanishi tushuniladi. Odadta aholi jinsiy tarkibida ayollar har 100 ta yoki har 1000 ta erkak kishiga nisbatan hamda erkaklar har 100 ta yoki har 1000 ta ayolga nisbatan hisoblanadi va bu foizda ifodalanadi. Bundan tashqari, har ikkala jins vakillarining jami aholiga nisbatan ham ulushi aniqlanadi.

Aholi jinsiy tarkibi uch asosiy omillar ta'sirida shakllanadi:

1. yangi tug'ilganlardagi jinslar nisbati;

2. o'limdagisi jinslar nisbati;

3. aholi migratsiyasidagi jinslar nisbati.

Demografiyada va statistikada birlamchi, ikkilamchi va uchlasmchi jinslar nisbatlari mavjud. Birlamchi nisbat – homiladorlikdagi qiz va o'g'il bolalar nisbati. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha 100ta qiz bola homilaga 125-130ta o'g'il bola homilalar to'g'ri kelar ekan.

Ikkilamchi nisbat – tirik tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar nisbati. Tadqiqotlar ko'rsatishicha har 1000 ta chaqaloqdan 488 tasi qiz va 512 tasi o'g'il bolalarga to'g'ri keladi (yoki 100 ta qiz bolaga 105-106 ta o'g'il bola. Xitoyda o'g'il bolalar ko'p tug'ilyapti – 100 ta qiz bolaga 1980-yil 107,4 o'g'il bo'lsa, 1993-yil 100ta qiz bolaga nisbatan 114,1 o'g'il bola tug'ilgan – bu muammo) Uchlasmchi nisbat – reproduktiv yoshdagisi erkaklar va ayollar nisbati – demografik rivojlanishda eng ahaniyatli nisbat.

Statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, dunyo bo'yicha qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar ko'proq tug'ilgar ekan. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, dunyoda har 100 ta qiz bolaga nisbatan tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104-107 tani tashkil etadi. O'g'il bolalar salmog'ining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ko'p hollarda 15-20 yoshlarga qadar saqlanib boradi. Asosan, 20-24 yoshlarda jinslar nisbatan tenglashadi. Undan keyin esa asta-sekin jami aholi tarkibidagi erkaklarga qaraganda. ayollar salmog'i ortib boradi. Bu hol qator omillar bilan bog'liqdir.

Ularga bolalik davrida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq xastalanishi, baxtsiz hodisalar va erkaklarning o'ziga xos turinush tarzi kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, erkaklarning ko'p qismi yoshlik va o'rta yoshlik davrida og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'lib, inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi odatlar bilan shug'ullanadilar. Yuqorida keltirilgan turinush tarziga xos omillar hamda xalqlar orasida, davlatlar orasida ro'y berib turadigan urushlar erkaklarning hayotdan barvaqt ko'z yumushiga olib keladi¹. Shunday bo'lsada, aholi jinsiy tarkibining shakllanishi dunyo hududlarining har birida o'ziga xos xususiyatga egadir. Ushbu xususiyatlar, yuqorida qayd etilganidek, ana shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan ifodalanaadi.

¹ Асанов Г.Р. Ахоли географияси – Т., 1978. – 75 б.; Бўрича У.Р. Узбекистонда ахоли демографияси. – Т., 1987. – 57 б.

Hozirgi davrda (XXI asr boshlari) sayyoramiz aholisining jinsiy mutanosibligi yosh guruhlari bo'yicha keskin farq qiladi. Tadqiqotlaming ko'rsatishicha, dunyodagi barcha davlatlarda ham 0-14 yosh guruhlarida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq ekan. Bu hol yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'g'il bolalarming ko'proq tug'ilishi bilan bog'liqdir. 15-64 yosh guruhlarida esa ayollar va erkaklar salmog'i dunyo bo'yicha birmuncha tenglashadi va har ming ayolga 1020 erkak to'g'ri keladi, lekin bu nisbiylik hamma qit'alarda ham bir xil emas. Yevropada – 1000, Osiyoda – 1049, Afrikada – 979, Amerikada – 990, Okeaniyada – 1039ta to'g'ri kelgan. O'zbekiston uchun mazkur ko'rsatkich 996 tani tashkil etadi.

65 va undan yuqori yosh guruhlaridagi ayollarga yer yuzida 742, Yevropada 649, Osiyoda 879, Afrikada 889, Amerikada 741, Okeaniyada 818, MDH tarkibiga kirgan davlatlarda 444 ta erkak to'g'ri keladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 580 tani tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, ikkinchi jahon urushida Yevropadagi qator davlatlar, ayniqsa, sobiq SSSRda juda ko'p erkaklar halok bo'lgan. Shuning uchun ham XX asrning oxiriga qadar aholi tarkibida ayollar nisbatan eng yuqori bo'lgan davlat sobiq SSSR hisoblanar edi. Chunonchi, 1989-yilda bu davlatda har 1000 ayolga 891 ta erkak to'g'ri kelgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, dunyo aholisining umumiy tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha ko'proq bo'lib, ya'ni har 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 1009ni tashkil etar ekan. Ayollarga nisbatan erkaklarning ko'pligi, asosan, Osiyo davlatlarida (1000 ayolga 1042 ta erkak) kuzatilsa, Yevropa davlatlarida esa aksincha, — ayollar salmog'i yuqoriligi kuzatiladi. Ayollarning erkaklarga nisbatan ko'pligi, ayniqsa, Rossiya davlatida yuqoridir (1000 ayolga 890 erkak)¹.

O'zbekistonda ham aholining jinsiy tarkibi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati va demografik jarayonlari ta'sirida shakllanib, kelgan. Respublika hududida XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning boshlarida ayollar salmog'i ancha past bo'lib, har 1000 erkakka 856-859 ni tashkil etgan. XX asrning 60-yillaridan boshlab ayollar salmog'i oshib borgan. Hozirgi davrda O'zbekistonda aholining jinsiy tarkibi deyarli tenglashib, qulay demografik rivojlanishga asos

¹.Копилов В.А. География населения.- М., 1999, с. 34.

bo'limoqda 2017-yil O'zbekistonda 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 999,8 ni tashkil etgan.

Aholining jinsiy tarkibida migratsiyaning o'mi ahamiyatlidir. Aholi migratsiyasida erkaklar ishtiroki yuqori bo'lganligi sababli migratsion oqim yuqori bo'lgan ba'zi yirik shaharlarda, o'zlashtirilayotgan hududlarda aholi tarkibida erkaklar salmog'i yuqori bo'ladi. Masalan, Toshkent shahrida jami aholining 51 foizini erkaklar tashkil etadi.

Migratsiya ham yosh va jinsga ko'ra farqlanadi. Odatda, ayollar va erkaklar muayyan joyda bir xil miqdorda ko'chishmaydi. Bunga ko'ra migratsiya harakatchanligi erkaklarda yuqori, amino uzoq masofaga migratsiya harakati ayollarda yuqoridir, bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, jamiyatda ayollarning mavqeい oshib borishi bilan migratsiyada ishtirok etish darajasi erkaklar bilan tenglashadi. Haqiqatda hozirgi vaqtida xalqaro migratsiyada ishtirok etayotgan aholining deyarli yarini ayollardir. AQSHga kelgan qonuniy immigrantlarning yarmidan ko'pi ham ayollardir. Migratsiya aholi yoshiga qarab ham o'zgaradi, migrantlarning asosiy qismi o'smirlardir (Toblerom, 1995).

Demografik jarayonlardan birining o'zgarishi aholi takror barpo bo'lishi, uning tarkibi to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Aholi haqidagi eng muhim jihatlardan biri bu uning yosh va jinsiy tarkibidir. Bu ikki jihat demografiya va demografik jarayonlarni tadqiq etishda muhiim ahamiyat kasb etadi. Barcha demografik jarayonlarning aholi yosh-jins tarkibi bilan qanday bog'langanligini ko'rib chiqamiz. Masalan, farzandlar tug'ilish jarayoniga to'xtalsak, odatda tug'ilgan chaqaloqlarda o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq tug'iladi, taxminan 105 ta o'g'il bolaga 100 ta qiz bolaga to'g'ri keladi. Pushtlilik, ya'ni farzandlarni dunyoga keltirish jins bo'yicha o'zgaradi, ayniqsa, ayollar farzand ko'rish yoshi 15-49 yosh oralig'ida, erkaklarda esa 15-79 yosh oralig'iga to'g'ri keladi (Poston, 2005).

O'lisch jarayoni ham aholi jinsiy tarkibiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Ayniqsa, keksa aholi guruhida (65 yosh va undan yuqori yoshlarda) ayollarga nisbatan erkaklar o'limining yuqori bo'lishi, ushbu yoshlarda erkaklar salmog'ining pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Aholi o'limi jarayoniga kelsak, ularning tebranishi, ya'ni aholi takror barpo bo'lishida har bir yosh guruhida ayollarda o'lim

erkaklarga nisbatan pastroq darajada bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarda o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, so'ngra ular juda past darajagacha pasayib ketadi. O'lim jarayoni ham aholi jinsiy tarkibiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Holbuki, keksa aholi guruhida (65 yosh va undan yuqori yoshlarda) ayollarga nisbatan erkaklar o'limining yuqori bo'lishi, ushbu yoshlarda erkaklar salmog'ining pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Masalan, O'zbekistonda 2017-yilda 70 yosh va undan yuqori yoshdagilarda har 1000 aylolga nisbatan 704 erkak to'g'ri kelgan.

Hozirgi aholi takror barpo bo'lish jarayonida o'lim dastlabki birinchi yildagi ko'rsatkich 50-60 yoshlarda yana shu ko'rsatkichga etadi. Shu bilan birga o'lim sabablari, asosan, yosh bilan bog'liq. Ikki mashhur demograf olimilar Jacob Siegel va Genri Shryocklar fikriga ko'ra, o'limni tahlil qilishda uning yosh bilan aloqadorligi muhim ahamiyatga ega".

6.3. Aholining qarishi va uning demografik mezonlari

Aholi qarishi — aholi tarkibida keksa va qari yoshdagagi aholi guruhining oshib borishidir. Aholining qarishi demografik omillarga bog'liq. Asosiy demografik omil aholining takror barpo bo'lish xususiyatidir. Tug'ilishning yuqori, o'lim darajasining pastligi aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqori bo'lishiga olib keladi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining muntazam oshib borishi esa o'limning kamayishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi bilan bog'liq.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti keksalikni 60 yosh emas, 65 yoshdan belgilaydi va umumiyligi aholida 65 yoshdan oshganlar 4 foiz bo'ladigan bo'lsa, aholi "yosh", 4-7 foiz "keksalik ostonasida", 7 foizdan baland "keksalik" hisoblanadi. Bu ma'lumotlardan farqli ravishda J. Bojyo-Garme va E. Rosset o'zlarining demografik qarilik shkalasini tavsiya etishadi. Bunda 60 yosh va undan kattalar 8 foizgacha bo'lsa "demografik yoshlik", 8-10 foiz "keksalikning birinchi ostonasasi", 10-12 foiz "keksalik ostonasasi"da, 12 foizdan yuqori "demografik qarish" va hokazo qarilikning o'zini yana bir necha bosqichlarga ajratishadi¹. Xuddi shunday aholining keksayish

¹ Медков В.М. Демография: Учебник.-М.: 2004.С. 132.

darajasini ko'rsatib berishda fransuz demografi A.Sovi shkalasi ham mavjud. Bunda, uning shkalasi J. Bojyo-Garne va E.Rosset shkalalari bilan deyarli o'xshash.

O'zbekiston Respublikasi aholisining yosh tarkibini J. Bojyo-Garne va E.Rosset haında A. Sovi shkalasi asosida guruqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, O'zbekistonda aholining ijtimoiy-demografik rivojlanishidan kelib chiqqan holda, keksalikning boshlanishini ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshdan deb qabul qilingan.

Aholining qarishi juda uzoq davom etgan demografik o'zgarishlarning natijasidir. Ayniqsa, tug'ilish, o'lim aholi qarishiga olib keluvchi asosiy demografik omillardir. Aholi migratsiyasi ham aholi qarishiga o'ziga xos ta'sir etadi.

Aholi qarishi 2 turda namoyon bo'ladi:

1. *quyidan qarish* – tug'ilishning qisqarishi hisobiga qarish;

2. *yuqoridan qarish* – aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va o'limning kamayishi hisobiga tug'ilishning qisqarishi sharoitida aholining qarishi.

6.3-jadval

J.Bojyo – Garne, E.Rossetning demografik qarish shkalasi*¹

bos qichlar	60 yosh va undan kattalarning jami aholi tarkibidagi salmog'i, foizda	Qarilik bosqichlari va aholining qarish darajasi
1	<8	Demografik yosh
2	8 – 12	Qarilikning dastlabki bosqichi
3	10 – 12	Qarish bosqichi
	12 dan yuqori	Demografik qarish
	14 – 16	Demografik qarishning o'rtacha darajasi
4	16 – 18	Demografik qarishning yuqori darajasi
	18+ va undan yuqori	Juda yuqori qarish darajasi

Aholini qarish jarayoniga demograflar va statistiklar tomonidan XIX asr oxirida e'tibor berila boshlandi. Aholini qarishi bo'yicha

¹ Mənbə: "Mədənət B.M. Demografik", -M.: 2004, c. 132.

sobiq SSSRda A.Y.Boyarskiy, J.Burjua – Pisha, A.Sovi – Fransiyada, AQSHda E.Koul va boshqalar shug'ullanildilar. Aholining qarish darajasini aniqlash uchun Rossiya va boshqa qator davlatlarda abolining yosh chegarasi – 60 yoshdan boshlandi. Qator g'arb mamlakatlarida va xalqaro miqyosda – aholi 65 yoshdan boshlab qariyalar guruhiga kiritiladi.

Qarilik darajasini o'lchash uchun J. Bojyo – Garne, E.Rosset tomonidan quyidagicha shkala taklif etilgan.

Sayyoramizda aholining qarishi 1870-yillardan boshlangan. 1870-1937-yillarda Fransiya, Shvetsiya, Germaniya va Buyuk Britaniya aholisi tarkibida 60 yoshdan yuqori yoshdagilar salmog'i 12 foizdan oshgan. Demografik ma'lumotlar guvohlik berishicha, XX asming ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida dunyo aholisining yosh tarkibida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lган. Avvalo XX asr sayyoramizda aholi sonining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davri bo'ldi. Bu davrda dunyo aholisi 1,656 milliondan 6 milliardga yetdi, yoki deyarli 4 barobarga oshdi. Bu jarayonda 65 yosh va undan katta bo'lган qariyalar hissasi ham anchaginadir.

Dunyo aholisi tarkibida XX asrda bolalar salmog'i kamayib, qariyalar salmog'i esa ortib bordi. Masalan. 1980-yilda dunyo aholisi tarkibida bolalar (0-14 yosh) 35 foizni tashkil etgan bo'lsa. 2001-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etdi. Ana shu davrda qariyalar salmog'i esa 6 foizdan 7 foizga yetdi¹. Bunday jarayonni dunyoning barcha hududlarida ham kuzatish mumkin. Aholi tarkibida bolalar salmog'ining oshib borishi, yuqorida qayd etilganidek, demografik holatning o'zgarishi, avvalo tug'ilishning kamayib borishi, aholining umr ko'rish muddatining uzayishi bilan bog'liqidir. Jumladan, dunyo aholisi XX asrning boshlarida o'rtacha 50 yil atrosida umr ko'rgan bo'lsalar, hozirgi davrga kelib aholining o'rtacha umr ko'rishi 68 yilga yetdi².

Demografik qarish natijasida qariyalar salmog'ining oshib borishi ma'lum darajada aholining ijtimoiy faolligini pasaytiradi, iqtisodiyotda yoshlар salmog'i kamayadi, nafaqa ajratish bilan bog'liq muammolar ko'payadi; qariyalarga tibbiy xizmatni ko'paytirish sog'liqni saqlash tizimiga o'zgartishlar kiritilishini taqozo etadi.

¹Демографический энциклопедический словарь. - М.: 1985 с. 278. Население и общество. Информационный бюллетень РАН. - М., 2001, № 56.

²Yuqorida qayd etilgan manbalar.

Nihoyat hali ishlashni xohlovchi "yosh qariyalarni" ish bilan ta'minlash ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Aholining qarishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi-chunki qariyalarning talablariga ko'ra tovar va xizmat ko'rsatish turlarini o'zgartishi lozim bo'ladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni bajarish, mashina va jihozlarni qariyalar talablariga moslashtirishga to'g'ri keladi. Ular talablariga transport vositalari ham javob berishi kerak.

"Qariyalar bumi" asta-sekin butun dunyoni qamrab olyapti va yuqoridagi kabi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Insoniyat bu muammolarning naqadar muhimligini tushunib yetishi lozim. Ko'p davlatlarda (birinchi navbatda Yevropa davlatlarida) qariyalarning hayotini yaxshilash borasida ancha ishlar qilinmoqda. Biroq demografik qarish bilan bog'liq barcha muammolar, mazkur jarayonga yuz tutgan hamma davlatlarda ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilish va takomillashuvi lozim.

Aholining yosh tarkibi dunyo hududlari bo'y lab keskin farq qiladi. BMT tasnifiga ko'ra jami aholi tarkibida 65 yosh va undan katta yoshdagilar salmog'i 7 foizdan yuqori bo'lsa, aholi demografik nuqtai nazardan qari hisoblanadi. Hozirgi davrda 2018-yil dunyo aholisi tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilar salmog'i 9 % ni. Afrikada – 3%, Amerikada – 10 %. Osiyoda – 8 %, Yevropada – 18 %, Avstraliya va Okeaniyada esa 12 % tashkil etmoqda. Dunyo bo'yicha aholisi eng qari davatlarga Yaponiya (28 %), Germaniya, Italiya (21 %) va Monako (26 %) davlatlarini kiritish mumkin. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 5% ni tashkil etmoqda.

Dunyo hududlari bo'y lab aholi yosh tarkibidagi farq har bir hududning demografik holatiga hamda migratsiya jarayoniga bog'liqidir. Tug'ilish darajasi past bo'lgan Yevropa davlatlari aholisi tarkibida bolalar va qariyalar salmog'i deyarli tengdir. Hozirgi davrda (2017-y.) dunyoda aholisi eng qari davlat G'arbiy Yevropadagi Monako davlati bo'lib, bu yerda aholi tarkibida qariyalar jami aholining 26 foizini, bolalar esa 13 foizni. Osiyoda Yaponiya bo'lib, unda qariyalar 28 foiz, Xitoy Makaosida 10 foizni tashkil etadi. Jahondagi aholisi eng yosh davlat G'arbiy Afrikadagi Niger davlatidir. Bu davlatda jami aholi tarkibida bolalar 50 foizni, qariyalar esa faqat 3 foizni tashkil etmoqda.

Umuman, keyingi 20 – 30 yillik davrda dunyodagi aksariyat davlatlarda qariyalar salmog'i ko'payib bordi. Hozirgi davrda dunyo bo'yicha 65 yosh va undan katta bo'lgan aholi salmog'i ko'payib bordi yoki aholining yillik o'sishida qariyalar hissasi 10 foizni tashkil etmoqda. Mutaxassislar proqnozlaricha, yaqin kelajakda, dunyoning barcha hududlarida ham turli ijtimoiy – iqtisodiy, demografik omillar ta'sirida qariyalar sahmog'i ortib borar ekan. 2050-yilga borib jami aholi tarkibida qariyalar salmog'i rivojlangan davlatlarda 25 – 30 foizga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 8 – 10 foizga yetishi kutilmoqda. 1998-yil ma'lumotiga qaraganda, dunyo bo'yicha 65 yosh va undan yuqori yoshdagilar jami aholining 7 foizini tashkil etgan bolsa, 2017-yilda o'sish sur'ati davom etganligi bois, ular ulushi 9 foizga yetdi.

BMT ma'lumotiga qaraganda, 1990-yilda aholini qarish jarayoni bo'yicha davlatlar quyidagicha taqsimlangan:

- 61 davlat (1,200 mln.kishi) aholisi qari davlatlar hisoblangan;
- 58 davlat (2700 mln. aholi) qarilik bo'sag'asida;
- 73 davlat (980 mln.aholi) demografik yosh;
- 23 davlatdan esa aholi qarishi bo'yicha ma'lumot bo'Imagan.

Hozirgi davrga kelib esa demografik qari davlatlar soni ko'payganligi tabiiy.

Dunyo davlatlaridan qit'alar bo'yicha Osiyoda Armaniston, Kipr, Gretsya, Isroi, Livan, Qozog'iston, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Tayvan davlatlarida, Afrikadagi Yashil Burun, Seyshel orollari davlatlari aholisining yarmidan ko'prog'i demografik qarish muammosini boshidan kechirmoqda. Binobarin, bu muammo Yevropa davlatlarida allaqachonlar qator sotsial-iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarish darajasiga yetgan. Ammo Osiyo davlatlari ichida ham aholi qarishi davlat darajasidagi muammoga aylangan davlatlar mavjud. Bularga yuqorida ta'kidlaganidek, Yaponiya, Xitoy davlatlarini yaqqol misol qilib keltirish munikin. Jumladan, Xitoy dunyoda aholi soni bo'yicha eng yirik davlat sanaladi, uning aholisi 1,3 mlrd kishidan ham ko'proq.

Amerika Qo'shma Shiatlari 300 milliondan ortiq aholisi bilan Xitoy va Hindistondan keyingi uchinchi davlatdir. Xitoyning yer maydoni Amerika Qo'shma Shiatlaridan salgina kichikroqdir (Xitoy maydoni 9,6 million kv. km. AQSHniki esa 9,8 kv.km), ammo aholisi AQSHdan 4,4 barobardan ortiqroqdir. Bu yerda Xitoy va Amerika

Qo'shma Shtatlarida keksa va uzoq umr ko'ruvchilar ham katta qiziqish uyg'otadi. Ulami hisoblashda AQSH aholi ro'yxati byurosi ma'lumotlaridan namuna olishmiz mumkin, 60 va undan kattalar keksalar, 80 va undan kattalar esa eng qarilar hisoblanadi.

6.4-jadval

Dunyo aholisining yosh tarkibi*, %¹

Hududlar	0 – 14 yosh		15 – 64 yosh		65 yosh va undan yuqori	
	2001-yil	2017-yil	2001-yil	2017-yil	2001-yil	2017-yil
Dunyo bo'yicha	30	26	63	65	7	9
Afrika	43	41	54	66	3	3
Amerika**	28	19	64	66	8	15
Yevropa	18	16	67	66	15	18
Osiyo	30	24	64	68	6	8
Avstraliya va Okeaniya	25	23	65	65	10	12

Butun dunyo bo'ylab 2000-yil 606 milliondan ortiq keksalar va 69 milliondan ortiq eng qarilar mavjudligi qayd etilgan. 2000-yil dunyodagi barcha keksalarning 21 foizi (yoki deyarli 129 milliondan ortig'i) Xitoyda yashagan. AQSH bilan solishtirsak 7,6 foiz (yoki deyarli 46 million) bu yerda yashagan². Agar 2000-yilgi Xitoydagagi barcha keksa insonlarni bir mamlakat sifatida qaralsa, u dunyodagi aholi soni bo'yicha sakkizinchı mamlakat, ya'ni Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya, Braziliya, Rossiya va Pokistondan keyingi davlat bo'lar edi (United Nations, 2003). Dunyodagi barcha 69 million eng qarilarning 16 foizi 2000-yil Xitoyda yashagan, AQSH bilan solishtirganda u 13,1 foizni tashkil etgan.

1970-yillarning boshlarida Xitoy aholi soni jadallik bilan o'sib ketishining oldini olishga qaratilgan siyosat olib borishni boshladi, buning uchun butun mamlakat bo'ylab tug'ilishni nazoratga oldi, farzandlar tug'ilishi orasidagi uzoq intervalni belgilab berdi. nikohga kirishni kechiktiruvchi sabablarni ishlab chiqdi, farzandlar soni

* Jadval Население и общество по информ. бюллетеню PAII.- М., 2001, № 56 ва BMThing «Population Reference Bureau. World Population Data 2017» ma'lumotlari asosida tuzildi.

**2017-yil Shimoliy Amerika uchun.

² POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 256-p.

kamaydi. Shunga qaramay, 1960-yillarda Xitoyda tug'ilgan bolalarning miqdori ko'pligi, Xitoy hukumatini 1970-yillar oxirida aholi soni o'sishiga demografik impuls berishidan xavotirga soldi. Shu yo'l bilan 1979-yili oilada farzandlar sonini kamaytirish, bir boladan ortiq farzandi bo'lmasligini qo'llab quvvatlash tadbirlari, ayniqsa, shahar joylarda kuchaytirish natijasida bir oilaga bir bola kompaniyasi ishni boshlashdi. Ushbu tadbirlar tufayli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sonida 1950-yillardagi har bir ayloga o'rtacha oltita farzand to'g'ri kelishidan, 1990-yillar oxiriga kelib, u deyarli ikki barobarga pasaytirishiga erishildi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ham tug'ilish darajasi tushib borar edi. ammo bu jarayon Xitoyda kechganidek kuzatilmadi. Tug'ilishning ushbu pasayishi yuqoridagi boblarda ko'rib o'tilgan. Ta'kidlanganidek, AQSHda tug'ilish darajasi o'n to'qqizinchisi asrdayoq tushishni boshlagan edi. Tug'ilishning umumiy darajasi (oq tanli aholida) 1870-yilda 4,5dan 1900-yilda 3,5gacha pasaygan (AQSH aholi ro'yxati byurosi 1975-yil). 1920-yilga kelib, aynan Birinchi Jahon urushidan keyin bu ko'rsatkichlar 3,2gacha pasaygan. 1950-yillar oxirida "bebi bum" davrida bu ko'rsatkich o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan, ya'ni 3,7ni tashkil etgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, 2000-yildagi Xitoy va AQSHdagi keksa kishilar va uzoq umr ko'ruchilar tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari pasaygan demografik rejim paytidagi ko'rsatkichlardir. Ushbu o'tish bosqichlarining oqibatlari, ayniqsa, Xitoyda uzoqni o'ylab ishlab chiqilmaganligi, yangi asrning bir necha o'n yilliklarida ham kuzatiladi'.

Prognozlarga ko'ra 2020-yilda dunyoda 1 mlrd.dan ko'proq keksa kishilar mavjud bo'lsada, ularning aksariyati, ya'ni chorak qismi (240 mln.) Xitoya va 7 foizdan ko'prog'i AQSHga to'g'ri keladi. 2020-yilda taxminlarga ko'ra 137 million uzoq umr ko'ruchilar mavjud bo'lib, ularning 17 foizi Xitoyda va 9 foizi AQSHda yashaydilar. Yangi asrning o'rtalariga kelib (2050-yil) proqnoz qilinayotgan yer yuzidagi 9.4 milliard kishidan deyarli 2 mlrd. keksalarni tashkil qiladi. Uning 424 millioni (21 foizdan ortig'i) Xitoyda va deyarli 100 millioni (5 foiz) Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilishlari kutilmoqda. Proqnoz qilinayotgan 424 millionni

tashkil etayotgan keksa kishilarning miqdori juda katta. 2050-yilda Xitoyda mavjud bo'lishi prognoz qilinayotgan keksa kishilarning miqdori 2000-yilda dunyoda mavjud bo'lgan (591 million) keksalarda bor yo'g'i 167 millionga kamroq bo'ladi.

Dunyo bo'yicha 2050-yilga aholi prognozlariga ko'ra 399 milliondan ortiq uzoq umr ko'ruchchi erkaklarning 23 foizi Xitoy va 7 foizdan ortig'i Amerika Qo'shma Shtatlariga to'g'ri keladi. 2000-yilda Yer sharida mavjud bo'lgan 68,2 million uzoq umr ko'ruchchilarga nisbatan 2050-yilda Xitoyda 1,4 barobar ko'proq, ya'ni 92,5 million uzoq umr ko'ruchchilar yashashi taxmin qilinmoqda. Agar aholi o'rtasida tug'ilish darajasi yuqori bo'lidanida, katta miqdordagi keksa kishilarning aholi tarkibida mavjud bo'lishi muammo bo'lmas edi. Aholi tarkibida keksalarning yoshlarga nisbatan yuqori bo'lishi bu albatta turli xil iqtisodiy, ijtimoiy va ularga bog'liq muammolarining paydo bo'lishiga olib keladi. Xitoy va AQSHda yaqin yillar ichida aholi qarishining boshqa muammolariga qanchalik bog'liqligini vaqtning o'zi ko'rsatadi¹.

O'zbekistonda 2017-yil 1-yanvarda aholining umumiy soni 32,5 milliondan oshdi². Agar respublika aholisining yosh tarkibi bo'yicha tahlil etilsa, hozir (2017-yil) O'zbekistonda 0-14 yoshli aholi jami aholining 28,0 foizini, 15-64 yoshli aholi - 68,0 foizni, 65 yosh va undan katta yoshdagi aholi 4,0 foizni tashkil etmoqda. Demak, qarish shkalasi bo'yicha O'zbekiston jahondagi aholisi "yosh" davlatlar qatoriga kiradi. Shunday bo'lsada, respublikada qariyalar soni bir muncha oshib bormoqda. Bu hol esa o'z navbatida, O'zbekistonda ham qariyalarning ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi mavqeい oshib borishini hamda ularga alohida ijtimoiy-iqtisodiy e'tibor lozimligini taqozo etadi. E'tiborga molik jihat shundaki, O'zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-59 yosh, ayollar uchun esa 16-54 yosh etib belgilangan. Mehnat yoshidan yuqori, ya'ni 55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar soni 1991-2017-yillarda 20,7 foizga oshdi. Ko'pchilik Markaziy Osiyo davlatlari qatori O'zbekiston ham aholisi nisbatan yosh davlatlar guruhiga kiradi.

O'zbekistonda keyingi yillarda aholisining yosh tarkibi birmuncha o'zgargan. Jami aholi tarkibida bolalar salmog'inining keskin kamayib borishi kuzatilmoqda. 1991-2002-yillarda

¹ POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 259-p.

² Статистическое обозрение Узбекистана. – Таункин, 2005. срп. 46.

O'zbekistonda bolalar salmog'i 4,4 foizga qisqargan. Bu hol birinchi navbatda, respublikada tug'ilishning keskin kamayishi bilan bog'liqidir. 1991-yilda O'zbekistonda tug'ilishning umumiy ko'effitsienti 34,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2001-yilda bu ko'rsatkich 20,4 % ni tashkil etdi.

Tug'ilish qisqa davr ichida deyarli 14 % ga kamaydi. Ma'lumki, 1985-1990-yillarga qadar O'zbekistonda tug'ilish yuqori darajada bo'lgan. Ana shu davrda tug'ilgan ko'plab bolalar 1995-yildan boshlab mehnat yoshiga qadam qo'ygan. Natijada, jami aholi tarkibida mehnat yoshidagi aholi salmog'i ortib bormoqda. Shu sababli aholi tarkibida qariyalar salmog'i biroz kamaygan. Mehnat yoshidagi aholi salmog'ining ortib borishi respublikada 2005-2010-yillarga qadar davom etishi mumkin. Keyinchalik esa aholi tarkibida qariyalar salmog'i oshib borishi ehtimoli bor.

O'zbekistonda nafaqa yoshiga yetganlar ham o'z xohishlari bilan, salomatliklari yo'l qo'ysa, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishlari mumkin. Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotida band aholining ma'lum qismini nafaqa yoshidagi aholi tashkil etmoqda. O'zbekiston davlati nafaqa yoshidagi aholiga, qariyalarga alohida e'tibor bilan qaraydi. 2002-yilni "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilinishi ham so'zimizni isbotlaydi. Qariyalarni e'zozlash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha respublikada juda ko'p choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikada qariyalar va nogironlar uchun maxsus g'amxo'rlik uylari mavjud. Hozirgi kunga kelib bunday muassasalar soni respublikamizda 29taga yetgan va ularda 6 mingga yaqin qariyalarga g'amxo'rlik qilinmoqda. Bu raqamlarni aytib faxlanish albatta milliy urf odatlar qadrlanadigan, qariyalarni e'zozlash zarurligi alohida uqtirilib tarbiyalanadigan o'zbek oilalari uchun achinarli holdir. Ammo ming afsuslar bo'lsinki, demografik jarayonlardagi oxirgi 30 yilga yaqin vaqt ichidagi o'zgarishlar, aholi yosh tarkibida qariyalarning ulushi ortishiga olib kelmoqda va bu hali uzoq davom etadi.

Qadriyatlar qadrlanadigan yurtda bugungi yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor kuchaytirilmas ekan qariyalar uyi yoki boshqacha aytganda g'amxo'rlik uylariga ehtiyoj, talab ortib boraveradi. Shu o'rinda keltirish joizki, qariyalar miqdorining ko'payib borishi, nafaqat g'amxo'rlik uylarini ko'paytirishni, balki qariyalar bilan ishlovchi alohida mutaxassislarni (tibbiyot, ijtimoiy, pensiya ta'minoti

v.h.) tayyorlashni, Gerontologiya sohasida tadqiqotlarni ko'paytirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi yosh-jins piramidasining ahamiyati nimalardan iborat?
3. Aholi yosh tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.
4. Aholining jinsiy tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.
5. Yosh kontingenti tushunchasiga ta'rif bering.
6. Regressiv, progressiv, statsionar yosh tarkiblari nima?
7. Yosh akkumulyatsiyasi nima?
8. Demografik yuk koefitsienti deganda nimani tushunasiz?
9. Aholining qarishi va qarish turlari qanaqa?
10. Aholi qarishining dunyo hududlari bo'ylab farqi va uning omillarini sanang.
11. Aholi keksayish shkalasiga ta'rif bering.
12. Qarish indeksiga ta'rif bering.

7-MAVZU. DUNYO AHOLISINING IRQIY TARKIBI

Reja:

- 7.1. Dunyo aholisi irqiy tarkibining turlari va xususiyatlari.
- 7.2. Irqlar geografiyasi.

7.1. Dunyo aholisi irqiy tarkibining turlari va xususiyatlari

Iraq – bu kishilarning tarixiy tarkib topgan yirik hududiy guruhlaridir. Irqlar kelib chiqishiga ko'ra bir bo'lib, faqat ba'zi bir tashqi fiziologik belgilariga – sochining shakli va rangi, tanasining rangi, ko'zlarining shakli, yuz suyaklarining o'lchanlari va ayrim xususiyatlari, burun, lab tuzilishiga ko'ra farq qiladi. Bu irqlar nasldan naslga o'tadi. Irqiy belgilari odam zoti paydo bo'lganidan keyin yashash sharoitidagi tafovutlar ta'sirida vujudga kelgan. Odamlarning anatomiq va fiziologik hamda ruhiy xususiyatlarida irqiy farqlar yo'q.

Irqiylar tashriflari jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etmaydi¹. Yer shari aholisi uchta asosiy irqqa bo'linadi. Bular yevropeid, mongoloid va negravstraloid yoki ekvatorial irqlari. Yirik irqlar, o'z navbatida, mayda irqlarga ham ajraladi. So'nggi yillarda mutaxassislar ekvatorial irqnini ikki mustaqil – negroid va avstraloid irqlarga bo'lishni taklif etmoqdalar.

Irqlar – umumiy irlsiy morfologik va fiziologik belgilarga ega bo'lgan. tarixiy shakllangan kishilar guruhidir. Ko'pchilik olimlar irqlarning kelib chiqishida hozirgi ko'rinishdagi inson bitta markazda, ya'ni taxminan O'rta dengizining sharqi. unga qo'shni hududlar – Janubiy Yevropa, Shimoliy va Sharqiy Afrika va G'arbiy Osiyoda paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suruvchi monosentristik ta'simotni yoqlaydilar. Paleolit oxirida irqlar ikkita hudud – g'arb (shimoli-sharqiy Afrika va janubi-g'arbiy Osiyo) va sharqda (janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyo) yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Keyinroq insoniyat Yer shari bo'yab tarqalib va o'zaro qorishib, hozirgi qiyofadagi irqlar shakllangan.

Katta irqlar to'qnashgan hududlarda oraliq va aralash irqiylar vujudga kelgan. Oraliq irqlar shu darajada uzoq o'tmishda shakllanganki, endilikda, ular ikki irqning aralashishi natijasimi, yoki katta irqlarning ular bo'lingungacha bo'lgan xususiyatlarni o'zida saqlab qolganini aniqlash qiyin. Aralash irqiylar esa nafaqat, qadimda, shu bilan birga, o'rta asrlarda hamda yangi va eng yangi tarixda yuzaga kelgan. Oraliq irqlarning tipik vakillari – janubiy Hindistonning dravid tipi hamda sharqiy Afrikadagi efiopiya tipi hisoblanadi, aralash tiplarga Amerika metislari va mulatlarini kiritish mumkin.

Negroid irqi Afrikada joylashgan. Negroidlar uchun qora, jingalak sochlari, qo'y ko'z, tez-tez pigmentlashib turadigan teri, zaif yoki o'rtacha rivojlangan uchlamchi jun qoplami, o'rtacha chiqib turgan yonoq suyagi, oldinga kuchli chiqqan jag', zaif chiqib turgan keng burun, qalin lablar xarakterlidir. Negroid belgilari ko'proq Sahroi Kabir janubida yashaydigan xalqlar uchun xosdir. Shu bilan birga, negroidlarga past bo'yli Markaziy Afrika pigmentlari, bo'yi nihoyatda past bo'lgan negrillilar hamda negroid (sochi nihoyatda jingalak) hamda mongoloid xususiyatlar (qurigan barg rangidagi sarg'aygan

¹ Фулонов П. Жүргарғылар мазмандары на түшнинчалык шохим нутаки. – Т., "Ўзбекистон", 1994., 52-бет.

teri, keng yuz) qorishib ketgan janubiy Afrika bushmenlari va gottentotlari tegishlidir.

Yevropeoid irqi Yevropa, Shimoliy Amerika, Old Osiyo; Shimoliy Amerika va Kanada, Avstraliyaning bir qismi, Yangi Zelandiyada keng tarqalgan. Yevropeoidlar turlicha tusdagi jingalak yoki to'g'ri yumshoq sochi, sariq yoki bug'doyrang terisi, kuchli rivojlangan uchlamchi jun qoplami, zaifroq chiqib turgan yonog'i va jag'i, kambar burni, ingichka yoki o'riacha qalinlikdagi lablari bilan ajralib turadi. Yevropeoidlar, asosan, sochi va ko'zining rangi bo'yicha ikkita yirik – shimoliy va janubiy guruhlarga bo'linadi. Shimoliy tarmog'i shimoliy Yevropani egallaydi. Janubiy tarmog'i Yevropaning janubi, shimoliy Afrika, Old Osiyo va Shimoliy Hindistondir. Bular o'rtasidagi farq odamlarning bo'y, ko'zi, sochi va terisining rangida. Shimoliy tarmog'idagilarning bo'y baland, rangi tiniq, qirra burun bo'lса, janubidagilar o'rta bo'y, to'q rang va to'g'ri sochi, qoracha ya`ni, bug'doy mag'iz terisi bilan ajraladi.

Shimoliy guruhgа terisi kam pigmentlashadigan Skandinaviya va unga qo'shni hududlardagi xalqlar, bug'doyrang teri, qorasoch, qo'y ko'z xarakterli bo'lgan janubiy guruhgа – Janubiy Yevropa. Shimoliy Afrika, Old, Markaziy va Janubiy Osiyo xalqlari kiradi. Yevropaning katta qismi oraliq mintaqada bo'lib, undagi xalqlar Yevropeoid irqining na shimoliy, na janubiy guruhgа mansub emas. Shimoliy va janubiy yevropeoidlar hamda oraliq guruhlar kishilarning bo'y, sochi va ko'zining rangi, bosh shakli bo'yicha ko'plab kichik irqlarga ajratiladi. Shimoliy guruh tarkibida – Atlantika-Boltiq va Belomor-Boltiq irqlari, oraliq formalar tarkibida – alp, o'rta Yevropa, Sharqiy Yevropa irqlari, janubiy guruh tarkibida – o'rtayer dengizi, hind-afg'on, adriatika (dinar), old osiyo (armenoid), pomir-farg'ona irqlarini kiritish mumkin.

Mongoloid irqi ham yevropeoid irqi singari ikki tarmoqqa bo'linadi: Shimoliy va sharqiy. Shimoliy mongoloidlarga mo'g'ullar, tungus-manchjur xalqlari kirsa, Sharqiy mongoloidga koreyslar, shimoliy xitoylar kiradi. Negroid irqi, asosan, Afrikada keng tarqalganligi ayon, biroq ma'lum bir jihatdan ular AQSH va Karib havzasida ham uchraydi. Bu irqlar o'rtasidagi farq unchalik katta emas. Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada negroid irqiga o'xshash odamlar yashaydi. Ammo ular ba'zi belgilariga ko'ra negroidlardan keskin farq qiladi. Shu boisdan, olimlar bularni

to'rtinchı – avstraloid irqi deb atashmoqda. Dunyo aholisining 70 foizini, asosan, uch irq vakillari tashkil qiladi (yevropeoidlar – 43,6, mongoloidlar – 19,1, negroidlar 6,6 foiz) qolgan 30 foizi aralash va boshqa oraliq irqlarga to'g'ri keladi¹.

Mongoloidlar uchun to'g'ri, qattiq. qora sochlari, zaif rivojlangan uchlamchi jun qoplami, sariq tusli teri, qisiq ko'z, keng yuz, kuchli chiqib turgan yonoq suyagi, past qansharli ingichka yoki o'rtacha kenglikdagi burun. ko'z qovog'ining yuqori qismini ajin qoplashi xarakterlidir. Kelib chiqishi va ko'pgina belgilari bo'yicha ularga Amerika hindulari yaqin, biroq hindularda umumiy mongoloid qiyofa yo'olib ketgan, epikantus kam uchraydi, burni cho'zinchoq. Osiyo mongoloidlari ikki, ya'ni materik va tinch okeani guruhlariga ajratiladi. Materik mongoloidlari tinch okeani guruhidan pigmentatsiyaning sustligi, skelet massasining kattaligi, keng yuzi va boshqa belgilari bilan ajralib turadi. Mongoloidlar orasida materik va tinch okeani guruhlari xususiyatlarini o'zida birlashtirgan hamda o'ziga xos belgilarga ega arktika guruhi (masalan, burnining juda torligi) alohida o'rinn egallaydi.

Tinch okeani guruhidan janubda malayya irqi deb ataluvchi, biroq avstraloidlarning juda ko'p belgilari (to'lqinsimon sochlari, anchagina qora teri, qalin lab, nisbatan keng burun va h.k.) uchraydigan mongoloidlarning janubiy guruhiga mansub xalqlar yashaydi. Ular avstraloid irqining turli guruhlari bilan qorishishlari tufayli hozirda mongoloid irqi tarkibiga kiritilmay, mongoloid katta irqining Osiyo tarmog'i va avstraloid irqi o'rtasidagi oraliq va aralash irqiy formalar deb hisoblanmoqda. Ta'kidlash joizki, boshqa yirik irqlarga hamda ularning oraliq va aralash formalariga nisbatan tinch okean va janubiy mongoloidlar orasidagi chegara to'liq aniqlanmagan.

Avstraloidlar terisining to'q rangi, keng burni, ularni negroidlar bilan yaqinlashtiruvchi qalin lablari, biroq ulardan farqlantiruvchi to'lqinsimon sochlari (avstraliyaliklar, veddoidlar), kuchli rivojlangan uchlamchi jun qoplami (avstraliyaliklar), ba'zan biroz zaiflashadigan pigmentatsiya bilan ajralib turadi. Boshqa barcha yirik irqlardan farqli o'laroq, avstraloidlarning alohida guruhlari (Avstraliya aborigenlari, papuaslar va melaneziyaliklar, veddoidlar hamda negritoslar va ayinlar) o'z irqiy belgilari bilan ajralib turadi. Avstraliya aborigenlari

¹ Брук С.И. Население мира: Этногеографический спроводник - М., 1981, с.113.

pigmentatsiya bo'yicha negroidlarga, sochining shakli va uchlamchi jun qoplami rivojlanishi bo'yicha – yevropeoidlarga yaqin. Avstraloid irqiga mansub belgilari yaqqol namoyon bo'lgan papuaslar va melaneziyaliklarning sochlari negroidlarga o'xshash jingalak.

Avstraloidlarga o'xshash umumiy jihatlari ko'p bo'lgan veddoidlar o'zlarining past bo'yi, yuz terisining jun bilan kam qoplanganligi, qosh ustidagi suyaklari va keng burni bilan ajralib turadi. Nihoyatda past bo'yli va jingalak sochli negritoslar va aynlar genetik jihatdan boshqa avstraloidlarga bog'liq bo'lsalar-da, o'zlarining tashqi ko'rinishi bo'yicha ulardan keskin farqlanadi. Ularda deyarli barcha katta irqlarning ma'lum xususiyatlari o'z aksini topgan (yevropeoidlardan – yorqin rangli teri va juda kuchli rivojlangan uchlamechi jun qoplami, avstraloidlardan – keng burun va nishab peshona hamda mongoloidlardan – epikantusning mavjudligi). Odadta mongoloid, avstraloid va yevropeoid irqlariga mansub belgilari bo'lgan Madagaskar, Gavayi, Polineziya va Mikroneziya aholisining aralash irqiy tiplari (Madagaskar aholisi uchun – negroid ham) alohida ajratiladi.

Turli irqiy guruhlarga mansub yuqorida ko'rsatilgan tashqi farqlardan tashqari, ularda fiziologik va biokimyoiy jihatdan tafovutlar ham mavjud. Jumladan, turli irqlar qon guruhi, tishlarining joylashuvi, ta'm bilishi, oqsil zardobi, rang turlarini ajratishi (daltonizm) va h.k. xususiyatlar bilan ham bir-biridan farqlanadilar.

7.2. Irqlar geografiyasি

Etnoslar, tillar va dirlardan farqli o'laroq, irqlar orasida qandaydir aniq chegarani belgilash juda qiyin. Irqlarning aralashuvi ko'p ming yillar davom etib, tinimsiz va ayni paytda jadal sodir bo'ladigan jarayondir (dunyo aholisining 30 foizi aralash va oraliq irqlarga mansub kishilar). Shuning uchun irqiy farqlar odatda bir-biridan uzoqda joylashgan kishilar guruhlari orasida yaxshi seziladi, o'zaro yaqin yashaydigan kishilar orasida esa deyarli bilinmaydi.

Ta'kidlash joizki, asosiy morfologik, fiziologik va psixologik xususiyatlariga ko'ra, insoniyat bir xil. Irqiy tafovutlar inson tanasi tuzilishidagi eng muhim biologik xususiyatlarga taalluqli emas va kam sonli qiyosiy belgilarda namoyon bo'ladi. Har qanday irq vakillari o'rtasidagi nikohdan sog'lom farzand tug'ilishi mumkin. Irqiy va

etnik birliklar nisbati masalasi juda murakkab. U yoki bu birlikning tabiatи o'zaro keskin farq qilishini ularni ajratishda qo'llaniladigan mezonlarning xilma-xilligidan ham bilish mumkin. Ayni paytda, qadimda odamlarning irqiy tiplari xuddi etnik birlikda bo'lgani kabi kishilarning hududiy guruhlari asosida shakllangan.

Qabilalar dastlab irqiy jihatdan ham bir xil bo'lgan. Asta-sekin ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida va Yer shari bo'ylab tarqalishi natijasida turli qabila guruhlari o'zaro qo'shilib keta boshladilar. Agar kishilarning etnik guruhlari shakllanishi ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, irqiy belgilari esa asosan, biologik jarayonlar hosilasidir.

Xalqlar katta irqlar darajasida bir xil bo'lishi muimkin, lekin deyarli doim bu irqlarning ayrim bo'linmalariga nisbatan har xil. Masalan, Yevropa xalqlarining mutlaq ko'pchiligi yevropeoid irqiga mansub, biroq ulardan har biri ushbu irqning ikki va hatto ba'zan har uchala (shimoliy, oraliq va janubiy) guruhi vakillarini o'z ichiga oladi. Agar katta yevropeoid irqining mayda irqiy tiplari (belomor-baltika, alp. dinar va h.k.) haqida gapiradigan bo'lsak, ularning chegarasi etnik chegaralar bilan umuman mos kelmaydi. Xuddi shu kabi irqlar va til bo'linmalari orasidagi chegaralar ham o'zaro mos kelmaydi. Masalan, turk guruhiha mansub tillar mongoloid irqi vakillari orasida ham (yoqutlar, tuvaliklar va h.k.), yevropeoidlar orasida (ozarbayjonlar, turklar va h.k.) ham keng tarqalgan; ko'pchilik turk tillarida so'zlashadigan xalqlar aralash irqiy formalarga mansub. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'pchilik Amerika mamlakatlari etnoslar shakllanishida irqiy tiplar jadal qo'shilishining yorqin misoli bo'la oladi. Metisasiya qadimda va o'rta asrlarda bo'lib o'tgan eski dunyodan farqli ravishda, bu yerda mazkur jarayonlar so'nggi uch-to'rt asrda ro'y berdi va hozir ham davom etmoqda. Zamonaviy Amerika xalqlari ikki, ba'zan uch irq vakillari qo'shilishidan paydo bo'lganlar. Bunda Afrikadan keltirilgan, turli qabilalarga mansub, yangi joylarda oqlar bilan ketma-ket o'tnashgan negrlar tezda qabila tillarini unutib, o'zlarini yashay boshlagan mamlakatning hukmon tillarini (ingлиз, испан, португал, француз) o'zlashtirdilar. Atrofdagi aholi bilan qo'shilib, ayrim mamlakatlarda millatni (бразилиялықтар, кубаликтор) tashkil etuvchi asosiy etnik komponentlarga aylandilar. Boshqa mamlakatlarda,

ayniqsa, AQSHda ularning oq aholi bilan qo'shilish jarayoniga irqiy kamsitish siyosati orqali sun'iy to'siqlar qo'yildi.

MDH va Boltiqbo'y'i mamlakatlarida yevropeoid irqining har uchala guruhiga mansub kishilar ko'pchilikni (80 % dan ortiq) tashkil etadi. Shimoliy guruh boltiq xalqlariga, shimoli-g'arb - ruslarga, janub esa, asosan, Kavkaz xalqlariga tegishli. Oraliq formalarga ruslarning katta qismi, ukrainlar, beloruslar va boshqa xalqlar kiradi. Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqning tubjoy xalqlari mongoloidlarning materiak guruhiga mansub, eskimoslar esa mazkur irqnинг arktika guruhini tashkil etadi. Volgabo'yida, Uralda, G'arbiy Sibirda va Qozog'istonda qadimdan yevropeoid va mongoloidlar o'rtaosida oraliq zona shakllangan. Boz ustiga, mongoloid irqini namoyon qiluvchi belgilar sharqqa tomon kuchayib boradi. Mongoloid belgilari ustunlik qiluvchi G'arbiy Sibir tekisligi va Sayan-Oltoy zonasini xalqlari Ural irqiy guruhi tarkibiga kiradilar.

Volgabo'y'i va Uralda yashovchi fin (mordva, mari, udmurt, saam) va turk (chuvas, boshqird va tatar) tillarida so'zlashuvchi xalqlarda mongoloid irqiga mansub belgilar ancha zaif rivojlangan; ushu xalqlarni laponoid va uralyonini irqiy tiplari deb atash qabul qilingan.

Xalqlarning buyuk ko'chishi davrida Markaziy Osiyo mongoloidlarining ko'pchiligi, tubjoy aholisi, asosan, yevropeoidlardan iborat bo'lgan G'arbiy Sibirning cho'l mintaqasiga, Qozog'istonga, O'rta Osiyoga va Janubi-Sharqiy Yevropa cho'llariga kirib bordilar. Natijada, bu yerda ikkita aralash irqiy tip: asosan, zamnaviy qozoqlar orasida tarqalgan janubiy sibir (ularda mongoloid irqining belgilari yaqqolroq namoyon bo'lgan) hamda turkmanlar, o'zbeklar va qisman tojiklar uchun xarakterli bo'lgan O'rta Osiyo (ularda mongoloid irqiga mansub belgilar juda kam seziladi) tipi shakllandi. Sibirga dastlab ko'chib kelgan ruslar mahalliy aholi bilan aralashib, nafaqat etnomadaniyati, shu bilan birga, irqiy jihatdan farqlanuvchi, o'ziga xos, kam sonli guruhni tashkil qildilar (kamchadallar, yasashlar va h.k.).

Yevropa aholisi deyarli to'liq (Afrika, Janubiy Osiyo va Hindistondan yaqin o'tmishda kelgan muhohirlar bundan mustasno) yevropeoid irqiga tegishli. Qit'aning chekka shimol va janub mintaqalari aholisi irqiy tiplari bo'yicha o'zaro keskin farqlanadilar; bir tomonda, baland bo'yli, sariq soch, ko'kkoz norveglar (shimoliy

yevropeoidlar), va ikkinchi tomonda, nisbatan past bo'yli, qorasoch. qo'y ko'z italyanlar (janubiy yevropeoidlar) o'rtasida o'xshash belgilar kamligini payqash mumkin. Shu bilan birga, Yevropada irqiy belgilar shu darajada sekin o'zgaradiki, kichik irqlar o'rtasidagi aniq chegarani belgilash mumkin emas. Shartli ravishda Skandinaviya mamlakatlari, Islandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Niderlandiya va Germaniyada shimoliy yevropeoidlarning Atlantika-Boltiq irqiy tipi tarqalgan deb qabul qilingan.

Pirency yarim oroli, janubiy-g'arbiy Fransiya, janubiy va markaziy Italiya, janubiy Gretsya, O'rta yer dengizi orollari aholisi janubiy yevropeoidlarning O'rta yer dengizi irqiy tipiga, sobiq Yugoslaviya, shimoliy Gretsya, Bolgariya, shimoliy Italiya va janubiy Avstriya – dikar irqiy tipiga mansub. Yevropaning boshqa aholisini irqiy jihatdan ajratish murakkab bo'lib, "oraliq va o'rta Yevropa formalari" deb ataluvchi mavhum tushuncha ostida birlashgan guruh tarkibiga kiritadilar. Umuman mintaqaga aholisining 17 foizi shimoliy va 32 foizi janubiy yevropeoidlarga, yarmidan ko'prog'i oraliq va o'rta Yevropa formalariiga taalluqli.

Osiyo aholisi antropologik jihatdan nihoyatda murakkab bo'lib, bu yerda barcha katta 4 irqning ko'pchilik guruhlari tarqalgan. Janubiy yevropeoidlar jami aholining 29 foizini tashkil etib, ular Old Osiyo va Shimoliy Hindistondagi Old Osiyo, Hind-Afg'on. Pomir-Farg'ona irqiy tiplari vakillaridan iborat. Mongoloidlar (taxminan 31 % aholi) *shimoliy* yoki *materik* (mo'g'ullar, tungus-manchjuriya xalqlari) va *sharyiy* yoki *tinch okean* (koreyslar, shimoliy xitoylar) guruhlariga ajratiladi. Mongoloidlarga mongoloid va avstraloid irqlari o'rtasidagi aralash va oraliq formalar uzviy bog'liqidir. Ushbu formalarga quyidagilar tegishli: janubiy Osiyo tipi yoki janubiy mongoloidlar guruhni (25 % aholi) – Janubiy xitoylar, indoneziyaliklar, filippinliklar, Hindxitoy xalqlari; ayrim ayn elementlari uchraydigan yapon tipi (5% aholi), va Sharqiy Indoneziya tipi (Molukki orollari aholisi).

Osiyoda avstraloid irqi vakillari juda kam (0,4 % aholi), biroq ular ko'plab hududlarda tarqalgan. Veddoid tipi Shri-Lankadagi veddlardan tashqari, dravid va bunda xalqlarining ayrim guruhlari hainda hind ariy til guruhiga mansub bxillar; papuas-melaneziya tipi – Sharqiy Indoneziya xalqlari orasida; negritoslar – Filippin aluetlari, Malayziya semanglari, Hindistondagi andamanliklar; ayn tipi – Yaponiyadagi ayn xalqlari orasida uchraydi. Yevropeoidlar janubiy

tarmog'i va veddoidlarning qadimiy aloqalari hududida Janubiy Hindiston tipi (10 % aholi) shakllangan. Uning asosiy vakillari bo'lib, dravid til oilasiga mansub Janubiy Hindiston xalqlari hisoblanadi.

Afrikaning 54,1 % aholisi Sudan, materigining markaziy va janubiy qismlarini egallagan negroid katta irqiga mansub. Turli hududlardagi negrlar irqiy belgilar bo'yicha o'zaro katta tafovut qiladilar – terisining rangi to'q qoradan jigarranggacha turlanadi, lab qalinligi, burun kengligi hamda bo'y balandligi bo'yicha o'zaro farqlanadilar, biroq barchasining sochi bir xilda jingalak.

Agar negrilley va gotentotlarning bushmenlar bilan alohida ajralib turadigan morfologik jihatlari, sudanliklar va nilotlarning baland bo'yи va terisining qoraligi. Kongo daryosi havzasi negrlarining uzun boshli va barvasta ekanligi hisobga olinmasa, negroidlarni turli irqiy tiplarga ajratish masalasi hali oxiriga yetmagan. Kongo daryosi tropik o'rmonlarida yashovchi negrilleylar uchun pakanalik (bo'yи 150 sm dan past), yupqa lab, yuz va tananing jun bilan kuchli qoplanganligi, boshqa negroidlarga nisbatan tana rangining ochligi xosdir. Janubi-g'arbiy Afrika cho'llarida yashovchi bushmenlar va gottentotlar boshqa negroidlardan terisining och rangi, past bo'yulari (150-160 sm), epikantusning mavjudligi bilan ajralib turadi va bu narsa ularni mongoloidlar bilan yaqinlashtiradi.

Afrika aholisining $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etuvchi janubiy yevropeoidlar materik shimolidan to Sahroi Kabirgacha tarqalgan bo'lib, tarkibi, asosan, arablar va barbarlardan iborat. Afrika janubida 10 mln.ga yaqin G'arbiy Yevropadan chiqqan kishilar avlodlari yashaydilar va ular antropologik jihatdan yevropeoid irqining oraliq formalariga va uning shimoliy tarmog'iga mansubdirlar. Afrika aholisi irqiy aralashuvi, asosan, negroidlar va yevropeoidlar o'rtaida yuzaga kelgan. Ular orasidagi qadimiy aloqalar zonasida efiop tipi shakllangan. Burun shakli va yuz tuzilishiga ko'ra efioplар arablardan deyarli farq qilmaydilar, biroq ular terisining rangi xuddi negrlar kabi qora.

Afrika g'arbida fulbe xalqlaridan iborat, negroidlar va yevropeoidlar irqiy belgilarini o'zida aks ettiruvchi G'arbiy Sudan oraliq tipi tashkil topgan. Arablar bosqini va islom dinining tarqalishi natijasida janubiy yevropeoidlarning arab tilida so'zlashuvchi ma'lum aholisi Afrikaning ichki qismlariga kirib keldilar. Bu esa o'z navbatida, Sudan oraliq tipi shakllanishiga olib keldi. Madagaskarda

Janubiy-Sharqiy Osiyodan ko'chib kelgan janubiy mongoloidlar bilan tubjoy aholisining qorishishi oqibatida mongoloid va negroid irqiy belgilarini namoyon etuvchi malagas oraliq tipi vujudga keldi.

Amerika xalqining irqiy tarkibi nihoyatda rang-barang bo'lib, bu yerdag'i aholi shakllanishida insoniyatning barcha uch irqi vakillari ishtirok etgan. Yerli aholi – hindular va eskimoslar – Meksika yassi tog'larida. And tog'larida, Janubiy Amerikaning ichki o'lklarida va Arktikaning ayrim hududlarida jamoa-jamoa bo'lib saqlanib qolganlar. Boshqa hamma joylarda yo irqiy jihatdan aralash aholi, yoki keyin ko'chib kelganlar – yevropeoidlar va negroidlar – avlodlari ko'pchilikni tashkil etadi. Yerli aholi mongoloid irqining har xil tiplariga mansub.

Hozirgi paytda Amerikada yevropeoidlar boshqa irq vakillariga nisbatan keng tarqalgan. AQSH va Kanada aholisining 90 foizi, Lotin Amerikasi aholisining 25 foizi ularga mansub. Shimoliy Amerikaga, uning janubiy qismidan tashqari, asosan, yevropeoidlarning shimoliy va oraliq guruhlari (Buyuk Britaniya, Skandinaviya, Germaniya aholisi) vakillari ko'chib keldilar. Biroq antropologik tip chegaralari o'rtafiga aralashuv jarayonida bu farqlar Yevropadagidan ko'ra ham kamayib ketdi. Natijada, oraliq irqiy formalar hozirda ko'pchilikni tashkil etadi. Lotin Amerikasida ispanlar, portugallar va italyanlarning avlodlaridan iborat, asosan, janubiy yevropeoidlar o'mashgan. Lotin Amerikasidagi ko'pchilik yevropeoidlarda ma'lum darajada hind yoki negr qoni alomatlari sezildi.

Hind va Yevropa nikohlari aralashuvidan hosil bo'lgan avlodlar – metislar Amerika irqiy guruhlari orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Meksika, ko'pgina Markaziy Amerika davlatlari, Venesuela, Chili, Paragvay kabi Lotin Amerikasi mamlakatlarida ular aholining asosiy qismini tashkil etadi. Yevropa va Afrika aholisi qorishishi natijasida paydo bo'lgan mulatlar soni nisbatan kam bo'lib, ular tarkibiga AQSHliklarning bir qismi, Braziliya, Kuba, Venesuela aholisi, Vest-Indiya xalqlari kiradi.

Ba'zi hollarda metislar va mulatlarni o'zaro ajratish qiyin. Umuman aholi tarkibida aralash irqiy tiplar salmog'i tinimsiz oshib bormoqda. Amerikada negroid irqiga aralashmagan (yoki kam aralashgan) Afrikadan keltirilgan negr-qullaming avlodlari kiradi. Yirik negroid guruhlari Braziliya va AQSHda yashaydilar hamda Gaiti, Yainayka va boshqa Vest-Indiya mamlakatlarining asosiy

aholisini tashkil etadi. Umuman Amerikada yevropeoidlar jami aholining 53 foizini, metis va mulatlar – 34 foizni, negrlar – 7 foizni va mongoloid hindular 6 foizni tashkil etadi. Avstraliya va Okeaniyada yevropaliklar kelgunga qadar aholining asosiy qismi avstraloid katta irqining ikki – avstraliya va papuas-melaneziya tiplariga mansub bo'lgan. Okeaniyaning sharti va shimalida – Polineziya va Mikroneziyada oraliq irqiy tiplar keng tarqalgan. XVII asrda, asosan, yevropaliklar va qisman osiyoliklar orasida boshlangan yalpi immigratsiya ushbu mintaqaga aholisi irqiy tarkibini keskin o'zgartirib yubordi. Avstraliya va Yangi Zelandiyada yevropeoid irqining, asosan, oraliq va qisman shimoliy tarmog'iga mansub vakillari ko'pchilikni tashkil etadi. Okeaniya aholisining yevropaliklar va osiyoliklar bilan qo'shilishi Polineziya va Mikroneziyada hamda Fidji va Yangi Kaledoniyada metis guruahlari shakllanishiga olib keldi.

Ko'pgina Melaneziya orollarida va Yangi Gvinezada metislari kam. Umuman Avstraliya va Okeaniyada yevropeoidlar (asosan, ularning oraliq tiplari) aholining 76 foizini, melaneziyaliklar va papuaslar 16 foizini, polineziyaliklar va mikroneziyaliklar 4,5 foizini tashkil etadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi irqiy tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi irqiy tarkibini o'rGANISHNING ahamiyati nimalardan iborat?
3. Aholi irqiy tarkibi shakllanish tarixini baholang.
4. Katta irqlar nima?
5. Negroid irqi uchun qanday xususiyatlar xos, sanab bering?
6. Mongoloid irqi tarqalgan hududlar uchun xos bo'lgan geografik omillar nima?

8-MAVZU. DUNYO AHOLISINING ETNIK TARKIBI

Reja:

- 8.1. "Etnos" haqida tushuncha va uning belgilari
- 8.2. Yer sharidagi asosiy etnoslarning joylashish geografiyasi
- 8.3. Dunyo til oilalari geografiyasi

8.4. L. N. Gumilyovning etnoslar hayoti haqidagi gipotezalari etnogenezis

8.1. "Etnos" haqida tushuncha va uning belgilari

Yer sharida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning turli bosqichlarida turgan ko'plab etnoslar tarqalgan. Etnoslar bir qator umumiy belgilari (tili va yashaydigan hududining umumiyligi, madaniyatni va maishiy hayotidagi yaqinliklar, tarixidagi o'xshashliklar, ba'zan bitta davlatga mansubligi) mavjud bo'lgan kishilar guruhidan shakllanadi. Fanda qabul qilingan etnoslarning uch bosqichli tasnifiga muvofiq, ularning eng qadimiy tipiga ibtidoiy jamoa tuzumiga mansub bo'lgan qabilalar va qabila guruhlari kiradi. Quldarlik va feodal formatsiyalari bilan yangi etnos tipi – elatlar bog'liq. Iqtisodiy aloqalarning kuchayishi tufayli, yuqori darajada rivojlangan etnos tipi – millat shakllandi.

Turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi notengliklar oqibatida hozirgi paytda sayyoramizda etnoslarning yuqorida qayd etilgan barcha tiplari uchraydi. Biroq, ko'pincha u yoki bu xalqni qanday etnik tipga mansubligini aniqlash qiyin kechadi. Chunki, ularning ko'pchiligidagi millatni elatdan, elatni qabila yoki qabilalar guruhidan ajratib turadigan belgilari yaqqol aks etmagan. Bu narsa, avvalo, ko'pgina etnoslarning rivojlanish jarayoni hozir ham davom etayotganligi bilan bog'liq. Ko'plab kishilar guruhida milliy ong – u yoki bu xalqqa mansublik juda tez, ba'zan bir avlod umri davomida o'zgaradi.

Tarixiy jihatdan etnoslarning eng qadimiy tipi – qabila. Har bir qabila bir qancha urug'lardan – qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan kishilar guruhidan tarkib topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida qabiladagi kishilar orasida ijtimoiy tabaqalashuv mavjud bo'lmasan. Hozirda ba'zi bir (eng qoloq va kam sonli) etnik guruhlarda, birinchi navbatda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar orasida qabilaviy xususiyatlar saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanish jarayonida ko'pgina qabilalar mansaftalarining umumiyligi ularni muayyan ittifoqlarga birlashishga olib keldi (masalan, Shimoliy Amerikadagi irokezlar ligasi, Meksikada uchta astek qabilalar uyushmasi, Janubiy Afrikada zulus qabilalari Ittifoqi va h.k.). Bunday ittifoqlarning shakllanishi

qabilalar orasida xo'jalik va madaniy aloqalarning kuchayishiga, bu esa o'z navbatida, qabilalarning asta-sekin qo'shilib ketishiga olib keldi hamda ilgarigi qon-qarindoshlik aloqalari o'tnini hududiy aloqalar egallay boshladi. Shu yo'l bilan yangi etnos tipi – kishilarning tili, hududi, iqtisodiyoti va madaniyati o'xshash bo'lgan kishilar guruhi – elat shakllandi.

Dastlab quldorlik davrida qadimgi Misr, qadimgi ellen va boshqa shu kabi elatlар shakllandi. Yevropada elatning shakllanish jarayoni, asosan, feodalizm davriga kelib tugallandi (qadimgi rus, polyak, ncinis va h.k.).

Urug'chilikning asosiy belgilari:



8.1-rasm. Urug'chilik turlari

Odatda kelib chiqishi va tili yaqin bo'lgan qabilalar o'zaro birlashganlar (qadimgi rus – polyan, drevlyan, vyatich va boshqa sharqiy slavyan qabilalari, polyak – pomoryan, vislyan, mazovshan va boshqa slavyan qabilalari, nemis-saks, aleman va boshqa german qabilalari) yoki birining ikkinchisiga bosqin uyushtirishi natijasida turli tilda so'zlashadigan qabilalar qo'shilib ketganlar (shiminoliy fransuz va provansal elatlari – gall qabilalari, rim kolonistlari, german qabilalari, franklar, vestgotlar va burgundlar va h.k.).

Elatlarning qo'shilishi jarayonida hamda ularning ayrim qismlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida. ularidan birining tili (odatda ko'p sonli va nisbatan rivojlangan)

umumiyligi tilga aylanadi, boshqa qabila tillarining ahamiyati pasayib, sheva darajasiga tushadi yoki butunlay yo'qolib ketadi; muayyan hududiy, madaniy va xo'jalik birligi shakllanadi. Biroq, bunday birlik hali ancha (ayniqsa, iqtisodiy jihatdan) beqaror va bo'sh edi. Iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar asta-sekin millatlarga aylana bordi. Elatlar uchun xos belgilar yangi sisat darajasiga ko'tariladi: millat barqaror hududiy, iqtisodiy va madaniy birlik bilan, umumiyligi bilan ajralib turadi; va nihoyat, qayd etilgan xususiyatlar naijasida, milliy xarakterning umumiyligi jihatlari hamda milliy ong shakllanadi.

Odatda millat – nomi saqlanib qolgan elatning etnik rivojlanish mahsulidir. Biroq, davlat chegaralaridagi o'zgarishlar tufayli ayrim elatlar negizida bir qancha etnik birliklar yuzaga kelgan (masalan, portugallar va galitsiyaliklar, nemislar va avstriyaliklar va h.k.). Qadimgi rus elati rus, ukrain va belorus elatlarining umumiyligi ildizi bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik, ularning har biri alohida millatga aylandilar. Shunday holatlar uchraydiki, bitta millatning shakllanishida bir qancha elatlar ishtirok etadi (masalan, indoneziya millati yavaliklar, sundlar, madurlar va boshqa elatlardan; filippinlar – tagallar, visayyalar, iloklar va boshqalardan shakllangan).

Ko'pgina mayda elatlar millatga aylanmasligi mumkin. Ular kamsonli bo'lganliklari tufayli ayrim zamонавиyo'nalishlarni mahalliy kadrlar bilan ta'minlay olmasdan, taraqqiyotdan orqada qoldilar. Vaqt o'tgach, bunday elatlar boshqa ancha rivojlangan elat yoki millat bilan aloqaga kirishadilar, ularning madaniyati va tilini o'zlashtiradilar va asta-sekin ular bilan qo'shilib ketadilar.

Ta'kidlash joizki, etnoslarning uch bosqichli bo'linishi (qabila – elat – millat) Yer sharidagi mavjud etnik umumiylig shakllarining barchasini o'zida aks ettirmaydi. Bunda, ayniqsa, ko'pchilik mamlakatlardagi mavjud oraliq guruhlar – muhojirlarning birinchi, ikkinchi va undan keyingi avlodni, qisman asosiy millatga assimilatsiyalashgan aholi vaziyatni murakkablashtiradi. Ular o'z vatani va xalqi bilan butunlay aloqasini uzmagan, ayni paytda, ularni qabul qilgan mamlakat etnosiga yaxlit qo'shilib ketmagan (masalan, AQSH va Kanadadagi nemislar, shvedlar, italyanlar va boshqalar). Oraliq guruhlar ikki va undan ortiq xalq aloqa qiladigan etnik chegaralar zonasida ham shakllanadi. Bunday guruhlarning o'ziga xos xususiyati – ikki xil milliy ongning yuzaga kelganligidir.

Kishilarning bir jamoasi bir vaqtning o'zida bir necha etnik umumiyliklar tarkibiga kirishi mumkin, va bu narsa ularning o'ziga xos iyerarxiyasini yuzaga keltiradi. Har qanday, hatto eng jips va konsolidatsiyalashgan xalqlarda ham asosiy etnik tarkibdan farqlanuvchi xususiyatlarni o'zida saqlab qolgan ayrim guruhlar uchraydi. Etnografik deb nomlanuvchi bunday guruhlar hududiy jihatdan millat yoki elatning alohida qismini tashkil etadi, madaniyati va maishiy hayotida alohida xususiyatlarni saqlab qoladi (ular o'ziga xos shevada gaplashadilar, dini, kiyim-kechak, urf-odailari bo'yicha boshqalardan farq qilishi mumkin).

Etnografik guruhlar odatda bir elat yoki millatning boshqa milliy guruhlar bilan assimilatsiyalashuvi yoxud qabilaning elatga qo'shilishi bilan, biroq ushbu qabila o'zining ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan holda yuzaga keladi. Ko'p hollarda asosiy etnik guruhdan uzoq vaqt ajralib qolishi (migratsion jarayonlar tufayli, davlat chegaralarining o'zgarishi va h.k.) natijasida etnografik guruhlar yuzaga keladi. Konfessional munosabatlar bilan farqlanadigan guruhlar, ayniqsa, ajralib turadilar (masalan, Hindistondagi panjoblik sikxlarni alohida xalq sifatida ham e'tirof etadilar).

Metaetnik unumiylik deb nomlanadigan, bir necha xalqlar guruhlarini qamrab oladigan birliklar ham mavjud. Ular etnogenetik jihatdan yaqin, o'zini anglash unsurlari o'xshash, uzoq vaqt iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarda bo'lgan bir necha xalqlarni birlashtiradi. Bunday birliklarga nafaqat tili, balki madaniyati va maishiy hayotida o'xshashliklar bo'lgan xalqlar, masalan, slavyanlar, romanlar, mo'g'ullar, turklar va boshqalarni kiritish mumkin.

Etnodiniy metaetnik birliklar ham uchraydi. Masalan, induizm Janubiy Osiyoda juda ko'p xalqlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan, hozirda esa ushbu mintaqada hind xalqlari yagona birlik sifatida shakllanmoqdalar. Filippin janubida islomning tarqalishi Moro xalqlari deb nomlangan alohida etno diniy guruh shakllanishiga olib keldi. Filippindagi boshqa yirik xalqlarning birlashuvi esa nasroniylik dini ta'siri ostida ro'y berdi.

Bir necha kichik etnoslar bitta kattasiga qo'shilganligi yoki kichik etnik birliklarning yirik xalq ichida yo'q bo'lib ketganligi haqida tarix guvohlik beradi. ya'ni turli hududlarda va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda etnik birlashish jarayonlari sodir bo'lgan. Biroq, unga teskari jarayon, ya'ni etnik bo'linish sinsiy jamiyatgacha bo'lgan

davrda ko'proq sodir bo'lgan. Bu davrda aholining o'sishi qabilalarning parchalanishiga va kishilarning Yer shari bo'yab tarqalishiga olib kelgan. Dunyoning ayrim qismlarida etnik bo'linish jarayoni hozir ham davom etmoqda. Xususan, Yevropaliklarning Amerika, Avstraliya va qisman Afrikaga ko'chishi oqibatida, bu yerlarda yangi etnoslar shakllandi. Ba'zan davlat chegaralaridagi o'zgarish tufayli etnoslarning bo'linishi ham yangi xalqlarni vujudga keltiradi.

Etnik birlashuv jarayonlari bir necha xil bo'ladi: konsolidatsiya, assimilatsiya va etnik integratsiya. Ba'zan etnik rivojlanish ancha murakkab bo'lib, bu jarayonlarning barchasi bir vaqtida sodir bo'ladi.

Konsolidatsiya – bu o'zaro yaqin bir necha etnoslarning (qabila, elat) bitta yirik xalqqa qo'shilishi yoki mavjud xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bo'yicha yanada jipslashuvudir. Xalqlarning tili va madaniyati o'zaro yaqin bo'lsa konsolidatsiya jadal ro'y beradi. Etnoslar rivojlanishning quyi pog'onalarida qolib, millat sifatida shakllana olmagan hududlarda bu jarayon sodir bo'ladi (masalan, Dog'iston va Oltoydag'i kichik elatlar va h.k.).

Konsolidatsiya jarayoni ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin, mustamlaka tizimi parchalanishi bilan keng quloch yoydi. Milliy ozodlik harakati natijasida, ularning siyosiy mustaqillikka erishishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xo'jalik tuzilmasidagi o'zgarishlar, jumladan, ko'chmanchilik o'tmiga o'troq turmush tarzining yuzaga kelishi – bularning barchasi etnik konsolidatsiyani, milliy o'zlikni anglashni jadallashtirdi. Yaqin o'tmishta ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan etnik xilma-xillik hozirda susayib bormoqda. Qabilalar va lokal etnik guruhlardan elatlar va millatlar shakllanmoqda. Masalan, Afrikadagi bir necha qabila uyushmalaridan xausa, yoruba, ibo kabi taniqli elat va millatlar vujudga keldi. Hindiston, Filippin va boshqa Osiyo mamlakatlarida konsolidatsiya jadal ro'y bermoqda.

Ayrim millatlar shakllanishiga siyosiy vaziyatlar, birinchi navbatda, alohida davlatlarning paydo bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa, masalan, flamandlardan ajralib chiqqan gollandlarga tegishli. Ikkita mustaqil davlat – Germaniya va Avstriyaning paydo bo'lishi bir tilda gaplashadigan alohida millatlarni vujudga keltirdi. Deyarli barcha Lotin Amerikasi millatlari mustaqil davlatlar doirasida

shakllandilar, shuning uchun ulardagi siyosiy chegara etnik chegara bo'lib ham xizmat qilmoqda.

Assimilatsiya mohiyati shundaki, biron-bir xalqning alohida guruhi yoki butun bir xalq uzoq vaqt davomida boshqa xalq orasida yashab, uning tili va madaniyatini o'zlashtiradi hamda o'zini avvalgi etnik birlikka mansub ekanini inkor qiladi. Milliy o'zlikni anglashidagi o'zgarishlar bu jarayonning oxirgi bosqichi hisoblanadi.

Assimilatsiya, asosan, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar uchun xos bo'lib, undagi aholi millat sifatida allaqachon shakllangan. Ushbu kishilar orasida yashaydigan kamsonli milliy guruhalr esa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish bo'yicha ancha orqada. Bu jarayon kamsonli millatlarga ham, muhojirlarga ham tegishli. Muhojirlarning assimilatsiyalashuvi ko'pgina omillarga bog'liq: ularning tubjoy aholisi bilan tili va madaniyatidagi o'xshashliklar, ko'chib kelganlarning milliy jipslik darajasi, ularning o'z vatanlari bilan siyosiy va madaniy aloqalarini saqlanib qolganligi, qabul qilgan mamlakat hududidagi joylashuvi (aralash yoki kompakti, shahar yoki qishloq), irqiy tasovutlar, mamlakatdagi boshqaruvchi kuchlarning u yoki bu muhojir guruhlarga munosabati va h.k.

Assimilatsiyaning tabiiy va majburiy turlari mavjud. Tabiiy assimilatsiya ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishi jarayonida o'z oqimi bilan sodir bo'ladi. Majburiy assimilatsiya esa milliy notenglik mavjud bo'lgan davlatlarda kamsonli millatlarning tili va madaniyatiga butunlay barham berishga yo'naltirilgan reaksiyon assimilatsiya siyosati natijasidir.

8.2. Yer sharidagi asosiy etnoslarning joylashish geografiyasi

Etnik integratsiyalashuv, ya'ni turli etnoslarning yaqinlashuvi, asosan, ko'pmillatli davlatlarda sodir bo'ladi. Bunday mamlakatlarda milliy muammolarni hal etishning muhim sharti – xalqlarni madaniy va xo'jalik jihatdan yaqinlashtirish hisoblanadi. Bunday integratsiyalashuv etnik birliklar soni hamda ularning tiplari bo'yicha o'zgarishlarga olib keladi. U yoki bu mamlakat aholisi milliy tarkibiga tavsif berishda umumiy hududga, til va madaniyatga ega, tarixiy shakllangan kishilar guruhibi anglatuvchi "xalq" tushunchasi keng qo'llaniladi. Ba'zi hollarda bu tushuncha (Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari) millat va elatni, boshqa holatlarda elat, o'zaro yaqin

qabilalar guruhi, hatto alohida qabilani (Afrika, Osiyo va Okeaniyaning ayrim mamlakatlari) anglatadi.

Dunyo aholisining etnik tarkibi tinimsiz o'zgarib turibdi; ba'zan yangi etnik birliklar paydo bo'immoqda. Biroq, umuman konsolidatsiya va assimilatsiya jahon xalqlari umumiy sonining qisqarishiga olib keladi. Hatto, bir necha asr ilgari millatlarning shakllanishi boshlangan Yevropada bir qancha etnoslar (gellar, frizlar va boshqalar) asta-sekin yo'q bo'lib ketdilar. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu jarayon jadal davom etmoqda.

Xalqlarning joylashuvida ham o'zgarishlar kuzatilmoxda. Yer shari bo'ylab ko'pchilik xalqlar kompakt bo'lib yashaydilar. Milliy aralash aholi, avvalo etnik chegaralar yoqasida joylashgan hududlar uchun xos bo'lib, bunday aralashuv o'xshash tillarda so'zlashadigan va madaniy-maishiy munosabati yaqin bo'lgan qo'shni xalqlarda, ayniqsa, kuchli bo'ladi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darjasini yuksalib borgan sari, shunga mos holda, ularning milliy tarkibi ham murakkablashib boradi. Jumladan, qishloq joylarga nisbatan shaharlar aholisining milliy tarkibi xilma-xildir. Shahar qancha katta bo'lsa, aholining milliy tarkibi shuncha rang-barang bo'ladi. Shahar aholisining milliy xilma-xilligi muhojirlarni ko'p qabul qiladigan mamlakatlardan uchun xosdir, chunki yangi ko'chib kelganlarning asosiy qismi shaharlarda o'mashadilar.

AQSH shahar aholisi milliy tarkibining tahlili bu holatni to'la-to'kis tasdiqlaydi. Ushbu mamlakat shaharlarida assimilatsiyalashmagan muhojirlar salmog'i o'rtacha mamlakat ko'rsatkichiga nisbatan 2.5 barobar yuqori. Janubi-Sharqiy Osiyo shaharlarida tubjoy millatlarga mansub kishilardan tashqari, aholining anchagini qismini xitoylar va hindlar tashkil qiladi; ular bu yerda savdo, hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarishida band. Arab davlatlari va Afg'onistonda ham hindlar, asosan, shaharlarda yashab, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar.

Tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar va afg'onlar keng tarqalgan Shimoliy Afg'oniston shaharlarida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Afg'onlar ko'p yashaydigan hududlardagi shaharlarda, jumladan, Qobulda ham ularning ulushi yuqori. Xitoyning ko'pchilik shaharlarida (kamsonli millatlar yashaydigan hududlarda ham) xitoylar, qisman xuey va manchjurlar, faqat Sinszyan okrugi

shaharlarida uyg'urlar, Tibet shaharlarida esa tibetliklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Umuman, ko'pmillatli davlatlarda nisbatan yirik yoki iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan millatlarning vakillari shahar aholisining asosiy qismini tashkil etadi.

Qishloq joylardagi milliy aralashuv ikki yoqlama tavsif kasb etishi mumkin. Faqat ikki va undan ortiq xalq bitta aholi punktida yashaydigan bo'lsagina, ularni milliy jihatdan haqiqiy aralash hudud deb hisoblash mumkin (bu sohadagi eng yaqqol misol – Malayziya bo'lib, ularda eng kichik qishloqlargina bir millatlidir). Odadta muayyan hududda ko'plab xalqlar joylashgan bo'lib, ularning har biri o'z qishloqlariga ega bo'ladi.

Siyosiy chegaralar ko'pincha milliy chegaralarga mos kelmaydi. Ehtimol, millat shakllanishi davlatning paydo bo'lishi bilan bir vaqtida ro'y bergan G'arbiy Yevropa hamda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun bu hodisa odatiy holdir. Boshqa mintaqalardagi juda ko'p xalqlar ikki va undan ortiq davlatlar hududida yashaydilar hamda ularning orasi davlat chegaralari bilan ajratilgan. Bir millatli davlatlar juda kam uchraydi (ayrim G'arbiy Yevropa va Arabiston yarim oroli mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Bangladesh). Ko'pchilik dunyo mamlakatlari ko'pmillatli bo'lib, ularning ba'zilarida (Rossiya, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Eron, Nigeriya va b.) o'nlab va hatto yuzlab xalqlar yashaydilar. Hozirgi paytda migratsion jarayonlarning keng quloch yoyishi bois, bir millatli mamlakatlarda ham hech bo'imsa kamsonli millatlarning kichikroq guruhi uchraydi. Masalan, Yaponiyada XX asming 20-40-yillarida ko'chib borgan koreylarning avlodlari yashaydi va ularning soni taxminan 500-600 ming kishini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, "kamsonli millat" tushunchasi bir xil ma'noni anglatmaydi. Ko'p hollarda ushbu tushuncha ostida yirik xalqning asosiy qismidan ajralib qolgan kichikroq guruhi tushuniladi. Masalan, Turkiyadagi greklar, Italiyadagi albanlar, Qirg'izistonidagi o'zbeklar va h.k. Ba'zi holatlarda ushbu tushuncha o'z davlatiga ega bo'lмаган millatlarga nisbatan qo'llaniladi (masalan, Ispaniya va Fransiyada basklar, Fransiyada bretonliklar, Turkiya, Iraq va Suriyada kurdlar, Xitoyda uyg'urlar, Eron, Pokiston, Afg'onistonda beludjilar va h.k.). Boz ustiga, mazkur xalqlar o'z etnik hududlarida ko'pchilikni tashkil qiladi.

Aholi milliy tarkibini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, unga ko'plab omillar xalaqit beradi. Jumladan, hauto milliy tarkib bo'yicha to'liq statistik ma'lumotlar bo'lgan taqdirda ham ko'pchilik mamlakatlarda assimilatsiya va konsolidatsiya jarayonlarining oxiriga yetimaganligi tusayli milliy o'zlikni anglash darajasi oraliq bosqichda bo'lgan kishilar guruhi aholining katta qismini tashkil qiladi.

Ta'kidlash joizki, ko'pchilik mamlakatlarda aholi ro'yxatlari va uni hisobga olishning boshqa shakllari bir taraflama bo'ladi. Ayniqsa, Osiyo, Afrika va qisman Lotin Amerikasining ichki hududlarida saqlanib qolgan mayda etnik birlklarni (qabilalarni) ajratishda katta muammolar kelib chiqadi. Bunday qabila birlklari orasida aniq chegaraning o'zi yo'q.

8.3. Dunyo til oitalari geografiyasи

Aholi ro'yxatlarida ikkita muhim etnik ko'rsatkich – til va milliy o'zlikni anglash (qaysi millatga mansubligi haqidagi savolga bergan javobi orqali aniqlanadi) ko'p uchraydi. Til umumiyligi – etnos shakllanishining muhim shartidir. Zotan, ko'pincha til va xalq nomi o'zaro mos keladi. U yoki bu aholi guruhida ona tilining o'zgarishi assimilatsiya jarayonlarining chuqurlashib ketganini ko'rsatadi; odatda til o'zgargandan keyin milliy o'zlikni anglashda ham o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, Fransiya sharqida yashaydigan deyarli barcha elzatsliklar nemis va fransuz tillarida so'zlashadilar.

Belgiya va Shvetsariya kabi ko'pmillatli davlatlar aholisining asosiy qismi ikki yoki uch tillidirlar. Umuman ikki tillilik – ko'pmillatli mannlakatlar uchun xos xususiyat bo'lib, kamsonli millatlar vakillari o'z ona tillaridan tashqari, rasmiy davlat tilidan ham soydalanadilar (Hindistonda – hindi, Pokistonda – urdu, Indoneziyada – baxasa Indonesia, Filippinda – tagalog, bir qator Afrika davlatlarida – ingliz yoki fransuz tillari). Ikki tilli guruhlar, asosan, etnik chegaralar yoqasida hududlarda keng tarqalgan. Bundan tashqari, ikki tillilik muhohirlarni ko'p qabul qilgan mamlakatlar uchun ham xosdir. Keyingi paytlarda ikki tillilikka shahar aholisining jadal o'sishi, qishloq aholisining turli guruhlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, ta'lim va madaniyat darajasining yuksalishi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Bir necha xalqlarning bir tilda so'zlashishi tez-tez uchraydigan holdir. Masalan, ingliz tilida inglizlar, avstraliyaliklar, yangi zellandiyaliklar, kanadaliklar, AQSH Amerikaliklari va boshqa xalqlar gaplashadilar. Ispan tili nafaqat ispanlar uchun, balki Lotin Amerikasidagi juda ko'p xalqlar uchun ona tili bo'lib hisoblanadi. Bitta tilda nemislar, avstriyaliklar va shvetsariyaliklar so'zlashadilar.

Muayyan tilda so'zlashadigan kishilar soni o'sha xalqqa mansub aholi soniga mos kelmaydi. Ayniqsa, bu narsa millatlararo muloqot vazifasini bajaruvchi yirik xalqlarning tillariga tegishlidir. Bunday tillarning eng ko'p tarqalganlari (taxminan mln. kishi): xitoy (1500), ingliz (500), hindi va unga yaqin urdu (540), ispan (300), rus (270), arab, bengal va indonez (har birida 250 dan), portugal (200), nemis (140), fransuz (125) va h.k. Shunday qilib, mazkur 12 tilda jahon aholisining 2/3 qismi so'zlashadi.

Milliy o'zlikni anglash eng muhim etnik aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi. Uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan milliy o'zlikni anglash, garchi etnik birlikni tashkil qiluvchi juda ko'p unsurlardan iborat bo'lsa-da, o'ziga xos mustaqillikka ega. Shuning uchun u asosiy xalqdan hududiy jihatdan ajralib qolgan kishilar guruhida, hattoki tili o'zgarib ketgan holatda ham saqlanib qolishi mumkin. Milliy o'zlikni anglash ta'sirida ba'zan etnik guruhlar o'z milliy hududiga qayta qo'shilishga, o'z ona tilini qayta tiklashga intiladilar.

O'zlikni anglash yuqori darajada milliy konsolidatsiyalashgan xalqlar uchun xosdir. Biroq, qabila tuzumi uchun xos xususiyatlarni saqlab qolgan elatlarning milliy ongi hali aniq shakllanmagan bo'ladi. Bunday clatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darjasasi va milliy so'zlashuvchi markazlarining yo'qligi turli shevalarda so'zlashuvchi guruhlar o'rtasida muloqot va madaniy aloqalar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Aniq milliy ong shakllanmaganligi oraliq guruhlar (muhojirlar, ikki tilli aholi, etnik chegaralar yoqasida yashovchi kishilar va h.k.) uchun ham xosdir. Ko'pincha boshqa mamlakatlarga ko'chib ketgan muhojirlarda o'z xalqiga mansublik hissi susayib, uning o'rmini ilgari yashagan mamlakatga yoki o'zining sobiq qo'shnisiga mansublik hissi egallaydi. Jumladan, kataloniyaliklar, galisiyaliklar va hatto basklar o'zlarini ispanlar deb, tamillar – hindlar deb, yavaliklar – indonezlar deb atay boshladilar.

Assimilatsiya jarayonlarining borishi muhojirlar orasida milliy ong o'zgarishidagi sur'atlar ular kirib kelgan mamlakatining tili, urfodatlari va turli madaniy unsurlarini qay darajada o'zlashirishlariga hamda aralash nikohlarning tarqalishiga bog'liq. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (AQSH, Avstraliya, Kanadaning ingliz tili provinsiyalari) Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlar farzandlarini boshqalardan ajratish qiyin. Markaziy Yevropa, Italiya, Slavyan davlatlari emigrantlarining assimilatsiyalashuvi qiyin kechmoqda; irqi jihatdan ham farq qiluvchi – yaponlar, indonezlar, filippinliklarda esa yanada qiyinroq. Osiyo millatiga mansub kishilar. odadta, uchinchi va undan keyingi avlodlarda ham o'z milliy xususiyatlarini saqlab qoladilar. Hozirgi paytda dunyoda taxminan 2000-3000 xalq mavjud bo'lib, ular bir necha o'n kishidan iborat mayda qabilalardan (Hindistonda andamanlik minkoplari, Indoneziyada toalalar, Braziliyada botokudlar, Argentinada alakaluflar va yamanlar va h.k.) to bir necha yuz million aholini o'z ichiga oluvchi yirik (ruslar, AQSH Amerikaliklari, xitoylar, yaponlar, braziliyaliklar va h.k.) millatlargacha bo'lgan guruhlarni o'z ichiga oladi. Biroq mazkur raqamlar juda shartli bo'lib, u yoki bu xalqnning alohida millat, elat, qabila yoki qaysidir etnos tarkibidagi etnografik guruh ekanligi haqida mutaxassislar orasida tinimsiz bahslar bormoqda. Masalan, milliy jihatdan eng konsolidatsiyalashgan mintaqasi – Yevropada olimlar 60ta xalqni tub joy millatlar sisatida ajratgankar. Ayrim etnograflar bretonlar, uelsliklar, frizlarni mustaqil xalqlar deb hisoblasalar, boshqalari bretonlar – fransuzlar, uelsliklar – inglizlar, frizlar esa gollandlar tarkibiga mansub etnografik guruh deb ataydilar. Shuning uchun, bunday holatlarda muayyan xalqqa mansub aholi sonini aniqlashda ona tili, tug'ilgan yurti, fuqaroligi, irqi, dini, qabilaviy mansubligi kabi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bir qator Osiyo va Afrika mamlakatlarida o'zaro yaqin til va shevalarda so'zlashadigan kishilar guruhlari orasida milliy so'zlashuvchining kuchayishi kuzatilmogda. Qondosh etnos guruhlari uchun yagona adabiy tilning yaratilishi, ma'muriy chegaralar aholining milliy tarkibiga mos holda o'rnatilishi bu jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu narsa hindistonliklar, bixarlar, rajastxanliklar, visayxa kabi yirik etnik guruhlarga tegishlidir. Jumladan, bixarlar tarkibiga uchta ko'p millionli xalq – bxodjpuri, magaxi i maytxili

xalqlari hamda o'ndan ortiq mayda etnik guruhlar, rajastxanliklar tarkibiga – marvarilar, jaypurilar, mevarilar va boshqalar kiradi. Visayya xalqi esa sebua, panay-xilgaynon, samar-leyte va boshqa etnik guruhlarni o'zida birlashtiradi. Kelgusida, muayyan tarixiy sharoit ta'sirida nomlari qayd etilgan barcha etnik guruhlar yo yagona xalqqa birlashishi, yoki o'zaro qondosh xalqlar negizida bir necha mustaqil millatlar shakllanishi kutiladi. Hozirgi paytda xalqlarni muayyan tilda so'zlashuviga ko'ra (lingvistik) tasniflash ancha keng tarqalgan. To'g'ri, birgina til xalqlar orasidagi barcha belgilarni o'zida aks ettirish imkoniga ega emas, bunday holatlarda boshqa etnik ko'rsatkichlardan foydalaniadi. Xalqlarni guruhlashda mazkur tizim qondoshlik belgilari bo'yicha birlashtirilgan tillarni, ularning lug'at fondi va grammatikasini taqqoslash yo'li bilan o'rnatilgan genealogik tasnifidan foydalanadi.

Ushbu tizimdagagi oliy taksonomik birlik – til oilalari bo'lib, hozirgi paytda dunyoda 15 ta til oilasi va biron bir oila tarkibiga kirmaydigan, o'ziga xos tilda so'zlashadigan alohida xalqlar (koreyslar, yaponlar, basklar, ketlar va h.k.) mavjud. Ba'zi hollarda u yoki bu xalq tillararo o'xshashligiga qarab emas, balki geografik va tarixiy-madaniy belgilari bo'yicha muayyan til oilasi tarkibiga kiritilgan (tillarning genetik qondoshligi ilmiy isbotlangan chog'dagina "til oilasi" tushunchasi qo'llaniladi). Bunday guruhlarga papuaslar va hind xalqlari mansub bo'lib, aslida ularning har biri bir necha oilani o'zida birlashtirgan. Uch afrika "oilasi" (niger-kordofan, nil-sahroi kabir va koysan) ham bir necha oiladan iborat. Oila ichidagi o'zaro yaqin til guruhlari – dunyoda ularning soni 45ta – hamda (oila tarkibida, biroq biron ta til guruhiga kirmaydigan) alohida tilda so'zlashadigan xalqlar ikkinchi taksonomik birlikni tashkil etadi. Masalan, hind-yevropa oilasiga slavyan, boltiq, german, roman, eron va boshqa til guruhlari bilan bir qatorda, hech bir guruhi qo'shilmaydigan albanlar va armanlar ham kiradi. Eng quyi taksonomik birlik alohida til emas, balki xalq bo'lib hisoblanadi.

Til oilalarining shakllanish jarayoni insoniyatning Yer shari bo'ylab joylashishi bilan uzviy bog'liq. Eng yaqin tillar odatda uzoq vaqt davomida bitta mintaqada yashagan va kelib chiqishi umumiy bo'lgan qo'shni xalqlarda uchraydi. Ba'zi hollarda bir-biridan uzoqda yashaydigan xalqlarning tillarida ham o'xshashlik kuzatiladi (masalan, yavaliklar va malagaslar, vengrlar va mansilar, yoqutlar va

ozarbayjonlar). Buning sababi shuki, o'xshash tilda so'zlashadigan xalqlarning yo kelib chiqishi umumiy, yoki uzoq o'tmishda ular o'zaro qo'shni bo'lib yashaganlar. Yer shari aholisining 40 foizdan ko'prog'i 11ta til guruhini o'zida jamlagan hind-yevropa til oilasiga mansub. Mazkur tillar dunyoning deyarli barcha mintaqalarida, ayniqsa, Yevropa, Osiyo va Amerikada keng tarqalgan. Jahon aholisining taxminan 20 foizi xitoy-tibet oilasi (uning tarkibiga eng ko'psonli xalq - xitoylar kiradi) tillarida so'zlashadi. Aholining 8 foizi Afrikada keng tarqalgan niger-kordofen, 5-7 foizi esa semit-xamit oilasi (Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi arablar) tillaridan foydalanadi. Shunday qilib, mazkur 4ta til oilasida insoniyatning 4/5 qismi gaplashadi. Til oilalari va guruhlarining geografik tarqalishi juda notejis. Masalan, arab tili Janubi-G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning juda katta hududlarini egallagan. Turk guruhiga mansub tillar Bolqon yarim orolidan to shimoli-shargiy Sibircacha yetib borgan.

Dunyoning barcha qit'alarida ingliz tilida so'zlashadilar. Ispan tili Lotin Amerikasining katta qismida tarqalgan. Yevropada inglizcha va ispancha gaplashadigan kishilar dunyodagi jami shu tillarda so'zlashuvchilarining 20 foizidan kamroq'ini tashkil etadi. Bu jarayonlar ta'sirida bitta tilda mazkur xalqqa umuman aloqasi bo'lмаган, ko'pincha butunlay boshqa irqqa mansub kishilar ham so'zlashmoqdalar. Keyingi yillarda turli xalqlar o'sish sur'atidagi xilma-xilliklar tufayli turli til oilalari va guruhlariga mansub aholining Yer yuzidagi jami aholi soniga nisbatan salmog'i tez o'zgardi. Niger-kordofan, semit-xamit va avstroneziya til oilalari aholisi orasida o'sish juda yuqori. Ayni paytda, hind-yevropa va ural oilalariga mansub xalqlar hamda yaponlarning salmog'i sezilarli darajada kamaygan.

8.3. L. N. Gumilyovning etnoslar hayoti haqidagi gipotezalari- etnogenezis

Gumilev Leo Nikolayevich – rossiyalik olim (geograf, tarixchi, faylasuf) – u etnik guruhlarning hayotini va biologik ta'lim nazariyasini ishlab chiqdi. Etnosning paydo bo'lishidan tarqalib ketishiga qadar bo'lган jarayonga etnosogenezis deviladi (1200-1500 yil-davom etadi): etnos tug'iladi, o'sadi, o'sib boradi va o'ladi.

Etnogenезис – унинг мутасијасига багълиқ биосфера феноменидир (еҳтирослик мероси бельгиси көриниші). Инсоннинг еҳтирослилігі унинг юksak г'ояси учун сидокорликни, қурбонлик қилиш учун унинг органик қобилиятидir. Biror kishining xatti-harakati o'zgaradi, унинг harakatlarining yangi g'ayrioddiy stereotipiga motivatsiyasi o'zgaradi.

Passionarlik deyarli barcha odamlardir, ammo turli miqdorda. Aholining ko'p sonli qismida (uyg'un odamlar) o'zini o'zini himoya қилиш instincti bilan muvozanatlashadi, shunda ular o'z harakatlarini o'zları, farzandları, ota-onalari, do'stlari учун tashvish bilan muvozanatlashadi. Haqiqiy eҳтирошпарварлар kuchli ta'sirga ega bo'lib, ular o'z harakatlarining oqibatlarini hisoblab, ularni qilmasdan, hatto o'limni oldindan ko'ra bilishmaydi. Улар atrof-muhitni o'zgartirishga harakat qiladigan bo'linish darajasida. Ushbu xususiyatlarni meros orqali o'tkazish tufayli hududlarda yaqin xalqlarni bo'ysundiradigan yangi etnos paydo bo'ladi. Eҳтиросли "surish" – asossiz kelib chiqishi. Quyosh faolligining yuqori va past nuqtalarida, ionosferaning xossalari kamayadi va kosmik energiyaning individual nurlari yer yuzi bo'ylab uchib, mutatsiyaga olib keladigan kuchli radiatsiya hosiq qiladi (1000 yil davomida 2-3 marta sodir bo'ladi). So'nggi 3 ming yil mobaynida 9ta eҳтирос harakati ishonchli tarzda qayd etildi. Rivojlanayotgan etnoslar hayotining bosqichlaridan o'tadi:

- tarixiy shakllanish (etnos faoliyatining yuksalishi);
- tarixiy mavjudlik (gullash, haddan tashqari issiqlik, sekin pastga tushish);
- tarixiy pasayish (sochilib ketish, so'nish);
- tarixiy yodgorliklar (o'zlatining rivojlanishi yo'q - rimliklar).

Buzilish bosqichida subpassionerlar paydo bo'ladi: sharafsiz, vijdonsiz, o'zboshimchalik va o'z-o'zini sevadiganlar, jallodlar va vahshiylar. Odatta, bu etnos gullab-yashnagan paytda sodir bo'ladi. Bu davr moddiy madaniyatni to'plash, texnosferaning o'sishiga mos keladi. Identity o'rta hayotga yo'l ochadi, eҳтиrosi passiv va mehnatkash xalqni to'liq qondirish. Etnos учун pasayish, lekin tashqi jihatdan farovonlik va obodlik kuzatiladi. Boshqalarning hisobidan yashamoqchi bo'lganlar ko'payadi (jinoyałlar). Etnosning o'ziga xosligi faqat san'at va fanda qoladi. Ma'naviy qadriyatlар ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Etnoslар qachon paydo bo'lgan?
2. Etnoslarning qanday tiplari mavjud?
3. Aholi etnik tarkibi qanday bosqichlarini bilasiz?
4. Millat, elat, xalq orasida qanday farqlar mavjud?
5. Dastlabki elatlar Yer sharining qaysi hududlarida shakllangan?
6. Metaetnik umumiylig deb nimaga aytildi?
7. Etnodiniy metaetnik birliklar deb nimaga aytildi?
8. Konsolidatsiya, assimilatsiya mohiyatini baholang.

9-MAVZU. DINLAR GEOGRAFIYASI

Reja:

- 9.1. Dunyo, mahalliy va urug'-qabila dinlarining mohiyati va geografiyasi.
- 9.2. Dunyo dirlari geografiyasi.

9.1. Dunyo, mahalliy va urug'-qabila dinlarining mohiyati va geografiyasi

Etnoslarga tavsif berishda ko'pincha mutaxassislar ularning diniy mansubligiga e'tibor qaratadilar. Turli tarixiy davrlarda diniy va etnik birliklar nisbati turlicha bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida diniy va etnik chegaralar o'zaro mos kelgan. Har bir xalq tomonidan yaratilgan xudolar milliy xudolar bo'lib, ularning ta'sir doirasi muayyan qabila chegarasidan tashqariga o'tmagan. Bu davrda har bir davlat va unga tegishli etnos o'z xudolariga, o'ziga xos diniy tasavvurlariga ega bo'lgan.

Jamiyat taraqqiyoti, etnik aloqalarni kuchayishi bilan ancha katta diniy birliklar vujudga keldi, bir dinka bir necha xalqlar e'tiqod qila boshlaydilar. Keyinchalik, bir etnosning ma'lum qismi eski xudolariga sig'inishda davom etsalar, boshqalari yangi dinni qabul qilish hollari tez-tez ro'y berib turdi. Shunday qilib, xalqlar asta-sekin ko'p xudolikni qabul qila boshladilar. Jahon dinlarining vujudga kelishi bilan etnik va diniy chegaralar muvosifligi barham topadi. Ba'zi holatlarda diniy tafovutlar til jihatdan o'zaro yaqin (gollandlar va

flamandlar; serblar va xorvatlar va h.k.) aholi guruhlarining milliy chegaralanishida muhim rol o'ynaydi.

Din (lotincha – taqvodorlik, muqaddas ilohiyga taqvodorlik) – yuksak kuchlarga sajda qilish asosidagi madaniyat va dunyoqarashning shakllaridan biri; axloqni tarbiyalash. Din xalqlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida, xalqaro munosabatlarda, etnik guruhlar shakllanishida, madaniyati va davlatchiligidagi muhim rol o'ynaydi. Butun dunyodagi imonlilar, dinka e'tiqod qiluvchilar soni taxminan 3 milliard kishini tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlarda tabiiy o'sishni ta'minlaydigan musulmonlar va hindlar soni tobora o'sib bormoqda.

Aholining diniy tarkibi – diniy (konfessiyali) a'zolik asosida aholi tarkibini, muayyan hududlar, mamlakatlari, qit'alari va butun dunyo aholisining taqsimlanishi. Din dunyodagi ko'plab mamlakatlarning ijtimoiy va siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun dinlar sonini aniqlash va dinlarning geografik tuzalishi katta ahamiyatga ega. Ko'pgina mamlakatlarda diniy identifikasiya qilish saqlanib qolayotganligiga qaramay, bashoratning noaniqligi tufayli mavjud bo'lgan ma'lumotlarning ishonchliligi shubhali.

Dinning asosiy vazifalari (rollari) – dunyoviy – ko'rinishi – din, imon e'tiqodiga ko'ra, hayotlarini alohida ma'no va mazmun bilan to'ldiruvchi vazifasi;

Tasalli – beruvchi psixoterapevtik – uning mazmuni insonni tabiiy va ijtimoiy tafovullarda tasalli berishda, shaxsiy zaifligining his-tuyg'ularini bartaraf etish, shaxsiy muvaffaqiyatsizliklarda tushkunlikka tushganda, g'azablanish va o'lim oldida qo'rqish, kuchsizligini his qilganda tinchlantiruvchi dunyoviy ahamiyatga ega;

Muloqot – imonlilar o'tasidagi o'zaro muloqot, xudolar, farishtalar (ruhlari) bilan aloqa qilish, o'liklarning ruhlari bilan, kundalik hayorda va odamlar o'tasidagi muloqotda ideal vositachilik qiladigan avliyolar. Muloqot maxsus tashkillashtirilgan marosimlarida amalga oshiriladi;

Regulyativ – har bir diniy an'ana bo'yicha ishlab chiqilgan va odamlar xulq-atvorining o'ziga xos dasturlari sifatida muayyan qadriyatlar va axloqiy me'yordarning mazmuni to'g'risida xabardor qilish;

Integrativ — yagona diniy umumiylig, umumiylig qadriyatlar, maqsadlar odamlarni birlashtirishini his qilishi, insonlarda

shuningdek, qadriyatlar, dinga e'tiqod qilish, qarashlar mavjud bo'lgan ijtimoiy tizimda o'zini o'zi anglash imkonini beradi:

Siyosiy — turli davlat, tashkilot va uyushma rahbarlari odamlarni siyosiy maqsadlarda birlashtirish yoki tarqatish maqsadida olib borayotgan o'zining xatti-harakatini diniy umumiylig nomi ostida dindan foydalanishiadi;

Madaniy — din madaniy elementlar guruhining tarqalishiga ta'sir etadi (yozuv, musiqa, etiket, sa'nat, falsafa va boshqalar);

DezinTEGRallashGAN — odamlar orasida, turli din va dinga e'tiqod qiluvchilar o'rtaida, ba'zan ichki diniy guruhlarning o'zida ham janjal, hatto urish chiqazish maqsadida dindan foydalanish.

Keyingi davrlarda diniy mansublik va etnik mansublik o'rtaсидаги aloqalar susaya bordi. Ko'pgina yirik zamonaviy xalqlar turli dinlarga sig'inuvchi kishilar guruhlarini o'zida birlashtiradi, ayni paytda, bitta dinga ko'plab etnoslar e'tiqod qilishlari ham mumkin. Hozir faqat ba'zan, unda ham shartli ravishda milliy dinlar haqida gapirish mumkin (arman-grigorian cherkovi – ko'pchilik armanlar, sintoizm – yaponlarning asosiy qismi, sikxizm – panjobliklarning ma'lum qismi va h.k.).

Ba'zi mamlakatlarda hukmron mavqega ega dinga e'tiqod qilmaydigan deyarli barcha aholi milliy kamsonli guruhlar tarkibiga kiritiladi. Jumladan, Eronda nafaqat armanlar, ossuriyaliklar, yahudiylar, shu bilan birga fors xalqining bir qismi bo'lgan gebrlar (zoroastriylar) ham milliy kamsonli guruh sisatida e'tirof etiladi. Ayrim arab davlatlarida etnik kamsonli guruhlarga nafaqat musulmon bo'lmagan aholi, hatto islomning mazkur mamlakatda hukmron mavqega ega bo'lmagan mazhabiga mansub guruhlar ham kiritiladi. Etnik birliklarda bo'lgani kabi, diniy birliklar uchun ham tabaqalashuv xosdir. Har bir din turli yo'naliishlar, mazhablar, oqimlar va sektalarga bo'linadi. Odatda, mamlakatlar yoki xalqlar shartli ravishda musulmon, nasroniy, budda dinlariga ajratiladi, biroq quyi taksonomik darajalarga tushgan sari bunday bir xillik yo'qola boradi.

Ayrim nasroniy mamlakatlar diniy jihatdan bir necha qismlarga bo'lingan. Masalan, nemislar protestant (uning ikki oqimiga – lyuteranlik va reformatlik) va katolik dinlariga e'tiqod qiladilar; shvetsarlarning turli guruhlari orasida protestantlar (reformatlik) va katoliklar tarqalgan; shotlandlar orasida protestant-presbyterianlar ustunlik qiladi.

Bitta xalq turli qismlarining har xil diniy oqimlarga mansubligi tufayli uning ichida madaniy-maishiy tafovutlar kelib chiqadi va bu narsa o'z navbatida etnodiniy guruhlar shakllanishiga olib keladi. Bunday guruhlar jumlasiga kurdlar orasidagi yazidlar diniy guruhini, Suriya va Livan arablari orasida – druzlarni, misrliklar orasida – kopitlarni misol qilib keltirish mumkin. Buning ustiga, boshqa yo'ldosh holatlar ham unga ta'sir etsa diniy tafovut muhim etnotabaqalashuv omili bo'lib xizmat qiladi.

Ayrim mamlakatlarda din kishilar hayotining ko'pgina tomonlariga, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, turmush tarziga va madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Jahonning qaynoq nuqtalarida ro'y berayotgan siyosiy voqealarni, agar u yerdagi diniy vaziyat hisobga olinmasa, tushunish qiyin.

XX asr 70-yillarida Hindiston diniy jihatdan ikki mustaqil davlatga bo'lindi va natijada Pokistondan ko'pgina hindlar, Hindistondan esa musulmonlar ko'chib ketdilar. Bunday migratsiya jarayonida yigirma milliondan ortiq kishi ishtirok etdi. Turli diniy guruhlarga mansub kishilar orasida Livan, Isroil, Filippin, Afg'oniston, Serbiya va boshqa joylarda to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Avvalo, turli siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar natijasida kelib chiqqan bunday kelishmovchiliklarda diniy omil muhim rol o'ynadi.

Din ko'p mamlakatlar ichki siyosiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi; hatto ularning ayrimlarida siyosiy partiylar va kasaba uyushmalari diniy mansublik tamoyili asosida tuzilgan. Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, turli tarixiy voqealar va hozirda ro'y berayotgan hodisalar hamda milliy munosabatlar mohiyatini tushunish uchun o'sha mamlakat yoki mintaqa aholisi diniy tarkibiga e'tibor qaratish zarur. Aholi diniy tarkibi bilan tanishishdan avval quyida dinlar tarixi haqida qisqacha ma'lumot berilgan:

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va dastlabki davlatlar yuzaga kelishi bilan ajdodlar ruhiga talpinish, dehqonchilik va chorvachilikka xos ibodatlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi, ruhlarning iyerarxiyasi paydo bo'ldi, alohida tabaqa sifatida kohinlik ajralib chiqди. Jamiyat sinfiy tabaqaqlashuvi shunda ham o'z aksini topdiki, din oliy va quyi xudolarga (politeizm) bo'lindi. keyinchalik bu jarayonlar yakka xudolikni (monoteizm) keltirib chiqardi.

Eramizdan avvalgi 2-mingyillikda hozirgacha saqlanib qolgan dinlar tashkil topdi. Eng qadimiy shunday dinlardan biri Old Osiyoda yuzaga kelgan iudaizm bo'lib, u dastlab politeizmga asoslangan. keyinchalik monoteizmga o'tgan. Er. avv. 2-mingyillik boshlarida shu mintaqada boshqa din – zoroastrizm (uning asosida dualizm – yaxshilik va yomonlik o'ttasidagi kurash haqidagi tasavvur yotadi) rivojlana boshladi, eramizning XII asrida uning tarmoqlaridan biri – yazidizm paydo bo'ldi.

Osiyoning boshqa hududlarida poliateistik dinlar shakllandi. Janubiy Osiyoda hukimron bo'lgan kasta tuzumi orqali shuhrat qozongan braxmanizm va kasta tuzumini inkor qiluvchi jaynizm (er. avv. VI-V asrlar) shular jumlasidandir. Er. avv. VI-V asrlarda Xitoyda deyarli bir vaqtida ikki falsafiy-axloqiy ta'llimot – daosizm va konfutsiylik yuzaga keldi va keyinchalik ular alohida dinlarga aylandi. Yaponiyada ibtidoiy jamoa tuzumi davridan bu mamlakatda hukimron bo'lgan ajdodlarni hurmatlash va tabiatga topinish asosida sintoizm vujundga keldi.

Jahon bo'yicha xalqlar o'ttasida o'nlab dinlar tarqalgan bo'lib, ular xususiyatlariga ko'ra primitiv, milliy va dunyoviy dinlar guruhlariga bo'linadi. Dastlabki shakllanish bosqichida kelayotgan primitiv dinlar urug' va qabilachilik holatida yashab kelayotgan kichik etnik xalqlari orasida tarqalgan. Milliy dinlar jahoning ba'zi mamlakatlarida, asosan, biita davlat doirasidagi mahalliy din, hofatida yashab kelmoqda. Ularga Hindistondagi induizm, Xitoydagagi konfutsionizm, Yaponiyadagi sintoizm, Isroildagi iudajzm va boshqalar kiradi. Dunyoviy dinlarga jahonda eng keng tarqalgan va aholining siyosiy-ijtimoiy hayotida katta o'rinn tutuvchi Buddha, Xristian va Islom dinlari kiradi. Bu dinlar orasida Buddha dini eng qadimiy din hisoblanadi.

Tropik Afrika negrlari, Janubiy Amerika hindulari, ayrim Janubiy-Sharqiy Osiyo va Okeaniyaning kichik etnik xalqlari orasida primitiv din ko'rinishlari tarqalgan. Ular orasida fetishizm (biron tabiat jismlarining alohida qismlariga e'tiqod qilish) Tropik Afrikada, totemizm (biron hayvonga e'tiqod qilish) Avstraliya aborigenlari, Amerika hindulari va Hindistonda shomoniq (o'lganlar ruhining qayta tirilishi va tanlangan kishilarning ular bilan muloqot qila olishiga ishonish) shimol xalqlari orasida keng tarqalgan. Bundan

tashqari, animizm – ajdodlar ruhi madaniyati kabi primitiv dinlar ham bor.

Mahalliy dinlardan induizm (VI asrda paydo bo'lgan) Hindistonda yuzaga kelgan. Bunda ular qayta tirlishga, insonlar orasida tabaqalanishning mavjud ekanligiga ishonishgan. Muqaddas kitobi – “Vedalar” hisoblanib, “Mahabxarat” va “Ramayana” asarlarida ham bu din vakillari qarashlari aks etadi. Sikxizm (VI asrda vujudga kelgan) Shimoliy Hindistonda induizm dinining bir yo'nalishi sifatida paydo bo'lgan. Ular tabaqalanishga qarshi bo'lib, bиринчи ustozi – Namak ta'limotlarini qadrlashadilar. Konfutsizm, iudaizm, sintoizm kabi ko'rinishlari mavjud.

Dunyoviy dinlar orasida buddizm dini e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra eng kam salmoqni tashkil etadi. Bu din Shimoliy Hindistonda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Uning maxayana va xanayana oqimlari mavjud. Xristian dini eramizning I asrida Isroilda paydo bo'lgan bo'lib, eng ko'p e'tiqod qiluvchilarga ega. Bunga Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati va Buyuk geografik kashfiyotlar sabab bo'lgan. Uning katolik, protestant va provoslav mazhablari mavjud. Islom dini eramizning VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan. Ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar soni tez o'sib bormoqda. Chunki, musulmon davlatlari dunyoda tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. Uning sunniy va shia mazhablari bor.

Yer yuzi bo'y lab juda katta hududlarda tarqalgan ayrim dinlar jahon dinlari nomini oldilar (odatda ularga buddizm, nasroniylik va islamni kiritadilar). Eramizning 2-mingyilligi boshlarida Old Osiyoda monoteistik din – nasroniylik yuzaga keldi. 1054-yilda u ikki: provoslav va katolik yo'nalishlariga ajraldi. XVI asrda katolik dinidagi islohotlar natijasida undan (Rim papasi hokimiyatini inkor qiluvchi va ilk nasroniylikka qaytishni yoqlovchi) protestantizm ajralib chiqdi. Protestantizm bir qancha mustaqil oqimlar (Eng yiriklari: anglikanlar, lyuteranlik, kalvinizm, reformatlar va b.k.) ko'rinishida shakllandi va o'z navbatida, ular ham mayda bo'lakechalarga bo'linib ketdi. Nasroniylik tarkibida yuqorida qayd etilgan uchta (provoslav, katolik va protestant) asosiy tarmoqdan tashqari yana ikkita nisbatan kam tarqalgan, v asrda shakllanib, diniy marosimlari provoslavlarga yaqin bo'lgan monofizit va nestorian yo'nalishlari mavjud.

BUDDIZM DINI
dunyoviy dintar
orasida eng qadimiyisi bo'lib,
eradan oldingi VII asrlarda SHimoliy Hindiston, O'rta Osiyonning janubiy xalqlari orasida yuzaga kelgan.

XRISTIANLIK DINI – e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra biringchi o'rinda turuvchi ushibu din eramizning I asrida Yaqin-Shaxsda (Falaqinda) yuzaga kelgan.

ISLOM-
dunyoviy dintar
orasida eng yoshi bo'lib, VII asr boshlarida dastlab Arabiston yarim orollida yashovchi Quransiy qabilasi xalqlari orasida yuzaga kelgan.

9.1-rasm. Dunyo dirlari

Boshqa monoteistik din – islom – VII asrda arablar orasida shakllandi. Yangi din oradan ko'p o'tmay uchta: sunniy, shia va xorijiy yo'naliishlariga ajralib ketdi. Sunniylik va shialik o'tasida siyosiy masalalarda ayrim diniy marosimlar va an'analar bo'yicha tafovutlar mavjud. Siyosiy tafovut shundaki, agar sunniylar xalisalik hokimiyatini yoqlasalar, shialar esa imomat tarafidordirlar. Diniy marosimlar va an'analardagi farqlar ham anchagina. Sunniylikda shialikda mavjud bo'lgan "Muta", "Shaxsey-Vaxsey" va boshqa marosimlar yo'q. Sunniylar Makka va Madina shaharlarini muqaddas hisoblasalar, shialar Iroqdagi Karbalo va Najaf shaharlarini muqaddas, deb biladilar.

Sunniylar sunnani butunligicha e'tirof etadilar, shialar esa uning ba'zi qismlarinigina tan olishadi. Bu oqimlar orasida bunday tafovutlar juda ko'p, shu bilan birga, ma'lum o'xshashliklar ham bor. Masalan, mahdiylik – zamona oxir bo'lishi va Mahdiy (arabcha, Olloh tomonidan to'g'ri yo'lga yetaklovchi) kelishi haqidagi diniy ta'limot ikkala oqimda ham mavjud. Xorijiyalar sunniylarga yaqin bo'lib, ular o'z izdoshlariga qattiq talablarni qo'yadilar – zeb-ziynatni qoralaydilar, musiqa va raqsni taqiqlaydilar va h.k.

Alovida dirlarga e'tiqod qiluvchilar soni haqidagi ma'lumotlar birmuncha noaniq va ishonchsiz bo'lishiga qaramasdan har holda ular turli dinlarning ta'sirini baholash imkonini beradi. Nasroniylarning

umumiy soni dunyo bo'yicha – taxminan 1,2 mlrd. dan ortiq bo'lib, shundan katoliklar – 700 mln., protestantlar – 400 mln. va pravoslavlari – 100 mln. kishi atrofida.

Katoliklarning asosiy qismi Amerikada (ular umumiy sonining yarmidan ko'prog'i) to'plangan; Yevropada taxminan 200 mln. kishi, Osiyo va Afrikada – 100 mln. kishidan. Protestantlarning 40 % i Amerikada, 1/3 qismi Yevropada (asosan, qit'aning shimoliy qismida), Afrika va Osiyoda mos ravishda 40 va 70 mln., Avstraliya va Okeaniyada – taxminan 20 mln. kishi. Pravoslavlari va boshqa sharqiy cherkovlar izdoshlari Janubi-Sharqiy Yevropa, Rossiya va Shimoli-Sharqiy Afrika aholisi orasida keng tarqalgan.

Protestantlarning eng yirik guruhlaridan baptistlar – 75 mln., lyuteranlar – 70 mln., anglikanlar – 67 mln., reformatlar va presviterianlar – 52 mln., metodistlar – 43 mln., pyatidesyatniklar – 8 mln., legova guvohlari – 5 mln., "qutqarish armiyasi" izdoshlari – 5 mln., mormonlar – 4 mln., kongregasionalistlar – 3 mln., yettinchi kun adventistlari – 3 mln. kishini tashkil etadi. Sharqiy cherkovlar vakillari orasida – taxminan 20 mln. monofizitlar va 100 ming. kishi nestorianlardan iborat.

Musulmonlar orasida tug'ilishning yuqoriligi tufayli, keyingi yillarda ularning soni nasroniylardan oshib ketdi (1,5 mlrd. kishi atrofida). Ularning taxminan 90 foizi sunniylar, 9,5 foiziga yaqini shialar va 0,5 foizi xorijiylardan iborat. Islomga e'tiqod qiluvchilar, asosan. Shimoliy Afrika va Osiyoda (uning sharqiy qismi bundan mustasno) jamlangan. Boshqa barcha dinlarning izdoshlari – asosan, Osiyo aholisi. Induiстlar taxminan 550 mln., buddistlar – 300 mln. (ular orasida maxayanistlar – 60% atrofida), konfutsiylar – 200 mln., sintoistlar – 100 mln., daosistlar – 30 mln., sikxilar – 15 mln., jaynlar – 4 mln., zoroastrizm tarafдорлari – 300 ming, yazidlar – 100 ming kishiga teng. Iudaistlar 15 mln. kishi atrofida bo'lib, ularning yarmidan ko'prog'i Amerika xalqlari hissasiga to'g'ri keladi. Afrika, Osiyo va Okeaniyada saqlanib qolgan mahalliy dinlarga sig'inuvchilar sonini aniqlash ancha murakkab. Ularni hisoblashda muayyan dinga mansublik haqidagi ma'lumot doim ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, mazkur mintaqalar aholisi statistik jihatdan ham yaxshi o'rganilmagan. Nihoyatda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, mahalliy dinlarga sig'inuvchilar soni dunyo bo'yicha 100 mln. kishi atrofida. Aholi diniy tarkibi haqidagi ma'lumiatiarning noaniqligi

tusayli, turli dinlarga sig'inuvchilar soni bo'yicha o'sish dinamikasini belgilash ancha murakkab. Shunga qaramasdan, musulmonlar va induistlar sonining jadal o'sishi, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'sish sur'atining esa pastligi yoki hatto kamayishi kuzatilmoqda. Buning sababi, induizm va islam hukmron bo'lgan davlatlarda aholi orasida tug'ilish sur'atlarining yuqoriligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, islam Afrikada janubga, uning tropik qismiga tomon jadal siljimoqda. induizm esa Hindiston qabilalari orasida keng tarqalmoqda.

9.2. Dunyo dirlari geografiyasi

Yer shari aholisi diniy belgilari bo'yicha quyidagicha ajratiladi:

- xristianlar – 2,31 mlrd (dunyo aholisining 33 % i);
- musulmonlar – 1,58 mlrd (dunyo aholisining 23 %);
- induizm – 0,95 mlrd (dunyo aholisining 14 % i);
- buddistlar – 0,47 mlrd (dunyo aholisining 6,7 %i);
- an'anaviy xitoy diniga e'tiqod qiluvchilar — 0,46 mlrd (dunyo aholisining 6,6 % i);
- sikxizm – 24 mln (dunyo aholisining 0,3 %i);
- iudaizm – 15 mln (dunyo aholisining 0,2 %i);
- mahalliy dinga e'tiqod qiluvchilar – 0,27 mlrd (dunyo aholisining 3,9 % i);
- diniy e'tiqodi bo'linaganlar – 0,66 mlrd (dunyo aholisining 9,4 %i);
- ateistlar – 0,14 mlrd (dunyo aholisining 2 %i).

Yer sharining yirik mintaqalari bo'yicha diniy guruhlar tarqalishi quyidagi ko'rinishga ega: MDHning katta qismini pravoslav diniga mansub kishilar guruhlari (Rossiyaning katta hududlari, Ukraina, Belorus, Moldova va Gruziya) tashkil etadi. Armanistondagi xudojo'ylar monofizit arman-grigorian cherkoviga mansub, Litvada katolik dini, boshqa Boltiqbo'yи davlatlarida – Iyuteranlik keng tarqalgan.

Islam diniga Markaziy Osiyo va Qozog'iston, Kavkazning katta qismi, Tatariston va Boshqirdiston aholisi e'tiqod qiladi. Ozarbayjonda, asosan, shia oqimiga mansub musulmonlar, boshqa hududlarda – sunniylar ko'pchilikni tashkil etadi. Buddizm-lamaizmga Buryatiya, Tuva va Qalmig'iston tubjoy aholisi e'tiqod

qiladilar. Xudojo'y yahudiylar – iudaistlardir. Yevropa shimalida protestantlik. Skandinaviya davlatlari. Finlandiya va Islandiyada – lyuteranlik. Angliyada – anglikanlik ustunlik qiladi. Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya va Maltada katolik dini tarqalgan. Markaziy Yevropada katoliklar va protestantlar soni deyarli teng, biroq Germaniyada protestantlar orasida lyuteranlar. Shvetsariya va Niderlandiyada esa – reformatlar ustunlik qiladi. Gretsiyada ko'pchilik xudojo'ylar pravoslavlardan, Turkiyaning Yevropa qismida esa – musulmonlardan iborat. Polsha, Chexiya, Slovakiya va Vengriya aholisi orasida katoliklar. Bolgariya va Ruminiyada – pravoslavlар. Germaniyada – protestantlar (asosan, lyuteranlar). Albaniyada – musulmonlar (sunniylar) ko'pchilikni tashkil etadi. Sobiq Jugoslaviya respublikalarida ko'proq pravoslavlар, qisman katoliklar va musulmonlar mavjud. Osiyo aholisi diniy jihatdan nihoyatda xilma-xil. Islom barcha Old Osiyo mamlakatlari (Isroiil, Kipr va Livandan tashqari), Pokiston, Bangladesh, Maldiv orollari, Indoneziya va Malayziyada yetakechilik qiladi. Kipr, Sharqiy Timor, Hindiston, Shri-Lanka, Filippin aholisining muayyan qismi musulmonlardan iborat. Ko'pchilik mamlakatlarda islomning sunniy mazhabi hukimronlik qilsa. Eronda shialikning mavqeい yuqori. Iraq, Yaman Arab Respublikasi va Baxraynda sunniylar va shialar soni deyarli teng. Eron, Hindiston, Pokistonda zoroastriylarning. Eron, Iraq va Turkiyada – yazidlarning kamsonli guruhlari mavjud. Hindiston va Nepal induizm tarqalgan asosiy hududlardir. Induisular Shri-Lanka va Bangladesh hamda Indoneziyaning Bali oroli aholisi orasida ham uchraydi. Hindixitoy mamlakatlari va Shri-Lankada aholining ko'pehiliqi buddistlardan iborat (Vetnamida – maxayana inzhabi, boshqalarda – tixeravada). Shu bilan birga, ayrim Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi maxayana buddizmidan tashqari, bir vaqtning o'zida boshqa dinlarga: junnidan, Xitoyda – konsutsiyalik va daosizinga, Koreyada – konfutsiylikka, Yaponiyada – sintoizmiga ham e'tiqod qiladilar. Mo'g'ulistonning xudojo'y aholisi – lamaist buddistlardir. Osiyoning faqat ikki mamlakati, ya'ni, Filippin (asosan, katoliklar) va Kiprda (pravoslavlар) nasroniylar yetakechilik qiladi. Mazkur dinga sig'inuvechilar Livan aholisi yarmidan ozrog'ini tashkil etadi (maronitlar). Osiyoda qabilaviy ibodat izdoshlari soni izchil kamayib

borinoqda. Hozirgi paytda ular faqat Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning borish qiyin bo'lgan tog'li o'lkalaridagina saqlanib qolgan.

9.1-jadval

Dinlar geografiyasining asosiy ko'rsatkichlari¹

Dinlar	E'tiqod qiluvchilariniн soni (mln.k)	Mintaqalar va davlatlar
Xristianlik shu jumladan	1259dan ortiq	Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya, Belgiya, Irlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, AQSH, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Kipr, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Katoliklik	800	
Protestantlik	350	Shimoliy Yevropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsariya, Latviya, Estoniya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Pravoslavlik	100	Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasi, Gretsiiya, Kipr
Islam shu jumladan	1000dan ortiq	Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari (Eron, Ozarbayjondan tashqari). Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Afrika mamlakatlari. Pokiston, Afg'oniston, Bangladesh, Malayziya, Indoneziya, Hindiston, Xitoy, Filippin
Sunnyilik	900dan ortiq	
Shialik	100ga yaqin	Eron, Ozarbayjon, Iraq, Yaman
Buddizm va lanauizm	400dan ortiq	Xitoy, Mo'g'iliston, Yaponiya, Myanma, Tailand, Vietnam, Kambodja, Laos, Malayziya, Shri-Lanka, Koreya, Rossiya
Induizm	520	Hindiston, Nepal, Shri-Lanka
Konfutsiachilik	180	Xitoy
Sintoizm Mahalliy an'anaviy dinlar	70	Yaponiya G'arbiy, Markaziy, Sharqiy, Janubiy Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika, Okeaniya, Indoneziya

¹ Материалы: Коновалов В.А. География населения. Учебное пособие. - М., 1999.

Afrikaning barcha arab davlatlarida, Somali va Jibutida islomning sunniy mazhabi hukmronlik qiladi. Sahroi Kabirdan janubda joylashgan bir qator mamlakatlarda (Sudan, Chad, Niger, Yuqori Volta, Mali, Senegal, Gambiya, Gvineya, Gvineya-Bisau, Syerra-Leone, Liberiya) musulmonlardan tashqari, mahalliy dirlarga sig'inuvchi muayyan guruuhlar saqlanib qolgan. Esiopiya aholisining 2/3 qismi nasroniylikning monosifit mazhabiga mansub. Nigeriyada musulmonlar, asosan, mamlakat shimalida joylashgan bo'lib, aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu yerda nasroniyalar va mahalliy dirlarga sig'inuvchi guruuhlar ham mavjud.

Qit'oning boshqa mamlakatlarida nasroniyalar (protestantlar va katoliklar) hamda mahalliy dirlarga sig'inuvchi guruuhlar turlicha nisbatda taqsimlangan. Umuman Yer sharida saqlanib qolning mahalliy dirlarga sig'inuvchilarining deyarli 80 foizi Afrikada jamlangan. Deyarli barcha Amerika mamlakatlarida nasroniylik boshqa dinlardan ustunlik qiladi. AQSH va Kanadada protestantlar ko'p bo'lib, ular o'z navbatida, xilma-xil diniy oqim va sektalarga bo'linib ketganlar. Janubiy va Markaziy Amerika aholisining ko'pchiligi – katoliklar. Vest-Indianing bir orolida son jihatdan katoliklar ustun bo'lsalar, boshqasida – protestantlar. Kuba, Gayana, Surinam hamda Trinidad va Tobagoda katolik va protestantlardan tashqari, induistlar va musulmonlarning ma'lum guruhlari joylashgan. Janubiy Amerikaning ichki hududlaridagi hindu qabilalari mahalliy dirlarga sig'inadilar. Avstraliya va Okeaniyada xudojo'ylarning katta qismini turli oqim va sektalarga bo'lingan protestantlar, ozroq qismini esa katoliklar tashkil etadi. Yangi Kaledoniya, Guame hamda Uollis va Futun orollarida katoliklar protestantlarga nisbatan ko'proq. Fidjida nasroniyalar bilan bir qatorda induistlar va musulmonlar mavjud. Mahalliy dirlarning tarafdarlari, asosan, Vanuatu, Papua-Yangi Gvineya va Avstraliya tubjoy aholisi orasida saqlanib qolgan.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholining diniy tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Islom dinining paydo bo'lishi tarixi qanday?
3. Aholi diniy tarkibining qanday bosqichlarini bilasiz?
4. VI-V asrlarda Xitoyda bir vaqtida ikki qanday falsafiy-axloqiy ta'limot – yuzaga keldi?

5. Dastlabki dinlar qaysi hududlarda shakllangan?
6. Sikxizm qanday din?
7. Iudaizm tarqalgan hududlar qaysilar?
8. *Etnodiniy* metaetnik birliklar deb nimaga aytildi?
9. Lamaist buddistlar kimlar?
10. Mahalliy dingga e'tiqod qiluvchilar xususiyatlari qanday?

10-MAVZU. AHOLINING IJTIMOIJ TARKIBI. AHOLO BANDLIGI VA MEHNAT RESURSLARI

Reja:

- 10.1. Ijtimoiy tarkib va ijtimoiy stratifikasiya.
- 10.2. Mehnat resurslari – aholi tarkibi sifatida.
- 10.3. Mehnat resurslari balansi va uni hisoblash yo'llari.
- 10.4. Yer shari aholisi bandligi va mehnat resurslari taqsimlanishi.

10.1. Ijtimoiy tarkib va ijtimoiy stratifikatsiya

Aholi ijtimoiy tarkibi – jamiyat hayotiga taalluqli umumiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir-biriga bog'liq ijtimoiy jamoalar majmuasidir. Katta barqaror ijtimoiy jamiyatlar, tuzilmalarga - sind (sinflar, ijtimoiy qatlamlar va guruuhlar), demografik (yoshlar, ayollar, qariyalar), etnik (qabilalar, etnik guruuhlar, millatlar) va boshqalar kiradi. Jamiyatning barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy sind tuzilmasi (uni bundan keyin tahlil qilamiz) rivojlanish jarayonida tobora murakkablashadi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun olimlar ko'plab mezon va yondashuvlarni ishlab chiqdilar. Sinf nazariyasi va ijtimoiy tabaqalash nazariyasi eng mashhur nazariyalardan bo'ldi.

M. Veber va uning izdoshlari buning teskarisini aytishadi: agar biz bir xil bo'lmasak, bu har bir narsada teng emasligimizni anglatmaydi; uch o'lchovli mutlaqo bir xil emas: ular bir-biriga tushirilmaydi va ularning hech biri qat'iy emas. Barcha kombinatsiyalar mumkin: boy bo'lish, ammo nufuzi va haqiqiy bilimi kuchsiz (masalan, "yangi o'zbeklar"); hokimiyatga ega bo'lish, ammo chindan ham boy bo'lmasslik (hukmron demokratlar); muayyan hurmatga loyiq, ammo kambag'al va kuchsiz (ziyolilar) bo'lish.

Stratifikatsiya har doim uch o'lbhamli buladi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, sovet hokimiyatining keyingi yillardagi ijtimoiy tuzilmasi sxemasi to'liq kollektivlashtirish va qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining asosiy o'sishidan so'ng quyidagicha bo'ldi (1989-yil): ishchilar – 58,8 %, kollektiv fermerlar – 11,7 %, shaxsiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanadiganlar – 0,2 %. Shu bilan birga, ijtimoiy strukturaning ushbu soddalashtirilgan sxemasi vaziyatni to'liq aks ettirmadi va mutaxassislar sintetik yondashishga asoslangan holda, sovet jamiyatidagi qator ijtimoiy guruhlarni, masalan, o'z tabiatida (partiya, davlat, iqtisodiy) farqli bo'lgan vertikal kuch guruhlari, shuningdek, ushbu quvvatning hajmi (yuqori, o'rta va past darajadagi); (masalan, muhandislar va ijodkorlar) turli xil intellektual guruhlar va boshqalar.

Zamonaviy olimlarning fikriga ko'ra, odamlarning daromadlar darajasiga qarab sinfga mansubligi va ularning ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish munosabati bilan (va shuning uchun, uning mahsulotlarida) zamonaviy jamiyat tuzilmasida ijtimoiy kuchlarning muvozanatini aniq aks ettirmaydi. Jamiyatda o'zgarishlarni qayd qilish uchun mobil va to'g'ri tizimdan foydalanish zarurati mavjud. Bu ijtimoiy tabaqaqlash tizimi bo'lib, unda boylik, obro'-e'tibor va kuch kombinatsiyalari asosida bir nechta mezon (kasb, daromad, ta'lim va hokazo.) qabul qilinadi.

Ijtimoiy o'zgarish dinamikasini o'rganayotganda, tabaqaqlash nazariyasi tarafdarlari ko'pincha vertikal va gorizontal tabaqaqlashning formulasidan foydalanadilar, chunki ularning fikricha, uning hayotida bir kishi bir ijtimoiy darajadan ikkinchisiga ko'chib o'tishi (ko'tarilishi yoki tushishi) mumkin. Yoki taxminan bir xil darajada qolgan bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga o'tish.

Insonning oltita darajali vertikal tabaqaqlanishida mumkin bo'lgan harakatini ko'rib chiqing: 1) mutaxassislarning eng yuqori qatlami, ma'muriy qatlami; 2) past darajadagi rahbarlar, tijorat sinflari; 3) kichik burjua; 4) boshqaruvchi vazifalarni bajaratigan texnik xodimlar, ishchilar va xodimlar; 5) malakali ishchilar; 6) malakasiz ishchilar, dehqonlar, xodimlar. Misol uchun, malakali ishchi oilasidan bo'lgan kishi yetarli mablag' to'play oladilar. Vertikal tabaqaqlanish bo'ylab kichik burjuaziya qatlamiga ko'tarildi (burjua ish haqidan foydalangan holda ishlab chiqarish vositalarining egasi). Kelajakda kaseteryani sotishdan tushadigan daromad va pul mablag'lari hisobiga

u fermani sotib olib, shahar farovonligining ijtimoiy guruhidan qishloqqa ko'chib o'tdi, lekin o'sha kishi ijtimoiy harakatlar uchun imkoniyatni topa olmadi va otasi unga tegishli bo'lgan bir xil ijtimoiy guruhda tura olmadi.

Bizning jamiyatimizda, hatto bir necha yillar davomida bozor iqtisodiyotiga o'tishdan keyin, sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning ijtimoiy tarkibining yagona ilmiy asoslangan sxemasini ishlab chiqmaganlar. Agar ilgari olimlarning fikriga ko'ra, ishchilar va nomenklatura o'rtaсидagi ziddiyat hokimiyyat va mulkni ajratmasdan ustun bo'lsa, endi biz beshta asosiy ijtimoiy guruhnini ajratib olishimiz mumkin:

a) ma'muriy elita (yangi siyosiy elita bilan bog'liq bo'lgan eski partiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tizimidan iborat);

b) ko'nikma, malaka va boshqa xususiyatlarga ko'ra ijtimoiy guruhlarga bo'lingan ishchi sinfi;

v) bir qator ijtimoiy guruhlar o'rtaсиda farqlanadigan ziyo'lilar: shifokorlar, o'qituvchilar, tarjimonlar, adabiyotshunoslar, professional harbiylar va boshqalar;

d) "yangi burjua" - barcha turdagи tadbirkorlar, bankirlar va boshqalar;

e) dehqonlar.

Bu allaqachon ijtimoiy tabaqlanishdir, biroq u hali ham sobiq Marksistlarning sinflar haqidagi g'oyalariga tayanadi, ular ichida aniq ijtimoiy guruhlarni aniqlamaydi. Misol uchun, ikki ijtimoiy guruh - bu qishloq xo'jaligi - ijtimoiy lashgan (kooperativ) va xususiy (dehqon) qishloq ahli o'rtaсиda aniq ajralib turadi; ishehilar ijtimoiy korxonalar va xususiy firmalar ishchilariga bo'linadi - bular va boshqalar o'z ijtimoiy mansaатlariga ega; "Yangi burjuaziyadan" ko'cha sotuvchilari, firma va banklarning egalari va moliyaviy firibgarlar bor; "noaniq elementlar" guruhi umuman yo'q - uysizlar professional jinoyatichilarga qadar. Hozirgi paytda ijtimoiy jamiyatlardagi ijtimoiy tasniflash bo'yicha katta taddiqotlar ijtimoiy jarayonlar tufayli qiyin kechmoqda. Siyosiy tizimlar, ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlarning uzoq muddatli evolyutsiyasi natijasida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatni shakllanmoqda.

Fuqarolik jamiyat shaxslar va aholining ayrim guruhlari uchun davlat aralashuvlari mustaqil qaror qabul qilish va ozod bo'lish uchun huquqiy va haqiqiy imkoniyatni nazarda tutadi. XIX asrning birinchi

choragida fuqarolik jamiyatni muammolarini nazariy o'rganish birinchi marta nemis faylasufi Gegel tomonidan amalga oshirildi. G'arb mamlakatlarda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda harakatlantiruvchi kuchning rolini davlat tashkilotlarining mustaqil jamoat tashkilotlari (partiyalar, harakatlar, mustaqil matbuot, kasaba uyushmalari, xo'jalik birlashmalari, diniy jamoalar) foydasiga qisqartirishi "uchinch darajali" yoki o'rta sinf tomonidan bajarish ishlari amalga oshirildi.

Sobiq sovet davrida fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonini to'xtatib, iqtisodiyotning, madaniyatning va ijtimoiy sohaning davlat boshqaruvi va mulkdorligini mustahkamlashga qaratildi. Bunday qattiq nazorat ostida e'lon qilingan asosiy huquq va erkinliklar faqat deklaratsiya darajasida saqlanib qoldi. Fuqarolik jamiyatining konsepsiysi o'nlab yillar mobaynida matbuot sahisalari va ilmiy matbuotdan g'oyib bo'ldi.

Jahon hamjamiyati aholining uchta ijtimoiy tarkibni biladi.

L) O'rta sinfnинг kuchli guruhi tomonidan qo'llab-quvvatlangan jamiyatining demokratik bozor modeli. Unda ijtimoiy qatlamlarni taqsimlash sxemasi rivojlangan markaziy qism (o'rta qatlamlar), eng yuqori sinf (mulk va boshqaruv elitis) va eng kambag'al qatlamlarning guruhlari nisbatan past bo'lgan quti shaklida tasvirlangan. O'rta sinf Amerika Qo'shma Shtatlari aholisining 65%, Fransiya aholisining 60% va Yaponiyaning 70% aholisini tashkil etadi.

G'arbning rivojlangan mamlakatlarda yollangan mehnat va shaxsiy mehnat faoliyati aholi umumiylar sonining 80 foizidan ortig'i yashash uchun manba hisoblanadi. Ishchilar sonining oshishi bilan bir vaqtida sanoat ishchi sinfnining soni kamaymoqda. Proletaryatning ilgari mavjud bo'lgan (klassik) shakldagi sinfi deyarli bozir mavjud emas. Fuqarolik jamiyatida yollanma ishchilar, xodimlar yuqori malakali va yaxshi ta'minlangan bo'lib ularning aksariyati, ko'p qismi jamiyatning o'rta va muvaffaqiyatli, ta'minlangan qatlamiga mansub kishilardir.

Odamlar orasida professional darajada yuqori malakali aqliy ish bilan shug'ullanadigan ziyolilarning ahamiyat, roli, obro'si ortib bormoqda. Ular yollangan ishchilar qatoriga kiradi va aholining o'rta qatlamlariga tegishli, ammo ular ijtimoiy tarkibida alohida o'rin tutadi - jamiyatning intellektual, ziyoli qatlamin shakllantiradilar.

B) kam rivojlangan jamiyatning bozor modeliga asoslangan ijtimoiy tarkibi modeli kambag' al qatlamlarni nazarda tutadigan keng poydevorga ega uchburchak shakliga ega.

S) sobiq sotsialistik jamiyatlarning tabaqalanishi modeli juda "kengaygan" uchburechakka o'xhash, "ishlaydigan odamlar" qatlami tomonidan ishg'ol qilingan va "hokimiyat xalqi" bo'lgan "bo'lingan piramida"ga o'xshaydi.

Mamlakatni o'zgartirish, iqtisodiy islohotlar, mulkchilik shakllarinig ko'paytirilishi zaruriylikka olib kelishi kerak. Aholi ijtimoiy strukturasidagi o'zgarishlar: ayrimlarning yo'q ho'lib ketishi va boshqa ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning paydo bo'lisi, XX asrda paydo bo'lgan fuqarolik jamiyatni shakllanishi huquqiy davlat sifatida tushunilgan.

Rossiyada o'rta sinf haqiqiy sotsializm jamiyatining chirigan strukturasing turli elementlaridan iborat:

- 1) tadbirkorlar, menejerlar; *
- 2) yuqori malakali mutaxassislar;
- 3) yuqori malakali ishchilar;
- 4) samarali dehqonlar, fermerlar.

Agar rivojlanish jarayoni g'arb jamiyatlari bilan taqqoslansa (garchi, o'z xususiyatiga ega bo'lsa-da), iqtisodiy tuzilishidagi o'zgarish natijasida o'rta sinf tobora eski ijtimoiy qatlamlarni va sinflarni o'zashtiradi va hal qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi. demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. "O'rta sinf"ning davlat ustuniga aylanishi uchun ancha vaqt talab etiladi. Xususiylashtirish va boshqaruvni markazsizlashishning eng aniq natijalaridan biri jamiyatda mulkdorlar va kapital egalarining ijtimoiy qatlamini shakllantirishdir. Ushbu qatlama vositachilik operatsiyalariga boy bo'lgan tuijor burjuaziysi mavjud; davlat va partiya byurokratiyasining imtiyozli qismi, uning foydasiga davlat mulkinining kaita qismini xususiylashtirish: yerga va ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlarni o'z ichiga olgan fermerlar. Turli xil ma'lumotlarga ko'ra, ushbu guruhlarning aholi ichidagi ulushi oshmaydi. Burjua ijtimoiy guruhining paydo bo'lisi jamiyatni kambag'allarga va boylarga tabaqalash jarayoniga yangi turtki berdi. Aholining muhim qismi qashshoqlik chegarasidan past holda yashaydi. Iqtisodiyotda "shok terapiysi" aholining kam ta'minlangan qatlamlari orasida eng og'ir ahvolga tushib qolgan, bularga,

nasaqaxo'rlar, nogironlar, talabalar, ishsizlar, shuningdek, davlat sektoridagi mutaxassislar kirdi. Ijtimoiy farqlashning oshishi turli sabablarga ko'ra hayotdan tashqarida qolgan va o'zlarining sobiq ijtimoiy mavqeini tiklash imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxslarni o'z ichiga olgan maxfiy marginallar qatlami jamiyatining o'sishiga olib keldi. G'arb mamlakatlarida marginallar rivojlanayotgan mamlakatlar vakillari bo'lib, milliy ozehilikni tashkil etadi, bizda ular qochoqlar, pensiya yoshiga yetmaganlar va muayyan yashash joyi bo'lмаган одамлардир.

10.2. Mehnat resurslari – aholi tarkibi sifatida

Mehnat resurslari "aholi" va "umumi mehnat" iqtisodiy kategoriyalari o'rtaida oraliq mavqega ega bo'lgan toifadir. Nomoddiy jihatda, barcha mehnatga layoqatli aholi mehnat bozorida, ijtimoiy iqtisodiyot va shaxsiy mehnat faoliyatidagi yoshdan qat'iy nazar, bandlikda ishlaydi. Ular, shuningdek, mehnatga qobiliyatli bo'lgan, ammo uyda va shaxsiy dehqonchilikda ishlaydigan, ishlab chiqarishdan ajralib, harbiy xizmatda ishlaydigan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarni ham o'z ichiga oladi.

Mehnat resurslari mamlakat aholisining bir qismi bo'lib, ularning jismoniy rivojlanishi, aqliy qobiliyatları va bilimlari, xalq xo'jaligida ishlashga qodir, haqiqatan ham, "mehnat resurslari" tushunchasi, ishlashga majbur bo'lishi mumkin bo'lgan, ya'ni jismonan ishlay oladigan odamlarning sonidir. Ishga qobiliyatli aholi, asosan, mehnatga layoqatli yoshdag'i, ularning psixofizik ma'lumotlari bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishga qodir bo'lgan shaxslar yig'indisidir. Mehnat resurslarining soni ikki toifadagi kishilarni qamrab oladi. Birinchisi, mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga layoqatli aholi. Ikkinchisi – mehnatga layoqatli yoshdan tashqari ishlaydigan aholi.

Mehnat resurslarida yetakchi o'rinni mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga layoqatli aholi egallaydi. Mehnatga layoqatli yoshdag'i, mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun psixofiziolojik ma'lumotlarga ega bo'lgan kishilarning yig'indisidir. Amalda ular umumiylar va kasbiy mehnat qobiliyatini farqlaydilar. Ishlashning umumiylar qobiliyatini jismoniy, psixofiziolojik, yoshga oid ma'lumotlar bilan ishlaydigan va maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan

shaxsnинг mavjudligini taxmin qiladi. Kasbiy mehnat qobiliyati - bu alohida mashg'ulotlari jarayonida olingan ma'lum bir ish uchun qobiliyatdir. Mehnat resurslari mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar bilan o'lehanadigan ma'lum miqdoriy, sifatliy va tizimli xususiyatlarga ega, ya'ni:

- xodimlarning o'rtacha va o'rtacha yillik soni;

- kadrlar aylanmasi ko'eftitsienti;

- oliy va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlarning umumiyligi sonidagi ulushi;

- xodimlarning muayyan toifalari bo'yicha o'rtacha xizmat muddati;

- muayyan toifadagi ishechilarining umumiyligi sonidagi ulushi.

Mehnat resurslating asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri ularning jinsi va yoshlik tarkibi hisoblanadi.

Adabiyotlarda yosh guruhlarini ajratish borasida bir-biridan farqli yondashuvlar qo'llaniladi. Shunday qilib, eng ko'p ishlataladigan bunday yondashuvlar, mehnatga layoqatli yoshdagি mehnatkashlar, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar. Statistik to'plamlar odatda ikki guruhli tasniflardan foydalanadi: mehnatga layoqatli yosh va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar.

Bozor munosabatlaring rivojlanishi ayrimi nazariy tushunchalar mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. "mehnat resurslari", "ish kuchi" kabilarni shunday tushunchalar jumlasiga kiritish mumkin. "Mehnat resurslari" atamasini dastlab akademik S.G.Strimulin o'zining 1922-yili chop etilgan maqolalaridan birida qo'llagan. Uzoq yillar mobaynida undan mamlakat inson resurslarini boshqarish va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanildi. Sobiq Ittifoq davrida har bir mehnatga layoqatli fuqaroning uzrsiz sabab bilan uzoq muddat ishlamay yurishi qonuniy ta'qib ostiga olingan.

Mehnatga layoqatli aholi - mehnat resurslarini tashkil etib, u tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda qat'iy statistik hisobga olinishi iqtisodiyotni markazlashgan usulda rejalashtirishning muhim elementlaridan biri edi. Mehnat resurslari aholining o'z ruhiy fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatlari

shaxslar, jumladan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar ham kiritiladi. Demak, mehnat resurslari *haqiqiy* (*real*) va *potensial* xodimlardir. Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasida ham Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o'tildi, unga ko'ra aholini tizimiylashtirishda mamlakat mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nosaol qisimlarga ajratiladigan bo'ldi.

Mehnat resurslarining tarkibi quyidagicha:

– *mehnat yoshidagi mehnaiga qobiliyatli aholi*. O'zbekistonda mehnat yoshining quyi chegarasi 16 yosh bo'lib, yuqori chegara yosh bo'yicha pensiya olish huquqi bilan belgilangan. Bu erkaklar uchun 60 yoshni va ayollar uchun 55 yoshni tashkil etadi. Biroq, unga I va II guruh ishlaymayotgan nogironlar, yoshi bo'yicha imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan fuqarolar kirmaydi.

– *mehnat yoshidan o'tgan bo'lsa-da ishlayotgan shaxslar va yosh bo'lsa ham ishlayotgan o'smirlar*.

Mehnat resurslari balansini tuzishda ish bilan band aholining barcha toifalarini to'liq qamrab olish muhim ahamiyatga ega. Yollanib ishlaydiganlar ham, yollanmasdan ishlaydiganlar ham ishning doimiyligi, vaqtinchaligi, mavsumiyligi, tasodifiyligi yoki bir martalik bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiyotda ish bilan band deb hisoblanadi.

Yollanib ishlaydiganlar – band aholining eng ko'p sonli guruhi bo'lib, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxona (tashkilot, muassasa) rahbari yoki alohida shaxs bilan pul yoki natura holida haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og'zaki bitim tuzgan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Yollanmasdan ishlaydiganlar – 1) individual asosda, doimiy yollanma xodimlardan foydalanmasdan mustaqil ishlaydigan shaxslarni; 2) ish beruvchilarni, shu jumladan fyerner va dehqon xo'jaliklari boshliqlarini; 3) oilaviy korxonalarining haq olmaydigan xodimlarini; 4) jamoa mulkdorlar (kooperativlar, shirkatlar kabi) a'zolarini birlashtiradi.

Tarixdan ma'lumki, mehnatga layoqatli yosh chegarasi ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra huquqiy asosda o'zgarib turgan. Chunonchi, 1929-1933-yillarda 14 yosh – mehnatga layoqatli yoshning quyi chegarasi bo'lgan, 1937-yilga kelib, u 15 yoshgacha ko'tarildi. Urush yillarida ushbu yosh chegarasi yana 14 yoshga tushdi, urushdan keyin u 16 yoshga ko'tarildi va hozirgacha amal qilib

kelmoqda. Hozirgi vaqtida "mehnatga layoqatli yosh"ning yuqori chegarasi erkaklar uchun 59 yosh va ayollar uchun 54 yosh hisoblanadi. Erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga yetgandan so'ng ular pensiya olish huquqiga ega.

Biroq bu qoidada ham istisno bor. Organizmga yuksak ruhiy fiziologik bosimlar bilan bog'liq kasb faoliyatining ayrim turlari uchun pensiya chizig'i 5-10 yilga, ba'zan undan ham ko'proq qisqaradi. Bunda imtiyozli shartlarda qarilik pensiyasi tizimi amal qiladi.

Ayollar uchun pensiya yosh chegarasi erkaklarnikidan pastroq bo'lsa-da, erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi ayollarga nisbatan sezilarli ravishda kamroqdir.

Iqtisodiyotda hozirgi paytda "mehnat resurslari" tushunchasi bilan bir qatorda «ishchi kuchi» atamasi ham ko'p qo'llanilmoqda.

Ishchi kuchi – mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar majmuasi bo'lib. xorijiy adabiyotlarda u ko'pincha "iqtisodiy faol aholi" tushunchasining sinonimi sifatida qo'llaniladi. "Ishchi kuchi" atamasi ko'p hollarda uch ma'noni anglatadi:

- organizm, tirik inson shaxsi ega bo'lgan va har safar u qandaydir iste'mol qiymatini yaratish chog'ida ishga soladigan jismoniy va ma'naviy qibiliyatlar majmui sifatida;

- aholining ish bilan band bo'lgan yoki ish izlayotgan qismi – iqtisodiy faol aholining sinonimi sifatida;

- umuman ishlovchilar yoki muayyan bir korxona ishchilari (kundalik turmushda odatda shunday foydalaniladigan tushuncha) sifatida.

Shunday qilib, mehnat resurslari tushunchasiga iqtisodiyotda ish bilan band bo'lgan xodimlar; band bo'lmasa-da, mehnat qibiliyatiga ega bo'lgan odamlar, ya'ni haqiqiy hamda potensial xodimlar kiritiladi. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga qobiliyatli fuqarolar hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichikroq fuqarolar (ishlaydigan o'smirlar) va mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq yoshdag'i fuqarolar (ishlaydigan pensionerlar)dan iborat bo'ladi. Ish bilan band aholini va ish izlayotgan ishsizlarni anglatadigan "iqtisodiy faol aholi" – mehnat

resurslari haqidagi tasavvurlarni aks ettiradigan yana bir boshqa tushunchadir. Bu tushuneha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda anchadan buyon ishlatalilib kelinmoqda.

Xalqaro andozalarga muvofiq, "iqtisodiy faol aholi" tushunehasi BMT milliy hisob varaqalar va balanslar tizimlariga kiritilgan tovarlar va xizmatlar, ishlab chiqarish uchun muayyan vaqt mobaynida o'z mehnatini taklif etadigan har ikki jinsga mansub shaxslarni o'z ichiga oladi. Bu tushunchani aniqlaydigan ikkita ko'rsatkich mavjud: odatda "faol aholi" deb uzoq davom etadigan vaqtiga, masalan, yilga tatbiqan; "hozirgi paytda faol aholi" deb qisqa vaqt bo'lagiga, masalan, hafsta yoki kunga nisbatan aytildi.

Iqtisodiy faol bo'lмаган aholi toifasiga o'quv yurtlarida kunduzi o'qiydigan o'quvchilar, talabalar, kursantlar; pensiya oluvchi shaxslar; uy xo'jaligi bilan shug'ullanuvechilar; ish qidirmay qo'ygan shaxslar; ishslashga zaruriyati bo'lмаган shaxslar kiritiladi.

Ko'rinish turibdiki, "mehnat resurslari" va "iqtisodiy faol aholi" atamalari bir-biridan farq qiladi. "Iqtisodiy faol aholi" tushunehasi "mehnat resurslari" tushunchasidan o'z maznuni bo'yicha torroqdir.

10.3. Mehnat resurslari balansi va uni hisoblash yo'llari

Mehnat resurslarini shakllantirish va taqsimlashning ishga joylashish borasidagi real ehtiyojni aniqlash imkonini beruvchi balans usulidan foydalanib, aholi bandligini hisobga olishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31-yanvardagi 42-sonli "Ahholining ish bilan bandligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bu Qarorda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida mehnat resurslari balansini tuzish hamda ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash uslubiyatini o'rgatish nazarda tutilgan.

Mehnat resurslari balansi

Ko'rsatkichlar	Jami	Shahar	Qishloq
I. Hamma mehnat resurslari			
Shu jumladan:			
Mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatlari aholi			
Ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar			
II. Mehnat resurslarining taqsimlanishi			
II.1. Iqtisodiy faoliy aholi			
Shu jumladan:			
1. Ish bilan bandlar			
Shularidan:			
Rasmiy sektorda			
Norasmiy sektorda			
2. Ish bilan band bo'lmagan, ishgu joylashishga muhtoj shaxslar			
Shularidan:			
Rasman ro'yxatdan o'tgan ishchilar			
Mehnat organlarida ish izlayotgan sifatida hisobda turuvchilar			
Mehnat organlarida ro'yxatdan o'tmasdan mustaqil ravishda ish qidirayotganlar			
II.2. Iqtisodiy nofaoliy aholi			
Shu jumladan:			
Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan shaxslar			
Yoshi bo'yicha imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan shaxslar, nogironlar			
Ko'p bolalii onalar, bolasi 3 yoshga to'lgunga qadar parvarish qilib ishlamayotgan ayollar			
Ixtiyoriy ravishda ishlamayotgan va ishslashni xohlasmaydigan boshqa shaxslar. Shu jumladan uy mehnati			
Izoh: 1- va 2- guruh nogironlar			

Axborot olish manbai:

$E_{(16-60)}$, A₍₁₆₋₅₅₎ – aholining jins va yosh tarkibi bo'yicha statistika ma'lumotlari;

Nog – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining mehnat yoshidagi nogironlar soni hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan pensionerlar to'g'risidagi ma'lumotlari;

IO'P – korxonalarning 16 yoshga to'Imagan ishlayotgan o'smirlar va pensionyerlar haqidagi statistika hisobotlari.

Iqtisodiy faol aholi soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IF = IB + II,$$

bunda: IF – iqtisodiy faol aholi qismi;

IB – ish bilan bandlar;

II – ish bilan band bo'Imagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar.

Hisobot davrida ish bilan bandlar soni quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$IB = Ir + Idx + Inr$$

bunda: Ir – iqtisodiyot rasmiy sektorida (korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda) ish bilan band bo'lganlar.

Idx – dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar.

Inr – iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lganlar.

Axborot olish manbai:

Ir – korxonalar va tashkilotlarning mehnat bo'yicha statistika hisobotlari, soliq organlarining ma'lumotlari;

Idx – statistika organlarining hisob-kitoblari va ishchi kuchini tekshirib chiqish ma'lumotlari;

Inr – ishchi kuchini tekshirib chiqish ma'lumotlari.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lganlarni aniqlash. Iqtisodiyot norasmiy sektorida ish bilan band bo'lganlar jumlasiga rasmiy statistikada hisobga olinmagan, doimiy, vaqtinchalik, bir martalik va mavsumiy ishlarni yollanib bajaradigan, shu jumladan, mazkur ishlarni amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga chiqib ketadigan shaxslar, o'z biznesini yuritadigan, sheriklar bilan yollanmasdan ishlayotgan shaxslar, ta'qilannmagan, lekin, ro'yxatga olinmagan faoliyatdan daromad topadigan (masalan, chorva mol boqish, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanish, xususiy

tarzda odam tashish va boshqa faoliyat turlari bilan band bo'lgan) shaxslar kiradi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lgan aholi sonini ishchi kuchini tanlab tekshirish ma'lumotlari asosida aniqlash uchun:

A) Iqtisodiyotning norasmiy sektorida tegishli faoliyat turlari bilan Shug'ullanayotgan shaxslar sonining so'rab chiqilgan mehnat yoshidagilar sonidagi salmog'i quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$SS_i = SM_i : SM \cdot 100,$$

bunda: SS_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning konkret (i) turi bilan Shug'ullanuvchi so'rab chiqilganlarning salmog'i;

SM_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida konkret (i) faoliyat turi bilan Shug'ullanuvchi so'rab chiqilganlar miqdori;

SM – mehnat yoshidagi so'rab chiqilganlar miqdori, jami.

B) Olingan salmoqlar bo'yicha iqtisodiyotning norasmiy sektorida konkret faoliyat turi bilan band bo'lgan aholi soni quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

$$NRB_i = MYOT \cdot SS_i : 100,$$

bunda: NRB_i – iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning konkret (i) turi bilan band bo'lganlar soni;

$MYOT$ – mehnat yoshidagi aholi soni.

MYOT bo'yicha axborot manbai – ahollining jins va yosh tarkibi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari

V) Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lganlar umumiyligi sonini aniqlash uchun faoliyatning har bir konkret turi bo'yicha NRB haqidagi ma'lumotlar qo'shiladi:

$$NRB = \frac{NRB_i}{\sum NRB_i},$$

bunda: NRB – norasmiy sektorda ish bilan band bo'lganlar soni.

Mehnat resurslari balansida ish bilan band aholi soni amaldagi milliy tasniflagichlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari (iqtisodiy faoliyat turlari) bo'yicha taqsimlanadi va bunda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- Sanoat.
- Qishloq xo'jaligi.
- Qurilish.

- Transport va aloqa.
- Savdo va umumiy ovqatlanish.
- Moddiy-texnikaviy ta'minot, sotish va tayyorlash.
- Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari.
- Uy-joy kommunal xo'jaligi va maishiy xizmat ko'rsatish.
- Ta'lim, fan, madaniyat, san'at.
- Noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlari.

Bunday qilish aholining iqtisodiy faoliyat darajalarini, mehnat resurslarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilish va baho'lash imkonini beradi. Bu esa ish bilan bandlikni davlat tomonidan tartibga solish choralarini ko'rish uchun zarurdir.

Iqtisodiy nofaol aholi. Mehnat resurslarining balansini tuzish vaqtida iqtisodiy nofaol aholining soni hamma vaqt mehnat resurslari soni bilan iqtisodiy faol aholi soni o'ttasidagi farqdan iborat bo'ladi:

$$\text{INA} = \text{MR} - \text{IF}.$$

bunda: INA – iqtisodiy nofaol aholi;

MR – mehnat resurslari soni;

IF -- mehnat resurslarining iqtisodiy faol qismi.

Mehnat resurslari balansi ma'lumotlari turli tahliliy maqsadlar uchun, masalan, mehnat resurslarining shakllanish omillarini, ularning ish bilan bandligini va ishsizlikni aniqlash, shuningdek, mehnat bozorining ahvoli va ish bilan bandlik sohasidagi vaziyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylashishi haqida jamoatchilikka axborot berish uchun xizmat qilishi mumkin.

10.4. Yer shari aholisi bandligi va mehnat resurslari taqsimlanishi

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligidan farqli o'laroq, xalqaro statistikada mehnatiga layoqatli aholining yosh chegarasi 16-64 yosh qilib belgilangan. Bu yoshdagi kishilar guruhi yer shari aholisining 2/3 qismiga yaqinini tashkil etadi. Biroq, dunyoning turli mintaqalarida ushbu ko'rsatkich o'zarो farq qiladi. 10.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, bu sohadagi eng quyi ko'rsatkichlar Afrika mintaqalariga tegishli (Shimoliy Afrika bundan mustasno).

Agar bu jarayonlar alohida, mamlakatlar misolida o'rganilsa, ko'rsatkichlar yanada pastroq ekanini guvohi bo'lamiz. Xususan, Burkina-Faso, Malavi, Zambiya, Chad, Uganda, Niger kabi

davlatlarda mehnat resurslari salmog'i jami aholining yarmidan ham kamrog'ini tashkil etadi. Buning sababi, mazkur mamlakatlarda aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi va kuchli "demografik portlash" jarayoni ro'y berayotganligi bilan bog'liq.

10.2-jadval

2017-yilda dunyoning yirik mintaqalarida mehnatga yaroqli yoshdag'i aholi ulushi, foizda¹

Yirik mintaqalar nomi	jam'i aholiga nisbatan, % da
Dunyo bo'yicha	65
Shimoliy Afrika	62
G'arbiy Afrika	53
Sharqiy Afrika	53
Markaziy Afrika	52
Karib rayoni	64
Janubiy Amerika	65
G'arbiy Osiyo	62
Markaziy va Janubiy Osiyo	63
Janubi-Sharqiy Osiyo	65
Sharqiy Osiyo	71
Shimoliy Yevropa	66
G'arbiy Yevropa	66
Sharqiy Yevropa	70
Janubiy Yevropa	67
Avstraliya va Okeaniya	66

Aksincha, Sharqiy Osiyo (71%) aholi tarkibida mehnat resurslari ulushini yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mazkur mintaqada aholi soniga ko'ra dunyoda birinchi o'rinni egalovochi Xitoyning joylashganligi va unda tug'ilishni cheklash yuzasidan olib borilayotgan faol demografik siyosat natijalari buning sababidir. Bundan tashqari, Fors ko'rfazida joylashgan davlatlar – Bahrayn (76%), Quvayt (75%), Qatar (82%), BAAda (80%) ham mehnat resurslari salmog'i katta.

Hozirgi paytda jahon bozorida uglevodorod resurslariga bo'lgan talabning ortishi iqtisodiyoti nest qazib chiqarishga ixtisoslashgan

¹ BMThing «Population Reference Bureau. World Population Data 2017» ma'lumotlari asosida tuzildi.

ushbu mamlakatlarning gullab-yashnashiga olib keldi. Iqtisodiy va demografik rivojlanish teskari mutanosiblikda ekanligi bizlarga yaxshi ma'lum. Shunga ko'ra, mazkur davlatlarda tug'ilish darajasi yil sayin pasayib bormoqda. Iqtisodiy o'sish jarayonlari jamiyatdagi bir qator miqdor va sisat o'zgarishlar orqali ro'y beradi. Bular orasida aholi bandligi bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari tarkibidagi o'zgarish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyoti tez yuksalayotgan mamlakatlar uchun bandlik va yalpi mahsulot ishlab chiqarish tarkibida qishloq xo'jaligi salmog'inining pasayishi xosdir.

10.3-jadval

Ayrim MDH davlatlarida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha aholi bandligi, (2017-yil)*% hisobida

№	Mamlakatlar nomi	iqtisodiyotdagi jami bandlik	sanoat	Shu jumladan:		
				qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	qurilish	xizmat ko'rsatish sohalari
1.	Armaniston	100,0	12,2	46,9	3,1	37,8
2.	Belarus	100,0	26,7	10,2	7,9	55,2
3.	Moldova	100,0	11,9	42,6	4,4	41,1
4.	Ozarbayjon	100,0	6,9	39,5	5,0	48,6
5.	Rossiya	100,0	21,5	10,4	7,9	60,2
6.	Tojikiston	100,0	5,6	60,4	3,3	30,7
7.	Ukraina	100,0	20,1	19,7	4,5	55,7
8.	O'zbekiston**	100,0	13,5	27,5	8,6	50,5
9.	Qirg'iziston	100,0	8,0	49,9	3,5	38,6
10.	Qozog'iston	100,0	12,1	33,5	5,3	49,1

* - Statisticheskiy sbornik (Statkomitet SNG). - Moskva, 2005. S.144

** - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2017-yil yakuni bo'yicha ma'lumotlari.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQSHda 1920-yilda 70 foiz ishchi kuchi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritgan, 1940-yilda 20 foizga tushib qolgan, 2000-yildan u 3 foiz atrofida. Yaponiyada qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchi kuchi salmog'i 1879-yillardagi 72 foiz o'rniga, 1930-yilda 30 foizga, 1990-yillarda 8 foizga tushdi. Belgiyada 1846-yilda qishloq xo'jaligida 51 foiz ishchi kuchi band bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1947-yilda 12,5 foizni, 1970-yilda 7 foizni tashkil etdi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi u yerdagi aholi bandligining tarmoq tarkibi bilan

uzviy bog'liq. Bu fikrlarni quyidagi jadval ma'lumotlari ham tasdiqlaydi (10.3-jadval).

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha aholi bandligi tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi salmog'i eng past bo'lgan mamlakatlar jumlasiga Belarus (10.2%) va Rossiya Federatsiyasi (10.4%) kiradi. Bu esa MDH tarkibidagi mazkur mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Buning sababi shundaki, agrar sohada mehnat unumdonorligini oshirish uchun juda katta imkoniyatlar yashiringan. Fan-texnikaning yuksalib borishi bilan muayyan miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlарини yetishtirish uchun kam sonli xodimlar mehnati ham kifoya qiladi. Boshqa tomonidan, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha to'yish chegarasi mavjud bo'lib, bu narsa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish hajmini ham cheklaydi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. XX asrning ikkinchi yarmida aholi sonidagi o'zgarishlarni baholang.
2. Aholi yosh tarkibida bolalar miqdorining kamayib borishini qanday izohlaysiz?
3. Aholi milliy tarkibida mahalliy millatlarning tutgan o'mi qanday?
4. Demografik vaziyat va demografik jarayonlarning farqi?
5. Tug'ilishning qishloq aholisi o'rtasida keskin kamayishiga qanday omillar ta'sir etmoqda?
6. O'zbekiston aholisi demografik rivojlanishida aholi o'limining ahamiyati?
7. Respublika aholisi migratsiya jarayonlarida faollashuvning sabablari nimada?
8. Iqtisodiy faol aholi nima?
9. Mehnat resurslari va mehnat yoshidagi aholining farqini keltiring.
10. O'zbekistonda aholining eng ko'p qatlami qaysi soha yoki tarmoqda band va nima uchun?

11-MAVZU. AHOLINING MEXANIK HARAKATI. MIGRATSİYA GEOGRAFIYASI

Reja:

- 11.1. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondashuvlar va uning mohiyati, omillari.
- 11.2. Aholi migratsiyasining turlari va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- 11.3. Xalqaro migratsiya va undagi o'zgarishlar.

11.1. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondashuvlar va uning mohiyati, omillari

Migratsiya (lotin tilidagi *migrations* so'zidan olingan bo'lib, ko'chish, ko'chib o'tish ma'nolarini anglatadi) – kishilarning o'z doimiy yashash joylarini doimiy yoki uzoqroq muddatga ma'muriy chegarani kesib o'tgan holda o'zgartirishidir¹. Bu aholi migratsiyasiga sobiq Ittifoq davlatlarida berilgan ta'rifdir. Jahonda aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ta'rifga ko'ra migratsiya kishilarning muayyan chegaradan doimiy yashash joylarini o'zgartirish maqsadida kesib o'tishi tushuniladi². Bulardan tashqari, migratsiya atamasiga turli olimlar o'z tadqiqotlari doirasida turlicha yondashib, o'z ta'riflarni berishgan. Jumladan, B. Y. Goldfarb aholi migratsiyasiga ijtimoiy-geografik nuqtiyi nazaridan yondashib, bu jarayonni "kishilarning yashash, ishlash yoki o'qish joyini ma'muriy chegaradan o'tgan holda o'zgartirish qobiliyatini amalga oshirish bo'yicha murakkab tarixiy, geografik, ijtimoiy-igtlisodiy va demografik jarayon"³, deb tushuntiradi.

L. Y. Ribakovskiy migratsiya tushunchasini talqin etishda, bu tushunchaning keng va tor ma'nodagi mohiyatidan kelib chiqadi. Tor ma'nodagi migratsiya aholining yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lган ko'chishi bo'lsa, keng ma'noda esa kishilarning turli maqsad bilan va turli vaqlga hududiy siljishlarini tushunadilar.⁴

¹Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985., 251-бет.

²Руководства по переписи населения 4-яз. - Астана, 2003, 63-бет.

³Гольдфарб Б.Я. Миграция населения. - М.: 1981, 3-бет.

⁴Рыбаковский Л.А. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. - М.: 1987, 5-бет.

V. 1. Prevedensevning fikricha ham, migratsiya deb keng ma'noda kishilarning turlicha joy o'zgartishlarini, tor ma'noda esa bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ya'ni doimiyga yoki ma'lum muddatga yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan siljishini nomlasa bo'ladilar¹.

L. P. Maksakova, B. S. Xorev, L.A.Ribakovskiy, V. A. Ionsev va boshqalar migratsiyani kishilarning nafaqat yashash joyini o'zgartirishi, balki ish joyini ham o'zgartirishi munosabati bilan bir hududdan ikkinchi bir hududga qatnashi bilan bog'laydilar².

N. N. Filipova va V. A. Sukov migratsion jarayonga iqtisodiyot, aniqrog'i aholini mehnat bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan yondashib, migratsiya so'zini tom ma'noda aholining sohalar, hududlar bo'yicha kasbiy va ijtimoiy bo'lishini tushunadilar.

E. D. Baranov va B. D. Breyev ham migratsiyaga xuddi shu nuqtayi nazardan yondashib, aholi migratsiyasi deb kishilarning mehnat faoliyati, joyi va turi, shuningdek, mehnat sarflash sohasini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday hududiy siljishlarni ataydilar. Yuqoridagi ta'riflarning barchasida kishilarning o'z turar joylarini o'zgartirishiga urg'u berilgan, ya'ni, ular bergan ta'riflarda aholi migratsiyasining muhim tarkibiy yo'nalishi bo'lgan tebranima (mayatniksimon) migratsiya nazardan chetda qolib ketgan. Chunki tebranma migratsiya natijasida kishilarning doimiy turar joylari o'zgarmaydi.

Aholi migratsiyasi atamasiga yuqorida tilga olingan va shunga o'xshash yondashishlarni tahlil etган holda tushunchani quyidagicha ta'rifladim:

Aholi migratsiyasi – bu kishilarning turli sabab va omillar natijasida o'z yashash va ish joylarini ma'muriy chegaradan o'tgan holda o'zgartirishlaridir. Ma'lumki migratsiya kishilarning doimiy va vaqtineha o'z yashash yoki ish joylarini o'zgartirishlari natijasidagi bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishlaridir. Tabiiyki aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy, ijtimoiy va ekologik omillarga bo'lish inaqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy omillar. Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar orasida iqtisodiy omillar eng muhimi hisoblanadi, chunki qolgan

¹Проделанные В.Н.География населения. - М., 1975, 4-бет.

²Рибаковский Л.А. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. - М., 1987, 5-бет.

barcha omillar pirovarqdida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Iqtisodiy omillar deganda har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligi, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lami tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi o'ttasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchlarini mamlakatlararo ko'chib yurishiiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSH va Meksikadagi daromadlarning taxminan 10 barobarga farq qilishi meksikalik ishchilarni AQSHga ish qidirib o'tishlarining asosiy sababi hisoblanadi. Shunday qilib yer yuzida rivojlangan boy va rivojlanayotgan iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan mamlakatlarining mavjudligi xalqaro migratsiya va jahon mehnat bozorining amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi¹.

Demografik omillar. Aholining o'sish sur'ati, aholi sonining ko'payishi yoki qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar demografik omillar bo'lib sanaladi. Bunday omillar qatoriga birinchi navbatda aholining tabiiy o'sish darajasini kiritish mumkin, chunki tabiiy o'sish migratsion jarayonga ta'sir yetishi bilan birgalikda migratsion jarayonning jadallashuvi ham o'z navbatida, tabiiy o'sishga sabab bo'lishi mumkin. Tabiiy o'sish natijasida, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi yetishib chiqishiga, ya'ni migratsiya qilishi mumkin bo'lgan aholi ko'payishiga zamin yaratiladi. Shu o'rinda demografik omillarning iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Jumladan, iqtisodiy o'sish bilan tabiiy o'sish o'ttasidagi farqning ortishi ham migratsiyaga katta ta'sir etadi. Ya'ni, tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan yuqoriq bo'lsa, mamlakatda ishsizlar sonining ortishiga va kishilarning chet elga ish izlab chiqishlariga sabab bo'ladi.

Tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan past bo'lsa mamlakatda ishchi kuchiga bo'lgan talab ko'tariladi va chet elliq ishchilarining ish izlab kelishlari ortadi. Misol uchun, 90-yillarning o'talarigacha Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlarida (AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Turkiya, Shveysariya va Yevropa Ittifoqi davlatlari) iqtisodiy faol aholi yiliga o'rtacha 0,8 foiz ko'paygan, yalpi ichki milliy mahsulot hajmi esa 3 foizga oshgan².

¹Хакимови М., ба босик. Халқаро иктисаотий муносабатлар. -Т.; 1997. 140-бет.

²Yuqorida manba, 141-бет.

Siyosiy omillar. Ayrim mamlakatlardagi, siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoliga ta'sir etib, mamlakat ishechi kuchining chetga oqimini keskin kuchaytiradi. Shu jumladan, turli siyosiy inqiroz va urushlar natijasida majburiy migrantlar (qochoqlar, deportatsiya qilinganlar) sonining ko'payishiga olib keladi. Sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi natijasida, nasaqat, Ittifoq tarkibidagi davlatlarda, balki unga qo'shni bo'lgan sotsialistik lager tarkibidagi davlatlarda siyosiy beqarorlik hollarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Uning natijasida majburiy migrantlar soni ko'paydi. Ekspertlarning ma'lumotiga ko'ra MDH davlatlarida ayni paytda (2003-yil) 1.8 mln. qochoqlar va majburiy migrantlar mavjud¹.

Ijtimoiy omillar. Aholi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillar ichida ijtimoiy omillar ham kattagina ahamiyat kasb etadi. L.L.Ribakovskiy migratsiyaning ijtimoiy omillari deganda, migratsion jarayonga ma'naviy omillarning ta'sirini tushunadi². M. Q. Qoraxonov migratsion jarayondagi ijtimoiy omillarni kishilarning malakasi va ma'lumoti qanchalik yuqori darajada bo'lsa, uning migratsion harakatchanligi (mobilligi) Shunchalik tez va u ongli ravishda malakasidan samarali foydalanish mumkin bo'lgan joyni qidiradi³. Shu jumladan, o'qish va kasbiy malakani oshirish maqsadlari ham ko'plab kishilarni, ayniqsa, yoshlarni migratsiya qilishlariga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy omillar ichida etnik omillar ham o'ziga xos mavqega ega. Etnik omillarga – aholining an'analari, urf-odatlari, tili, turmush tarzi kabilarni kiritish mumkin. ularning har biri migratsiya jarayonini jadallashtirishi yoki sekinlashtirish mumkin. Jumladan, o'zbek xalqining tarixan o'troqligi, o'z tug'ilgan va o'sgan joyiga bog'liqligi, o'rgangan qadriyatları va turmush tarzini o'zgartirishga moyil emasligi tufayli, sobiq Ittifoqdagi boshqa xalqlar ichida eng sust migratsion harakatchanligi bilan ajralib turadi. Biroq so'nggi bir necha yil ichida migrantlar tarkibida o'zbeklar salmog'ining tobora ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

Til omili ham migratsiyaga sezilarli ta'sir etadi. Kishilarning til bilish bilmasligi ham ularning migratsiya qilishiga yoki migratsiyadan tiyilib turishiga sabab bo'ladi. Misol uchun 1989-yilda o'zbek tiliga

¹Internet malumotlari - www.EromUz - sayt eamigrants iz U'zbekistana.

²Рибаковский А.Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика - М.: 1987.

³Караханов М.К. Некоторые практический путь развития и проблемы народонаселения. - Т., 1982.

“Davlat tili” maqomining berilishi va davlat rasmiy idoralarida o’zbek tilida ish yuritishning lozimligi ta’milnishi natijasida, o’zbek tilini o’rganishni xohlamagan yoki o’rganmagan kishilarning boshqa hududlarga migratsiya qilishlariga sabab bo’ldi.

Ekologik omillar. XX asrning o’rtalaridan migratsiya omillari qatoriga ekologik omillar ham qo’shildi va borgan sari uning ko’lami tobora ortib bormoqda. Ekologik jihatdan o’z hayotlariga xavf tug’iladigan joylardan kishilarning ko’chib ketishi tabiiy holdir. Misol uchun. O’zbekistonda ikkita yirik ekologik xavf o’chog’i mavjud. Bular Orol dengizining qurishi bilan bog’liq ekologik xavf o’chog’i va Surxondaryo viloyatining Tojikiston bilan chegara hududlari (Tursunzoda alyuminiy zavodi atmosferaga chiqindilarni chiqarishi natijasida) bo’lib, bu yerlardagi kishilar o’zlarining va avlodlarining kelajak taqdirini o’ylab boshqa ekologik jihatdan xavfsizroq hududlarga ko’chib ketmoqdalar. Birgina O’zbekistonning Orolbo’yi hududlaridan 90-yillarda Qozog’istonga – qariyb 30 ming, Turkmanistonga – 4 ming va O’zbekistonning boshqa hududlariga qariyb 20 ming kishi ko’chib ketishga majbur bo’lishgan¹.

11.2. Aholi migratsiyasining turlari va uni ifodalovchi ko’rsatkichlar

Migratsiya juda keng qamrovli va murakkab jarayon bo’lib, uning turli jihatlariga ko’ra: hududiy yo’nalishiga, muddatiga, tashkil etilgan yoki etilmaganiga, qonuniy yoki noqonuniyligiga qarab turlari mavjud.

Hududiy yo’nalishiga ko’ra migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga bo’linadi.

Ichki migratsiya – biror bir mamlakat, viloyat yoki ma’muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko’chishidir. Bu xil migratsiya ham o’z navbatida, to’rt yo’nalishga bo’linadi: shahardan shaharga, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga, qishloqdan qishloqqa.

Tashqi migratsiya – aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan, qo’shni mamlakatlar yoki chet elga ko’chib ketishi yoki u yerdan ko’chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qil’alararo va qit’alar

¹AlikhanAman. PopulationmigrationinUzbekistan(1998-1999). - T. 2000. 84-fot.

ichidagi turlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin. Tashqi migratsiya to'g'risida gap ketar ekan emigratsiya, immigratsiya va reemigratsiya tushunchalariga qisqacha ta'rif berib o'tish lozim bo'ladi. "Immigratsiya – bu mamlakatga xorijiy fuqarolarning doimiy yashash yoki ishslash maqsadlarida kelishi bo'lsa, emmigratsiya esa bu jarayonning teskarisidir, ya'ni biror mamlakat fuqarolarining doimiy yashash yoki ishslash maqsadlarida xorijga chiqib ketishlaridir.

Remigratsiya va reimmigratsiya esa ko'chib kelgan yoki ko'chib ketganlarning qaytib kelishi va qaytib ketishidir. Immigratsiyada qatnashgan fuqarolar immigrantlar, emmigratsiya jarayonida ishtirok etuvchilar emmigrantlar deb ataladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, "Emmigrant" va "Immigrant" tushunchalari uchun xalqaro yagona ta'rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo'yicha har bir davlatning o'z mezonlari bor. Masalan, Bolgariyada "immigrant" shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar; "emmigrant" esa Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Polshada oldin xorijda, ya'ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy fuqarolik uchun kelganlar – "immigrantlar", Polshani butunlay tashlab ketganlar esa "emmigrantlar" deb ataladi.

Rossiyada – Rossiyaga ishslash yoki o'qish maqsadida 1.5 yildan ko'p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari "immigrantlar", o'qish yoki ishslash uchun 1,5 oydan ko'p muhlatga boshqa davlatga ketganlar "emigrantlar" deb ataladi. AQSHda qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQSHga kelganlar "immigrantlar" deb ataladi. "emmigrantlar"ga esa ta'rif berilmagan"¹.

Muddatiga ko'ra – migratsiyaning doimiy vaqtincha (mavsumiy) va tebranuvchi (mayatniksimon) turlari ajratiladi.

Doimiy migratsiya – bu aholining ko'chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so'ng ko'chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir. Vaqtingchalik migratsiyaning eng muhim yo'nalishi mavsumiy migratsiya bo'lib, kishilarning yilning muayyan bir faslida chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy migratsiya, asosan, mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo'lib, aholi bandligida katta tebranishlar bo'ladigan va ishchi

¹ Бўриева М.Р. География асосларин. - Т., 2002.

kuchiga talab kaita bo'ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi. Mavsumiy migratsiya ko'proq qishloq xo'jaligi, mehmonxona xo'jaligi singari ishchi kuchini ko'talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun yoz oylarida Turkiya, Shveytsariya kabi davlatlarga xorijlik sayyoohlarning ko'plab kelishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talab keskin ortadi. Bu esa daromad topish darajasi nisbatan pastroq bo'lgan davlatlardan ko'plab ishchilarning oqib kelishiga sabab bo'ladi.¹

MIGRATSİYA TURLARI

1. Doimiy migratsiya — aholining biron hududga doimiy ravishda ko'chib ketishi.
2. Maysumiy migratsiya — aholining ma'lum davrga biron hududga ko'chib ketishi.
3. Tebranma migratsiya — aholining o'qish, ishlash maqsadida bir yerdan ikkinchi joyga har kungi yoki haftalik harakati.
4. Sirkulvar migratsiya — aholining qisqa davr davomida ma'lum murojat salishni yuz beradigan harakati.

11.1-rasm. Migratsiyaning turlari

Migratsiyaning yana bir turi tebranuvchi (mayatniksimon) migratsiya bo'tib, aholining bir aholi punktidan ikkinchi bir aholi punktiga o'qish, ishlash va boshqa sabablarga ko'ra har kunlik qatnashidir. Bu tur migratsiya ko'proq ichki migratsiyaga xos bo'lib,


¹ Узбеко-руссийский энциклопедический словарь. - М., 1985., 243-244- бет.

xalqaro migratsiya doirasida davlatlararo yaxshi qo'shnichilik aloqalari yo'lga qo'yilgan chegaraoldi hududlarigagina xosdir.

Migratsiya jarayoni tashkil etilish nuqtayi nazaridan tashkil etilgan va tashkil etilmagan turlarga ajratiladi. Tashkil etilmagan migratsiya aholining o'z xohish va ixtiyorlari bilan avvaldan rejalashtirilmasdan, stixiyali tarzda bo'lishi bo'lsa, tashkil etilgan migratsiya ijtimoiy zaruriyat tusayli davlat tomonidan rejalashtirilgan tarzda sodir bo'ladi. Misol uchun, hozirgi kunda juda ko'p O'zbekiston fuqarolari Janubiy Koreya Respublikasida tashkillashtirilgan holda mehnat qilmoqdalar.

So'nggi yillarda migratsiyada, xususan xalqaro migratsiya jarayonlarida qonuniy va noqonuniy migratsiya turlari alohida ajratib ko'rsatilmoqda.

Migratsiya masshtabi



- Migratsiya miqyosi (masshtabi) - migratsiyaning hududiy tavsiifini beradi va miqyosiga ko'ra tashqi (xalqaro) hamda ichki (rayonlararo) migratsiyalar ajratiladi. Tashqi migratsiya qit'alararo va qit'a ichkida mamlakatlararo sodir bo'ladi. Ichki migratsiya esa rayonlararo, rayon ichkida shuningdek shahar va qishloq o'rtaida sodir bo'lishi mumkin.

11.2-rasm. Migratsiyaning masshtabi


Qonuniy migratsiya - bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tmagan holda, davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va tegishli ruxsatnomalari bo'lgan holdagi ko'chishlaridir.

Noqonuniy migratsiya esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tgan va davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy hujjat va ruxsat bo'lмаган holdagi ko'chishidir.

Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida va turli ijtimoiy guruhlardagi migratsion harakatni o'rghanishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa, migratsiya jarayonini demografik nuqtayi nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

Migratsiya ko'rsatkichlari:

1. Migratsianing absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari;
2. Migratsion harakatning intensivligi yoki koefitsienti (ma'lum hududda, har 100 yoki 1000 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni).



11.3-rasm. Migratsiya nurlari

Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan aholining ayirmasiga teng). Migratsiya saldosi manfiy yoki musbat bo'ladi va u absolyut, ya'ni mutlaq (masalan yiliga 3000 kishi)da va nisbiy ko'rsatkichlarda (100 va 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi. Masalan, O'zbekistonga 2007-yilda 151172 kishi kelgan, va shu yili 214310 kishi O'zbekistondan chiqib ketgan.

2007-yilgi Respublikadagi migratsiya o'sishini (migratsiya saldosini) topish uchun yuqorida qayd etilganidek, kelganlar sonidan ketganlar sonini ayiramiz: $151172 - 214310 = -63138$. Demak O'zbekistonda 2007-yil kelganlardan ketganlar soni yuqori bo'lgani uchun migratsion o'sish manfiy, ya'ni -63138 kishini tashkil etdi. Ushbu yili migratsiya saldosi manfiy xususiyatga ega bo'lgan. Agar ketganlar sonidan kelganlar soni ko'p bo'lsa migratsiya saldosi musbat xususiyatga ega bo'lar edi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar migratsianing absolyut ko'rsatkichlarini ifodalaydi.



11.4-rasm. Migratsiya ko'rsatkichlari

Migratsiyaning nisbiy ko'rsatkichlari ma'lum davrda, ma'lum hududga kelganlar va ketganlami shu hudud aholisining har 1000tasiga yoki har 100tasiga nisbatida ifodalanadi. Nisbiy ko'rsatkichlarni kelganlar va ketganlar intensivligi koefitsienti orqali hisoblanadi. Ketganlar Mi – intensivligi koefitsienti quyidagi formulada o'z ifodasini topgan:

$$K_{ket} = \frac{M_i}{R} * S$$

Mi – ketganlar soni;

R – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni;

S – konstanta, 1000 aholi (promille). 2007-yil O'zbekistonda ketganlar intensivligi koefitsientini aniqlaymiz:

$$K_{2007} = \frac{214310}{26867997} * 100 = 7,97$$

Demak, 2007-yil Respublikadan 1000 aholiga nisbatan 7,97ta kishi ketgan, yoki ketganlar intensivligi koefitsienti 7,97 promillega teng bo'lgan. Kelganlar intensivligi koefitsienti:

$$K = \frac{M_j}{R} * C$$

Mj – kelganlar soni; R – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni;

$$K_{2007} = \frac{151172}{26867997} * 100 = 5,62.$$

2007-yil O'zbekistonga kelganlar intensivligi koefitsienti 5,62 promillega teng bo'lgan, yoki har 1000 kishiga nisbatan o'rtacha 5,62

¹ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985, с. 207 – 208.

ta kishi kelgan. O'zbekistonda 2007-yili aholining migratsion o'sishi (5,62 – 7,97) – 2,35 kishini tashkil etgan, yoki migratsion o'sish koefitsienti manfiy – 2,35 % ga teng bo'lgan.

11.3. Xalqaro migratsiya va undagi o'zgarishlar

Biz e'tirof etganimizdek, xalqaro migratsiya bu odamlarning doimiy mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishidir. Odamlarda xalqaro migratsiya 60 ming yil oldin boshlangan, ular bugungacha davom etmoqda. Xalqaro migratsiya mamlakatlar o'rtaida sodir bo'ladigan migratsiya hisoblanadi. Uning dinamikasi, ya'ni ichki migratsiya mamlakat chegaralari doirasida migratsiyadir. Xalqaro migratsiyani o'rganish biz ishlata digan ta'riflar va tushunchalar ba'zi hisoblar tomonidan boshlanadi. Vaqt o'tgan sari xalqaro migratsiya modelini birlashtirish holatini muhokama qilish dolzarbdir. Xalqaro migratsiyaning asosiy nazariyalarini ko'rib chiqishimiz sababi, uning salbiy va ijobiy iqtisodiy oqibatlarini ko'rsatib berishdir. Bu yuridik va noqonuniy migratsiyalar bilan namoyon bo'lmoqda. Yakunida xalqaro migratsiyaning *zeronet* konsepsiysi muhokama qilinadi.

Ichki migratsiyani o'rganishda o'xshash sharoitlar *disenetsiy* nomli standart tushunchani demograflar tomonidan xalqaro migratsiyani o'rganishda keltirib chiqardilar.

Emmigratsiya va immigratsiya o'rta sidagi birinchi farg. Immigratsiya bu odamlarning boshqa yangi mamlakatga doimiy yashash uchun borishi; Immigrant bu boshqa yangi davlatga yashash uchun kirayotganda xalqaro chegaradan o'tadi. Bu *analno-termin* tushunchasi migratsiyada ichki migratsiyani o'rganishda ishlataladi. Boshqa tarafdan emmigratsiya bu odamlarning mamlakatdan ketishi tushuniladi. Immigratsiyada muhim rol o'ynaydigan savollardan biri muddatidir. Uzoq muddatli immigrantlar soni dunyoda oxirgi 10 yil mobaynida juda ko'paydi. Immigrantlar soni 1965-yilda 75 milliondan, 1990-yilga 120 million, 2006-yilga 190 millionga ko'tarildi. Taxminan dunyo aholisining 3 % i uzoq muddatli immigrantlarni tashkil etdi. Bu foiz kichkina bo'lGANI bilan juda katta sonli hajmdir.

Remigrant xalqaro migratsiyani kelib chiqarish davlatiga teskari holati. Remigrant – qandaydir ma'lum bir vaqt mobaynidan keyin xalqaro migratsiyada o'zining birlamehi mamlakatiga qaytib keladi.

Xalqaro migrantlarning turistlardan sarqi, bu ularning qaytib kelib doimiy yashash joyi aniqlasligi. Odainlar boshqa davlatga turist yoki ma'lum muddat uchun ishga (diplomatlar) borganlarda xalqaro migrantlar hisoblanmaydi (Mominpg. 2003).

XX asrning immigrantlari 4 guruhga bo'linadi:

- qochoqlar;
- boshpana qidiruvchilar;
- sobiq koloniyadagi migrantlar;
- irqiy migrantlar.

XALQARO MIGRATSIIYA TASHKILOTI



IOM - OIM

• TASHKIL ETILGAN –
1951- YIL.
• A'ZO DAVLATLAR –
126 TA
• FAOLIYATI
DAVOMIDA 11
MLNDAN ORTIQ
INSONLARGA
YORDAM BERGAN
• DUNYODAGI ENG
YIRIK
TASHKILOTLARDAN
BIRI SANALADI

11.4-rasm. Xalqaro migratsiya tashkiloti

Oxirgi vaqtarda AQShga immigrantlarning ko'p qismi Xitoydan keldi. Xitoyning geografik joylashuvi AQShdan uzoqligi migratsiyani qiyin va qimmatga aylantiradi. 2000 va 2005-yillarda AQSh immigrantlar tomonidan 2,8 million kishilik yutuqqa ega bo'ldi. O'z o'rniда Meksika eng katta 4 million kishilik zararga ega bo'ldi. Xitoy esa zarar bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab 1,9 million kishilik zarar ko'rdi. Ruxsatsiz immigratsiya huquqiy tomonidan ta'qib qilinadi.

Xalqaro migratsiyani o'rganish uchun demografik tushunchalar va ta'riflar standart majmuini ishlab chiqildi. Bir mamlakatdan boshqasiga odamlar harakati xalqaro migratsiya doimiy ekanligini ta'kidlandi. Sayyoohlар sifatida xorijiy namlakatga ko'chish yoki qisqa muddatga ishlash uchun borish, diplomatlar va xalqaro muhoxirlar sifatida qaralmaydi. XX asrda asosiy muhoxirlar boradigan jahon

davlatlariga, ya'ni, Amerika Qo'shma Shtatlari, Ispaniya, Italiya, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Avstraliya kiradi. Mahalliy xalqlar sobiq mustamlaka mamlakatlaridan ko'chib, yaxshiroq sharoitda hayot tarzi uchun ularni mustamlaka qilgan Yevropa davlatlariga doimiy qolish uchun siyosiy boshpana so'rashadi.

Kelinglar endi AQShning immigratsiya tarixini ko'rib chiqamiz. Xajmi va hisobi juda katta. 1900-yildan 2007-yilgacha 38 million immigrantlar. 1970-yildan boshlab ko'rsatkichlar juda tezkor ko'tarilgan. Xitoy va Meksikadan kelgan muhojirlar eng katta oqim hisoblanadi. Ispaniyaliklar birinchi bo'lib, 1598-yilda kelishgan. Ular kelgach, Yerlardan foydalanishgan. Birinchi kelgan muhojirlar, asosan, Virjiniya Shtatiga joylashishgan (Persella 1995). Ular tamaki yetishtirish bilan shug'ullanishgan.

1800-yilda AQShda muhojirlarning raqamlari pro-immigratsiya kompaniyalarini va uyg'unligi transkontenental transport qiymati sezilarli oshdi. AQShning umumiy rivojlanishida Nemislar tomonidan bir necha sanoat markazlari tashkil etildi. 1850-yillarda hukmdorlikni saqlab qolish uchun Irish muhojirlari, asosan, katoliklari Anglo-sakson protestantlar tashkilotini tashkil qilishdi. Meksika aholisi mavsumiy ishlar bilan AQShga migratsiya oqimi kelib chiqdi. Bracyero dasturi 1964-yilda bekor qilingan. Buni natijasida chegara aholisining qariyb yarmi yo'qotgan ish o'rilarini qayta tikladilar. Bir necha migratsiya qoidalarini qayta ko'rib chiqib, tartibga solindi.

Noqonuniy migratsiya jarayoni davom etaverdi. Noqonuniy migratsiya AQShni chegara hududidagi nazoratini susaytirdi. Xalqning ishsizlik nisbatini va daromad tengsizligini salbiy o'zgartirdi. 1987-yilda noqonuniy migratsiya jarayonini to'xtatish uchun uni muhokama qilishdi. Buning natijasi muvaffaqiyatli bo'ldi va hujjatsiz migratsiya oqimi qisqartirildi. Hozirgi vaqtida ko'p davlatlarda bo'layotgan notinchlik xalqqa ruhiy, ma'naviy, salbiy ta'sir qilmoqda. Bolalar ta'lindan qolishi, oziq-ovqat tanqisligi tufayli, xalq talafot ko'rib aziyat chekayotganligi sababli, migratsiya jarayoni tobora ko'payib bormoqda. Eng qiziqarli ma'lumot shuki, muhojirlar noqonuniy aholi hisoblanib, ruxsatsiz farzandlar ko'rishmoqda. Deyarli 3,1 million bolalar Amerika Qo'shma Shtatlarida ruxsatsiz tug'ilgan. Bu bolalar ruxsatsiz migrantlar oиласида deyarli 3 dan 2 qismini tashkil qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida

ruxsatsiz ishehilar ko'plab kasblarda kam ish haqqiga ishlab kelmoqda. Ruxsatsiz muhojirlardan 4 % qishloq xo'jaligida 19 % qurilishda, 31 % xizmat ko'rsatishda ishlab kelishmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining hozirgi aholisining 98 % dan ortig'i muhojirlar yoki muhojirlarning avlodlari hisoblanadi. 2000-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining 4 million aholisi yoki faqat 1,5 % azaldan Amerika hududida yashab kelishgan. Shunday qilib ular na muhojirlar va na muhojirlar avlodi edi. Bu xalqlar Shimoliy Amerikada muhojirlar kelishidan oldin 1000 yillar davomida yashab kelishgan. Amerikaning 13 foiz aholisi boshqa mamlakatlarda tug'ilgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan bu eng katta ko'rsatkich hisoblanadi.

Xalqaro mehnat migratsiyasida hali-hamon siyosiy jarayonlar o'z ta'sirini yo'qotmagan: Jumladan,

- rivojlangan davlatlarga kam taraqqiy etgan davlatlardan "aqllilar oqimi" o'sib bormoqda;

- mehnat migratsiyasida ishtirok etuvchi insonlarning asosiy qismi rivojlanmagan davlatlarga to'g'ri keladi;

- xalqaro mehnat migratsiyasida lotereya tizimi ham joriy etilgan bo'lib undan ayniqsa AQSH katta foydalar ko'radi.

Xalqaro mehnat migratsiyasini boshqaruvchi tashkilot xalqaro mehnat tashkiloti deb atalib, u barcha mehnat migratsiyalarini qamrab oladi va ulardagi qonuniylikni kuzatib taftish etadi.


Xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishi uzoq tarixlarga borib taqaladi. Eng katta o'zgarishlardan bu xalqlarning tarixida Afrika va Osiyo mamlakatlarini kaloniyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan va shu o'rinda 50000dan 60000 yil avval Afrikadan Janubiy Osiyo, Xitoy va Yevropa mintaqalariga migratsiya bo'lgan. Hozirgi dalillarga ko'ra Shimoliy va Janubiy Amerikaga odanlar 14000 yil avval migratsiya qilishni boshlashgan. Bu jarayonda suv kanallari orqali qayiqlarda foydalanilgan. Tinch okeaniga yetib Shimoliy G'arbdan Janubga qarab Chili sohillariga yo'naltirilgan (Gebel, Uotes va ORurk 2008; 1501.). Yillar davomida migratsiya jarayoni quruqliklar va suv orqali davom etgan. Aholining migratsiyasi ko'pincha ularning harbiylarining bostirib olishlari bilan aks ettirilgan. Norvegiyaliklar IX asrlarda Yevropa bo'ylab bostirish reytlarini o'tkazishgan lekin bosib olgan Yerlaridan daromad (pul) olib o'z mamlakatlariga qaytganlar. Tarixda bunday harakatlardan biri

XIV asrda Temirlanning Yevropani bosib olishida ham kuzatilgan (Darvin, 2008).

Dunyodagi eng kichkina davlat bu Vatikan. Uning aholisi 700 dan ortiq. Ularning ko'p qismining kelib chiqishi chet elliklarni tashkil etadi. Ishlayotgan aboliga fuqarolik beriladi. Ishlamasa Juqarolikdan chetlatiladi. Vatikanning egallagan maydoni 0,44 kvadrat kilometer. Uning atrofini Rim shahri o'rabi turadi. Mamlakat kichkinligidan u yerda ko'chaning nomlari ham, manzillari ham yo'q.

Xulosa. Bu bobda demografik dinamika ko'rib chiqiladi. Jamiyatda bu savol deledantlar tomonidan tahlil qilinmaydi. Xalqaro muhojirlik nazariya usulida ko'rib chiqiladi. Bu bobni tushunchalar va anqliklar orqali tahlil qilamiz. Xalqaro migratsiya uzoq yillar mobaynida tahlil qilinmagan savol bo'lgan. Keyinchalik xalqaro migratsiyaning salbiy va ijobjiy, iqtisodiy savollarini hamda yuridik va noqonuniy migratsiya shartlari ko'rildi. Bu savolda muhojirlarning yoshi va jinsi dolzarb bo'lib o'rGANIB chiqiladi.

MEHNAT MIGRATSİYASINI TURLARI



11.5-Mehnat migratsiyasi turlari

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. E. Ravenshtaynning "migratsiya qonunlari" haqida so'zla bering.
2. Aholi migratsiyasini o'rGANISH borasidagi qanday ilmiy yondashuv, nazariya va konsepsiyalarni bilasiz?

3. Migratsiya nima va uning qanday turlari mavjud?
4. Migratsiyaning qanday xususiyatlarini bilasiz?
5. Immigratsiya va emigratsiya jarayonlariga izoh bering.
6. Aqliy tala'ot nima?
7. Aholi migratsiyasiga iqtisodiy jihatdan yondashuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
8. Aholi migratsiyasiga demografik jihatdan yondashuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
9. Aholi migratsiyasiga migratsiologik jihatdan yondashuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
10. Aholi migratsiyasiga metodologik jihatdan yondashuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
11. Aholi migratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
12. Aholi migratsiyasi qanday turlarga bo'linadi?
13. Ichki va tashqi migratsiyaga ta'tif bering.
14. Migratsiya saldosi nima?
15. Migratsiyaning demografik omillariga sharh bering.
16. Aholi migratsiyasining hududiy yo'nalishiga ko'ra turlarini ko'rsating.

12-MAVZU. DUNYO AHOLISI VA AHOI MANZILGOHLARI JOYLASHISHI

Reja:

- 12.1. Dunyo aholisi va aholi manzilgohlari joylashishining geografik qonuniyatları.
- 12.2. Qishloq aholisi va aholi manzilgohlari geografiyası.
- 12.3. Urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyası.

12.1. Dunyo aholisi va aholi manzilgohlari joylashishining geografik qonuniyatları

Aholining joylashushi – ma'lum vaqt davomida aholining hududlar bo'ylab tarqalishi va aholi maskanlari to'rining shakllanishi jarayoni natijasidir¹. Yer sharida aholi yashab kelgan maskanlar,

¹ Демографический энциклопедический словарь. - М. 1985. с 359.

arecallarning ko'pchiligi juda qadimdan boshlab shakllanib kelgan. Aholining yer yuzi bo'ylab joylashuvi qator omillar bilan bog'liq. Ularga tabiiy sharoit va aholi manzilgohlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, demografik o'tishning hozirgi bosqichi, rivojlanish darajasi va xo'jalik tarkibi kabi sotsial-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. Aholining joylashuvida eng asosiy omil bu tabiiy sharoitdir. Dunyo aholisining asosiy qismi inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoitga ega bo'lган mo'tadil, subtropik va tropik iqlim zonalarining qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish imkoniyati bor hududlarida joylashgan.

Aholi joylashuvida asosiy tabiiy omil bu – suv resurslaridir, chunki insonning yashashi va xo'jalik yuritishida suv eng zarur. Dunyo aholisining 1/3 qismi dunyo okeani sohillari bo'ylab (okeandan 50 km uzoqlikkacha) joylashgan va mazkur hudud dunyodagi quruqlikning 12 foizini tashkil etadi xolos. Dunyo aholisining yarmidan ko'pi esa okeandan 200 km uzoqlikkacha bo'lган hududda joylashgan. Yer shari bo'yicha Dunyo okeani sohillarida, daryo vodiylaridagi pasttekisliklarda yashovchi aholi salmog'i muntazam oshib bormoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo qit'alarining barchasida aholining 42-73 foizi dengiz sathidan 200 m baland bo'lган pasttekisliklarda joylashgani aniqlandi.

Okean va dengiz sohillari, daryo vodiylaridagi past tekisliklarda joylashgan aholi salmog'i dunyo aholisining tarkibida muntazam ortib bormoqda. Bu bol suv resurslarining inson hayoti uchun naqadar muhiimligi bilan bog'liqdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyat tarixida har bir davrda aholining ko'payishi va rivojlanishi, o'sha davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariiga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lган.

Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida yer yuzi bo'yicha aholining ko'payishi juda sekin borgan. Aholi sonining ko'payib borishida va joylashuvida qabilalar joylashgan maskanlarning tabiiy sharoitlari, suv resurslari va iqlimi asosiy omil hisoblangan. Turli tabiiy ofatlardan ba'zi qabilalar qirilib ketgan. Ayniqsa,sovutq iqlimli, qishi uzoq davom etuvchi hududlarda aholi sovuqdan, ocharchilikdan ko'plab halok bo'lган. Ana shu bois Yevrosiyoning Shimoliy qismida aholi juda siyrak joylashgan. Amerika va Avstraliyada ham paleolit davrining oxirlarida juda kam aholi istiqomat etgan. Tabiiy sharoiti inson yashashi uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni,

O'rta dengiz atroflarida Shimoliy Afrika, Yevrosiyo materigining janublarida esa aholi zichroq joylashgan.

Dunyo bo'ylab aholining joylashuvi haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan 5 ming yil oldingi davrga taalluqli bo'lib, ushbu davrda dunyo aholisining 66 foizi (20 mln kishi) Osiyoda, 17 foizi (5 mln kishi) Afrikada, 10 foizi (3 mln kishi) Yevropada, 3 foizi (1 mln kishi) MDH davlatlarida, 3 foizi (1 mln kishi) Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasida hamda 1 foizi (0.5 mln kishi) Avstraliya va Okeaniyada joylashgan ekan. Eng qadimgi aholi maskanlari inson yashashi uchun zarur biologik resurslar mavjud sharoitlarda, ya'ni Osiyoning janubi va Shimoliy Afrikada. O'rta dengizdan to Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda joylashgan. Bu hududlarda aholi juda uzoq vaqt ovchilik bilan shug'ullanigan va keyinchalik, cho'llashish jarayonlari kuchayib, aholining ovchilik bilan yashashi uchun imkoniyatlari qisqarib ketgan.

Eramizning boshlarida aholi asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaydi. Odamlar moddiy ne'matlarni o'zları mehnat qilib yaratishga o'tadilar va xo'jalik yuritishning ishlab chiqarish turi yetakchilik qila boshlaydi, ular ma'lum joylarda o'troq bo'lib yashashga. o'tadilar maskanlar quradilar. Natijada, avval qishloq maskanlari, keyinchalik esa shaharlar paydo bo'la boshlaydi. Aholining turmush tarzi, ovqatlanishi yaxshilana boradi. Inson hayotida ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, yozuv shakllanadi, fan va tibbiyat, madaniyat rivojlana boradi:

Aholining turmush tarzi yaxshilangach yuqorida qayd etilganidek o'lim hollari kamayadi, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati ham uzayadi. Natijada, yer kurrasida aholi soni, aholi maskanlari ko'payib boradi. Aholi zichligi, ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun tabiiy imkoniyatlari mavjud, sug'oriladigan yerlarda chorvachilik bilan shug'ullanish imkonи bor hududlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Masalan, Nil, Frot, Dajla, Gang, Xuanxe daryolari hamda O'rta dengiz sohillarida eramizning boshida aholi zichligi 1 km² ga 10 kishini tashkil etgan. Ana shu davrda ko'chimanchi chorvachilik rivojlangan Osiyo hamda Afrikaning cho'l va chalacho'l zonalarida aholi zichligi 1 km² ga 1 kishidan to'g'ri kelar edi.

Jamiyat taraqqiy etib borishi, ishlab chiqarish usullarining shakllanishi, jahon demografik vaziyatida qator o'zgarishlarga olib

keldi. XIX-XX asrga kelib yer yuzi aholisi juda yuqori sur'attalar bilan ko'payab borib, aholining yer yuzi bo'ylab joylashuvida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aholi zich hududlardan, ayniqsa, Yevropadan Amerika va Okeaniyaga ko'plab aholi ko'chib ketdi. Milodning dastlabki yillarida sayyoramiz aholisining 82,7 foizi Yevropa va Osiyo hududlarida joylashgan bo'lisa. 2000-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 15 foizga kamaydi va 67,7 foizni tashkil etdi.

Amerika, Avstraliya va Okeaniyada istiqomat etuvchi aholi hissasi esa dunyo aholisi umumiy sonidan ortib bordi. Miloddan keyingi 1000 yilda dunyoda 305 million aholi istiqomat etgan bo'lisa, uning 63,9 foizi Xorijiy Osiyoda, 14,8 foizi Yevropada, 13,1 foizi Afrikada, 3,3 foizi MDH davlatlari hududida, 4,6 foizi Amerikada va 0,3 foizi Avstraliya va Okeaniyada yashagan. 2009-yilda esa dunyo aholisining 60,5 foizi Osiyo, 10,8 foizi Yevropa, 14,7 foizi Afrika, 13,5 foizi Amerika va 0,5 foizi Avstraliya va Okeaniyadagi davatlarda istiqomat etadilar.

Aholi joylashuvining eng asosiy ko'rsatkichi aholi zichligidir. Aholi zichligi, 1 km^2 ga to'g'ri keladigan doimiy aholi sonidir.

Aholi zichligi = P/Q :

P – hududning doimiy aholi soni;

Q – hududning maydoni (yirik suv havzalari maydoni hisobiga olinmaydi)¹.

Hozirgi davrda yer yuzi hududlari bo'ylab aholi juda notkis joylashgan. Sayyoramizda aholi juda zich (1 km^2 ga 1000 kishi) yashaydigan hududlar bilan bir qatorda aholi yashaymaydigan hududlar ham uchraydi. Bu yerlarda havo harorati juda past, suv yo'q va boshqa sabablar mavjud. Bunday hududlar Yer sharidagi quruqlikning 10 foizini tashkil etadi. Ularga Shimoliy va Janubiy qutblar, balandligi 5000 metrdan ziyod tog'lar va sahrolar kiradi. Yer sharidagi quruqlikning 50 foizi esa aholi yashashi uchun tabiiy sharoit noqilay bo'lib, ularda aholi siyrak – 1 km^2 ga 1 kishidan joylashgandir. Ushbu hududlarga tundra, o'rmon-tundra, shimoliy tayga, cho'l, chalacho'l va nam ekvatorial o'rmonlar kiradi. Quruqlikning 25 foizida aholi zichligi 1 km^2 ga 1-10 kishini tashkil etib, bu yerlar aholi nishbatan siyrakroq joylashgan. Yer sharidagi quruqlikning qolgan 15 foizida esa aholi zichligi 1 km^2 ga 10 kishidan oshadi.²

¹ Демографический и индустриальный словарь. - М.: 1985. С.329.

² Сагитов Ю.А. Территориальная организация населения. - М.: 2004. С. 45.

Yer sharida aholi yashaydigan asosiy hududlar 78° shimoliy kenglik va 54° janubiy kenglik orasida joylashgandir. Yer yuzida aholi eng zinch joylashgan hududlar juda qadimdan san'at va madaniyat markazlari bo'lib kelgan Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikadagi daryo vodiylari hamda Yevropadagi sanoat markazlari bo'lib, ular Yer sharidagi quruqlikning bor-yo'g'i 7 foizini tashkil etadi. Bu hududda dunyo aholisining deyarli 70 foizi joylashgan. Yer shari aholisining 4/5 qismi tekisliklarda va 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashgan va bunday hududlar yer yuzidagi quruqlikning 28 foizini tashkil etadi¹.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2009-yil aholi zinchligi 1 km² ga Osiyoda 129, Afrikada 33, Amerikada 22, Yevropada 32, Avstraliya va Okeaniyada 4, dunyo bo'yicha esa 50 kishini tashkil etmoqda². Agar aholi 1 km² ga 50 kishiga to'g'ri kelsa, aholi zinchligi yuqori hisoblanadi. XXI asr boshida sayyoramizda aholi zinchligi yuqori ekan. Dunyoda aholi zinchligi bo'yicha birinchi o'rinda Yevropada joylashgan Monako davlati turadi. Bu davlatda 2009-yil 1 km² ga 35382 kishi to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinnlarda Xitoy – Makaosi (21346 kishi), Singapur (7486 kishi), Xitoy – Gonkong (6403 kishi), Baxreyn (1754 kishi), Bangladesh (1127 kishi), Maldiv orollari (1057 kishi), Malta (1310 kishi) davlatlari turadi. Qayd etilgan davatlarda aholi zinchligi 1 km² ga 1000 kishidan yuqoridir. Shuningdek, aholisi juda siyrak joylashgan davatlar ham bo'lib, ularda aholi zinchligi 1 km² ga 2-3 kishini tashkil etadi. Bunday davatlarga Afrikada joylashgan G'arbiy Saxara, Mavritaniya, Botswana, Namibiya, Amerikada joylashgan Kanada, Gviana Fraki, Surinam, Osiyodagi Mongoliya, Yevropada joylashgan Islandiya, Avstraliya va Okeaniya hududidagi Avstraliya davatlari kiradi.

Dunyoda aholi soni ko'payib borishi bilan mutanosib ravishda uning zinchligi ham ortib boradi. Chunonchi, 1920-yilda dunyoning aholi yashaydigan quruqlik qismida 1 km² ga 13 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1950-yili 18 kishini, 1999-yili 45 va 2017-yili 53 kishini tashkil etdi. Bunday jarayon dunyoning barcha hududlarida ham kuzatiladi.

Yevropa – dunyo qit'alari tarkibida aholi zinchligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. 2017-yilda Yevropa aholisining soni 745

¹ Demograficheskiy entsiklopedicheskiy slovar'. -M., 1985. C. 274.

million kishiga yetdi. Aholi eng zinchligi joylashgan hudud – Reyn daryosi vodiysi idir. Bu yer juda hosildor lyossimon tuproqlardan tashkil topgan bo'lib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun qulaydir. Shuningdek, aholi zinchligi Dunay daryosi vodiysida ham yuqoridir.

G'arbiy Yevropa davlatlarida aholi zinchlik ko'rsatkichi qit'a bo'yicha yuqoridir. 2009-yili ushbu hududda aholi zinchligi 1 km² ga 170 kishini tashkil etgan. Shuningdek, Belgiya (354 kishi), Germaniya (230 kishi), Niderlandiya (398 kishi) davlatlari ham dunyodagi aholisi zinch joylashgan davlatlar qatoridadir. Sharqiy va Janubiy Yevropa davlatlarida ham aholi zinchligi yuqoridir. 2009-yili ushbu hudud bo'yicha aholi zinchligi 1 km² ga 116 va 118 kishini tashkil etgan.

Shimoliy Yevropa qit'asidagi aholi nisbatan siyrak joylashgan hudud hisoblanadi. Hozirgi davrda 1 km² ga 55 kishi to'g'ri kelmoqda. Islandiyada aholi zinchligi 1 km² ga 3 kishini tashkil etadi. Estoniya (30 kishi), Finlyandiya (16 kishi), Latviya (35 kishi), Norvegiya (13 kishi) va Shvetsiya (21 kishi) davlatlarida ham aholi zinchligi ko'rsatkichi dunyo aholi zinchligi ko'rsatkichidan ancha pastdir, chunki, bu yerlar iqlimi sovuq bo'lib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay emas.

Yevropaning shahar va qishloq hududlarida aholi zinchligi keskin farqlanadi. Qit'ada urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi aholi zinchligi ortib borishidagi asosiy omillardandir. Yevropadagi aholi zinchligi 1970-yili 1 km² ga 94 kishini, 2005-yili – 123 kishini va 2009-yili – 132 kishini tashkil etgan.

Osiyo – aholi zinchligi bo'yicha Yevropadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 2009-yili Osiyoda 1 km² ga 129 kishi to'g'ri kelgan. Bu qit'ada dunyo aholisining yarmidan ko'pi istiqomat etadi. Sharqiy Osiyoda Yaponiya, Xitoy, Koreya, Janubiy Osiyoda esa Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlar joylashgan bo'lib, ular dunyodagi aholi zinchligi bo'yicha eng yuqori o'rinnarni egallaydi. Osiyo aholisining asosiy qismi Hindi Xitoy yarimorolida va Indoneziya orollarida joylashgan bo'lib, ularda aholi zinchligi 1 km² ga 400-500 kishiga teng. G'arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida, Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Mongoliyada aholi siyrak joylashgan bo'lib, 1 km² ga 2-3 kishini tashkil etadi.

Osiyoda dunyo qishloq aholisining katta qismi istiqomat etib, ular qishloq xo'jaligi, ayniqsa, dehqonchilik uchun qulay yerlar –

Xitoydagagi yirik daryolar, Gang, Braxmaputra, Mekong vodiylarida, Koreyaning janubiy qismi, Yaponiya va Yava orollarida joylashgan. Bu hududlar maydoni 2,5 mln. km² bo'lib, ularda taxminan 2 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Aholi zichligi Hind va Ganga daryolari vodiylarida, Xuanxe va Yanszi daryolari deltalarida juda zich bo'lib, 1 km² ga 1000-1500 kishini tashkil etadi.

Osiyo aholisining 2/3 qismi Xitoy va Hindiston davlatlarida joylashgan va ular aholi soni bo'yicha jahon davlatlari ichida birinchi va ikkinchi o'rinda turadi. 2005-yil ma'lumotiga ko'ra Xitoyda 1 km² ga o'rtacha 135 kishi to'g'ri kelgan; tog' va cho'l hududlarida aholining zichligi 1 km²ga 1 kishi, dengiz sohillaridagi pasttekisliklarda – 1000 kishini tashkil etadi.

Hindiston hududi bo'ylab aholi nisbatan tekisroq joylashgan. 2005-yilda Hindiston aholisining zichligi 1 km²ga 330 kishi 1975-yilda 182 kishini tashkil etgan. Hindistonning Himolay hududi va Tar cho'llarida aholi siyrak joylashgan.

Indoneziya hududida aholi bir xilda taqsimlanmagan. Yava orollarida aholi zichligi 1 km²ga 1000 kishidan ortiq bo'lsa, Kalimantan va Yangi Gvineya orollarida bu ko'rsatkich 1 kishini tashkil etadi. Yaponiya davlati ham dunyodagi aholi zich joylashgan hududlarga kiradi. 1975-2005-yillarda Yaponiyada aholi zichligi 1 km²ga 1000 kishini tashkil etgan; tog'li hududlarda va Xokkaydo orolida aholi siyrak joylashgan.

Osiyoda aholi doimiy yashamaydigan tog'li hududlar (Tibet, Hindikush, Himolay tog'lari), cho'llar va chala cho'llar (Rub-al-Xali, Takla-Makon, Gobi cho'llari, Devir dashti) ham mavjud. Afg'oniston, Suriya, Eron. Turkiya davlatlari hududlarida ham aholi juda siyrak joylashgan, chunki bu joylarning tabiiy sharoiti dehqonchilik uchun uncha qulay emas va aholi ko'proq ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Afrika – sayyoramizdagagi aholi nisbatan siyrak joylashgan hududdir. Qit'a aholisining o'rtacha zichligi 1 km²ga 1970-yili o'rtacha 12 kishini, 2005-yili – 29 kishini va 2009-yili o'rtacha 33 kishini tashkil etgan. 39 yil davomida aholi zichligi 2,7 marta oshgan. Afrikada aholining siyrak joylashuvi bir tomonidan tabiiy sharoitning qishloq xo'jaligi uchun qulay emasligi, ichimlik va sug'orish uchun suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchi tomonidan Afrika davlatlarining juda uzoq davr Yevropa davlatlari mustamlakasi bo'lib kelganligidir,

chunki, koloniya sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sekin, o'ziga xos boradi. Ushbu jarayon esa aholining tabiiy o'sishiga, umr ko'rish muddatiga salbiy ta'sir etadi. Natijada, aholi soni sekin ko'payadi va aholi zichligi ham shunga mos tarzda o'zgaradi. Juda ko'p Afrika davlatlarida aholi zichligi 1 km²ga o'rtacha 10 kishi atrofida. Aholining eng yuqori zichligi Mavrikiy, Reyunon va Viktoriya ko'li atrofida joylashgan Ruanda va Burundi davlatlarida (1 km²ga o'rtacha 400-450 kishi), aholi eng siyrak joylashgan yerlar esa Botsvana, Liviya va Namibiya davlatlarida (1 km² ga 1 kishi) kuzatiladi.

Afrikada ham aholi joylashuvida suv resurslarining asosiy omil ekanligi yaqqol kuzatiladi. Nil daryosi vodiylarida, Gvineya qo'lting'i, Tunis, Jazoir va Marokashning sohil bo'yalarida aholi zieg va aksincha, Sahroi Kabir, Kalaxari va Liviya cho'llarida, shuningdek, tropik o'rmonlarda aholi juda siyrak, ba'zi cho'llarda esa umuman aholi yashamaydi.

Afrikaning ayrim hududlarida, ayniqsa, shimoliy qismida, aholi juda notekis joylashgan. Bu yerda aholi eng zich joylashgan – O'rta dengiz sohillari bilan aholisi juda siyrak Sahroi Kabir cho'li mavjud. Marokashning shimoli-g'arbida ushbu davlat aholisining 90 foizi istiqomat etadi va aholi zichligi 1 km²ga o'rtacha 200 kishidan ortiq, janubi-sharqiy qismidagi tog' va cho'l hududlarida esa aholi siyrak joylashgan va 1 km² ga 1 kishini tashkil etadi.

Aholi joylashuvi bo'yicha Nigeriya Afrikadagi o'ziga xos hudud sanaladi va bu yerda aholi nisbatan bir tekis joylashgan. 1962-2005-yillarda Nigeriyada aholi zichligi 39dan 148ga yetdi, yoki 3 barobarga oshdi. Aholi eng zich joylashgan hudud – Nigeriyadagi Lagos aglomeratsiyasidir. Misr davlatida esa aholi joylashuvi ancha notekis: aholining asosiy qismi Nil vodiysida yashab, zichlik 1 km² ga 1000 kishidan ortiq. Qohira aglomeratsiyasida ham aholi zich joylashgan. Misrning g'arbiy va sharqiy qismlarida aholi siyrak tarqalgan. Efiopiya, Kongo, Gambiya, Komor orollari, Ruanda, Uganda kabi davlatlarda ham aholi zichligi 1 km²ga o'rtacha 60-350 kishini tashkil etadi.

Amerika – ham Yer sharidagi aholi siyrak joylashgan hudud bo'lib, hozirgi davrda (2009-yil) 1 km² ga o'rtacha 22 nafar aholi to'g'ri kelmoqda. Amerikada aholi joylashuvi uning alohida hududlari bo'yicha farq qiladi. Shimoliy Amerikada esa AQSH va Kanada

davlatlari joylashgan bo'lib, ularda aholi zichligi 1 km²ga 2005-yilda 17 kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich mos ravishda Kanadada – 3. AQSHda – 31 kishiga yetgan. Amerikada aholi eng zich joylashgan davlatlar qatoriga Barbados, Puyerto-Riko, Salvador, Antil orollari kiradi.

Shimoliy Amerikada aholi Janubiy Amerikaga nisbatan siyrakroq joylashgan. AQSHning Atlantika okeani sohillaridagi Rod-Aylend, Nyu-Jersi, Pensilvaniya shtatlarida aholi zich joylashgan va G'arbga borgan sari aholi zichligi kamaya boradi. Missisipi vodiyisidan so'ng tog'li hududlar boshlanadi va bu yerlarda aholi juda siyrak bo'lib. 1 km² ga 1 kishidan to'g'ri keladi. Tinch okeani sohillarida, ayniqsa, Kaliforniyada aholi zichligi yana ortib boradi. Kanadada ham aholi nisbatan siyrak joylashgan bo'lib. 1 km² ga o'rtacha 3 kishidan to'g'ri keladi. O'ziga xos tomoni juda katta maydonni tayga va tundra zonalari egallagan. Kanadaning shimoliy qismi, arktik orollarda, AQSHga tegishli Alyaska yarim orolida ham aholi juda siyrak joylashgan.

Janubiy Amerikada ham aholi suv resurslariga yaqin, okean sohillari bo'ylab joylashgan. Braziliyaning San-Paulo shtatida va sharqiy qismida, Parana pasttekisligida aholi nisbatan zichroq joylashgan bo'lib, 1 km² ga o'rtacha 50-55 kishini tashkil etadi. Karib dengizi orollari va Bermuda orollarida ham aholi zich 1 km² ga o'rtacha 300-400 kishidan ortiq. Amazonka vodiyisining tropik o'monlar va botqoqliklar bilan qoplangan qismi, baland And tog'lari va Atakama cho'lida esa aholi deyarli yashamaydi.

Aholi joylashushi bo'yicha Lotin Amerikasi demografik vaziyatida XX-XXI asrlarda keskin o'zgarish bo'lgan. Ushbu davrda Lotin Amerikasi aholisi deyarli 8 barobarga ko'paygan. 1900-yilda mazkur hududda 65 mln. aholi yashagan bo'lsa, 2005-yilda aholi soni 530 mln.dan oshib ketgan va bu ko'rsatkich sayyoramiz aholisining 8,8 foizini tashkil etgan. Mazkur hududda aholi ko'payishi bilan uning zichligi ham ortib borgan; 2005-yilda Lotin Amerikasi va Karib havzasi davlatlarida aholi zichligi 1 km² ga o'rtacha 29 kishini tashkil etgan.

Australiya va Okeaniya – aholi zichlik ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda eng oxirgi o'rinda turadi. XXI asr boshida (2009-yil) 1 km² ga o'rtacha 4 kishi to'g'ri kelgan. Ammo qit'aning ichida aholi zichligi keskin bir biridan farq qiladi. Avstraliyada qit'a abolisining

deyarli yarmi istiqomat etadi. ular juda siyrak joylashgandir. 2009-yilda bu davlatda aholi zichligi 1 km^2 ga o'rtacha 3 kishini tashkil etgan. Avstraliya – dunyodagi aholi eng notejis joylashgan davlat bo'lib, unda butun hudud aholisining $2/3$ qismi istiqomat qiladi va maydoni esa hudud maydonining 10 foizini tashkil etadi.

Avstraliyada aholi uning Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubi-G'arbiy qismida, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya va Kvinslend shtatlarida aholi zich joylashgan. Bu hududlarda Avstraliyaning 90 foizdan ko'p aholisi istiqomat etadi. Aholi zichligi 1 km^2 ga o'rtacha 20 kishidan to'g'ri keladi. Avstraliya bo'yicha o'rtacha aholi zichligi esa 1 km^2 ga 2 kishini tashkil etadi. Markaziy va Shimoliy Avstraliyada joylashgan cho'l hududlarida mahalliy tub aholi – avstraliyalik aborigenlar yashaydilar. Ular son jihatdan juda kam bo'lib, zichlik ham nisbatan pastdir. Shuningdek, Yangi Gvineyaning janubiy qismida ham aholi siyrak joylashgan. Chunki, bu hududlar maydonida ham tabiiy sharoit inson yashashi uchun noqulay bo'lib, tropik o'rmonlar va botqoqliklardan iborat. Materikda joylashgan Marshall, Guam orollarida, Nauru hududida aholi zichligi yuqori bo'lib, hozirgi davrda 1 km^2 ga o'rtacha 140-465 kishidan to'g'ri kelmoqda.

Yer shari bo'ylab aholining joylanishi ma'lum bir o'leham va tipdag'i xilma-xil shakkarga ega aholi manzilgohlari tizimi hamda to'rini vujudga keltiradi. Demak, odamlarning doimiy yoki vaqtincha to'planadigan, mujassamlashadigan (konsentratsiya) joyi – aholi manzilgohlari deb nomlanadi. Bu aholi manzilgohlari odamlarning yashash joyi, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste'mol qiladigan markazlari, avlodlarning takror barpo bo'ladigan ijtimoiy hayot o'chog'i hisoblanadi.

Aholi joylashshining hududiy ko'rinishi, ya'ni shakli – aholi manzilgohlaridir. S. A. Kovalyov aholi va aholi manzilgohlarini – inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitga ega ma'lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi deb ta'riflaydi (1963. 6-bet).

Aholi va aholi manzilgohlarining joylanishida aniqlangan hududdagi aholi manzilgohlari yig'indisi ularning bir-biri bilan aloqasi orqali to'rini tashkil etishini ham anglatadi. Mamlakat xo'jaligi va xalqlarning yashash sharoiti uchun aholi manzilgohlari to'rinig kengayishi, rivojlanishi va joylanishi muhim ahamiyat kasb

etadi. Chunki, aholi va xo'jalikni geografik nuqtayi nazardan baholashda barcha aholi yashash manzilgohlari tiplari va turlarini o'rghanish zarurdir.

Aholini geografik o'rghanishda ikki yo'nalish mavjud. Birinchidan, demografik yo'nalishda, ya'ni aholining o'sishi, yoshi va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo'lishiga ko'proq e'tibor berilsa, ikkinchisida yuqoridaagi geografik jarayonlarning natijasi bo'lmish aholi manzilgohlari, ulaming to'ri alohida tadqiq etiladi (Soliyev, Qarshiboyeva, 1999).

Jamiyat hayotining asosini moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati biron-bir aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zam'in bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Muruntov oltin konining topilishi natijasida Zarafshon, Uchquduq shaharlari vujudga keldi yoki Qarshi va Mirzacho'l hududida yangi yerlarning o'zlashtirishi qator aholi manzilgohlari barpo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xilma-xil ishlab chiqarish faoliyati aholi va aholi manzilgohlari o'Ichami va shakliga turlicha ta'sir etadi. Jumladan, Muruntov oltin konining topilishi shu hududda aholining mujassamlashuviga (konsentratsiya) olib keldi. O'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning boshqa turlari rivojlanishiga ham turtki bo'ldi.

Turli yiriklikdagi aholi manzilgohlari, ularning yirik murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har xil yosh va jins, millat, elat, kasb-hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi, ularga makon jihatdan umumiylig shart emas. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi manzilgohlari muhim o'rinnegallaydi. U xalq xo'jaligining hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarini bir-birlari bilan bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, aholining uchta funksiyasini fanda ajratib ko'rsatishadi. Bularga aholi ishlab chiqaruvchi kuch ekanligi, ikkinchisi o'zi yaratgan moddiy va ma'naviy boylikni iste'mol qilishi va uchinchisi o'z-o'zidan ko'payishidir. Oldingi ikki funksiya aholini sotsial-iqtisodiy kategoriya ekanligini, so'nggisi esa uni biosotsial yoki demografik kategoriya sifatida tavsiflaydi.

Yer sharijadi har bir alohida hudud aholi va aholi manzilgohlari tarixiy, tabiiy shart-sharoit va etnografik jihatlaridan kelib chiqib xilma-xil o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Jumladan, tabiiy shart-sharoit

aholi manzilgohlari joylashuviga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir etadi. Qachonki, aholi manzilgohlari uchun joy tanlanayotganda bevosita tabiiy sharoit bilan (relyef, suv bo'yli, shamol yo'li, seysmik, eroziya va boshqalar) hisoblashmaslikning iloji yo'q. Agarda aholi manzilgohlari ishlab chiqarish faoliyati nuqtayi nazardan vujudga kelsa, tabiiy sharoit bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday aholi manzilgohlarini geografik jihatdan majmuali tadqiq etishda avvalo unda yashovchilarning soni va tarkibi, bandligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan mavqeい. (madaniy, iqtisodiy va siyosiy) boshqa aholi manzilgohlari bilan aloqasini mukammal bilish talab etiladi va o'z navbatida, yuqorida keltirilgan tarixiy, tabiiy va etnografik tomonlarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga kash etadi.

Aholi manzilgohlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli vujudga kelgan aholi manzilgohlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yuksalgan sayin rivojlanib boraveradi. Masalan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi mavjud turli xil aholi manzilgohlarining ham eniga, ham bo'yiga o'sishiga olib keladi. Bir vaqtlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlari respublika viloyatlari tarkibida umuman bo'limgan bo'lsa, keyinchalik, yuqoridagi sanab o'tilayotgan omillar tufayli, kichik-kichik qishloqlar o'rnida yoki umuman aholi yashamaydigan joylarda yangidan yangi aholi manzilgohlari barpo qilindi va ular bugungi kunda bir necha o'nlab aholi manzilgohlarini o'zida mujassamlashtirgan yirik viloyatlarga aylandi. Aholi va aholi manzilgohlarining joyylanishi shakllari xilma-xil bo'lganligi bois, ularni yirik ikkita tipga ajratishadi, tarqoq (dispers) va guruhlangan shakllari. Tarqoq joylashgan aholi manzilgohlari – yakka holda qurilgan yashash joyi bo'lib, ular ko'proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma'lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi. Guruhlashgan holda joylashgan aholi manzilgohlari – turli xil kattalikdagi shahar va qishloq aholi manzilgohlari ko'rinishda bo'ladi. Shu boisdan ham bunday guruh ko'rinishidagi aholi manzilgohlari ikkita – shahar va qishloq aholi manzilgohlariga bo'linadi. Qishloq, odatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. Shaharlarning ko'p funksiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotning

ko'p tarimoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi rol o'ynashini ta'minlab beradi. Qishloq shaharga ma'lum darajada bo'ysunadi, uni qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan, aholisini toza havo, suv, iqtisodiyotini ishchi kuchi bilan ta'minlab turadi. Shahar esa qishloqqa malakali kadrlar, qishloq xo'jaligiga mashina, asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, zamonaviy servis xizmatini yetkazib beradi¹.

Shahar va qishloq aholi manzilgohlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtaida aniq chegara o'tkazib bo'lmaydi. Sababi, shahar-qishloq oralig'ida ham qator aholi manzilgohlari mavjudki, ular biri ikkinchisi bilan tutashib ketgan. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi zichligini topish formulasini keltiring?
2. Dunyodagi aholi zich joylashgan arecallarni aniqlang?
3. Aholi manzilgohlari joylanishi deganda nimani tushunasiz?
4. Aglomeratsiya, megopolis, suburbanizatsiya, rururbanizatsiyaning ko'rinishlarini keltiring?
5. Yevropada aholining joylashuvi (tayanch iboralar: aholi joylashgan joylar, aholi siyrak joylashgan joylar)
6. Aholi joylanishining asosiy shakllari qanday paydo bo'ladi va ular orasidagi farq nima bilan belgilanadi?
7. Aholi joylanishining asosiy geografik xususiyatlarini sanab bering?
8. Aholi zich joylashgan asosiy arecallarning aholisi joylashuvini baholang?

¹ Салиев А., Назаров М. Ўзбекистон кишихонари (Кишилар жойини таҳсиллаштирун). -Т.: "Fan va texnologiya", 2009. Б.18-19.

13-MAVZU. SHAHAR AHOLOSI GEOGRAFIYASI VA URBANIZATSIYA JARAYONI

Reja:

- 13.1. Shahar aholisi va uning geografik xususiyatlari.
- 13.2. Shahar aholi manzilgohlarini klassifikatsiyalash.
- 13.3. Aglomeratsiyalar va megalopolislar.

13.1. Shahar aholisi va uning geografik xususiyatlari

Shaharlar yirik aholi manzilgohlari bo'lib, unda yashaydigan kishilar qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohatlarda shug'ullanishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaruv markazi rolini o'ynagan. Shahar aholi manzilgohlari o'lchami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi manzilgohlaridagiga nisbatan ko'p sonlligi hamda zichligi bilan tavsiflidir. Shaharlarning qudrati ularda mujassamlangan iqtisodiy, intellektual va demografiq salohiyat bilan belgilanadi.

Dunyo miqyosidagi shaharlarni aholiyligiga ko'ra maqom berishda aniq chegaralangan bir xil miqdordagi senz mavjud emas. Har bir davlatdagi shaharlar bajaradigan funksiyasi va aholi manzilgohlarining roli va aholi soniga qarab ajratiladi. Masalan, Daniya va Islandiyada aholisi 200 kishi va undan ko'p bo'lgan aholi manzilgohlari shahar deb ataladi. Bundan tashqari Yaponiyada – 30 mingdan oshiq, Niderlandiyada – 20 ming, Turkiyada – 10 ming, Hindiston va Pokistonda – 5 ming, Meksikada – 2.5 ming, Fransiyada – 2 ming, AQSHda – 2.5 ming, Xitoyda – 3 ming, Germaniyada – 5 ming kishi va undan ko'p aholi yashaydigan aholi manzilgohlari shahar qatoriga kiritiladi. Rossiyada – 12 ming, O'zbekistonda esa 7 ming aholisi bor punktlar shahar hisoblanadi. Ammo, dunyoda shunday aholi manzilgohlari borki, ular faqat ma'muriy markaz bo'lganligi bois shahar deb nomlanadi. Chunonchi, ayrim mamlakatlardagi barcha aholi manzilgohlarining ma'muriy markazlari, poytaxtlari shaharlar sirasiga kiritiladi. Masalan, Jazoir, ekvador shular jumlasidandir.

Aholi manzilgohlari shaharga aylanishida ularning iqtisodiy salohiyati, funksiyasi ham muhim mezonlardan biri. Shahar aholi

manzilgohlarida yashovchilar qishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lmasligi yoki juda kam sonlini tashkil etishi kerak. Masalan, Rossiya shaharlaridagi aholining atigi 15 foizga yaqini qishloq xo'jaligida band bo'lishi mumkin. Hindistonda esa mehnatga layoqatli erkaklarning 3/4 qismi qishloq xo'jaligida band bo'limgan aholi manzilgohlarida yashasa bunday punktlar shaharlar sifatida qabul qilinadi.

O'zbekistonda ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolari shahar aholisining 2/3 qismidan ko'prog'ini tashkil etishi hamda bunday aholi manzilgohlarida sanoat korxonalari (og'ir industrial), kommunal xo'jalik tashkilotlari, davlat uy-joy fondi, o'quv yurtlari, madaniy-ma'rifiy, tibbiy, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari mavjud bo'lishi lozim. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas.

Sobiq SSSR davrida aholi manzilgohlariga shahar maqomini berish bo'yicha bir qator qonun-qoidalar qabul qilingan. Bunday qonun-qoidalar ayrim respublikalarda o'zaro farq qilar edi. Masalan, Ukrainada aholi soni shaharlar uchun 10000, shahar tipidagi posyolkalar (SHTP) uchun 3000 kishi qilib belgilangan. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich tegishlicha 7000 va 2000 kishini tashkil etadi.

Aholi punktida istiqomat qiluvchilarning ko'pchilik qismi mehnatning qanday turi bilan bandligi darajasi ham shaharcha maqomini berishda muhim belgilardan hisoblanadi. Chunonchi, Gruziyada ham, Turkmanistonda ham aholi punkti shahar maqomini olishi uchun, u yerda 5000 kishidan kam bo'limgan aholi istiqomat qilishi kerak. Lekin, Gruziyada aholining 75% dan ortig'i ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi talab etilsa, Turkmanistonda buning uchun 66 % aholi kifoya.

Shahar aholi manzilgohlarining shahar, deb nomlanishida unda yashovchilar miqdori ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va shaharlarning o'sib borishi – urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon san-teknika

inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi¹.

BMT bergan statistik ma'lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi shaharlarda yashaydi, ya'ni 2009-yilda Yer shari aholisining 50 foizi shaharlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2017-yilda 54 foiz dunyo aholisi shaharlarda yashadi va bu ko'rsatkich 2030-yilda 60 foizni, ya'ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil etadi. Bunday shahar aholisining o'sishi faqat tabiiy ko'payish hisobiga ro'y beradi. 2000-2030-yillar orasida yiliga 1.8 foizdan ortib boradi, bu global o'sishidan ikki marta ko'p degani. Shuningdek, bugungi kunda dunyoning 20ta shahrida 10 million kishi yashamoqda (15tasi rivojlanayotgan davlatlarda) bu jahon aholisining 4 foiziga teng. 2015-yilda shunday liga shaharlar 22taga yetadi va ularda 5 foiz dunyo aholisi yashaydi².

Davlatlar o'rtasida shahar aholisi ustun bo'lgan mintaqalarga rivojlangan davlatlarni kiritish muunkin. Masalan, Yevropa aholisining 74 foizi shaharlarga to'g'ri keladi. Osiyoda bu ko'rsatkich 49 foiz (2017-yil), Yaponiya (94 foiz), Koreya respublikasi (83 foiz), Singapur (100 foiz), Malayziya (75 foiz), Eron (73 foiz), Quvayt (98 foiz), Baxrayn (100 foiz) va qator G'arbiy Osiyo mamlakatlari aholisining hududiy tarkibida shahar aholisi ustunlik qiladi.

Dunyoda shahar aholisining soni to'xtovsiz o'sishida davom etmoqda. Jumladan, 1900-yilda shahar aholisi jami aholining 3 foizini, 1860-yilda -- 6,4 foizni, 1990-yilda -- 19,6 foiz, 1990-yilda 43 foiz, 2005-yilda esa 48 foiz, 2017-yilda 54 foizni tashkil qilgan. Bundan aholining shaharlarda konsentratsiyalashushi, ya'ni mujassamlashushi tezlashganini kuzatamiz. Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasini belgilaydi va o'z navbatida, ular orasidagi aloqadorlik mohiyatini ifodalaydi. Chunonchi, agar urbanizatsiya darajasi taxminan 70-75 foiz va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat; 50-70 foiz industrial-agrar; 30-50 foiz -- rivojlanayotgan agrar-industrial va 30 foizdan past, sust rivojlangan agrar mamlakat hisoblanadi.

¹ Гуломов О. Жигирофияларнига на тунгумчлари ишоҳи аудаги. - Ташкент "Ўқитувчи". 1994. 6.112.

² Народонаселение мира 2004 в году. -2004, C. 29-30.

Binobarin. urbanizatsiya darajasi bo'yicha mamlakatlarni solishtirganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, aholi soni);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi, tarkibi va h.k.

Bulardan shahar aholi salmog'i urbanizatsiya darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u Yer sharining barcha hudojdarida urbanizatsiya jarayonining borishini ko'rsatadi. Jumladan, urbanizatsiya darajasining ahamiyatli tomonlarini quyidagilarda yaqqol ko'rish mumkin:

1. Urbanizatsiya darajasi 10 % bo'lsa, bunday hudud urbanizatsiyalashmagan bo'ladi. Qishloq aholi manzilgohlari bilan shahar aholi manzilgohlari orasidagi farq deyarli bo'lmaydi. Qishloq turmush tarzi aks etadi va shahar aholi soni yoki shaharliklar hissasi juda sekinlik bilan ko'payadi;

2. Agarda urbanizatsiya darajasi 25 % dan past bo'lsa, qishloq aholi manzilgohlari ustunligi seziladi, hudud kuchsiz urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Ammo shahar turmush tarzi aks eta boshlaydi, oqibatda, shahar aholisi tezlik bilan ko'payadi, ommaviy shahar aholi manzilgohlari paydo bo'la boshlaydi. shahar va qishloq aholi manzilgohlari o'rtasidagi farq kattalasha boradi;

3. Urbanizatsiya darajasi 50 % ga etsa, shahar aholisining qishloq aholisidan ustunligi seziladi, hudud o'rta urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar aholi soni va o'sish sur'ati katta bo'ladi, shahar aholi manzilgohlari qishloqlardan yaqqol ajralib turadi;

4. Urbanizatsiya darajasi 75 % ni tashkil etganda, shaharlar qishloqlardan aniq farq qiladi, shahar turmush tarzi qishloq joylarga ham tarqala boshlaydi. Shahar aholisining hissasi va aholi o'sish sur'ati bordan sekinlashadi;

5. Mintqa, mamlakat, hudud aholisida shahar aholisi hissasi 90 % bo'lsa, to'liq urbanizatsiyalashgan hisoblanadi. Shahar turmush tarzi barcha qishloq aholi manzilgohlariiga tarqaladi, qishloq bilan

shahar orasidagi farq yana butunlay yo'qoladi. Aholi soni va salmog'i juda sekinlik bilan o'sadi, hatto ba'zi hollarda kamaya boradi¹.

Yevropa mamlakatlarida bugungi kunda aynan shahar aholisi salmog'ida kamayish hodisasi ro'y bermoqda. Yevropa davlatlari deyarli hammasida shahar aholisi jami aholining 50 foizdan ko'pini tashkil qiladi (2017-yil). Faqatgina, Albaniya 56 foiz, Bosniya va Gersegovina aholisining esa 40 foizi shahar aholisi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa davlatlaridan Daniya (72 foiz), Shvetsiya (84 foiz), Angliya (80 foiz), Germaniyani (73 foiz) to'laligicha urbanistik tavsifga ega deyish mumkin.

Urbanizatsiya darajasining keskin farq qilishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim o'rin tutadi. Biron-bir mamlakat, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha joyda urbanizatsiya darajasi, shahar aholisi salmog'i katta bo'ladi. Ayrim hollarda tabiiy omillar tufayli ham urbanizatsiya darajasi ko'tarilishi mumkin. Masalan, istiqbolli foydali qazilma konlari, qulay iqtisodiy geografik o'rini va h.k.

Shulardan iqtisodiy geografik o'rni (IGO') shahar va shahar aholi manzilgohlari tarkib topishida muhim omil hisoblanadi. Ma'lumki, IGO' mikro, mezo va makro darajada ajratib ko'rsatiladi. Shahar aholi manzilgohlari paydo bo'lishida, IGO'ning mikrodarajadagi ahamiyati katta mavqega ega bo'ladi. Uning mezo va makrodarajadagi ahamiyati esa keyinchalik shaharchalarning rivojlanishi va yirik markazlarga aylanishida muhim o'rini tutadi. Binobarin, ayrim shaharlarning mikrodarajadagi o'rni noqulayligi uning asta-sekin yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin. Shaharlarning mezodarajada o'rni qulayligi uning yirik va katta shaharlarga aylanishiga zamin bo'lishi mumkin. Agarda bu aksincha bo'lsa, shahar kichik holatida qolaveradi.

Shaharlar IGO'nini to'rtta bosqichiga ajratish tavsiya etiladi:

mikro o'mi – yaqin shahar atrofiga nisbatan o'mi;

mezo o'mi -- mamlakat katta bir qismiga yoki uncha katta bo'limgan davlatga nisbatan o'mi;

makro o'mi – yirik davlat chegaralariga nisbatan o'mi;

mego o'mi – dunyo miqyosida yoki uning yirik regionlariga nisbatan tutgan o'mi.

¹ Коновалов В.А. География населения. Учебное пособие. - М.: Маркерин, 1999.-С.117.

Yer shari mintaqalarida urbanizatsiya darajasi¹

mintaqalar	Shahar aholisining hissasi, foizda				
	1900-yil	1950-yil	2000-yil	2010-yil	2017-yil
Shimoliy Amerika	39	64	78	79	81
Lotin Amerikasi	13	41	77	77	80
Xorijiy Yevropa	35	54	76	71	74
Australiya va Okeaniva	30	62	74	67	69
Xorijiy Osiyo	5	17	38	42	49
Afrika	3	15	37	38	41
Dunyo bo'yicha	14	29	48	50	54

Makrodarajadagi o'rin shaharlar rivojlanishida, yuqori bosqichlarga chiqishida alohida ahamiyatga ega. Biroq, bu o'rin shaharlar taraqqiyotida ijobjiy xususiyat kasb etmasa, ular hayot faoliyati o'zgarishsiz qolaveradi. Ko'plab qadimiy shaharlarning geografik o'rni ular umrini belgilashga xizmat qilgan, desak xato bo'lmaydi. Chunki, aynan shu geografik o'rindagi noqulayliklar yer yuzidan ko'plab shahar va shaharchalarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan.

N. N. Baranskiy shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni ular uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Uni tabiiy geografik o'rindan, ya'ni tabiiy obyektlarga nisbatan tutgan o'rnidan farqlay bilish kerak, chunki, dengiz qirg'og'i, tog' tizmalari shahar iqtisodiyotiga ta'sir etishi yoki etmasligi mumkin, deydi. shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni (IGO') birqancha komponentlardan tashkil topadi. Bular esa o'z navbatida, yana bir necha elementlarga bo'linib ketadi. Jumladan:

1. Shaharlarning tabiiy geografik o'rni:

- tabiat zonalariga nisbatan o'mi;
- tabiiy resurslarga nisbatan;

2. Sanoat – geografik o'rni:

- xomashyo manbalariga nisbatan, ya'ni elektro energiya, yoqilg'i va hakozo;
- qayta ishlash sanoati markazlariga nisbatan;

3. Shaharlarning agro-geografik o'rni:

¹ Mabbal: Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. - М.: Маркетинг, 1999. 1999., с.119. Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

- qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi rayonlarga nisbatan.

4. Transport-geografik o'rni:

- ichki muhim transport magistrallariga nisbatan;
- xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan.

5. Bozor-geografik o'rni:

- mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan;

-- iste'mol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan.

6. Geodemografik o'rni:

- aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rni;
- fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan.

7. Transport-geografik o'rni:

- ichki muhim transport magistrallariga nisbatan;
- xalqaro ahamiyatga ega transport tizimiga nisbatan.

8. Bozor-geografik o'rni:

- mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan tarmoq rayonlariga nisbatan;

-- ist'e'mol mollari bilan ta'minlaydigan rayonlarga nisbatan.

9. Geodemografik o'rni:

- aholi o'sishi bilan bog'liq rayonlarga nisbatan o'rni;
- fan, ta'lim va madaniyat markazlariga nisbatan.

10. Siyosiy-geografik o'rni

- mamlakat poytaxtiga nisbatan;
- davlat chegaralariga nisbatan.

11. Harbiy-geografik o'rni:

- mudofaa ahamiyatiga ega obyektlarga nisbatan;
- siyosiy (harbiy) konflikt o'choqlariga nisbatan.
- saharlarning mazkur geografik o'rnlari qulayligi ularning turli soha va tarmoqlar bo'yicha rivojlanishiga imkon beradi.

Har bir shahar uchun eng muhim geografik o'mi bu transport tarmoqlariga nisbatan joylanishi bo'lsa ham turli hududlarda IGO' ahamiyati bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi.

13.2. Shahar aholi manzilgohlarini klassifikasiatsiyalash

Shaharlar xoh u yirik, xoh mayda bo'lishidan qat'i nazar har birining bajaradigan o'z funksiyasi bor. Shaharlarning funksiyasi – aholining shahar hosil qiluvchi tarmoq va sohalardagi ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Shaharlarni shahar hosil qiluvchi funksiyasiga ko'ta ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

I. Ishlab chiqarish (industrial);

- 1) sanoat;
- 2) transport;
- 3) savdo-sotiq;

II. Noishlab chiqarish;

- 1) harbiy;
- 2) madaniy;
- 3) kurort.

Shuningdek, ba'zi olimlar shaharlarni quyidagi funksional tiplarga ajratishni ma'qul ko'radi.

- Siyosiy-ma'muriy markazlar, poytaxt shaharlar;
- Ko'p funksiyali shaharlar-viloyat markazlari;
- Ko'p tarmeqli yirik sanoat markazlari;
- Asosan, bir yoki ikki sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan shaharlar;
- Transport markazlari;
- Agroindustrial shaharlar;
- Tuman markazlari;
- Rekreatsiya shaharları;
- Ilm-u fan markazlari, univyersitet shaharlari va h.k.

Shaharlar mazkur yuqorida keltirilgan funksiyalari bo'yicha bir-biridan ma'lum darajada farq qilishadi. Masalan, dunyoda AQSHdagi Detroyt, Rossiyadagi Tolyatti shaharlari avtomobilsozlik, Fransiyadagi Dyunkerk, Ukrainadagi Odessa, Rossiyaning Vladivostok, Murmansk transport, ya'ni port shaharlar; Angliyadagi Kembrij, Germaniyaning Xaydelburg, Dubna o'quv, ilmiy markazlar; Hindistonning Varanasi, Saudiya Arabistonining Makkasi diniy markazlar vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi. Ko'pgina shaharlar bitta emas, birqancha funksiyani bajaradi, bunday shaharlar "polifunksional" shaharlar hisoblanadi.

Shaharlarning funksional tipologiyasi

Shahar funksional tiplari	Funksional tipning turlari	Shaharlar	
Ma'muriy-markazlar	Poytaxt	Toshkent	O'zbekiston poytaxti
	Viloyat markazi	Termiz	Surxondaryo markazi
	Tuman markazi	Usmat shaharchasi	Baxmal tumani markazi
Sanoat markazlari	Qazib olish sanoati markazi	Rossiyada Surgut	
	Mashinasozlik markazi	Italiyada Turin	
Transport markazlari	Metallurgiya markazi	Polshada Katovise	
	Dengiz portlari	Niderlandiyada Rotterdam	
Noishlab chiqarish markazlari	Temir yo'l uzellari	Ukrainada Jmcinka	
	Kurort markazlari	Turkiyada Antalifa	
	Ilm va fan markazlari	Buyuk Britaniyada Kembrij	
	Moliyaviy markazlar	Shveytsariyada Syurix	

Shuningdek, ayrim shaharlar ma'muriy markaz vazifasini bajarishadi xolos, ya'ni Kanberra, Toshkent mamlakat ma'muriy markazlari bo'lsa, Jizzax, Termiz shaharlari viloyat markazlari, Shahrisabz. Usmat tuman markazlari vazifasini bajaruvchi shahar va shaharchalardir. Xo'jalik nuqtayi nazaridan ba'zi shaharlar sanoat, transport, dam olish va turizm, ilm-fan markazlari hisoblanadi. Shaharlarni vazifasiga ko'ra bunday ajratish odatda ular aholisi bandligi xususiyatidan kelib chiqadi.

Shaharlar katta-kichikligiga qarab ham funksional tiplarga ajratiladi. Shaharlarning katta-kichikligi ular aholisi soniga qarab belgilanadi. Odatda, shaharlar aholisi soniga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- I. kichik shahar: 20 ming kishi;
- II. o'rta shahar: 20 mingdan 100 ming kishigacha;
- III. katta shahar: 100 mingdan 500 ming kishigacha;
- IV. yirik shahar: 500 mingdan 1000 ming kishigacha;
- V. millionyer shahar: 1000 ming va undan ortiq;
- VI. o'ta millioner shahar: 10 mln va undan ko'p kishi.

Shaharlarning funksional tuzilishi shahar hayotining barcha jabhasida yaqqol seziladi, shu boisdan, shaharlarni turli yo'nalishda tadqiq etishda buni albatta hisobga olish lozim. Shaharlarning funksional tuzilishi aholi takror barpo bo'lishi sur'atiga, aholi demografik tarkibiga, aholi bandligi, aholi migratsiyasi xarakteriga, aholi ijtimoiy tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

13.3. Aglomeratsiyalar va megalopolislar

Aholining yirik shaharlarda to'planishi yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda. Ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, kommunal-xo'jalik aloqalari o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi manzilgohlarining yangi turi fanda *aglomyeratsiya* deb nomlanadi.

Aglomeratsiya -- aholi punktlarining bir-birlariga qo'shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zinch o'rashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalar, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi¹. Aglomeratsiya so'zi fransuz adabiyotlarida uchraydi, inglizlar buni *konurbatsiya*, amerikaliklar *metropolislar* deb atashadi.

Shahar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to'planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o'rin tufayli eniga va bo'yiga kengayib borishidan hamda yirik shahar atrosida va unga yaqin joyda shahar va shaharchalarning tarkib topib qo'shilib ketishidan paydo bo'ladi.

Shahar aglomeratsiyasi quyidagi shart va sharoitlarga tayangan holda shakllanadi:

- shahar atrosida bitta yoki ikkita yirik shahar bo'lishi lozim;
- uning atrosida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlilik vaqt doirasida bo'lishi zarur;

¹ Гуломов Н. Журналистика атамалари ва тушунчалари номини язганни. Touskent, "Ўқириш", 1994.

– aglomeratsiya shahar va shaharchalari o'rtasida mayatniksimon (tebranma) migratsiya aloqasi rivojlangan bo'lishi shart;

– atrofidagi shaharlar aholisi eng kami aglomeratsiya aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va h.k.

Dunyoda birinchi shahar aglomeratsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yirik shaharlar (London, Parij, Nyu-York va boshqa.) yoki unga yaqin joylashgan alohida uncha katta bo'limgan shaharlar atrofida shakllangan. Aglomeratsiyaning birinchi tipi yagona markazga asoslangan monotsentrik xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tipi politsentrik, ya'ni mavqeい jihatdan teng bo'lgan ko'p markazlardan iborat bo'lgan. Bulardan monotsentrik aglomeratsiyalar tipi keng tarqaldi. Holbuki, hozirda politsentrik tipi ham ko'p sonlidir. Shu o'rinda keltirish joizki, aglomeratsiyalar bir markazli (monotsentrik) va ko'p markazli (politsentrik) xususiyatga ega bo'ladi. Farg'ona-Marg'ilon, Angren-Olimaliq aglomeratsiyalar politsentrik. Toshkent, Samarcand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus. Urganch va boshqa aglomeratsiyalar monotsentril hisoblanadi.

Shahar aglomeratsiyasi – mehnat, madaniy-maishiy, rekrutsion infratuzilma, ishlab chiqarish va boshqa aloqalari bilan o'zaro birlashgan shahar aholi manzilgohlari guruhiga aytildi. Dunyoda eng yirik aglomyeratsiyalar 20dan ortiq bo'lib, ularning ko'pi AQSHda (Chikago, Nyu-York, Los-Anjeles), Hindistonda (Dehli, Bombey, Kalkutta), Yaponiyada (Tokio, Osako-Kioto-Kobe) va Braziliyada (San-Paulu, Rio-de-Janeyro) joylashgan. Pokiston (Karachi), Buyuk Britaniya (London), Eron (Tehron), Argentina (Buenos-Ayres), Filipin (Manila), Xitoy (Shanxay), Fransiya (Parij), Bangladesh (Dakka), Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda aglomeratsiyalar soni atig bittadan, xolos. Shahar aglomeratsiyalari vaqt o'tishi bilan rivojlangan davlatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlarda tobora o'smoqda.

Aglomeratsiya chegaralari odatda, markaz shahar bilan uning atrofidagi shaharlar o'rtasidagi mehnat, madaniy-maishiy aloqalar samaradorligi bilan belgilanadi. Bu aloqalar chegarasi hozirgi zamонави transport rivojlangan bir vaqtida 50-60 km oraliqdagi radiusni tashkil etadi. Ko'pgina hollarda bu shahar aglomeratsiya chegarasi ma'muriy chegaralar bilan mos kelmaydi.

1950-2000-yillarda shahar aholisi sonining o'sishi¹

Dunyo regionlari va butun jahon	1950-yil	1960-yil	1970-yil	1980-yil	1990-yil	2000-yil
MDH davlatlari	70	104	137	166	193	222
Xorijiy Yevropa	217	256	302	341	363	477
Xorijiy Osiyo	229	362	517	733	494	1412
Afrika	33	51	81	136	220	346
Shimoliy Amerika	106	139	167	191	210	240
Lotin Amerikasi	67	106	163	238	323	465

DUNYONING YUURIK AGLOMERASIYALARI

Aglomeratsiya	Aholi soni (mln. kishli) 2013 y.)	Aglomeratsiya	Aholi soni (mln. kishli) 2016 y.)
Tokio	25	Tokio	28,7
Nyu-York	16,1	Bombej	27,4
Mexiko	15,1	Lagos	24,4
San-Paulu	14,8	Shanxay	23,4
Shanxay	13,5	Jakarta	21,2
Bombej	12,2	San-Paulu	20,8
Los-Andjeles	11,5	Karuchi	20,6
Pekin	10,9	Pekin	19,4

13.1-Dunyo aglomerasiyaları

Shahar atrofidagi aholi manzilgohlarining shahar markazidan va uning atrofidan kelayotgan aholi hisobiga tezroq rivojlanishi shahar aglomeratsiyasining o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga olib kelmoqda. Bu jarayon fanda suburbanizatsiya – deb ataladi (suburbanizatsiya lotinchadan subur-shahar atrofi). Shahar markazidagi ekologik vaziyat, o'ziga xos murakkab turmush tarzi,

¹ Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

narx-navoning balandligi, jinoyatchilikning o'sishi, soliqning yuqoriligi kabi noxush holatlardan charchagan, zerikkan odamlarning shahardan tashqariga ko'chib o'tishi va shahar markaziga ishga kelib ketishi suburbanizatsiya jarayonining rivojlanishida yetakchi omillardan hisoblanadi. Eng avvalo bunda aholining moddiy jihatdan o'ziga to'q qatlami - shahar atrofiga kelib joylasha boshlaydi. Keyinchalik o'rta qatlam va o'z navbatida aholi bilan barayariga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham kelib o'mashadi, rivojlanadi. Vaqt o'tishi bilan shahar ya shaharehalar, o'zaro hududiy tutashib, qo'shilib ketadi va uni ayrim joylarda urbanizatsiyalashgan hududlar deyishadi (London, Rur havzasi konurbatsiyasi va x.k.). Urbanizatsiyalashgan hududlar 3-5ta aglomeratsiyaning birlashishidan tarkib topadi.

13.4-jadval

Dunyoning yirik megalopolislari¹

Megalopolis (mamlakat)	Yirik aglomerats iya	Aglo merat siyala r soni	Aholi soni	Uzunlig i
Shimoliy-Sharqiy, Atlantik Ichki, Ko'l bo'y (AQSH, Kanada)	Nyu-York Chikago	40 35	45 mln kishi 35 mln kishi	800 km 900 km
Janubiy-G'arbiy, Tinch okean (AQSH, Meksika)	Los- Anjeles	15	20 mln kishi	800 km
Tokaydo (Yaponiya)	Tokio	20	55 mln kishi	700 km
Angliya (Buyuk Britaniya)	London	30	30 mln kishi	400 km
Reyn(Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya)	Reyn-Rur	30	30 mln kishi	500 km

Shahar aglomeratsiyalarining o'zaro qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan shahar aholi manzilgohlari urbanizatsiyalashgan zonalar yoki *megalopolislari* (ushbu tushunchani ilk bora fransuz urbanisti Jan

¹ Manba: Неренк, Е.Н. Урбанистика. - М.: Межгосударственное издательство, 1999.

Gotman 1950-yillarda AQSHning shimali-sharqiga nisbatan ishlatgan) deb yuritiladi. Hozirda dunyo bo'yicha, Shimoli-Sharqiy Atlantika (AQSH) 40ta aglomeratsiyalarni, Ichki, Ko'l atrofi (AQSH, Kanada) 35ta, Janubiy-G'arbiy, Tinchokcan (AQSH, Meksika) 15ta, Tokaydo (Yaponiya) 20ta, Angliya (Buyuk-Britaniya) 30ta, Reyn (Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya) 30ta aglomeratsiyalarni o'ziga qamrab olgan yirik megalopolislardir. Kuchsiz urbanizatsiyalashgan hududlarda ham megalopolislardir tashkil topmoqda. Masalan, Braziliyada San-Paulu-Rio-de-Janeyro-Belu-Orizonti megalopoli. Rossiyada Moskva va Nijniy Novgorod o'rtaqidagi megalopolislardir shular jumlasidandir. G'arbiy Yevropadagi megalopolislardir o'lchamiga ko'ra kichik bo'lib, bulardan London, Birmingem, Liverpul va Manchester aglomeratsiyalaridan hosil bo'lgan Angliya megalopolisida 35 mln kishi joylashgan. Dunyo olimlarining prognoziga ko'ra alohida megalopolislardir o'zaro birlashib yagona Oykumenopolislarni tashkil etadi. Oykumenopolis nazariyasini grek urbanisti K.Doksiadis tomonidan ilgari surilgan. Oykumenopolislarda Yer sharining eng ko'p aholisi yashaydi.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Urbanizatsiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Shaharlarda aholi sonining ortib borishi va urbanizatsiyaning bog'liqligi nimada?
3. Aholi va atrof-muhit muammosini baholang.
4. Shahar aholisi – shaharlar mavqeining o'sishi degan iboraga qanday qaraysiz?
5. Aglomeratsiya, megapolis, suburbanizatsiya, rururbanizatsiyaning ko'rinishlarini keltiring?
6. Dunyoning yirik aglomeratsiyalarini sanab bering?
7. Shahar aholi manzilgohlarini o'lchamiga ko'ra qanday ajratish mumkin?
8. Dunyoning yirik va eng mitti shaharlarini keltiring.

14-MAVZU: QISHLOQ AHOLISI VA QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARI GEOGRAFIYASI

Reja:

- 14.1. Qishloq aholi manzilgohlari joylanishi va ixtisoslashishi.
- 14.2. Qishloq aholi manzilgohlarini o'lchami bo'yicha tavsiflash.

14.1. Qishloq aholi manzilgohlari joylanishi va ixtisoslashishi

Qishloq aholi manzilgohlarining aniq bir ta'risi yo'q, ammo aytish mumkinki, shahar aholi manzilgohlari talablariga javob bermaydigan barcha aholi manzilgohlari qishloqlar hisoblanadi. Shuningdek, uncha katta bo'limgan, sanoat, transport o'rmon xo'jaligi, dam olish uylari, sanatoriyalar qoshida paydo bo'lgan kichik posyolkalar qishloq aholi manzilgohlariga tegishli bo'ladi. Dunyo bo'yicha qishloq aholi manzilgohlarining umumiy soni mavjud emas. Har bir davlat o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishidan kelib chiqib qishloqlarni ajratishadi. Masalan, O'zbekistonda rasmiy shahar yoki shaharcha maqomini olmagan, aholisi 2000 kishigacha bo'lgan, aholisining deyarli barchasi qishloq xo'jaligidagi va u bilan bog'liq tarmoqlarda band bo'lgan aholi manzilgohlarini qishloq aholi manzilgohlariga kiritish mumkin. Shaharlar qaysi funksiyani bajarmasin, qaysi kattalik va salohiyatga ega bo'lmasin qishloq aholi manzilgohlarisiz, ya'ni qishloqlarsiz shaharga aylanmaydi. Bu o'rinda aholi manzilgohlarining ikkinchi yirik tarmog'i qishloqlarni, qishloq aholi manzilgohlarini geografik o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer shari aholisining 53 foizi (2019-yil) shaharlardan tashqarida qishloqlarda yashaydi. Jamiyat taraqqiyoti va hududiy mehnat taqsimnotidagi o'zgarishlar tufayli kishilarning hududiy ijtimoiy va tarixiy shakl topgan birligi qishloqlar vujudga kelgan.

Qishloq aholi manzilgohlari unda yashovchilar soni, joylashgan geografik o'rni, bajaradigan funksiyasiga ko'ra shaharlardan farq qiladi. Qolaversa, shaharlar uchun qo'yilgan talablarning birortasiga qishloqlar javob bermaydi.

A. S. Soliyev ta'biricha, qishloq aholi geografiyasini shaharlar geografiyasiga (geourbanistikaga) qaraganda umeha "omadi kelmagan" ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Qishloq aholi

manzilgohlarining rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan chambarchas bog'liq. Biroq, aholisi qishloq xo'jaligida band bo'lmasdan sanoatda, transportda va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan aralash funksiyali qishloq aholi manzilgohlari ham mavjud. Shu boisdan dunyodagi davlatlar aholisini hududiy bo'yicha qaralganda qishloq aholisi alohida statistik ko'rsatkichni qishloq xo'jaligida band bo'lganlar boshqa ko'rsatkichni tashkil etadi. Masalan, O'zbekiston aholisining 49 foizi qishloqlarda yashaydi, 28 foizi qishloq va o'rmon xo'jaligida band.

Aksariyat qishloq aholi manzilgohlari bevosita yer bilan chambarchas bog'langan. Yer qishloq ahlining asosiy ishlab chiqarish vositasi, ularni boqadigan zamini hisoblanadi. Biroq yerdan foydalanishdagi va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidagi tafovutlar iqlim, relyef hamda tabiiy sharoit bilan uzviy bog'langanligi tufayli, bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa qishloqlardagi ishlab chiqarish tiplarining ham xilma-xilligiga olib keladi.

Qishloq joylarda qishloq xo'jaligida bevosita band va ma'lum bir qismi esa qishloq xo'jaligida band bo'lмаган aholi ham yashaydi. Shu boisdan, qishloq xo'jaligida band bo'lмаган qishloq aholisini uchta guruhga ajratish mumkin:

1) qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarda (savdo, xizmat ko'rsatish, maorif, sog'liqni saqlash va boshqalar) band bo'lganlar;

2) shaharga yaqin bo'lgan korxona va muassasalarda ishlovchilar;

3) qishloq joylarda joylashgan sanoat va boshqa korxonalarda bandlar.

Qishloq aholisining bunday o'ziga xos xususiyati turli davlatlarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Jumladan, iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadigan mamlakatlarda aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan bog'langan bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa aksincha, qishloq joylardagi aholi qishloq xo'jaligi bilan juda kam shug'ullanishadi. Tabiiy sharoit qishloq aholisi manzilgohlaridagi xo'jalik tarmoqlarining ixtisoslashuviga hamda shu asosda kichik-kichik ixtisoslashgan qishloqlarning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, dehqonchilik, qoramolchilik, o'rmon xo'jaligi, tog'-kon va hokazo.

Barcha qishloq aholi manzilgohlari shaharlar singari o‘z bajaradigan funksiyasiga qarab uchta asosiy guruhga birlashtiriladi:

1. Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘langan;
2. Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘lanmagan;
3. Aralash qishloq aholi manzilgohlari.

Qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, aholisi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishlash bilan band bo‘lgan aholi manzilgohlari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan aholi manzilgohlari deb yuritiladi. Bunday qishloqlar aholisi odatda dehqonchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik hamda chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Ma‘lumki, yer yuzi qishloq aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida band.

Qishloq xo‘jaligining zonal ixtisoslashuvi, qishloq aholi manzilgohlarning zonal farqini keltirib chiqaradi. Bu esa nafaqat qishloq aholi manzilgohlari kattaligi, funksional tiplari, balki ularning joylanishiga ham ta’sir etadi. Masalan, o‘rmon zonalaridagi aholining o‘rmon xo‘jaligida bandligi, cho‘l zonasidagi qishloqlarning mayda va tarqoqligi, aholisining chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishi va boshqalar. Qishloq xo‘jaligi funksiyasini bajaruvechi aholi manzilgohlari unchalik katta bo‘lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda jami aholi manzilgohlarning 30 foizidan 70 foizigacha, rivojlangan davlatlarda deyarli 100 foizini tashkil etadi.

**Barcha qishloq aholi manzilgohlari
funksiyasiga qarab uchta asosiy
guruhga birlashtiriladi**

Qishloq
xo‘jaligi
bilan
bog‘langan

Qishloq
xo‘jaligi
bilan bog‘lanmagan

Aralash
qishloq
aholi
manzilgoh
lari

14.1-rasm. Qishloq aholi manzilgohlari funksiyalariga guruhlanishi

Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan ikkinchi guruh aholi manzilgohlari miqdori jihatdan o'sib bormoqda. Bu aholi manzilgohlari yana bir necha guruhlarga ajratiladi:

1. sanoat korxonalari posyolkasi;
2. transport;
3. o'rmon sanoati;
4. baliqni qayta ishlash;
5. dala-hovli va hokazolar.

Mazkur qishloq aholi manzilgohlariда xizmat ko'rsatuvchi soha tarmoqlar o'sha joy geografiyasiga mos va xos holda rivojlanadi. Aytaylik, kichkina temir yo'l stansiyasi yoki kon atrofida juda katta qishloq aholi manzilgohi vujudga kelmaydi, ba'zi posyolkalar vaqtincha ham hisoblanadi (dala hovli, sanatoriya, stansiyalar).

Qishloq aholi manzilgohlarning ikkinchi guruhiga bir qismi aholi qishloq xo'jaligida, qolgani sanoat, transport, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan *qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi manzilgohlari* kiradi. Bunday aholi manzilgohlari odatda, "temir yo'l bekatlari, meterologik stansiya, rekratsiya va turistik sohalar, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllangan. Bu qishloqlarning aholisi ham uncha ko'p bo'lmaydi"¹. Ko'pgina tuman ma'muriy markazlari ushbu guruhga kiradi. Aynan, mana shunday ma'muriy markaz funksiyasini bajaruvchi punktlar qishloq aholi manzilgohlari orasida o'zining yirikligi, agrar-industrial xususiyati bilan asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, ushbu aholi manzilgohlari nafaqat ma'muriy-tashkiliy markaz, balki madaniy, savdo-sotiq markazlari hamdir. Qolaversa, bunday qishloq aholi manzilgohlariда xomashyo va mehnat omiliga tayanilgan iqtisodiyot tarmoqlarining kichik korxonalari joylashadi, ya'ni o'rmon, yog'och tayyorlash, ovchilik, transport xizmati (temir yo'l, quvur o'tkazish va h.k.). Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan qishloq aholi manzilgohlariда yashovchilar aholiga rekratsion xizmat ko'rsatishni, tabiatni asrash, qo'riqxonalarni qo'riqlash kabi vazifalarni ham bajaradi. Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi manzilgohlari eniga va bo'yiga qarab o'sib bormoqda. Aksariyat, mamlakatlarda qishloq aholisi salmog'ining kamayishi, suburbanizatsiya masshtabi

¹ Сардор А. Узбекистон кимга олар (Кимнок жойлар географияси). - Т.: "Fan va tehnologiya", 2009. 6.10.

kengayishi, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining ko'payishi ushbu turdag'i aholi manzilgohlari nisbiy va mutlaq miqdori ortishiga olib kelmoqda. Ammo, bunday aholi manzilgohlari kichik, mayda qishloqlardan iborat bo'ladi. Sababi, uncha katta bo'lmagan temir yo'l stansiyasi, foydali qazilma koni, kichik davolanish, dam olish maskanlaridan boshqa qishloqning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillar yetarli bo'lmagan holda aholi manzilgohi kichikligicha qoladi. Hauto, foydali qazilma konlari ba'zasida tashkil topgan kichik qishloqlar vaqtinchalik xususiyat kasb etadi. Kon-qaziluv ishlari yakunlanishi bilan bu qishloqlarni ko'chirishga to'g'ri keladi.

Aholisining aksariyati qishloq xo'jaligida, ma'lum bir yashovchilar sanoatda, transportda, qurilishda, xizmat ko'rsatish yoki boshqarishda ishlaydigan qishloq aholi manzilgohlari "aralash qishloqlar" deb ajratiladi. "Aralash tipdagi qishloqlar ikki sohalarning rivojlanishi yoki, odatda, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat korxonalar negizida vujudga kelgan. Bunday qishloqlarning demografik salohiyati nisbatan katta bo'lishi mumkin. Demak, qishloqlarning katta-kichikligini ulaming bajaradigan funksiyasi belgilab beradi. Bu aholi manzilgohlari geografiyasining eng muhim qonuniyatlaridandir"¹. Bu tipdagi aholi manzilgohlari o'rtaida eng ko'p tarqalgani agrar-industrial punktlar hisoblanadi. Holbuki, aralash qishloqlar funksional jihatdan agra-industrial, mahalliy ma'muriy, madaniy-maishiy markaz, shahar atrofi hududlariga ajratiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholi manzilgohlariдан eng avvalo iqtisodiy jihatdan foyda beradigan, ya'ni fermer xo'jaliklariga e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan xo'jaliklarda ishlovchi va yashovchilar uchun barcha sharoitlar, ya'ni ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari tezlik bilan yo'lga qo'yiladi, rivojlantiriladi. Kommunikasiya tizimi, maktab, bog'cha, sog'liqni saqlash, uyda xizmat ko'rsatish kabi qator xizmatlar amalga oshiriladi.

14.2. Qishloq aholi manzilgohlarini o'chami bo'yicha tavsiflash

O'tgan asrning ikkinchi yarmidayoq qishloqlarda ishni tashkil etish maqsadida G'arbda nemis geograflari V. Kristallyor va A. Lyosh "markaziy o'rinalar" g'oyasini o'ylab topishgan edi. Ularning

¹ Comien A., Nazarov M. Ўзбекистон кишиюстари (Кишилар жойлар географияси). -T.: "Fan va texnologiya", 2009. Б.11.

g'oyasiga binoan, shu rayondagi boshqa barcha aholi manzilgohlarini xizmatlar va mahsulotlar bilan ta'minlaydigan aholi manzilgohi markaziy o'rinda bo'lishi lozim. Eng kichik markaziy joy deb aholisi 1000 kishidan iborat, kunlik ehtiyoj uchun kichik bozor, miliitsiya uchastkasi, mayda ustaxonalarini bor posyolkani hisoblashdi. Navbatdagi yirikroq markaziy joyda bank, boshlang'ich maktab, kutubxona, ixtisoslashgan do'konlar joylashadi. Har bir keyingi markaziy joy bajaradigan funksiyasiga ko'ra eniga va bo'yiga kengayib boraveradi yoki bu aholi manzilgohlarida turli soha va tarmoqlarning murakkab tiziimlari o'rin olgan bo'ladi.

Qishloq aholi manzilgohlarini klassifikatsiyalashganda aholiyligi ko'rsatkichidan foydalaniladi. S. A. Kovalyov tomonidan qishloq aholi manzilgohlari aholiyligiga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalangan (1963. 36 bet).

1) aholisi 10 kishidan kam aholi manzilgohlari (yakka hovli, yakka yashash joyi);

2) 100 kishigacha yashovchilarini bor kichik aholi manzilgohlari;

3) 200-500 kishigacha, bunga fermer xo'jaligi. bir xo'jalik brigadasi misol bo'la oladi;

4) 1000-2000 aholisi bor qishloq aholi manzilgohi. bular endi nisbatan yirik hisoblanadi. Xo'jalik markazi, qishloq markazi misol bo'la oladi;

5) 3000-5000 aholisi bor yirik qishloq aholi manzilgohlari. Bularga shahar darajasidagi qulayliklarga ega aholi manzilgohlarini kiritish mumkin.

Qishloq aholi manzilgohlarini geografik tadqiq etishda ularda yashovchi aholi soniga, o'sishi, joylashishi, zichligi va taqsimlanishiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Demografik jarayonlarni aholining mexanik harakati, tarkibi kabi xususiyallarini ham tahlil qilish aholi geografiyasining muhim vazifalaridan biridir. Aholisining rivojlanishi va joylanishiga daxldor jarayonlarni geografik nuqtayi nazardan o'rganish o'sha hududdagi qishloq aholi manzilgohlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilash, muammolarini hal etish imkonini beradi. Bundan tashqari, qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ularning iqtisodiy geografik o'mi muhim o'rin tutadi. Holbuki, qishloq aholi manzilgohlari aholisi hayotida uning ahamiyati shaharlar singari o'ta yuqori emas. Qishloq aholi manzilgohlari, ayniqsa qishloq xo'jaligi uchun yer hosildorligi

alohida rol o'ynaydi. "Qishloqlar shaharlarga nisbatan tabiiy sharoit bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Modomiki, qishloq xo'jaligi bevosita geografik sharoit ta'sirida rivojlanar ekan, uning qishloqlar geografiyasiga ta'siri ham hech qanday shubha qoldirmaydi. Qolaversa, mahalliy qurilish materiallar – qum, shag'al, ohak, tosh va boshqalar ham qishloqlar qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog' vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrassasimon, aholi manzilgohiari esa cho'zinchoq, tasmasimon hududiy shaklga ega bo'ladi". Umuman olganda tabiiy sharoit xususiyatlari, ya'ni suv bo'ylari, vodiy, demografik sig'im kabilar qishloqlar katta-kichikligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Qishloq aholisi yashashi, turmush tarzi, moddiy ta'minoti kabi masalalar bevosita yer bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, shahar aholi manzilgohlaridan farqli ravishda qishloqlar uchun tabiiy muhit, tabiiy sharoit xo'jalik yuritishi (dehqonchilik, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi, tog'-kon sanoati), umuman qishloq aholi manzilgohlari shakllanishida yetakchi omil hisoblanadi. Tabiiy muhit, sharoit qishloq aholisi joylanishida, xo'jalik yuritishida, aholi manzilgohi uchun joy tanlanishida yaqqol kuzatiladi. Masalan, Mirzacho'lning iqlimi, tabiiy sharoiti dehqonchilik, xususan paxtachilik va polizchilik uchun qulayligi, aholini hududiy tashkil etishga sabab bo'ldi, natijada, qishloq aholi manzilgohlari shakllandı, rivojlandı. Qolaversa, qadimdan aholi suv bo'ylarida, yashash uchun qulay joylarda o'mashganligi, tabiiy sharoiti yaxshi hududlarda turli kattalikdagı aholi manzilgohlarining tarkib topishiga va to'planishiga olib kelgan. Yuqorida aholisining soniga qarab qishloq aholi manzilgohlari tabaqalarga ajratilgani hamma vaqt va hamma joyda bir xil degani emas. Qolaversa, bunday tabaqalanish bugungi qishloq aholi manzilgohlari talabiga javob bermaydi. Sababi, 10 kishigacha bo'lgan aholi manzilgohi hozir deyarli uchramaydi. Odatda, ovchilik, qoramolchilik kabi tarmoqlarda aholi tarqoq holda joylashishi kuzatiladi. Bunday aholi manzilgohlaridagina yashovchilar soni 10 kishigacha boradi. Shu boisdan, boshqa adabiyotlarda qishloq aholi manzilgohi aholisining quyi chegarasi 200, ayrimlarida 500 kishi deb qabul qilingan. Barcha hollarda ham tabaqalashtirish qishloq aholi manzilgohlari

¹ Соитов А., Назаров М. Узбекистон китобкорири (Кишлоп жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya"- 2009. Б.10.

sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Jumladan, qishloq aholi manzilgohlarini ularning katta-kichikligiga qarab quyidagi sinflarga (klasslarga) bo'lishimiz mumkin:

- kichik -- aholisi 200 kishigacha;
- o'rta - 201 - 500 kishigacha;
- katta - 501 - 1000 kishigacha;
- yirik - 1001 kishi va undan ko'p. Bizning respublikamiz qishloqlarining aholiyligi ham aynan shu mezonga birmuncha mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda 11831ta qishloq aholi manzilgohlari bo'lgan. ulardag'i aholi soni 17374,0 ming kishini tashkil etgan. Mazkur qishloq aholi manzilgohlarining 54 foizi kichik, o'rta va katta qishloqlardan iborat, qolgani yirik qishloqlardir. Mamlakat qishloq aholisi demografik salohiyatining yildan yilga ortib borishi qishloqlarning tobora yiriklashuviga, ular orasidagi masofalarning yaqinlashishiga, kichik va mayda qishloqlarning qo'shilib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa katta va yirik qishloqlar miqdori ortishiga sabab bo'ladi. Kelajakda qishloq aholi manzilgohlarini shahar aholi manzilgohlariga nisbatan alohida olib tadqiq qilish dolzarb masaladir. Binobarin, aksariyat qishloqlar nafaqat mahsulot yetkazib beruvchi, balki uni qayta ishlovchi, xizmat ko'rsatuvchi vazifalami ham bajarilishini unutmaslik lozim.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Qishloq aholi manzilgohlari nuna va ular bajaradigan funksiyalariga ko'ra qanday ajratiladi?
2. Dunyoda qishloq aholisi hozirgi vaqtida qancha kishini tashkil etadi?
3. Qishloq aholi punktlari joylanishi nima degani va ular nimalarga bog'liq holda vujudga keladi?
4. Qishloq aholi manzilgohlari joylanishi shaharlardan nimasini farqlanadi?
5. Qishloq aholi manzilgohlari o'zlarining bajaradigan funksiyasiga ko'ra qanday tiplarga ajratiladi?
6. Qishloq aholisi haqida fikr yuriting.
7. Qishloq infrastrukturasi nima?
8. Xo'jalik yuritish subyektlariga nimalar kiradi?

Reja:

- 15.1. O'zbekiston Respublikasi aholi soni dinamikasi va joylanishi.
- 15.2. Aholining demografik, yosh-jinsiy tarkibi.
- 15.3. Respublikaning demografik vaziyati.
- 15.4. Mehnat resurslari va aholi bandligi.

15.1. O'zbekiston Respublikasi aholi soni dinamikasi va joylanishi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi axborot xizmati xabar berishicha mamlakat doimiy aholisi soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 32,65 mln kishini tashkil etib, 2017-yilda 533,4 ming kishiga yoki 1,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16,53 mln kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16,12 mln kishini (49,4 %) tashkil etdi.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDHga kirgan mamlakatlar orasida Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi. Poytaxti Toshkent shahri (1930-yildan). O'zbekiston Respublikasi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi (1936-yil) va 12ta viloyat kiradi. Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki. 2018-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3,71 mln kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4% ni) tashkil etib, keyingi o'rinnlarda Farg'on'a viloyatida 3,62 mln kishini (11,1 %), Qashqadaryo viloyatida 3,14 mln kishini (9,6 %), Andijon viloyatida 3,01 mln kishini (9,2 %) tashkil etdi. 2018-yil 1-yanvar holatiga aholisi soni 3 mln kishidan oshgan hududlar soni 4tani tushkil etdi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda aholi soni muntazam ko'payib kelgan. Masalan, 1865-yili o'lkada 3320 ming aholi istiqomat etgan bo'lsa, 1920-yili aholi soni 4470 mingga, 1970-yili – 11800 mingga, 1991-yili – 20708 mingga va 2005-yili – 25707 mingga, 2015-yili – 31022,5 ming kishiga yetdi. Asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar Yer shari aholisi 3,4 martaga ko'paygan bo'lsa, O'zbekiston aholisi 6,6 martaga orttdi. Ayniqsa, mustaqillik yillarda, ya'ni 1990-2010-yillarda respublika aholisi soni 8.2 million kishiga yoki 1,4 barobarga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi maydoni

448,9 km² ni tashkil etadi. Aholisi 1 km² ga 72,8 kishi (2018-yil) dan to'g'ri keladi.

O'zbekistonda aholi soni, tarkibi va demografik xususiyatlariga oid ma'lumotlar XIX asrning 2-yarmidan boshlab mavjud bo'lib kelmoqda. XIX asrga qadar, O'zbekiston hududida, asosan, o'zbeklar va dini, urf-odatlari o'zbeklarga yaqin bo'lgan tojiklar, qoraqalpoqlar (Amudaryoning quyi qismida va Orol bo'yalarida), qozoqlar (shimoliy-g'arbiy chala cho'llarda), qirg'izlar (tog'lik joylarda - sharqda), turkmanlar (janubiy-g'arbiy cho'llarda) yashaganlar. XX asr boshlarida o'zbeklar uchta yirik etnik guruh: vohalarda yashagan qadimiy o'troq aholi (XX asr boshlarida ular rus adabiyotida "sartlar" deb atalgan); mo'g'ullar istilosigacha bu yerda yashagan turkiy xalqlar; mo'g'ullar davrida va undan XVI asrda bu yerga kelib o'nashgan turkiy qabilalar.

15.1-jadval

O'zbekistonda aholi soni dinamikasi (1865 - 2018 yy.. ming kishi)¹

Yillar	Jami aholi	Jumladan	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1865	3320,0	466	2854
1897	3948,0	743	3205
1920	4470,0	807	3663
1926	4621,0	1012	3609
1939	6347,0	1470	4877
1959	8119,0	2729	5390
1970	1800,0	4322	7478
1979	15391,0	6350	9041
1989	19880,0	8119	11761
1991	20708,0	8366	12342
1995	22562,0	8732	13830
2000	24582,0	9235	15347
2005	25707,0	9381	16326
2010	29123,4	14897,4	14225,9
2015	31022,5	15555,2	15467,3
2018	32657,4	16533,2	16124,2

¹ Jadval M.K. Karakhanov. Неколичественный путь развития и проблемы народонаселения. - Ташкент, 1983; "Численность населения Республики Узбекистан". "Демографический ежегодник Узбекистана - 2003" - Ташкент, 2004 va O'ZB Davlat statistika qo'mitasi joriy ta'lumotlari usosita tozilgan.

XIX asrning 60-70-yillarida O'zbekiston hududini Rossiya podsholigi bosib oldi. Shu munosabat bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya aholisining bir qismi, jumladan, dehqonlar ko'chirib keltirildi va Mirzacho'lga joylashtirildi; bu yerda yangi qazilgan kanal bo'ylab muhajirlar aholi maskanlari (posyolkalari) tashkil topdi. XIX asrda O'zbekiston hududiga sharqiy Turkistondan (Sinszyan) uyg'urlar ko'chirib keltirildi va ularga sharqiy qismida tog' vodiylarida yashash uchun joy ajratildi.

15.2- jadval

O'zbekistonda shahar va qishloq aholisining salmog'i (foiz hisobida)¹

Ma'muriy-hududiy birliklar	Shahar aholisi			Qishloq aholisi		
	1991	2005	2015	1991	2005	2015
O'zbekiston Respublikasi	40,5	36,5	51,0	59,5	63,5	49
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,2	48,7	49,6	51,8	51,3	50,4
Andijon viloyati	2,2	29,8	52,6	67,8	70,2	47,4
Buxoro viloyati	34,5	30,0	38,3	65,5	70,0	61,7
Jizzax viloyati	28,7	29,9	47,4	71,3	70,1	52,6
Qashqadaryo viloyati	26,3	24,8	43,2	73,7	75,2	56,8
Navoiy viloyati	41,2	39,8	49,7	58,8	60,2	50,3
Namangan viloyati	38,2	37,5	63,6	61,8	62,5	36,4
Samarqand viloyati	30,8	25,9	38,4	69,2	74,1	61,6
Surxondaryo viloyati	19,3	19,4	36,0	80,7	80,6	64
Sirdaryo viloyati	34,9	31,4	49,1	65,1	68,6	50,9
Toshkent viloyati	44,2	39,5	57,2	55,8	60,5	42,8
Farg'onha viloyati	31,2	28,4	32,9	68,8	71,6	67,1
Xorazm viloyati	27,4	22,6	32,9	72,6	77,4	67,1
Toshkent shahri	100	100	100	--	--	0

1897-yil o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq O'zbekiston hududida 3,9 mln. kishi yashagan; shundan 19 % shahar aholisi bo'lgan. O'sha kezlarda O'zbekistonda aholi takror barpo etilishi, tug'ilish va o'limning yuqori darajasi o'rtacha umr ko'rishning

¹ Jadval "Паспортный перепись Узбекистана - 2003". - Tashkent, 2004. - б.31, statistik to'plami va O'zR Davlat statistika qo'mitasi mun'humiylari asosida tuzildi.

qisqaligi bilan xarakterlanadi. Yosh bolalar o'limi koeffitsienti Yevropa va Rossiyadagiga qaraganda 65-70 foizga yuqori bo'lgan. Tub aholining migratsiyasi juda past edi, ushbu holatlar respublikada aholi soni dinamikasi shakllanishiga ta'sir etdi.

15.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi aholisi hududiy tarkibi va joylanishi,
2015-yil, ming kishi¹**

Ma'muriy-hududiy birliklar	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Aholi zichligi, kv.km
O'zbekiston Respublikasi	31022,5	15555,2	15467,3	69,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1736,5	862,0	874,5	10,6
Andijon viloyati	2805,5	1 476,3	1329,2	664,5
Buxoro viloyati	1756,4	672,9	1 083,5	44,3
Jizzax viloyati	1226,8	581,4	645,4	58,9
Qashqadaryo viloyati	2895,3	1 250,9	1 644,5	103,6
Navoiy viloyati	901,1	448,2	452,9	8,2
Namangan viloyati	2504,1	1 593,2	910,9	343,3
Samarqand viloyati	3445,6	1 324,8	2 120,8	209,6
Surxondaryo viloyati	2308,3	831,5	1 476,8	117,3
Sirdaryo viloyati	763,8	332,2	431,6	181,6
Toshkent viloyati	2725,9	1 338,5	1 387,4	180,8
Farg'onha viloyati	3386,5	1 937,0	1 449,5	509,6
Xorazm viloyati	1684,1	553,5	1 130,6	283,6
Toshkent shahri	2352,9	2 352,9	-	7 185,8

1979-1989-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yillar oralig'ida respublika aholisi 4,5 million kishiga ko'payib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizga teng bo'lgan. 1970-1990-yillarda O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati asta-sekin pasayib bordi. Agar 1950-1970-yillarda Respublika aholisi har yili o'rtacha 3,5 foizdan ko'paygan bo'lsa, 1980-1990-yillarda bu ko'rsatkich 2,7 foizni, 1991-2000-yillarda 1,9 foizni, 2005-2015-yillarda 1,50 foizni tashkil qildi. Respublikada shahar aholisi 1990-yillarga qadar muntazam ortib bordi, hatto respublika umumiy aholisining o'sish sur'atidan ikki marta yuqori bo'ldi. 1991-2012-

¹ Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

yillarda O'zbekistonda shabar aholisining o'sish sur'ati sezilar kaimaydi. Buning asosiy sababi shaharlarda tug'ilishning pasayib ketganligi hamda "2009-yil 13-martdag'i Vazirlar Mahkamasining 68-sonli Qaroriga binoan 966ta qishloqlarga shaharcha maqomining berilganligi"¹dir. Bu nafaqat, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, balki aholining demografik rivojlanishda ham muhim o'rinn tutadi.

O'zbekistonning demografik taraqqiyotida qishloq aholisining muntazam ravishda o'sib borishi xususiyati xos bo'lib kelgan. Qishloq aholisi sonining o'sishi hozirgi vaqtida ham davom etmoqda. Jumladan, respublika qishloq aholisi salmog'i 1989-yilda jami aholining 59,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 63,7 foiz, 2015-yilda 49,8 foizga teng bo'ldi (15,2-jadvalga qarang). Qishloq joylar aholisida farzandlar ko'p tug'ilishi, o'lim ko'rsatkichlari past, barqaror nikoh munosabatlari va ajralishning kamligi aholi tabiiy ko'payishini yuqori sur'atda bo'lishiga olib kelgan.

O'zbekistonning barcha viloyatlariida ham 1991-2015-yillarda aholining o'sish sur'ati birinuncha kamayganligi kuzatiladi. Eng aholisi zich joylashgan hudud – bu Andijon viloyati, keyingi o'rirlarda Farg'ona, Namangan, Samarkand, Toshkent viloyatlari turadi. Aholisi siyrak joylashgan hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Sirdaryo viloyatlari kiradi.

15.2. Aholining demografik, yosh-jinsiy tarkibi


Aholining demografik rivojlanishida uning milliy, yosh-jinsiy tarkibi alohida o'rinn egallaydi. Respublikada 130dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat etishadi. Jumladan, respublikaning tub joy aholisiga o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar kiradi. O'zbeklar barcha viloyatlarda, obikor yerlarda yashashadi. Qozoqlar, asosan, Qozog'iston bilan bo'lgan chegara tumanlarida, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida. Buxoro, Navoiy, Toshkent. Sirdaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklar esa Namangan, Buxoro, Samarkand, Surxondaryo

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Muhkamasining "O'zbekistan Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qoshimcha chora-tubdilar to'g'risida" Qarori - T., 2009. № 68.

viloyatlarida, qoraqalpoqlar azaldan Amudaryo va Orol dengizi atrofidagi hududlarda yashab kelishadi.

O'zbekistonda mahalliy millatlarning mutlaq va nisbiy miqdorida o'sish ro'y bermoqda. 1989-yilda o'zbeklar mamlakat umumiy aholisining 71,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 83,4 foizga yeidi.

Mustaqillik yillari barcha mintaqalar aholisi milliy tarkibida o'zbeklar ulushi muntazam ortib bordi. O'zbeklar respublikaning ilgaridan mavjud bo'lgan shaharlar va sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlerida yashab kelsa-da, hududlar bo'ylab notejis joylashganligi kuzatiladi. Oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari, jami o'zbek millatiga mansub kishilarning 35 foizi uchta Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatida yashagan holda, qolgan viloyatlarning har birida ular ulushi 10 foizga yetmaganligini ko'rsatadi.



15.1-rasmi. O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi

O'zbeklardan keyin salmog'i va salohiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni mahalliy millatlardan *tojiklar* egallaydi. Hududiy tarkibiga ko'ra, tojiklarning 66,3 foizi qishloq, qolgan qismi shahar joylarda yashaydi va mintaqalar bo'yicha turlicha taqsimlanadi. 2017-yilda mamlakatdagi tojik millatiga mansub kishilarning eng katta salmog'i, ya'ni 17,6 foizi Samarqand viloyatiga, 19,8 foizi Surxondaryo viloyatiga, 15,7 foizi Namangan viloyatiga, 13,5 foizi Farg'ona viloyatiga, 10,0 foizi Toshkent va 8,5 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keldi. Aksincha, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati aholisi milliy tarkibida ularning ulushi juda kichik bo'lib, har birida atigi, 1,0 foizga ham yetmaydi. Ushbu raqamlarni oxirgi aholi

ro'yxati ma'lumotlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Samarqand, Buxoro viloyatidan boshqa barcha viloyatlar aholisi milliy tarkibida tojiklarning hissasi 1-1,5 barobarga ortganligini ko'rish mumkin.

Respublikada yashovchi *ruslar* xuddi tojiklar singari aholi milliy tarkibida alohida o'tin tutadi. Biroq, mamlakat aholisi milliy tarkibida ularning ulushi tobora qisqarib bormoqda. Oxirgi aholi ro'yxati davrida respublika jami aholisining 8,3 foizini. 2012-yilda 3,3 foizini, 2017-yilda 2,4 foizini tashkil etgan mazkur millatga mansub kishilar O'zbekistonning barcha mintaqalarida bir xil joylashmagan, ular ko'proq shahar joylarda va viloyat markazlarida tarqalgan.

15.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 1-yanvar holatiga shahar va qishloq aholisida ayollar va erkaklarning nisbati (*kishi*)¹

Ma'muriy-hududiy birliklar	1000 aylolga to'g'ri keladigan erkaklar		
	jami aholi	Shahar	qishloq
O'zbekiston Respublikasi	1004	995	1014
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1002	992	1013
<i>Viloyatlar:</i>			
Andijon	1018	1015	1020
Buxoro	995	1006	988
Jizzax	1006	991	1019
Qashqadaryo	1015	1015	1015
Navoiy	1030	1061	1000
Namangan	1025	1028	1021
Samarqand	1003	983	1015
Surxondaryo	1014	998	1023
Sirdaryo	1010	1004	1014
Toshkent	996	982	1009
Farg'onha	1010	994	1031
Xorazm	996	993	997
Toshkent sh.	949	949	

O'zbekiston Respublikasi aholisi milliy tarkibida mahalliy millatlardan *qozoqlar* soni va salmog'i jihatdan alohida o'tin tutadi. Tahlil etilayotgan yillarda bu millat vakillari ulushi 1,2 martaga

¹ Manba: "www.stat.uz". Jadval ilmiy manbalardan va statistik to'plamlarda chop etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

qisqardi. Binobarin, 1989-yilda respublikadagi qozoqlarning 72,4 foizi ikkita mintaqaga – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 77,4 foizni, 2017-yilda 79,3 foizini tashkil etgan. Har ikkala mintaqadagi qozoqlar umumiy miqdori tadqiqot davrida 1,1: 1,3 martaga oshgan. Soni jihatdan beshinchchi o'rinda turuvchi *qoraqalpoq* millatining 94,5 foizi nomi bilan bog'liq respublikada, 3,2 foizi Navoiy viloyatida, qolgan qismi esa boshqa viloyatlarda istiqomat qiladi.

O'zbekiston aholisi shakllanishi va joylanishida uning yosh-jinsiy tarkibi alohida ahamiyatga ega. Aholining yosh tarkibida hamisha yoshlar, mehnat yoshidagi aholi ko'p sonli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Aholining jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar miqdori o'zaro mutanosib, ya'ni teng (50-50). Bu tenglik ma'lum bir yosh guruhlarigacha saqlanib qolinadi, so'ngra 50-55 yoshlardan boshlab jinsiy tarkibda ayollarning ustunligi kuzatiladi. Aholining jinsiy tarkibida ko'p yillarda ayollarning erkaklarga nisbatan ulushi ortiq bo'lganligi kuzatiladi, ammo oxirgi yillarda bu nomutanosiblik tenglashib bormoqda.

15.3. Respublikaning demografik vaziyati

O'zbekiston hududlarida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida tug'ilish yuqori darajada bo'lgan. Oilada farzandlar tug'ilishi nazorat etilmagan, ya'ni cheklanmagan. Soddarq qilib aytganda har 1000ta aholi bir yilda tug'ilish 45-55tага teng bo'lgan. O'sha davrlarda respublikada qishloq turmush tarzining keng tarqalganligi (XX asr boshlarida O'zbekiston aholisining 80 foizi qishloqlarda istiqomat etishgan) qizlarning nihoyatda erta turmush qurishi, bolalar (ayniqsa, bir yoshgacha bo'lgan) o'limining yuqoriligi kabi omillar oilalarda farzandlar tug'ilishini cheklanmasligiga olib kelgan.

Mazkur davrlarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi sabab, aholi o'limi, ayniqsa, ayollar va bolalar o'limi juda yuqori bo'lgan. Chunki, aholining og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning yetishmasligi, o'limning ko'pligi, aholi o'rtacha umr ko'rish davrining qisqarishiga olib kelgan. O'tmishtda O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 32 yosh bo'lgan bo'lsa, 1989-

1990-yillarda bu yosh ko'rsatkichi 69,3 yilga, 2016-2017-yilda 71,1 yilga, shundan, ayollarda bu davr oralig'ida 72,4 yildan 75,1 yilga, erkaklarda esa 66,1 yildan to 70,6 yilga ko'tarildi.

O'zbekistonda yangi iqtisodiy islohotning joriy etilishi, xo'jalikning hamma sohalarida bozor munosabatlarining shakllanishi, xususiy xo'jalik va tadbirkorlikning keng tarqalishi, xorijiy sarmoyalari asosida qo'shma korxonalarning barpo etilishi va rivojlanishi o'lkanning demografik vaziyatiga ham ma'lum darajada ta'sir etdi. Avvalo aholining ijtimoiy tarkibida o'zgarishlar yuz berdi. Sotsialistik tuzumda faqat ishchi, xizmatchi va dehqon oilalari bo'lgan bo'lsa, endilikda oilaning ijtimoiy doirasi kengayib. "mulkdor", "tadbirkor", "fermer", "savdogar" oilalari paydo bo'ldi. Tabiiyki, bu oilalar O'zbekistonda istiqomat etuvchi hamma aholini qamrab ololmaydi. Boshqacha aytganda, hamma oilaning ham "mulkdor", "tadbirkor", "fermer" oila bo'lishiga imkoniyati mavjud emas. Respublikada esa bunday oilalarning salmog'i hali ancha yuqoridir. Bularga qishloqlarda istiqomat etuvchi aholi oilalari, davlatning byudjet tashkilotlarida mehnat qiluvchi ishchi, xizmatchi oilalari kiradi. Ushbu oilalar bilan "mulkdor", "fermer" va "tadbirkor" oilalarning turmush tarzida keskin tafovutlar paydo bo'ldi.

O'zbekistonda ko'plab korxonalarning davlat tasarrufidan chiqarilishi, respublikada byudjet imkoniyatlarining cheklanishi davlat tashkilotlaridagi mehnatkashlar oilasining iqtisodiy imkoniyatlariga birmuncha salbiy ta'sir etdi. Undan tashqari, O'zbekistondagi juda ko'p korxonalar sobiq SSSR davrida boshqa respublikalar sanoat tizimlari bilan bog'liq holda ishlagan. O'zbekiston Markaz iqtisodiyotini faqat xomashyo bilan ta'minlab turgan. O'zida tayyor mahsulot ishlab chiqarish juda cheklangan darajada bo'lgan. Sanoat uchun kerak bo'lgan ishlab chiqarish vositalari boshqa respublikalardan keltirilgan.

SSSR parchalangach, O'zbekistonga kerakli sanoat vositalarini beruvchi respublikalar o'z mahsulotlari narxlarini juda ko'tarib yubordilar yoki butunlay bermay qo'ydilar. Natijada, O'zbekistonda qator sanoat korxonalari o'z faoliyatlarini to'xtatishga majbur bo'ldilar. Bunday korxonalarda mehnat qilib oilasini boquvchi ko'plab ishchilar ishsiz qolishga yoki vaqtincha bepul mehnat ta'tiliga chiqishga majbur bo'ldilar.

Umuman, respublika o'z ehtiyojlarini ta'minlash uchun ko'plab yoqilg'i, texnologiya, hatto ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarini ham chet eldan qimmat narxda olib kelishga majbur bo'ldi. Bunday holatlar O'zbekistonda narx-navoning ko'tarilishiga, pulning qadrsizlanishiga va respublikaning moliyaviy ahvolining birmuncha keskinlashuviga sabab bo'ldi. Natijada, birinchi navbatda inson iste'moli va yashashi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va qurilish materiallari narxi nihoyatda ko'tarilib ketdi. Bu hol aholining davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza etilishiga qaramay, qator iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keldi. Bunday qiyinchiliklar faqat davlat maoshi bilan yashovchi, mehnat yoshiga yetmagan farzandlari ko'p oilalarda, yosh oilalarda, ko'p bolali oilalarda yaqqol sezila boshladi.

15.5- jadval

**O'zbekistonda tug'ilgan bolalarining miqdoriy o'zgarishi
(1950-2017-yillar)¹**

yillar	jami tug'ilgan bolalar soni (ming kishi his.)	yillar	o'rtacha yillik o'sish sur'ati
1950	194,5	1950-1955-yillar	5,10
1955	249,1	1955-1960-yillar	6,45
1960	340,6	1960-1965-yillar	0,85
1965	355,1	1965-1970-yillar	2,47
1970	401,6	1970-1975-yillar	3,60
1975	478,6	1975-1980-yillar	2,45
1980	540,0	1980-1985-yillar	4,67
1985	679,1	1985-1990-yillar	0,35
1990	691,6	1991-1994-yillar	-3,10
1991	723,4	1994-2000-yillar	-3,00
1992	710,5	2000-2017-yillar	-1,20
1993	692,3		
1994	527,6		
2000	508,5		
2003	657,7		

¹ 1950-1980 yillar «Численность, состав и движение населения Узбекской ССР» (Ташкент, 1983), 1985-2003 yillar «Народное хозяйство Узбекистана»; демографический ежегодник Узбекистана 2003. — Ташкент: 2604, 199 бет.. statistik yilnomalari ma'lumotlaridan olibdi.

Oziq-ovqat va uy-joy muammosi savodli aholining demografič jarayonlariga, birinchi navbatda tug'ilishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ko'pchilik oilalarda farzandlar sonini cheklash jarayoni kuchaydi. Bu holni O'zbekistonda tug'ilgan bolalar sonining qisqarib borishida ham yaqqol kuzatish mumkin.

Aholining yosh tarkibini ifodalovchi ma'lumotlar ko'rsatishicha, 1959-1979-yillarda jami aholi miqdorida 15-29 yosh guruhlari salmog'i 24,7 foizdan - 28,6 foizga yetdi¹. Shunisi e'tiborliki, aholi tarkibida yoshlardan salmog'i 1985-1990-yillarda ham 27-28 foiz atrofida saqlanib keldi. Lekin tug'ilayotgan bolalar miqdorining o'sish sur'ati esa bu davrda 13,3 martaga kamaydi. Bu kamayish, asosan, oilada to'rtinchchi, beshinchchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishining qisqarib borishi bilan bog'liqidir. Masalan, 1960-yili respublikada jami tug'ilgan bolalarning 39,0 foizini oilada beshinchchi va undan keyingi farzandlar tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970-yili 42,8 foiz, 1980-yili 25,1 foiz, 1989-yili 15,3 foiz va 1994-yili 9,6 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar respublikaning shahar joylarida mos ravishda 21,8 foiz, 26,7 foiz, 15,1 foiz, 9,2 foiz va 5,3 foizni, qishloq joylarida esa 32,0 foiz, 49,5 foiz, 29,6 foiz, 18,4 foiz va 11,1 foizni tashkil etdi.

Respublikada oilada beshinchchi va undan keyingi bo'lib tug'ilayotgan bolalar miqdorining kamayib borishi o'zbek oilalarida farzandlar tug'ilishini cheklash hollari keng tarqalayotganidan va ko'pbolali oilalar salmog'inining kamayishidan, bir so'z bilan aytganda, tug'ilish darajasining pasayib borayotganligidan dalolat beradi. Bu jarayonni tug'ilish darajasini ifodalovchi maxsus ko'rsatkichlar dinamikasida ham kuzatish mumkin. Jumladan, 1960-yilda Respublikada har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 39,8 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 1990-yili bu ko'rsatkich 33,7 promilleni tashkil etdi yoki 6,7 punktga kamaydi. 1991-2017-yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublika bo'yicha 34,5 promilledan 22,1 promillega tushdi. 2017-yilda 715,5 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 22,1 promilleni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 0,7 promillega kamaydi (2016-yilda 22,8 promille bo'lgan).

O'zbekistonda tug'ilish darajasining bunday tez sur'at bilan kamayishi urushdan keyingi 40-45 yillik davrda kuzatilgan emas.

¹Bu xaqdin III- bob, I-paragrafdagi butaafsil buyon etilg'an.

Respublikaning tug'ilish darajasi doim yuqori bo'lib kelgan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham ko'p bolali oilalar salmog'i keskin kamaygan. Masalan, 1996-yili Qashqadaryo viloyatida har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni 33.1 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yili bu ko'rsaikich 24.0 promilleni tashkil etdi. Bu davrda tug'ilishning umumiy koefitsienti Surxondaryo viloyatida 34,4 % dan 21,9 % ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 25,1 % dan 21,7 % ga, Xorazm viloyatida 27,4 % dan 22,3 % ga kamaydi.

Tug'ilish koefitsienti 2016-yilga nisbatan 2017-yilda Surxondaryo viloyatida o'sgan (25,7 promilledan 25,9 promillega) bo'lib, sezilarli darajada kamayish esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (21,9 promilledan 20,7 promillega), Farg'ona (22,2 promilledan 21,0 promillega), Toshkent (20,3 promilledan 19,2 promillega), Xorazm (22,2 promilledan 21,0 promillega), Buxoro (20,9 promilledan 20,0 promillega) va Jizzax (24,5 promilledan 23,6 promillega) viloyatida kuzatildi.

2017-yilda jami 715,5 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, shundan onasining yoshi bo'yicha tug'ilganlarning 280,8 ming nafari (jami tug'ilganlarga nisbatan 39,2%) 20-24 yoshlardagi ayollar, 248,1 ming nafari (34,7%) 25-29 yoshdagi, 122,3 ming nafari (17,1%) 30-34 yoshlardagi ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

15.6-jadval

Tug'ilishning yig'indi koefitsienti¹
(bitta ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni)

Yillar	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
2007	2.554	2.223	2.744
2008	2.637	2.212	3.107
2009	2.530	2.188	2.903
2010	2.342	2.081	2.619
2011	2.236	1.991	2.495
2012	2.193	1.982	2.413
2013	2.350	2.130	2.575
2014	2.457	2.236	2.679
2015	2.491	2.230	2.749

¹ Manba: *www. stat.uz. Jadval ilmiy manbalardan va statistik to'plamlarda chop etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Tug'ilish darajasining kamayib borganligi oilda beshinchisi undan keyingi (oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va h.k.) tug'ilayotgan bolalar salmog'ining qisqarib borishida ham kuzatiladi. Ular 1970-yilda jami tug'ilgan bolalarning 43,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1990-yilda 14,3 foizini tashkil etdi yoki uch martaga qisqardi. Umuman 1950-1990-yillarda O'zbekiston aholisi 6 mln 264 ming kishidan 20 mln 322 ming kishiga yetdi.

O'zbekistonda mustaqillik davrining birinchi besqichida tug'ilish darajasining 1970-yillarda boshlangan kamayish jarayoni tezlashdi. Tug'ilish darajasining kamayishi, yuqorida qayd etilganidek O'zbekistonda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Tug'ilishning yig'indi koefitsienti bo'yicha, 1990-yillarga qadar O'zbekiston dunyodagi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirar edi. Bu ko'rsatkich 1990-1991-yillardan boshlab kamaya borib, hozirgi davrda esa 2,36ni (2017-yil) tashkil etgan (shaharda – 2,10, qishloqda – 2,65). Demak, O'zbekiston bugungi kunda dunyodagi tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar qatoridan o'rinni olgan. 1991-2017-yillar davomida, umuman bu jarayon, ya'ni tug'ilisning keskin kamayganligi O'zbekistonning hamma hududlarida kuzatilmoxda. Respublikada tug'ilish darajasidagi shahar va qishloq hududlarida qadimdan mayjud bo'lib kelgan farqi, keyingi yillarda qishloq aholisida tug'ilishning tez sur'at bilan kamayish hisobiga sezilarli darajada qisqargan.

Respublika demografik vaziyatida aholi o'limi muhim jarayonlardan biri bo'lib, aholining o'lim ko'rsatkichi har ming kishiga 1990-yilda 6,1 promille bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 5,1 promillega teng bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi eng katta yutug'i bu aholining barcha qatlamida o'lim darajasining kamayishiga erishganlidir.

2017-yilda 161,5 ming o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koefitsienti 5,0 promilleni tashkil etib, 2016-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshdi (2016-yilda 4,9 promille bo'lgan). O'lim koefitsienti 2016-yilga nisbatan 2017-yilda sezilarli darajada o'sishi Andijon (5,1 promilledan 5,4 promillega), Jizzax (4,2 promilledan 4,4 promillega), Qashqadaryo (4,1 promilledan 4,3 promillega), Namangan (4,7 promilledan 4,9 promillega), Surxondaryo (4,3 promilledan 4,5 promillega) va Farg'ona (4,8 promilledan 5,0 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami vafot etganlarning 8,2 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilarga (2016-yilda 8,0 %), 27,6 % i mehnatga layoqatli yoshdagilarga (2016-yilda 28,5 %), 64,2 % i mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar (2016-yilda 63,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. 2017-yilda vafot etganlar soni 2016-yilga nisbatan 6,7 ming kishiga o'sib, ularning asosiy qismi, ya'ni 74,6 % ini 60 yosh va undan katta yoshdagisi aholi tashkil etgan.

15.7-jadval

O'zbekiston aholisining tug'ilishi, o'lishi va tabiiy ko'payishi¹ (1920-2017-yillar)

Yillar	Hil 1000 aholiga nisbatan		
	Tug'ilganlar	O'lganlar	Aholining tabiiy o'sishi
1920	44,8	33,8	11,0
1930	38,7	17,1	21,6
1940	33,6	13,2	20,4
1950	30,9	8,8	22,1
1960	39,8	6,0	33,8
1970	33,6	5,5	28,1
1980	33,8	7,4	26,4
1990	33,7	6,1	27,6
1995	30,4	6,5	23,9
2000	21,7	5,6	16,1
2005	20,6	5,3	15,3
2010	21,9	5,1	16,8
2017	22,1	5,0	17,1

2017-yilda qayd etilgan vafot etganlarning 59,9 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 % i o'simtalardan, 6,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 % i ovqat hazim qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,7 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan. Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 56,4 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,9 % i tug'ma anomaliyalardan, 3,5 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,9 % i

Manta: *www.stat.uz. Jadval iliniy mabinalardan va statistik tiziplamlarda chop etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Samarqand (121.2 %), Namangan (119,0 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (118,2 %) to'g'ri kelmoqda.

2017-yilda respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 157,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 177,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 20,6 ming kishi bo'lib, 2016-yilga nisbatan 5,6 ming kishiga kamaygan. Migratsiya saldosining yuqori darajasi Toshkent (minus 6,2 ming kishi), Samarqand (minus 5,2 ming kishi), Qashqadaryo (minus 4,0 ming kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 4,4 ming kishi) qayd etildi.

15.4. Mehnat resurslari va aholi bandligi

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarining 4.1. bandida "*Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish: aholining real, pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish; byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqatarning hajmini inslyatsiya sur'atlariga nishbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish; yangi ish o'rirlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va olyi o'quv yurtlari bitiruvchilarining ogilona bandligini ta'minlash, mehnat bozori infrastrukturasingning mutanosibligi va rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish*"¹ ni muhim vazifalardan qilib belgilashi bejiz emas. Shu boisdan, yangi ish o'rirlarini tashkil etish masalasi respublika rahbariyatining doimo e'tibori markazida bo'ldi. Natijada, 2017-yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish obyektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rirlari tashkil etildi.

Mehnat resurslarini tahlili bozor iqtisodi sharoitida ulardan foydalanish sur'ati, soni va sifatiga bo'lgan talab o'zgarib borayotganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham mamlakatda o'sib borayotgan aholi turmush darajasini yanada oshirish, aholi bandligi va

¹ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

u bilan bog'liq muammolarni hal etish islohotlarning muhim vazifasiga, yo'nalishiga aylandi. Aholining mehnatda faolligi va ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholi salmog'i mehnat resurslaridan foydalanishning mezonini belgilaydi O'zbekistonda bu mezon 99,8 % dan ziyoddir. Ishlab chiqarish, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblangan mehnat resurslari jamiyatning ijtimoiy-demografik rivojlanishi bilan birgalikda vujudga keladi.

15.8-jadval

Iqtisodiy faol aholi soni (*ming kishi*)¹

yillar	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Ming kishi									
iqtisodiy faol aholi soni, jami	11299.2	11603.1	11929.5	12286.6	12541.5	12850.1	13163.0	13505.4	13767.7
ayollar	5332.6	5362.2	5523.5	5648.5	5691.1	5829.5	6004.8	6149.6	6275.5
erkaklar	5966.6	6240.9	6406.0	6638.1	6850.2	7020.6	7158.2	7355.8	7492.2
Iqtisodiy faol aholi umumiy sonidan									
iqtisodiy otda bandlar	10735.4	11035.4	11328.1	11628.4	11919.1	12223.8	12523.3	12818.4	13058.3
ayollar	5017.1	5057.1	5200.3	5295.1	5416.6	5554.1	5723.7	5848.1	5964.3
erkaklar	5718.3	5978.3	6127.8	6333.3	6502.5	6669.7	6799.6	6970.3	7094.0
ishsizlar	563.8	567.7	601.4	658.2	622.4	626.3	639.7	687.0	709.4
ayollar	315.5	305.1	323.2	353.4	274.7	275.4	281.1	301.5	311.2
erkaklar	248.3	262.6	278.2	304.8	347.7	350.9	358.6	385.5	398.2

Aniqroq qilib aytganda, aholining tabiiy, sotsial, mexanik harakati natijasida mehnat resurslari shakllanadi, rivojlanadi va taqsimlanadi. Mehnat resurslarining manbai mamlakat aholisidir. Aholining faqat mehnatga yaroqli qismigina mehnat resurslari hisoblanadi. O'zbekistonda mehnat resurslariga 16dan 59 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16dan 54 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. U

¹ Manba: *www.stat.uz. Jadval ilmiy manbalardan va statistik to'plamlarda chop etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

mamlakat aholisining taxminan yarmini tashkil etadi¹. Respublikadagi qulay ijtimoiy-demografik vaziyat mehnat resurslari shaklanishini yuqori sur'atda ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu boisdan mamlakat rabbariyati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq aholining barcha qatlamini ijtimoiy himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu borada qator davlat ahamiyatiga ega dasturlar qabul qilindi va ular samarali hayotga tafbiq etilmoqda. Bozor iqtisodiga o'tish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida mehnat resurslariga bo'lgan talab va aholining bandlik ko'rsatkichlari bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishda xo'jalik yuritishning turli shakllari paydo bo'ldi, ayrim tarmoqlar faoliyatida o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, 1990-yilda aholining 41,5 foizi nodavlat sektorida band bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda 81,3 foiz aholi nodavlat, atigi 18,7 foizi davlat sektorida ishlashmoqda. Oxirgi 5 yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida 3,8 mlnga yaqin yangi ish o'rnlari yaratildi. Shuning 74 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi. Mustaqillik yillari respublikada mehnatga qobiliyatli yoshlarning ma'lumotlilik darajasi, malakasi ancha ortdi. Masalan, 1989-yilda iqtisodiyotda band bo'lganlardan atigi 12,7 foizi oliy ma'lumotli, 21,4 foizi tugallanmagan oliy va o'rta maxsus bilimiga ega bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib oliy ma'lumotlilar 3,9 punktga ko'paygan holda, o'rta maxsus, o'rta hamda to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarida 1,1 punktga kamayish hodisasi ro'y bergen. Mayjud manbalar iqtisodiyotda band bo'lgan aholi ma'lumotlilik darajasida o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilar hissasi yuqoriligini, biroq uning ulushi borgan sari oliy va o'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholining miqdori ortishi hisobiga qisqarib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tadqiqot davrida ayollar o'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholi ulushi erkaklarnikiga nisbatan yuqori bo'lgan holda tezlik bilan rivojlandi. Jumladan, 1989-yilda oliy ma'lumotli ayollarning jami band bo'lgnarlardagi ulushi erkaklardan 1,2 punktga kam bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 1,3 punktga yuqori bo'ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va bu asosda maxsus kasb-hunar kollejlari tizimining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishga kelayotgan yoshlarning aksariyati, o'rta maxsus

¹ Тұхсанов Н. ға бойын. Үзбекистон иккисінші деңгелдері. -Т.: 2006. Б.31.

bilimiga ega bo'lishiga sabab bo'linoqda. Buning natijasida, bиргина 2000-2010-yilning o'zida respublikaning barcha viloyatlari iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholining oliv va o'rta maxsus ma'lumotidagilar ulushi 1,2-2,0 martaga ortdi, o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotidagilarda esa shuncha miqdorda kamayish ro'y berdi. Mazkur yillar orasida iqtisodiyotda band aholining ma'lumotlilik darajasida oliv ma'lumotlilar ulushi Jizzax va Xorazm viloyatida 2 barobarga, Toshkent shahri va viloyatida 1,1-1,2 marta, qolgan viloyatlarda esa 1,5 martaga ko'paygan. O'rta maxsus ma'lumotiga ega band aholi salmog'i va salohiyati ham viloyatlar miqyosida o'rtacha 1,2-1,8 martaga o'sgan.

Statistik ma'lumotlar tablili, respublika aholisining 60,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va buning 74,4 foizi bugungi kunda iqtisodiy faol aholi (IFA) hisoblanadi. O'zbekiston aholisi muttasil tabiiy ko'payib borishi natijasida, mehnat resurslari soni va salmog'i ham o'sib boryapti. Masalan, respublikada mehnat resurslari soni 1991-yilda 10213,2 ming, 2013-yilda 17814,1 ming kishiga yetdi yoki barcha yillarda jami mamlakat aholisining teng yarmi va undan ko'pini tashkil etdi. Umummamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslari salmog'i yildan yilga ortib, aksincha, bu mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lganlari hissasi kamayib borishi kuzatiladi. Chunki, 1991-yilda barcha mehnat resurslarining 80,8 foizi iqtisodiyotda band bo'lgan bo'lsa, 2001-yilda 71,3 foiz, 2017-yilda 73,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy islohotlar davrida aholining tarmoqlar bo'yicha bandligi dinamikasi va tarkibida qator o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday rivojlanish xususiyati barcha tarmoqlar va sohalar uchun ham qayd etildi, biroq bиргина qishloq xo'jaligida band bo'lganlar nisbiy miqdori kamaydi. Aksincha, sanoat, qurilish, transport hamda xizmat ko'rsatish sohalarida bandlar hissasi ortib bordi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish respublika aholisi bandligini yuqori darajada ta'minlash imkoniyatiga ega tarmoqlar hisoblanadi. Shu boisdan, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining teng yarmi, ya'ni 48,8 foizi shu tarmoqlarga tegishli. Holbuki, 1989-yilda bu ko'rsatkich 60,3 foizni tashkil etgan. Xuddi shunday qishloq xo'jaligida aholi bandligi 1991-yilda 41,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 27,2 foizga, sanoatda esa 14,3 foizdan 12,9 foizga tushdi. Mulkchilik shakllari bo'yicha

aholi bandligi taqsimotida eng kichik ulush chet el investitsiyasi asosidagi korxonalarda ishlaydiganlar hisoblanadi.

O'zbekistonda zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlari va texnologiyalarni o'zlashtiruvchi chuqur bilim va malakaga ega, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish darajasidagi mutaxassislarning yetishib kelayotganligi aholiga xizmat ko'rsatish sohasida bandlar soni va salohiyati ortishida bosh omillardandir. Jumladan, 1989-2017-yillarda savdo va umumiyligi ovqatlanishda aholi bandligi 2,6 martaga: sog'lijni saqlash, sport va aholini ijtimoiy himoyalashda, uy-joy, kommunal xo'jalikda 1,8; ta'lif, san'at, fan, transport va aloqada bu ko'rsatkich mos ravishda 1,4 va 1,1 barobarga ko'paydi. Shu boisdan ham, aynan xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi 1991-yilda 35,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 52,4 foizga ko'tarildi. Bulardan jami mamlakat iqtisodiyotda band aholining 13,1 % ini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim sohasida ayollar bandligi yuqori. Biroq, ko'rilibayotgan tarmoqda ayollar bandligi 1999-2017-yillarda 7,4 martaga qisqardi. Shuningdek, savdo, umumiyligi ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida jami aholining 14,7 foizi band bo'lgan holda, ulaming 53,4 % i ayollardan iborat.

Erkin iqtisodiyot sharoitida bozorlar tiziminining taraqqiy etishi va u bilan chambarchas xizmat ko'rsatish sohalarining avj olganligi, tabiiyki bu sohalarda bandlikni oshiradi. Respublika iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan jami aholining atigi 7,4 foizini qamrab olgan sog'lijni saqlash, sport va ijtimoiy ta'minot sohalarida ishlovchilar soni yildan yilga ortib bornoqda. Qolaversa, bu sohalarda ayollar bandligi yuqori bo'lib, ya'ni 74 foizni tashkil etadi. Mazkur sohalarda aholining ko'p band bo'lishi mintaqalar ijtimoiy-demografik vaziyati yaxshilanishida muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasida ham Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o'tildi, unga ko'ra aholini tizimiyligi taqsimlashda mamlakat mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nofaol qismlarga ajratiladigan bo'ldi. Mehnat resurslari aholining o'z ruhiy fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidimayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, jumladan, ishlab

chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar ham kiritiladi. Demak, mehnat resurslari haqiqiy (real) va potensial xodimlardir.

NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. XX asrning ikkinchi yarmida mehnat resurslari sonidagi o'zgarishlarni baholang?
2. Aholi yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagilar miqdorining ko'payib borishini qanday izohlaysiz?
3. Iqtisodiy faol aholi nima?
4. Mehnat resurslari va mehnat yoshidagi aholining farqini keltiring?
5. O'zbekistonda aholining eng ko'p qatlami qaysi soha yoki tarmoqda band va nima uchun?
6. Erkin iqtisodiyot sharoitida bozorlar tizimining taraqqiy etishiga sabab nima?
7. Qishloq xo'jaligida aholi bandligi qanday o'zgarmoqda?
8. Bozor iqtisodiga o'tish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida mehnat resurslariga bo'lgan talab va aholining bandlik ko'rsatkichlari bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qanday amalga oshiriladi?

GLOSSARY

“Agroshaharlar” yoki “qishloq shaharlari” – urbanistik siyosat tufayli O‘zbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib professor A. S. Soliyev shunday nomlagan.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo‘silib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi.

Aholi migratsiyasi – bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o‘zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko‘chishidir.

Aholi punktlari – aholi joylashishining hududiy ko‘rinishi, ya’ni shaklidir.

Aholi registrlari – bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xo‘jaligi haqida axborotga ega bo‘lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsislari to‘g‘risida ma’lumotlar jamlanadi.

Aholi ro‘yxati – aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo‘lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta’rifiga ko‘ra, aholi ro‘yxati – bu ma’lum vaqtida mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

Aholi soni – muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiyligi miqdori hisoblanadi. Aholi soni tug‘ilish va o‘lim natijasida muntazam o‘zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o‘zgaradi.

Aholi takror barpo bo‘lishining brutto koeffitsienti – Har bir ayolning reproduktiv, ya’ni farzand ko‘rish davrida (15-49 yosh) o‘rganilayotgan davrdagi tug‘ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz farzand ko‘rishi mumkinligini aniqlab beradi.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto koeffitsenti – Bu koeffitsent, aholi takror barpo bo‘lishining sof koeffitsienti bo‘lib, u avlodlar almashinuv darajasini aniq ifodalaydi, chunki bu ko‘rsatkichda tug‘ilgan qiz bolalar onasining yoshiga yetgunga qadar yashab borganlari hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda aholi

takror barpo bo'lishining netto koeffitsientida o'lim ehtimoli hisobga olinadi.

Aholi tarkibi – bu aholining muayyan bir alomatlarga ko'ra taqsimlanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda qandaydir o'zgaruvchilarga asoslangan taqsimotdir. Masalan, aholining yosh tarkibi, jins tarkibi.

Aholi va aholi punktlari – inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bo'lган moddiy shart-sharoitga ega ma'lum bir hududda yashovchi aholining joylanishi.

Aholini geografik o'rGANISHAning demografik yo'nalishi – aholining o'sishi, yoshi va jinsi, milliy tarkibi, takror barpo bo'lishiga e'tibor berilishi.

Aholining hududiy tashkil etish shakllari – turli yiriklikdagi aholi punktlari, ularning yirik murakkab tizimlari.

Aholining jins tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

Aholining jins tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

Aholining keksayishi – aholi umumiylar sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtida o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi.

Aholining takror barpo bo'lishi – aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'mni to'ldirishi orqali yangilanishidir.

Aholining yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholining yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Akkumulyasiya jarayoni – bu ketma-ketlikdagi amallarga bo'lingan tug'ilishning yig'indi koeffitsientining hisoblanishidir, shu sababli 50 yoshga qadar yig'ilgan tug'ilishlar soni berilgan shartli avlodning tug'ilishning yig'indi koeffitsientiga teng bo'ladi.

Amaliy demografiya – aholi va demografik jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni shaharlar va qishloqlarni, qurilishni, ishlab chiqarish

korxonalarini joylashtirishda, umuman, inson hayoti uchun zarur bo'lgan vositalarni rejalashtirishda ishlatalishi.

Aniq yosh – imkonli boricha maksimal aniqlik bilan o'lchangan, tug'ilgan vaqtidan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqida uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizimining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatлari, shuningdek, irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'r ganib, u demografiya bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyati hududiy xususiyatlarni o'r ganadi.

Aralash funksiyali qishloqlar – aholisi qishloq xo'jaligida band bo'lmasdan sanoatda, transportda va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan aholi punktlari.

Aralash qishloqlar – aholisining aksariyati qishloq xo'jaligida, ma'lum bir yashovchilargina sanoatda, transportda, qurilishda, xizmat ko'rsatish yoki boshqarishda ishlaydigan qishloq aholi punktlari. Aralash tipdagи qishloqlar ikki sohalarning rivojlanishi yoki, odatda, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat korxonalar negizida vujudga keladi.

Assimiliatsiya – mohiyati shundaki, biron-bir xalqning alohida guruhi yoki butun bir xalq uzoq vaqt davomida boshqa xalq orasida yashab, uning tili va madaniyatini o'zlashtiradi hamda o'zini avvalgi etnik birlikka mansub ekanini inkor qiladi. Milliy o'zlikni anglashdagi o'zgarishlar bu jarayonning oxirgi bosqichi hisoblanadi.

Avlod – muayyan bir vaqtida tug'ilgan insonlarga tegishli bo'lib, ko'pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinchi. ularning farzandlari birinchi, nevaralari esa ikkinchi avlod hisoblanadi.

Avlod uzunligi – bu ota-onalar avlodni o'tnini ularning bolalari bosishi uchun kerak bo'ladigan o'rtacha vaqtdir. Ayol aholi uchun avlod uzunligi 30 yil atrofida tebranadi, erkak aholi uchun esa u nisbatan kattaroqdir.

Avstraloid irqi – to'q rangi, keng burni, ularni negroidlar bilan yaqinlashtiruvchi qalin lablari, biroq ulardan farqlantiruvchi to'lqinsimon sochlari (avstraliyaliklar, veddoidlar), kuchli rivojlangan

uchlamchi jun qoplami (avstraliyaliklar), ba'zan biroz zaiflashadigan pigmentatsiya bilan ajralib turadi.

Baliqchi, Buloqboshi – Andijon viloyati ma'muriy tarkibidagi tumanlar nomi.

Demografik inqiroz – aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladigan jarayon. Demografiya tarixida XIX asrning oxiriga qadar demografik inqirozga ocharchilik, epidemiya va urushlar sabab bo'lgan. Bu omillarga tayangan holda aholining o'limi ortgan va o'z-o'zidan aholi sonining kamayishiga, dunyoning ba'zi mamlakat va mintaqalarida, alohida hududlarda umuman odamlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish sonining keskin pasayishi aholi mutlaq sonining kamayishiga, ya'ni demografik inqirozga olib keldi.

Demografik jarayon – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarining vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Demografik o'tish – aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

Demografik portlash – tug'ilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori sur'atda o'sishidir.

Demografik statistika – demografiyaning eng hadimgi tarmohi boiib, uning predmeti aholini takror barpo bo'lishining statistik honuniyatları hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chihish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lehash, aholining takror barpo bo'lishi to'hrisidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yihish va hayta ishlash kiradi.

Depopulyasiya – tug'ilish darajasining pasayishi, o'limning ko'payishi natijasida, aholi mutloq sonining kamayish jarayonidir.

Doimiy aholi – ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi.

Doimiy migratsiya – bu aholining ko'chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so'ng ko'chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir.

Elat – kishilarning tili, hududi, iqtisodiyoti va madaniyati o'xshash bo'lgan kishilar guruhi.

Etnik integrasiyalashuv – ya'ni turli etnoslarning yaqinlashuvi, asosan, ko'pinillatli davlatlarda sodir bo'ladi.

Etnografiya – demografiya bilan chambarchas va har tomonlama bog'liq bo'lgan fanlar hisoblanadi. Chunki bu fanlar ham bevosita aholi geografiyasini singari aholini o'rganadi. Lekin bular aholini har qaysisi o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etadilar. Masalan, demografiya aholi soni, takror barpo bo'lish qonuniyatlarini va omillarini o'rgansa, etnografiya – xalqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy tarixiy aloqalarini o'rganadi. Xalqlarning tarqalishini esa etnogeografiya o'rganadi. Aholi geografiyasini demografiya bilan aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hududlar aholisini o'rganishda aholi geografiyasini demografik jarayonlarga murojaat etadi. Bunday tadqiqotlarni geodemografik tadqiqotlararo deb ataladi¹.

Friksion ishsizlik -- ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchi.

Gyerontodemografiya – aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatiarini o'rganuvechi fan sanaladi.

Guruhashgan holda joylashgan aholi punktlari – turli xil kattalikdagi shahar va qishloq aholi punktlari ko'rinishda bo'ladi.

Hududiy demografiya – ma'lum hudud, mamlakat, davlatning hududiy bo'linmasidagi aholi soni, yosh – jinsiy, oilaviy tarkibi demografik jarayonlarining hususiyatlarini o'rganadi.

Ichki migratsiya deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinechi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan shaharga, shahardan qishloqqa, qishloqdan Ssaharga, qishloqdan qishloqqa.

¹ Садик А., Карнибонова Л. Некоторые географические категории на языках народов Узбекистана. Ташкент 1990. № 49 - 6 ср.

Intergenetik interval – bu birinchi, ikkinchi va undan keyingi fatzandlar tug‘ilishi o‘rtasidagi vaqt.

Irqlar – umumiy irsiy morfologik va fiziologik belgilarga ega bo‘lgan, tarixiy shakllangan kishilar guruhidir.

Ishchi kuchi – mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma‘naviy qobiliyatlar majmuasi bo‘lib, xorijiy adabiyotlarda u ko‘pincha “iqtisodiy faol aholi” tushunchasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

Jismoniy salomatlik – barcha a‘zolar va butun organizmning to‘kis ishlab turgan tabiiy holati.

Konsolidatsiya – bu o‘zaro yaqin bir necha etnoslarning (qabila, elat) bitta yirik xalqqa qo‘shilishi yoki mavjud xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bo‘yicha yanada jipslashuvildir.

Lalmikor yerlar – tabiiy holda namlanib, dehqonchilik qilinadigan yerkarning umumiy maydoni.

Makro o‘rni – shahar aholi punktlarining yirik davlat chegaralariga nisbatan o‘rni.

Mavsumiy migratsiya – kishilarning yilning muayyan bir faslda chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy migratsiya, asosan, mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo‘lib aholi bandligida katta tebranishlar bo‘ladigan va ishchi kuchiga talab katta bo‘ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi. Mavsumiy migratsiya ko‘proq qishloq xo‘jaligi, mchmonxona xo‘jaligi singari ishchi kuchini ko‘p talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mego o‘rni – shahar aholi punktlarining dunyo miqyosida yoki uning yirik regionlariga nisbatan tutgan o‘rni.

Mehnat migratsiyasi – mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq makoniy ko‘chib yurishidir.

Mehnat resurslari – mehnatga yaroqli aholi. Mehnat resurslarini aniqlashda aholining yosh va jins tarkibi hisobga olinadi. Ularga 16-59 yoshdagi erkaklar, 16-55 yoshdagi ayollar kiradi.

Mehnat resurslari – aholinig mehnatga layoqatli qismi. Erkaklarning 16-59 yoshgacha, ayollarning 16-54 yoshgacha bo‘lgan qismi.

Mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi – O'zbekistonda mehnat yoshining quyi chegarasi 16 yosh bo'lib, yuqori chegara yosh bo'yicha pensiya olish huquqi bilan belgilangan.

Metaetnik umumiylig – deb nomlanadigan, bir necha xalqlar guruhi larini qamrab oladigan birliliklar ham mavjud.

Metropolislardan – ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, kommunal-xo'jalik aloqalari o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi punktlarining yangi turi;

Mezo o'rni – shahar aholi punktlarining mamlakat katta bir qismiga yoki uncha katta bo'lmagan davlatga nisbatan o'rni.

Mikro o'rni – shahar aholi punktlarining yaqin shahar atrofiga nisbatan o'rni.

Millat – nomi saqlanib qolgan elatning etnik rivojlanish mahsulidir. Biroq, davlat chegaralaridagi o'zgarishlar tufayli ayrim elatlar negizida bir qancha etnik birliliklar yuzaga kelgan (masalan, portugallar va galisiyliklar, nemislar va avstriyaliklar va h.k.).

Mongoloid irqi – to'g'ri, qattiq, qora sochlar, zaif rivojlangan uchlanchi jun qoplami, sariq tusli teri, qisiq ko'z, keng yuz, kuchli chiqib turgan yonoq suyagi, past qansharli ingichka yoki o'rtacha kenglikdagi burun, ko'z qovog'inинг yuqori qismini ajin qoplashi xarakterlidir.

Negroidlar irqi – qora, jingalak sochlar, qo'yko'z, tez-tez pigmentlashib turadigan teri, zaif yoki o'rtacha rivojlangan uchlanchi jun qoplami, o'rtacha chiqib turgan yonoq suyagi, oldinga kuchli chiqqan jag', zaif chiqib turgan keng burun, qalin lablar xarakterli.

Neonatal davr – bolaning tug'ilganidan to 28 kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkich go'daklar o'limining assosiy qismlaridan biri bo'lib, chaqaloqlarning shu davrga to'g'ri keladigan o'lim salmog'i qancha baland bo'lsa, go'daklar o'limining darajasi shunchalik past bo'ladi.

Noqonuniy migratsiya – esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tgan va davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy hujjat, va ruxsat bo'lmagan holdagi ko'chishidir.

O'lik tug'ilish – homiladorlik 28 haftadan yuqori bo'lganda o'lik homilaning ona tanasidan ayirish. Ayrilgan homila hech qanday faoliyat ko'rsatmaydi, u ayrilganda uning mustaqil nafas olish yo'llari ishlamaydi.

O'lim – organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to'xtashi. O'lim qayd etilgandan so'ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralar ham insonni hayotga qaytara olmaydi. O'lim jadvali joriy yilda ayrim yoshlardagi o'lim ko'rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko'rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

Perinatal davr – homilaning 28 hastadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. "Perinatal o'lim" tushunchasi birinchi marta S. Pepler (1948-yil) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tarjima qilinganda "tug'ruq atrofidagi yo'qotish" degan ma'noni anglatadi.

Polifunksional – ko'pgina shaharlar bitta emas, bir qancha funksiyani bajarishi.

Postneonatal davr – neonatal davrdan keyingi davr bo'lib, 28 kundan t yoshga to'lunga qadar bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi.

Qabila – tarixiy jihatdan etnoslarning eng qadimiy tipi.

Qishloq aholi geografiyası – shaharlar geografiyasiga (geourbanistikaga) qaraganda uncha "omadi kelmagan" ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Qishloq aholi punktlari – shahar aholi punktlari talablariga javob bermaydigan barcha aholi punktlari qishloqlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'lanmagan aholi punktlari – qishloq aholi punktlaridagi aholining bir qismi qishloq xo'jaligida, qolgani sanoat, transport, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi punktlari kiradi.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholi punktlari – qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, aholisi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va uni qayta ishslash bilan band bo'lgan aholi punktlari.

Qonuniy migratsiya – bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tmagan holda, davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va tegishli ruxsatnomalari bo'lgan holdagi ko'chishlaridir.

QR – Qoraqalpog'iston Respublikasi (QR) O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren davlat sifatida 9-yanvar 1992-yilda e'lon qilingan. Poytaxti – Nukus shahri.

Quyidan keksayish – bu tug‘ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog‘ining kamayib, qariyalar salmog‘ining esa ortib borishidir.

Shahar aglomeratsiyasi – mehnat, madaniy-maishiy, rekratsion, infratuzilma, ishlab chiqarish va boshqa aloqalari bilan o‘zaro birlashgan shahar aholi punktlari guruhiiga aytildi.

Mavsumiy ishsizlik – ishlab chiqarish darajasining pasayishiga bog‘liq holda ishchi kuchiga bo‘lgan talabni kamayishi oqibatida yuzaga keladigan ishsizlik

So‘g‘d (Panjakent rayoni) – Tojikiston Respublikasining viloyati.

Suburbanizatsiya – (suburbanizatsiya lotinchadan subur – shahar atrofi) aholining shahar atrofiga ko‘chib o‘tishi va shahar atrofida aholining to‘planib kengayishi;

Tarqoq joylashgan aholi punktlapi – yakka holda qurilgan yashash joyi bo‘lib, ular ko‘proq xizmat yuzasidan (fermerlar) tashkil qilinib, bir-biridan ma‘lum bir masofadagi uzoqlikda joylashadi.

Tashqi migratsiya – aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan qo‘sni mamlakatlar yoki chet elga ko‘chib ketishi yoki u yerdan ko‘chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qit’alararo va qit’alar ichidagi turlarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin.

Tavsifiy demografiya – demografik hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularni ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligini maxsus demografik va matematik uslublar yordamida o‘rganadi.

To‘liq o‘lim jadvali – bu bir yillik koeffitsientlar asosida hisoblab chiqariladigan o‘lim jadvali. Mazkur holda o‘lim jadvali qadami 1ga teng bo‘ladi. Odatda, ular Odan 100gacha bo‘lgan yosh davrini qamrab oladi.

Uchquduq – **Sulton Uvays** – **Miskin** – **Nukus** – Qaroqalpog‘iston Respublikasi hududiga tortilgan temir yo‘l tarmog‘i.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya’ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Vaqtinchalik migratsiya – migratsiyaning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib, aholining ma‘lum bir muddatga (asosan, bir yil muddatga) yashash joyini o‘zgartirishidir.

Vaqtinchalik yashovchilar – bu mazkur hududda doimiy yashab, qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga olish davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar – bu mazkur hududda doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmanalar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – ayrim mamlakatlar xo'jalik iqtisodiy va siyosiy tizimining o'zaro birlashishini bildiruvchi jarayon.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida olingan mamlakatning mahsulot va xizmatlar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashishini bildiradi.

Yillar to'lgandagi yosh – bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lman qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda "Yoshingiz nechada?" degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Yollanib ishlaydiganlar – band aholining eng ko'p sonli guruhi bo'lib, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxona (tashkilot, muassasa) rahbari yoki alohida shaxs bilan pul yoki natura holida haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og'zaki bitim tuzgan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Yosh – bu insонning tug'ilishidan to'uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o'tgan vaqtadir. Yosh yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

Yosh akkumulyatsiyasi – bu aholining ma'lum bir yoshlaridagi sonining qo'shnilariga nisbatan ko'proq yig'ilib qolishidir. Yosh akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta'sir ostida sonli o'zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilliги ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o'rniga yaxlitlangan, yaqin bo'lgan kattaliklarni aytishadi.

Yosh kontingenti – bu umumi yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-ihtisodiy va boshqa alomatlar bo'yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir.

Yosh-jins piramidası – ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda taqsimlangan. bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida

namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0-yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Yuqoridan keksayish – bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'inining ortib borishidir.

2-juftoba

Aholining zinchligi (yil boshiga; 1 kv.km ga to'g'ri keldig'an aholi soni)

	2000-yil	2001-yil	2005-yil	2010-yil	2011-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil
Ma'muriy-hududiy birliklar									
O'zbekiston Respublikasi	54,6	55,3	58	61,3	64,9	69,1	70,3	71,5	72,7
Qoraqalpog'ston Respublikasi	9	9,2	9,4	9,7	10,1	10,6	10,8	10,9	11,1
viloyatlar:									
Andijon	520,5	527,7	557,8	581,4	621,5	664,5	676,9	689	700,4
Buxoro	35,2	35,7	37,4	39,4	41,8	44,3	45	45,7	46,4
Jizzax	46	46,8	49,2	51,8	55	58,9	60,2	61,3	62,5
Qashqadaryo	75,8	77,4	83,2	89,7	95,3	103,6	105,9	108,1	110,2
Navoiy	7,1	7,1	7,3	7,6	7,9	8,2	8,4	8,5	8,6
Namangan	260	263,9	280,2	298	319,8	343,3	349,9	356,5	362,8
Samarqand	158,9	161,3	170,7	182,6	195	209,6	213,7	217,8	221,8
Surxondaryo	86,4	88,1	94,3	101,2	108,2	117,3	120	122,5	125,1
Siriyor	149,3	151,1	156,3	164,3	169,9	181,6	184,7	187,6	190,6
Toshkent	153,6	154,9	160,3	167,4	173,4	180,9	183,2	185,5	187,6
Farg'onha	397,7	402,6	424	447,1	477,7	509,6	518,5	527,3	535,5
Xorazm	212	220,9	234,9	253	264,6	283,6	288,7	293,7	298,3
Toshken sh.	64,2,2	64,59	64,52	6750	6876				

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

3-ilova

O' Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'limishi (2018-yil 1-yanvar holatiga)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Hududi	Tumanlar	Jami shaharlar	Sav respublika buxunuvdayi shaharlar	Shahar rezhalari	Qizbog tugurkari yig'italari	Qizbog aholi punktlari
O'zbekiston Respublikasi	448,97	170	119	31	1071	267	11006
Qoraqalpogiston Respublikasi	166,59	15	12	1	26	141	1128
viloyatlari							
Andijon	43	14	11	2	79	*	455
Buxoro	40,32	11	6	1	69	*	1459
Jizzax	21,21	12	12	2	42	76	519
Qashqadaryo	28,57	13	12	2	117	21	1041
Navoiy	10,99	8	6	2	47	17	585
Namangan	7,44	11	8	1	115	*	391
Samarkand	16,77	14	11	2	88	-	1849
Surxondaryo	20,1	13	8	1	114	-	865
Sirdaryo	4,28	8	5	3	25	11	257
Toshkent	15,25	15	16	7	65	-	878
Farg'onha	6,76	15	9	4	197	-	1021
Xorazm	6,05	10	3	2	56	1	548
Toshkent sh.	6,34	11	1	1	1	-	-

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

4-illova

Hududlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni (2017-yil boshiga; ming kishi)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Umumiy	shu jumladan: shaharlarda	Qishloqlarda
O'zbekiston Respublikasi	32 656,70	16 532,70	16 124,00
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 842,30	905,5	936,8
viloyatlar:			
Andijon	3 011,70	1 576,00	1 435,70
Buxoro	1 870,20	698,6	1 171,60
Jizzax	1 325,00	622,2	702,8
Qashqadaryo	3 148,40	1 357,50	1 790,90
Navoiy	958	467,6	490,4
Namangan	2 699,60	1 743,70	955,9
Samarqand	3 720,10	1 390,80	2 329,30
Surxondaryo	2 514,20	893,3	1 620,90
Sirdaryo	815,9	350	465,9
Toshkent	2 861,20	1 411,50	1 449,70
Farg'ona	3 620,20	2 049,90	1 570,30
Xorazm	1 805,00	601,2	1 203,80
Toshkent sh.	2 464,90	2 464,90	-

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

5-illova

Tuzilgan nikohlar soni (2017-yilda; birlikda)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Umumiy	shu jumladan: shaharlarda	Qishloqlarda
O'zbekiston Respublikasi	306197	138681	167516
Qoraqalpog'iston Respublikasi			
viloyatlar:			
Andijon	28715	13274	15441
Buxoro	16329	6021	10308
Jizzax	13060	5356	7704
Qashqadaryo	31765	12741	19024
Navoiy	8925	3905	5020
Namangan	26336	16259	10077

Samarqand	38308	11164	27144
Surxondaryo	28047	9210	18837
Sirdaryo	7413	2909	4504
Toshkeat	23721	10720	13001
Farg'ona	33923	16827	17096
Xorazm	16397	4912	11485
Toshkent sh.	19149	19149	0

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

6-ilova

O'lganlar soni (2017-yil boshiga; ming kishi)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Umumiy	shu jumladan:	Qishloqlarda
		shaharlarda	
O'zbekiston Respublikasi	160723	87716	73007
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8661	4897	3764
viloyatlari:			
Andijon	16122	8802	7320
Buxoro	8336	4530	3806
Jizzax	5760	3273	2487
Qashqadaryo	13201	7249	5952
Navoiy	4472	2483	1989
Namangan	13066	7007	6059
Samarqand	16661	9170	7491
Surxondaryo	11330	6270	5060
Sirdaryo	4032	2235	1797
Toshkent	16470	9112	7358
Farg'ona	17927	9627	8300
Xorazm	8324	4471	3853
Toshkent sh.	16361	8590	7771

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

7-ilova

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, (2017-yil boshiga; ming kishi)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Umumiy	shu jumladan:	Erkaklar
		ayollar	
O'zbekiston Respublikasi	73,7	76,1	71,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi	72,7	75,3	70,1
viloyatlar:			
Andijon	72,1	74,2	70,1
Buxoro	75,5	77,4	73,6
Jizzax	75,7	80,3	71,9
Qashqdaryo	74,2	76,3	72,3
Navoiy	74,1	76,1	72,2
Namangan	73,1	74,7	71,7
Samarqand	74,0	76,3	71,8
Surxondaryo	73,2	75,3	71,3
Sirdaryo	70,6	72,6	68,5
Toshkent	73,3	76,4	70,3
Farg'on'a	74,3	76,2	72,4
Xorazm	72,9	74,9	70,9
Toshkent sh.	74,5	78,1	70,5

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

8-ilova

Ko'chib kelganlar soni (yilda; kishi)

Ma'muriy-hududiy birliklar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
O'zbekiston Respublikasi	145880	147398	139775	139280	141548	157149
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12927	14709	14275	10850	9866	10746
viloyatlar:						
Andijon	6113	4475	5737	6452	5854	6332
Buxoro	6126	4390	4244	6497	5994	6783
Jizzax	6231	7049	7950	8323	7938	9339
Qashqdaryo	11750	9086	10077	11598	10194	11091
Navoiy	11247	12807	11442	11752	12104	13047
Namangan	4258	2918	4393	4628	4619	4226
Samarqand	9891	9679	12332	10709	10273	10326
Surxondaryo	11122	11432	11600	11748	12925	14456
Sirdaryo	7789	6613	6708	6804	5799	7651
Toshkent	23639	25777	15467	18575	19689	18755
Farg'on'a	12804	13309	12747	12241	12135	13196
Xorazm	7182	6323	7239	6542	6175	6639
Toshkent sh.	14801	18831	15564	12561	17983	24562

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

9-jlova
Ko'chib ketganlar soni (yilda; kishi)

Ma'muriy-hududiy birliklar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
O'zbekiston Respublikasi	212472	246386	183858	168579	167796	175748
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16846	34106	26971	16181	14449	15009
viloyatlar:						
Andijon	8193	6854	6296	7947	7525	8360
Buxoro	9642	8888	6929	8069	7967	9037
Jizzax	9296	18911	11174	8912	9199	10530
Qashqadaryo	14098	9838	10894	11489	12109	15015
Navoiy	14497	21435	13719	13235	13659	13887
Namangan	6203	4916	5099	5192	5548	5368
Samarqand	17219	19090	15371	14266	14696	15272
Surxondaryo	14034	14041	12742	13027	14388	16134
Sirdaryo	10879	12267	8758	7314	6974	8417
Toshkent	32143	37131	27547	25189	25425	25132
Farg'on'a	18532	16798	14052	13673	14114	15293
Xorazm	8565	9981	8315	6975	7368	7730
Toshkent sh.	32325	32130	15991	17110	14375	10654

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

AHOLI GEOGRAFIYASIGA OID NAZORAT TEST SAVOLLARI

1-variant

1. O'rtacha yillik aholi soni qanday aniqlanadi?

A) Kalendor yilining boshidagi va keyingi kalendor yilining boshidagi aholi soni qo'shilib, ikkiga bo'linadi.

V) ma'lum kalendor yilining boshidagi aholi soni

S) ma'lum kalendor yilining o'rjasidagi aholi soni

D) ma'lum kalendor yilining boshidagi va o'rjasidagi soni

E) barcha javoblar to'g'ri

2. Aholining jinsiy tarkibi:

A) ma'lum hudud aholisining yosh guruhlarga bo'linishi

V) aholi tarkibida erkaklar salmog'i

S) aholi tarkibidagi oilalar soni

D) ma'lum hudud aholisining erkaklar va ayollarga bo'linishi

E) aholi tarkibida ayollar salmog'i.

3. Aholi geografiyasi nimani o'rganadi ?

A) Aholining hududiy joylashishini

V) Aholining miqdoriy ko'rsatkichlarini

S) Aholining takror barpo bo'lishi xususiyatlarini.

D) Aholining demografik va ijtimoiy tarkibini.

E) Barchasini.

4. Aholi geografiyasi Rossiyada geografiya fanlarining mustaqil tarmog'i sifatida qachondan ajralib chiqa boshlagan?

A) 1930-yillarda

V) 1940-yillarda

S) 1950-yillarda

D) 1960-yillarda

E) 1970-yillarda

5. Jahonda dastlabki rasmiy aholi ro'yxati qaysi mamlakatlarda va qachon o'tkazilgan?

A) Xitoyda, 1457-yilda

V) Hindistonda, 1637-yilda

S) AQSHda, 1790-yilda

D) Shvetsiyada, 1800-yilda

E) Rossiyada, 1897-yilda

6. O'zbekistonda qachon dastlabki to'liq aholi ro'yxati o'tkazilgan

- A) 1897-yilda
- V) 1920-yilda
- S) 1922-yilda
- D) 1926-yilda
- E) 1939-yilda

7. Aholining takror barpo bo'lishida qanday omillar qatnashadi?

- A) Demografik
- V) Iqtisodiy
- S) Ijtimoiy
- D) Tabiiy-biologik
- E) Hammasi

8. Quyidagi dinlar qatoridan milliy dinni aniqlang?

- A) Xristian dini
- V) Islom dini
- S) Konfutsianizm dini
- D) Toteizm
- E) Fetishizm

9. Aholi migratsiyasining eng asosiy omilini aniqlang?

- A) Iqtisodiy-ijtimoiy
- V) Siyosiy
- S) Diniy
- D) Ekologik
- E) Dam olish – turizm

9. Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisi yiliga o'rtacha qanchaga ko'paymoqda?

- A) 500-600 ming kishiga
- V) 450-500 ming kishiga
- S) 250-300 ming kishiga
- D) 100-200 ming kishiga
- E) 1-1.2 mln. kishiga

10. Quyidagi tashkilotlardan qaysi biri Aholishunoslik bilan shug'ullanadi?

- A) MAGATE
- V) NATO
- S) UNFPA

D) UNESCO

E) NASA

savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
javoblar															

F.I.O. _____ imzo _____

To‘g‘ri javoblar: _____ noto‘g‘ri javoblar: _____ ball: _____

2-variant

1. O‘zbekistonda aholining o‘rtacha zichligi 1km² maydonga qancha kishini tashkil etadi?

- A) 50-52 kishidan
- V) 53-55 kishidan
- S) 56-58 kishidan
- D) 59-60 kishidan
- E) 60 va undan ortiq

2. Aholining o‘rtacha zichligi eng past bo‘lgan davlatlarni aniqlang?

- A) AQSH, Avstriya, Argentina
- V) Misr, Urugvay, Pokiston
- S) Avstraliya, Rossiya, Kanada
- D) Mug‘iliston, Qozog‘iston, Turkmaniston
- E) Braziliya, Eron, Nigeriya

3. O‘zbekistonda aholisi zichligi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarni aniqlang?

- A) Toshkent vohasi
- V) Farg‘ona vodiysi
- S) Quyi Amudaryo hudulari
- D) Qashqadaryo vohasi
- E) Surxondaryo vohasi

4. O‘zbekistonda aholi eng siyrak bo‘lgan viloyatlar guruhlarini aniqlang?

- A) Toshkent viloyati
- V) Farg‘ona vodiysi viloyatlari
- S) Zarafshon bo‘yi viloyatlar
- D) Janubiy O‘zbekiston viloyatlari

E) Quyi Amudaryo mintaqasi

5. O'zbekistonning urbanizatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan viloyatlarini aniqlang?

A) Andijon, Toshkent

V) Toshkent, Navoiy

S) Navoiy Xorazm

D) Xorazm, Jizzax

E) Jizzax, Buxoro

6. O'zbekistonning urbanizatsiya darajasi eng past bo'lgan viloyatlarni aniqlang?

A) Andijon, Namangan, Farg'ona

V) Namangan, Farg'ona, Toshkent

S) Farg'ona Toshkent, Jizzax

D) Toshkent, Jizzax, Surg'on daryo

E) Jizzax, Surxondaryo, Toshkent

7. O'zbekistonning eng qadimiy shaharlarini aniqlang?

A) Toshkent, Samarqand, Shahrisabz

V) Samarqand, Shahrizabz, Buxoro

S) Shahrizabz, Buxora, Xiva

D) Buxoro, Xiva, Quvasoy

E) Xiva, Quvasoy, Termiz

8. Aholisining qaysi qismi qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatsa, shahar maqomi beriladi?

A) 50 % dan yuqori bo'lsa

V) 60-65 %

S) 65-70 %

D) 70-75 %

E) 75-80 %

9. O'zbekistonning qaysi viloyatida aholining soni 100 mingdan ortiq bo'lgan shaharlar soni eng ko'p?

A) Andijon

V) Namangan

S) Samarqand

D) Toshkent

E) Xorazm

10. O'zbekistonning qaysi viloyatlarida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichi eng yuqori?

A) Xorazm, Toshkent

- V) Buxoro, Samarcand
- S) Qashqadaryo, Surxondaryo
- D) Navoiy, Xorazm
- E) Namangan, Andijon

11. "Demografik portlash" jarayoni qaysi yillarga xos?

- A) 1950-1960
- V) 1960-1970
- S) 1970- 1980
- D) 1980-1990
- E) 1955-1990

12. Demografik o'sishning qaysi bosqichida o'lim eng kulminatsion nuqtaga etadi?

- A) 1
- V) 2
- S) 3
- D) 4
- E) 5

13. O'zbekistonda ajralishning umumiy koeffitsenti necha promilleni (2017) tashkil etadi?

- A) 0,7
- V) 2,0
- S) 3,5
- D) 0,1
- E) 0,01

14. O'zbekistonning ekologik vaziyati eng murakkab bo'lgan shaharlarini aniqlang?

- A) Toshkent, Olmaliq, Navoiy
- V) Olmaliq, Navoiy, Farg'ona
- S) Navoiy, Farg'ona, Namangan
- D) Farg'ona, Namangan, Qarshi
- E) Namagan, Qarshi, Urganch

15. Demografik o'tishning birinchi bosqichi rivojlangan mamlakatlarda qachon kuzatildi.

- A) XX asrda
- V) XX asrning ikkinchi yarmida
- S) XX asr o'rtalarida
- D) XX asr boshida

savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
javoblar															

F.I.O.

imzo

To'g'ri javoblar: _____ noto'g'ri javoblar: _____ ball: _____

3 –variant**1. XX asr 20-yillarida oilaning ilmiy ta'risi.**

- A) Oila er-xotin va ularning farzandlaridan tashkil topgan guruh
 V) Oila jamiyatning kichik bo'lagi
 S) Oila, jamiyat mahsuli
 D) Oila insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarda asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik hislari orqali bog'lanagan ijtimoiy guruhidir

E) Yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

2. Aholining turli maqsadoarda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi:

- A) immigratsiya
 V) emmigratsiya
 S) migrantsiya saldosi
 D) migrantsiya
 E) urbanizatsiya

3. Hozirgi kunda tashqi migrantsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omil

- A) iqtisodiy
 V) etnik
 S) siyosiy
 D) V va S
 E) barchasi to'g'ri

4. Migrantsiyada ishtirok etayotganlar

- A) immigrantlar
 V) emmigrantlar
 S) qochoqlar
 D) ko'chib yuruvchilar
 E) migrantlar

5. "Migrantsiya" so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- A) o'qish
 V) ishlash

S) ko'chish

D) yashash

E) mehnat qilish

6. Bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga aholining ko'chishi...

A) ichki migratsiya

V) tashqi migratsiya

S) immigratsiya

D) cmmigratsiya

E) mehnat migratsiyasi

7. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib bir yildan ortiqroq yashab qolishi...

A) vaqtinchalik migratsiya

V) tashqi migratsiya

S) ichki migratsiya

D) doimiy migratsiya

E) tebranma migratsiya

8. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ma'lum muddat yashab qaytishi...

A) doimiy migratsiya

V) reemigratsiya

S) tashqi migratsiya

D) ichki migratsiya

E) tebranma migratsiya

9. Bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishi...

A) vaqtinchalik migratsiya

V) doimiy migratsiya

S) tashqi migratsiya

D) ichki migratsiya

E) tebranma migratsiya

10. "Immigratsiya".....

A) aholining ko'chib ketishi

V) aholining ko'chib kelishi

S) aholining tabiiy o'sishi

D) aholining tabiiy harakati

E) aholining mexanik harakati

11. "Emmigratsiya".....

- A) ko'chib kelganlar
 V) ko'chib ketganlar
 S) ko'chib kelish
 D) ko'chib ketish
 E) qayta ko'chib ketish

12. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni.... egallaydi.

- A) etnik migratsiya
 V) diniy migratsiya
 S) mehnat migratsiyasi
 D) siyosiy migratsiya
 E) ekologik migratsiya

13. Migratsyaning oqimi yo'nalgan hududlarda:

- A) tug'ilish ko'payadi
 V) nikoh ko'payadi
 S) ajralish ko'payadi
 D) tug'ilish kamayadi
 E) aholi soni ko'payadi

**14. Mamlakatda, hududda va jahonda shaharlarning o'sishi
 va shahar aholisi salmog'ining oshishiga murakkab shaharlar
 tizimlari paydo bo'lishi:**

- A) Konurbanizatsiya
 V) Suburbanizatsiya
 S) Megapolis
 D) Aglomeratsiya
 E) Urbanizatsiya

**15. Agar davlatning aholisi 25 mln. kishi, maydoni 5mln km
 bo'lsa aholining zichligi qanday bo'ladi?**

- A) 1 kishi
 V) 2 kishi
 S) 3 kishi
 D) 4 kishi
 E) 5 kishi

savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
javoblar															

F.I.O. _____ imzo _____

To'g'ri javoblar: _____ noto'g'ri javoblar: _____ ball: _____

4-variant

- 1. O‘zbekiston aholisi necha foizi shaharlarda istiqomat qiladi (2017-yil)?**
- A) 52
V) 38
S) 60
D) 20
E) 30
- 2. Respublikamizda dastlabki demografik bashoratlar kimning rahbarligida ishlab chiqilgan?**
- A) R. N. Ubaydullayeva
V) I. R. Mullajonov
S) M. K. Qoraxonov
D) N. S. Ali-Qoriyev
E) M. R. Bo‘riyeva
- 3. O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning (16-29 yoshlar) salmog‘i qancha?**
- A) 30 %
V) 10 %
S) 15 %
D) 40 %
E) 50 %
- 4. O‘zbekistonda aholisi tarkibida qariyalar (54 yoshdan katta ayollar, 60 yoshdan katta erkaklar) salmog‘i qancha?**
- A) 7 %
V) 10 %
S) 15 %
D) 5 %
E) 20 %
- 5. O‘zbekistondagi aholi zichligi eng yuqori bo‘lgan viloyat?**
- A) Farg‘ona
V) Namangan
S) Xorazm
D) Andijon
E) Toshkent
- 6. O‘zbekistonda aholi o‘limining umumiy koefitsienti necha promilleni (2017) tashkil etadi?**
- A) 5,1

- V) 8,5
- S) 12,3
- D) 4,1
- E) 9,6

7. O'zbekistonda etnik tarkibi murakkab bo'lgan viloyatlar qaysilar?

- A) Andijon, Navoiy, Surxondaryo.
- V) Toshkent, Navoiy, Toshkent shahri.
- S) Farg'ona, Qashqadaryo, Navoiy.
- D) Sirdaryo, Xorazm, Buxoro.
- E) Toshkent, Jizzax, Sirdaryo.

8. O'zbekiston aholisining aksariyat qismi qaysi dinga e'tiqod qiladi?

- A) Xristian diniga
- V) Islom diniga
- S) Konfutsianizm diniga
- D) Totemizm diniga
- E) Fetishizm diniga

9. Keyingi yuz yil ichida O'zbekiston aholisi necha barobar o'sgan?

- A) 2 barobar
- V) 3 barobar
- S) 4 barobar
- D) 5 barobar
- E) 10 barobar

10. O'zbekistonda shahar aholisi necha foizni tashkil etadi?

- A) 38
- V) 40
- S) 56
- D) 60
- E) 44

11. O'zbekistonda ayollarning o'rtacha umr ko'rish yoshi necha yoshni tashkil etadi?

- A) 75
- V) 80
- S) 60
- D) 65

E) 72

12. O'zbekistonda erkaklarning o'rtacha umr ko'rish yoshi necha yoshni tashkil etadi?

A) 65

V) 73

S) 62

D) 68

E) 75

13. O'zbekistondagi shaharlar soni qancha (2017 y)?

A) 119

V) 140

S) 170

D) 200

E) 96

14. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi zichli (1km^2 ga) qancha tashkil etadi?

A) 9

V) 12

S) 15

D) 18

E) 24

15. Navoiy viloyatida aholi zichligi (1km^2 ga) qanchani tashkil etadi?

A) 24

V) 7

S) 15

D) 5

E) 19

savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
javoblar															

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрг тарақкиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килинганинг 24 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.

2. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барто этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишиланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ, – Тошкент, 2016. 56-б.

3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳтиз, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундаклик қонидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишиланган Вазирлар Махкамасининг кенгайтирили анмажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.

4. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимишни мард ва олижапоб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябряга қадар Коракалпогистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутклари ўрин олган. – Тошкент. Ўзбекистон. 2017. 488-б.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 13 март 2009 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси ахоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” № 68-сон карори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари ўчиами, 2009 й., 12-сон. 130-модда.

6. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон

Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

7. Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси”ни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси конуни. 1998 йил 30 апрель, № 607-1.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 13 марта 2009 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллашитиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” № 68-сон карори. Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2009 й., 12-сон, 130-модда.

9. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” –2013. 212 bet.

10. Абдурахманов К.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 б.

11. Dudley L. Poston, Jr. Demography.- С Dudley L. Poston, Jr. Demography.- Cambridge Univyersty Press, 2010-442 р.

12. Алисов Н. В., Хореев Б. С. Экономическая и социальная география мира (общий обзор). –М., 2001.

13. Анохин А.А.. Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.

14. Асанов Г, Набиҳанов М, Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўрофияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 209 б.

15. Ата-Мирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р, Салиев А. Историко-демографическое очерки урбанизации Узбекистана. – Т., 2002. – 125 б.

16. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.. 2009. – 223 с.

17. Ахмедов Э. Ўзбекистон шахарлари мустакиллик йилларида. – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002.

18. Ахмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. – Кисқача маълумотнома. – Т.: “Ўзбекистон”, 2006.

19. Борисов В. А. Демография. – М.:Издательский дом НОТАБЕНЕ, 1999, 2001. – 272 с.

20. Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т.: Университет, 1997. -157 б.
21. Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т.: Университет, 1997. -157 б.
22. Бўриева М.Р. Демография асослари.- Тошкент, 2001.
23. Бўриева М.Р., Тожиева . З.Н., Зокиров С.С. Ахоли географияси ва Демография асослари. - Тошкент., “Тафаккур”, 2011. – 160 бет.
24. Бўриева М.Р., Эгамова Д.Н. Дунё ахолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўкув кўлланма). – Т.: Фан, 2008. – 156 б.
25. Бутов В. И. Экономическая и социальная география зарубежного мира и Российской Федерации: Учебное пособие. – Москва: ИКЦ «МарТ», Ростов н/Д: Издательский центр еМарТ», 2003. – 192 с.
26. Бутов В.И. Демография: Учебное пособие. Под.ред.В.Г.Игнатова. Второе изд., перераб и доп. – М.:ИКЦ. Март; Ростов н/д: Издательский центр “Март”, 2005. – 576 с.
27. Валентей Д.И. Основы теории народонаселения: Учебное пособие для экон. спец. вузов/ Д.И. Валентей, В.И. Козлов, Н.В. Панкратьева и др. – М.: Высшая школа, 1986. – 376 с.
28. Валентей Д.И., Кваша А.Я. Основы демографии. – М.: Мысль, 1989. – 286 с.
29. Гендерное равенство в Узбекистане: Факты и цифры 2000-2004. Статистический сборник. – Т., 2005. – 90 с.
30. Гендерные проблемы и развитие. – М: Издательство «Весь мир», 2005. - 408 с.
31. Глущенко Г.И. Миграция и развитие: Мировые тенденции // Вопросы статистики, 2/2008. – М., 2008. – С. 65 – 79.
31. Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Мустакил Ўзбекистон. – Т.: Мехнат, 2001. – 248 б.
32. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с.
33. Демографический ежегодник Узбекистана 1991-2003 годы. Статистический сборник. – Ташкент., 2004. – 300 с.
34. Демографический ежегодник. 1990: Госкомстат. – М.: «Финансы и статистика», 1990. – 639 с.

35. Демографическое развитие: вызовы глобализации. Седьмые Валентеевские чтения. Материалы международной конференции. – Москва., Макс – Пресс , 2012. – 695 с.

Детерминация демографических процессов: сборник статей / Под ред. Зверевой Н.В. и Архангельского В.Н.: Экономический факультет МГУ имени М.В. Ломоносова. – М.: МАКС Пресс, 2012. – 384 с.

36. Доклад о развитие человека 2010, 20-е юбилейное издание. Реальное богатство народов: пути к развитию человека, ПРООН. – Москва.: Вес Мир, 2010.

37. Доклад о человеческом развитии Узбекистана – 2003 г. - Ташкент.: Узбекистон, 2004.

38. Кильдишев Г.С., Козлова Л.Л., Ананьева С.П. Статистика населения с основами демографии: Учебник/ Г.С.Кильдишев, Л.Л. Козлова, С.П. Ананьева и др. – М.: "Финансы и статистика", 1990. – 312 с.: ил.

39. Клупт М.А. Демография регионов Земли. – СПб.: Питер, 2008. – 347 с.: ил.

40. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с. Либанова Э.М. Продолжительность жизни населения: (Опыт комплексного регионального исследования). – Киев.: Наукова Думка, 1991. – 200 с.

41. Максаковский В. П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. В двух частях. Часть.: - Гуманитар. Изд. Центр ВЛАДОС, 2009. – 367 с.

42. Медков В.М. Демография. Учебник. - М., 2003. 2004.

43. Международная миграция населения на постсоветском пространстве в эпоху глобализации / Гл.ред.серии В.А. Ионцев. – М.: Издательство Московского университета, 2012. – 88 с.

44. Моисеенко В.М. Внутренняя миграция населения. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. – 285 с.

45. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. Ўкув қўлланма. – Тошкент., 2003.

46. Народонаселение / Ежеквартальный научный журнал, 1 - 2006. – Москва, 2006. – 144 с.

47. Народонаселение мира в 2004 г. UNFPA – New York. 2004. – 139 с.

48. Народонаселение мира в 2005 г. UNFPA – New York. 2005. – 139 с.
49. Народонаселение мира в 2009 г. Перед лицом меняющегося мира: женщины, народонаселение и климат. UNFPA – New York. 2009. – 106 с.
50. Народонаселение мира в 2010 г. От конфликта и кризиса к возрождению: поколения перемен. UNFPA – New York. 2010. – 116 с.
51. Народонаселение мира в 2012 г. Дело выбора, а не случая. Планирование семьи, права человека и развитие. Анализ данных и тенденций для понимания проблем. UNFPA – New York. 2012. – С.17.
52. Население Узбекистана 1991-2001. Статистический сборник. – Т., 2002. – 256 с. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., Абдуллаев А.Г. Аҳоли географияси ва Демография асослари. – Т.: “Фан ва технология”, 2011. – 160 б.
53. Население Узбекистана 2012. Статистический сборник. – Т., 2012. – 118 с.
54. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник. – Т.: Узбекистан, 2011. 229 с.
55. Основы демографии: Учебно-методические материалы по курсу/ Под ред. Ионцева В.А., Ананьевой Г.Е. – М.: МАКС Пресс, 2010. – 116 с.
56. Перцик Е. Н. География городов (геоурбанистика): Учебное пособие для геогр. спец. вузов. – Высш. шк., 1991. – 319 с.
57. Пирожков С.И. Внешние трудовые миграции в Украине: Социально – экономический аспект. – Киев, 2003. – 133 с.
58. Расселение населения. Памяти Б.С.Хорева (1932-2003 гг.). Сборник статей/ Под ред. И.А.Даниловой, Н.Г. Джанаевой и Р.В. Дмитриева. – М.: 2012. – 328с.
59. Рыбаковский Л.Л. Программа действий по улучшению демографической ситуации. – М.: МАКС Пресс, 2006. – 151 с.
60. Садовская Е.Ю. Миграция В Казахстане на рубеже ХХI века: основные тенденции и перспективы/Е.Ю. Садовская. – Алма-Ата: Галым, 2001. – 259 с.

61. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства / Под общ. ред. В.Г. Глушковой. – М.: КНОРУС, 2005. – 384 с.
62. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2004. – 244 с.
63. Слuka А.Е. Слuka Н.А. География населения с основами демографии: Учебно-методическое пособие для ВУЗов. – М., 2001.
64. Солиев А.С., Бўриева М.Р ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т., 2005. - 140 б.
65. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002. - 160 б.
66. Тожиева З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000. - 58 б.
67. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 б.
68. Убайдуллаева Р, Ата-Мирзаев О, Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – Т., 2006. – 95 б.
69. Хомра А.У. Воспроизведение населения (территориально- организационный аспект). – Киев: Наука думка, 1990. – 172 с.
70. Шахотъко Л.П., Привалова Н.Н. Демографическая безопасность: сущность, задачи, система показателей и механизм реализации // Вопросы статистики. – М., 2001. - №7. – С.16 – 21.
71. Щербаков А.И. Основы демографии и государственной политики народонаселения. – М.: Академический проект, 2005. – 206 с.
72. Щербаков А.И. Основы демографии и государственной политики народонаселения. – М.: Академический проект, 2005. – 206 с.
73. Экономическая география / В.П. Желтиков, Н.Г. Кузнецов, С.Г. Тяглов. Серия «Учебники и учебные пособия». Ростов н/Д: Феникс, 2001. – 384 с.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://www.demoscope.ru>.
2. <http://www.dmo.econ.msu.ru>.

3. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
4. <http://stat.uz>.
5. <http://ziyo.net>
6. www.un.org – Бирлашган Миллатлар Ташкилоти сайти.
7. www.cia.gov – АҚШ марказий қидириүв бошқармасы сайти.
8. [http:// Unpopulation.org](http://Unpopulation.org).
9. [http:// Population Reference Bureau. 2009-2018. World Population Data Sheet](http://Population Reference Bureau. 2009-2018. World Population Data Sheet).
10. [http:// www.religare.ru](http://www.religare.ru).
11. [http:// www.unfpa.uz](http://www.unfpa.uz).

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
I. AHOLI GEOGRAFIYASIGA KIRISH.....	4
1.1. Aholi geografiyasifaniningobbyekti, predmeti, maqsadiva vazifalari.....	4
1.2. Aholi geografiyasining shakllanish bosqichlari.....	11
1.3. Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.....	16
1.4. Aholi geografiyasining asosiy bo'limlari va tadqiqot metodlari....	20
II. AHOLI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR MANBALARI.	
AHOLI RO'YXATI.....	24
2.1. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari.....	25
2.2. Aholinling joriy statistik hisobi.....	27
2.3. Aholi ro'yxati: talablar, vazifalar, tamoyillar.....	31
III. DUNYO AHOLISI SONI VA UNING DINAMIKASI.....	37
3.1. Aholi soni dinamikasining ijtimoiy-geografik xususiyatlari.....	37
3.2. Aholi soni dinamikasining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari.....	41
3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar.....	44
VI. AHOLI TABIIY HARAKATI VA UNING DUNYO MIQYOSIDA GEOGRAFIK TAFOVUTLARI.....	57
4.1. Dunyo aholisi tabiiy harakati va uning geografik xususiyatlari.....	57
4.2. Tug'ilish jarayonining mintaqaviy jihatlari.....	61
4.3. Aholi o'limi, sabablar, omillar va geografik qonuniyatlar.....	80
4.4. Aholi o'limi va hayot davomiyligi.....	88
V. DUNYO AHOLISI TAKROR BARPO BO'LISHI. AHOLI TAKROR BARPO BO'LISHINING TURLARI DEMOGRAFIK O'TISH.....	106
5.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati, ma'zmuni va unga ta'sir etuvchi omillar.....	106
5.2. Aholi takror barpo bo'lishining turlari va o'tish bosqichlari.....	110
5.3. Dunyo aholisi takror barpo bo'lishining geografik xususiyatlari....	112

VI.	DUNYO AHOLISINING YOSH-JINSIY TARKIBI DEMOGRAFIK QARISH.....	114
6.1.	Aholining yosh tarkibi va yosh kontingentlar.....	115
6.2.	Aholining jinsiy tarkibi va uning shakllanishidagi omillari.....	122
6.3.	Aholining qarishi va uning demografik mezonlari.....	126
VII.	DUNYO AHOLISINING IRQIY TARKIBI.....	135
7.1.	Dunyo aholisi irqiy tarkibining turlari va xususiyatlari.....	135
7.2.	Irqlar geografiyasi.....	139
VIII.	DUNYO AHOLISINING ETNIKTARKIBI.....	145
8.1.	"Etnos" haqida tushuncha va uning belgilari.....	146
8.2.	Yer sharidagi asosiy etnoslarning joyylanish geografiyasi.....	151
8.3.	Dunyo til oilalari geografiyasi.....	154
8.4.	L.N.Gumilyovning etnoslar hayoti haqidagi gipotezalarietnogeneze.....	158
IX.	DINLAR GEOGRAFIYASI.....	160
9.1.	Dunyo, mahalliy va urug' qabila dinlarining mohiyati va geografiyasi.....	160
9.2.	Dunyo dirlari geografiyasi.....	168
X.	AHOLINING IJTIMOIY TARKIBI AHOLI BANDLIGI VA MEHNAT RESURSLARI.....	172
10.1.	Ijtimoitarkibvajitmoiyyatstratififikasiya.....	172
10.2.	Mehnat resurslari – aholi tarkibi sifatida.....	177
10.3.	Mehnat resurslari balansi va uni hisoblash yo'llari.....	181
10.4.	Yer shari aholisi bandligi va mehnat resurslari taqsimlanishi.....	185
XL.	AHOLINING MEXANIK HARAKATI. MIGRATSİYA GEOGRAFIYASI.....	189
11.1.	Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondashuvlar va uning mohiyati, omillari.....	189
11.2.	Aholi migratsiyasining turlari va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	193
11.3.	Xalqaro migratsiya jarayoni va undagi o'zgarishlar.....	199

XII.	DUNYO AHOLISI VA AHOLI MANZILGOHLARI JOYLASHISHI.....	204
12.1.	Dunyo aholisi va aholi manzilgohlari joylashishining geografik qonuniyatları.....	204
XIII.	SHAHAR AHOLISIGEOGRAFIYASI VA URBANIZATSIYA JARAYONI.....	217
13.1.	Shahar aholisi va uning geografik xususiyatlari.....	217
13.2.	Shahar aholi manzilgohlariva ularning geografiyasi.....	224
13.3.	Aglomeratsiyalar va megalopolislar.....	226
XIV.	QISHLOQ AHOLISI VA QISHLOQ AHOLI MANZILGOHLARI GEOGRAFIYASI.....	231
14.1.	Qishloq aholi manzilgohlari joylashishi va ixtisoslashishi.....	231
14.2.	Qishloq aholi manzilgohlarini o'chami bo'yicha tavsiflash.....	235
XV.	O'ZBEKISTON AHOLISI GEOGRAFIYASI.....	239
15.1.	O'zbekiston Respublikasiaholi soni dinamikasi va joylashishi.....	239
15.2.	Aholining demografik, yosh-jinsiy tarkibi.....	243
15.3.	Respublika aholisining demografik vaziyati.....	246
15.4.	Mehnat resurslari va aholi bandligi.....	254
	GLOSSARIY.....	260
	TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALARI.....	288

Tojiyeva Zulkumor Nazarovna

AHOLI GEOGRAFIYASI

Darslik

Toshkent - "Innovatsiya-Ziya" - 2020

Muharrir Xolsaidov F.B.

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 30.10.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" garniturasini
Ofset bosma usulida bosildi*

*Sharqli bosma tabog'i 11. Nashr bosma tabog'i 10,5.
Adadi 100 nusxa.*

ISBN 978-9943-6790-9-2

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6790-9-2.

9 789943 679092